



OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TEKNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI**

**UZLUKSIZ TA'LIMDA TEKNOLOGIYA
FANI UZVIYLIGINI TA'MINLASH
VA O'QITISHDA
INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM
TEKNOLOGIYALARI: MUAMMO VA
YECHIMLAR**

**RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY
ANJUMANI**

MATERIALLARI



2023-yil, 19-dekabr



OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI**

**UZLUKSIZ TA'LIMDA TEXNOLOGIYA FANI UZVIYLIGINI
TA'MINLASH VA O'QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

Respublika ilmiy-nazariy anjumani

MATERIALLARI

2023-yil, 19-dekabr

BUXORO-2023

“Uzluksiz ta’limda texnologiya fani uzviyligini ta’minlash va o’qitishda integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman dasturiy qo‘mita tarkibi.

1. B.B.Ma‘murov – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
2. Sh.N.Murodov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
3. E.M.Muxtorov – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
4. M.Y.Ergashev – O‘quv uslubiy bo‘lim boshlig‘i, a‘zo;
5. R.A.Qo‘ldoshev – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
6. Sh.M.Muxamedov – Magistratura bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
7. A.R.Jo‘rayev – Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani, a‘zo;
8. Sh.A.Raximov – “Texnologik ta’lim” kafedrasini mudiri v.b., a‘zo;
9. Y.Y.Jamilov – “Texnologik ta’lim” kafedrasini dotsenti, a‘zo;
10. D.A.Sayfullayeva – “Texnologik ta’lim” kafedrasini dotsenti, a‘zo;
11. N.M.Hamdamova – “Texnologik ta’lim” kafedrasini dotsenti, a‘zo;
12. Sh.I.Bahronova – “Texnologik ta’lim” kafedrasini o‘qituvchisi, kotiba;

Mas’ul muharrir:

- A.R.Jo‘rayev – p.f.f.d. (PhD), professor.
Y.Y.Jamilov – p.f.f.d. (PhD), dotsent.

Taqrizchilar:

- H.O.Jo‘rayev – p.f.d. (DSc), professor.
L.R.Zaripov – p.f.f.d. (PhD), dotsent.
Sh.M.Muxamedov – p.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay’ati:

- Sh.A.Raximov – f.-m.f.n., dotsent.
D.A.Sayfullayeva – p.f.f.d. (PhD), dotsent.
N.M.Hamdamova – p.f.f.d. (PhD), dotsent.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning ilmiy saviyasi mazmuni va ularning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir.

Buxoro davlat pedagogika instituti, 2023-yil.

KIRISH SO‘ZI

p.f.d. (DSc), professor Ma‘murov Bahodir Baxshulloyevich

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli hamda 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmonlari, 2021-yil 1-apreldagi “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5047-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori, 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni oliy ta‘lim tizimini tubdan isloh qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta‘limning uzluksizligi va izchilligi asosiy tamoyillardan biri sifatida belgilab berilgan. Ta‘lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta‘lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatga ega bo‘lishi bevosita ta‘lim mazmuniga borib taqaladi. Shu asosda uzluksiz ta‘limda ta‘lim mazmuni muhim ahamiyat kasb etishini takidlash mumkin.

Shu nuqtai nazardan bugungi **“Uzluksiz ta‘limda texnologiya fani uzviyligini ta‘minlash va o‘qitishda integratsiyalashgan ta‘lim texnologiyalari: muammo va yechimlar”** nomli Respublika ilmiy-nazariy anjumani mavzusi dolzarb ahamiyatga ega.

Binobarin, anjumanda muhokama qilinadigan masalalar bugungi kunda uchinchi Renessans poydevorini yaratish, malakali kadrlar tayyorlash hamda uzluksiz ta‘limda texnologiya fani uzviyligini ta‘minlash va o‘qitishda integratsiyalashgan ta‘lim texnologiyalari imkoniyatlari va istiqbollari muhokama qilish asosida uni isloh qilish yo‘nalishlarini belgilash, xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlarning reytingida birinchi 1000 o‘rindan joy egallash, xalqaro tajribadan kelib chiqib, uzluksiz ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish hamda texnologiya fani uzviyligini ta‘minlash asosida mazmunan optimallashtirish va fanlararo integratsiyalash asosida talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash, uzluksiz ta‘lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, professional ta‘lim tizimini rivojlantirish, fan - ta‘lim - ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi muammo va ustuvor masalalarni tahlil qilish hamda ularning echimi yuzasidan fikr almashish ushbu anjumanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Anjumanni uzluksiz ta'limda texnologiya fani uzviyligini ta'minlashda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, boshqaruvda yangi tamoyillarning joriy etilishi, ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish, o'qitishning tashkiliy shakllarini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimida tatbiq etish, ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish, tahlil qilish hamda ularning echimi yuzasidan fikr almashadigan muloqot markaziga aylantirish va bu borada professor o'qituvchilar tashabbuskorligini oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

Bu borada anjumanda ishtirok etayotgan barcha ma'ruzachilarga, chiqish qiladigan professor-o'qituvchilar, amaliyotchi-mutaxassislar va ilmiy izlanuvchilarga muvaffaqiyat tilagan holda anjumanni ochiq deb, e'lon qilaman. E'tiborlaringiz uchun rahmat!

UZLUKSIZ TA'LIM UZVIYLLIGINI TA'MINLASH TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

f.-m.f.f.d. (PhD), dotsent, Sh.N.Murodov

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalar bo'lib hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish, ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash, pedagogik shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining innovatsion kasbiy-pedagogik kompetentligi shakllantirish ta'lim taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan me'yoriy hujjatlar, keng ijtimoiy-iqtisodiy yetuk va kasbiy mahorat jihatidan malakali o'qituvchilarni tayyorlashni ko'zda tutadi.

Anjumanning maqsadi texnologik va professional ta'limni modernizatsiyalash, sohada mavjud muammolar va ularning yechimlari, umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalarida texnologiya fanini o'qitish sifati hamda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning dolzarb masalalariga alohida e'tibor qaratish, fan va ishlab chiqarish uzviyligini ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda texnologik va professional ta'limni modernizatsiyalash, zamonaviy o'quv adabiyotlari va dasturiy ta'lim vositalarini yaratish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy – pedagogik kompetentligini ta'minlashda ya'ni ularni kasbiy – amaliy faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash bo'yicha o'zaro tajriba almashish, jahon andozalariga mos ravishda mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

I SHO‘BA
UZLUKSIZ TALIMDA TEXNOLOGIYA FANI UZVIYLIGINI
TAMINLASH ASOSIDA MAZMUNAN
OPTIMALLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
GOMOGEN GURUHLARNING AXAMIYATI

Sayfullayeva Dilafro‘z Axmadovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, “Texnologik ta’lim” kafedrası dotsenti,
p.f.f.d. (PhD)

Akobirova Madina Bo‘ronovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, “Texnologik ta’lim” kafedrası
tayanch doktoranti (PhD)

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini turli yondoshuvlar asosida takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bizga ma’lumki “Yondoshuv” bu – ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o‘tkazish va baholashda o‘qituvchining munosabati, qo‘llaydigan qoidalari, usullari majmuidir.

Oliy ta’lim muassasalarida tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o‘qitishdan keng foydalanilmoqda. Tabaqalashtirilgan yondashuvda har bir talabaga tanlash imkoniyatining berilishi natijasida mustaqil faoliyat yuritishi uchun asos bo‘lib, o‘z kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni o‘zi boshqara olishiga imkon beradi. Tabaqalashtirishda talabalarning qiziqishlari, xohish-istaklari, psixofiziologik xususiyatlari, o‘zlashtirish imkoniyatlari, qobiliyatlari va shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olinishi lozim.

O‘qitishni tabaqalash bu – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o‘qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir [3].

Gomogen guruhlarda o‘qitish – bu guruxda turli qobiliyatlarga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarning barchasi uchun o‘zlarining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va o‘qishda muvoffaqiyatga erishish uchun barcha sharoitlarni yaratish shaklidir [3].

Ta’lim muhitida Gomogen (bir hil) guruhlash o‘xshash darajadagi talabalarni o‘zlarining kuchli tomonlari va rivojlanish sohalariga eng mos keladigan materiallar ustida ishlashlari, kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, talabalarni bir joyga joylashtirish sifatida aniqlanadi. Ushbu qobiliyat darajalari odatda baholash va o‘qituvchining kuzatish olib borishlari bilan belgilanadi. Gomogen guruhlar qobiliyatli yoki qobiliyat darajasidagi guruhlar deb ham atalishi mumkin.

Talabalarni gomogen guruhlarga ajratish quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Gomogen guruhlar
2. Yarim gomogen guruhlar
3. Geterogen guruhlar

Gomogen guruhlash - bu talabalarning qobiliyat darajasi, yoshi yoki jinsi kabi umumiy xususiyatlarga ko'ra guruhlarga bo'linishidir. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, bir xil darajadagi talabalar guruhini boshqarish osonroq bo'lishi mumkin. Bitta material ustida ishlayotgan talabalar guruhini o'qitish ham samaraliroq bo'lishi mumkin, chunki o'qituvchi o'z yo'riqnomasini aynan shu mazmunga yo'naltiradi. Gomogen guruhlarda ishlash bo'yicha misollar keltiramiz. Masalan, Fransiya kollejlarda guruh bo'yicha ta'lim doimiy tashkil etiladi. Turli tipdagi guruhlar tuziladi: gomogen guruhlar – tayyorgarlik darajasi bir xil, yarim gomogen guruhlar – tayyorgarlik darajasi yaqin, geterogen – tayyorgarlik darajasi har xil. Talabalarni guruhlarga ajratish o'qituvchilar, psixologlar, yo'nalishlari bo'yicha maslahatchilar tavsiyasiga ko'ra bo'linadi. Guruhlar maktab dasturi ma'lumotlarini o'zlashtiradilar. Ikkita bitiruvchi sinfda kuchli va kuchsiz bosqichli guruhlar yuzaga keladi. Bu ikki xil guruhni bitirgan kollej talabalariga ta'limning keyingi tiplari tavsiya etiladi [3].

Gomogen guruhlarning afzalliklari: bir xil guruhlar qobiliyatlarga moslashtirilgan dars rejalarini tuzishga imkon beradi va o'qituvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun vaqtni tejaydi. Talabalar mahorat bo'yicha guruhlanganda, ular bir vaqtning o'zida hal qilinishi mumkin bo'lgan o'xshash savollar va qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Talabalar bir xil tezlikda o'rganadilar, ishlashda o'zlarini qulay va yetarlicha qiyin his qilishadi. Bir xil guruhlar talabalarning harakat qilishdan orqada qolish yoki oqsash va ularni oldini olish uchun kurashish muammolarini yengillashtiradi. Qobiliyatli gomogen guruhlar to'g'ri ajratilganda talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantiradi va yutuqlarini maksimal darajada oshirish mumkin.

Gomogen guruhlarning kamchiliklari: ta'lim muassasalarida bir xil guruhlashdan foydalanishni kamaytirish. Buning sabablaridan biri deyarli har doim quyi guruhlarga joylashtirilgan aqliy, jismoniy yoki hissiy ehtiyojlari bo'lgan talabalarga munosabatdir. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar tomonidan bunday guruhlarga nisbatan past umidlar o'zini-o'zi amalga oshiradigan bashoratdir va bu talabalar yuqori sifatli ta'lim olishmaydi.

Bir hil guruhlashning salbiy tomoni shundaki, u stereotiplar va noto'g'ri qarashlarni kuchaytirishi mumkin, chunki talabalar ko'pincha o'zlarining idrok, tafakkur etilgan qobiliyatlari asosida guruhlarga bo'linadi. Bu talabalar o'zlarini yetarlicha yaxshi emasligini yoki guruhga tegishli emasligini his qilishlari mumkin. Bundan tashqari, bir hil guruhlar zerikib qolishlari yoki qiyinchilik tug'dirmasliklari

mumkin bo'lgan yuqori qobiliyatli talabalar uchun kamroq rag'batlantiruvchi va qiyin bo'lishi mumkin.

Yarim gomogen guruhlar – tayyorgarlik darajasi yaqin bo'lib, gomogen guruhlar geterogen guruhlardan to'g'ridan-to'g'ri farq qiladi, ularda turli qobiliyatlarga ega bo'lgan talabalar odatda tasodifiy tarzda birlashtiriladi.

Geterogen guruhlash - bu talabalarning har qanday umumiy xususiyatlaridan qat'iy nazar, bir guruhga aralashishidir. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u hamkorlik va hamkorlikni rivojlantirishi mumkin, chunki talabalar guruh maqsadlariga erishish uchun birgalikda harakat qilishlari kerak.

Talabalarni bir xil yoki boshqacha guruhlash to'g'risida qaror qabul qilishda o'qituvchilar talabalarni, mazmuni va o'quv maqsadlarini hisobga olishlari kerak. Gomogen guruhlarning afzalliklari va kamchiliklari bor va ma'lum bir ta'lim muassasi uchun eng yaxshi qaror talabalarning o'ziga xos ehtiyojlariga bog'liq bo'ladi. Talabalar bilan gomogen guruhlarda ishlansa kasbiy tayyorgarlik darajasini nazorat kiladi, o'quv adabiyotlar ustida muntazam ishlaydi, o'z kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ko'nikmasiga ega bo'ladi, o'quv topshiriqlarini bajarishga ijodiy yondashadi, kasbiy sifatlarini fazilat va qobiliyatlar darajasiga ko'tarishga yo'naltirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Tabaqalashtirilgan yondashuvning asosiy tamoyili bu pedagogik jarayonni tabaqalashtirishdir. Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quv jarayonini tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarining uyg'unligi bilan tavsiflanadi. Ta'lim metodlari va shakllarini shunday tanlanishi kerakki, ular barcha guruhlar uchun samarali bo'lishi ahamiyatlidir.

Demak, o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuv bu talabalarning turli darajadagi murakkablikdagi, har xil hajmdagi va darajadagi topshiriqlari bo'yicha o'quv faoliyatini guruxlarga bo'lib tashkil etish, ularning qiziqishlar, moyilliklarni hamda individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida talabalar tanlangan mutaxassisligi bo'yicha guruxlarga bo'linib, chuqur bilim asoslarini egallashadi va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva N., Xodjayev B., Asqarova D. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirish. Uslubiy qo'llanma. -T: -2015. -30-38 b.
2. Polenkov N.A., Yudina N.M. Differensirovanniy podxod v visshem uchebnom zavedenii // Mejdunarodniy studencheskiy nauchniy vestnik. – 2016. – № 5-3.
3. Bo'ronovna A.M. Oliy ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuv //Innovation in the modern education system. – 2023. – T. 3. – №. 33. 46-49-b.

4. Bo‘ronovna A.M. Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ahamiyati //Modern problems in education and their scientific solutions. – 2023. – T. 2. – №. 2. 171-175-b.

**“TEXNIK IJODKORLIK VA KONSTRUKSIYALASH” FANINING
RIVOJLANISHIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING
AHAMIYATI**

Sayfullayeva Dilafro‘z Ahmadovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, “Texnologik ta’lim” kafedrası dotsenti, p.f.f.d.
(PhD)

Iloxomova Dilfuza Serali qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, 2TT-23 guruh talabasi

Ta’lim tizimida har tomonlama yetuk, ijodkor shaxsni tarbiyalash, hozirgi kundagi ta’lim tizimining oldiga qo‘ygan eng muhim vazifalaridan biri. Talabani uzluksiz rivojlantirish uchun ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o‘zaro aloqadorligini, muvofiqligini hamda istiqbolga yo‘naltirilganligini ta’minlash taqozo etiladi. Maqolada texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fani mazmunida talabalarning ijodkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari, texnik ijodkorlik faoliyatining tashkiliy asoslari, ixtiro, kashfiyot, ratsionalizatorlik takliflari va patent axboroti, ijodiy masalalarni yechish metodlari, modellashtirish, va konstruksiyalash, talabalarning texnik ijodkorligi faoliyatiga rahbarlik qilish, turli muassasalarda texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish, ijodkorligini rivojlantirish metodlariga oid masalalar yoritilib, ularning bilimlarini chuqurlashtirish ko‘zda tutilgan. Ana shu vazifalar texnik konstruksiyalash va zamonaviy texnika namunalarni modellashtirish jarayonida muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Innovatsiya so‘zi yangilik lotin tilida XVII asr o‘rtalarida paydo bo‘ldi va ma’lum bir sohaga yangi sohaning kirib borishi va unga ushbu sohada bir qator

o'zgarishlarning paydo bo'lishi demakdir. Shuni anglatadiki, innovatsiya, bir tomondan, innovatsiyani amalga oshirish jarayoni emas, balki innovatsiyani muayyan ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyatidir. Innovatsion faoliyat o'zining to'liq rivojlanishida o'zaro bog'liq bo'lgan ish turlarini o'z ichiga oladi, ularning umumiyliigi real innovatsiyalarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya - (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha "texnos" - san'at, mahorat va "logos" - fan so'zlaridan olinib innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma'noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- O'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini muvofiq ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi;
- Pedagogik va O'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va O'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga

hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb xisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida O'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha anashu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Bugungi kunda "innovatsion ta'lim" bu o'z-o'zini rivojlantirishga qodir bo'lgan va uning barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan ta'lim va innovatsion ta'lim-bu rivojlanayotgan ta'limdir. Talabalarga yetkaziladigan zamonaviy tarkib zamonaviy bilim amaliyotiga mos keladigan kompetentsiyalarni rivojlantirish kabi fan bilimlarini rivojlantirishni o'z ichiga olmaydi. Ushbu tarkib yaxshi tuzilgan va zamonaviy aloqa vositalari yordamida uzatiladigan multimedia o'quv materiallari shaklida taqdim etilishi kerak. O'qitishning zamonaviy usullari bu nafaqat materialni passiv idrok etish asosida, balki o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va ularning o'quv jarayoniga jalb qilinishiga asoslangan vakolatlarni shakllantirishning faol usullari.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishdir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- YaPT (yangi pedagogik texnologiya) bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lish;
- Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;
- Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib boorish;
- Bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo'lishi;
- Dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilishi;
- Imkoni bo'lsa darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta bilishi;
- O'z ustida tinmay ishlashi, har soxaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar;
- O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kampyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezonini o'sib kelayotgan avlodni yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyati baland, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash hamda mamlakatimiz kelajagini yanada yuksaltiradigan, o'zbek elining dong'ini jahonga taratadigan, g'oyatda intellektual, manan barqaror yosh malakali kadrlarni yetishtirib borishdir. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati, uzluksiz ta'lim tizimi orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib yetishini ko'zda tutadi. Bunda shaxs uzluksiz ta'limda va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining is' molchisi hamda ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Avvalombor, qiziqarli dars mashg'ulotlari bo'lajak pedagog yoshlarda o'z faniga hamda kasbiga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va dars mashg'ulotlariga bo'lgan faol tushunchalar, tajribalar hamda salohiyatni kuchaytiradi. Bu esa ular kelajagiga qo'yilgan ilk qadamlari bo'ladi desak mubolag'a bo'lmas edi. O'sib kelayotgan yosh avlodga bugungi kunda qanchalik e'tibor va ahamiyat qaratadigan bo'lsak mamlakatimizda shu darajada ilmiy yuksalish kuzatiladiki, biz buni hozirgi rivojlanib borayotgan fan-texnika jarayonlarida va barcha sohalarda yaqqol namoyon bo'lganligini ko'ra olamiz desak, fikrimizning yorqin dalili bo'lar edi.

Yanada ilg'or va manan barqaror yosh avlodimiz ertangi kuni yuksak ma'naviyatini salmoqli darajada boyituvchi pedagog-o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va salohiyatlari yanada zamonga xos va mos holda ijtimoiy-gumanitar fanlar uyg'unligida olib bormog'i maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bu borada birgalikdagi harakat yoshlarimizning barkamol inson bo'lib voyaga yetishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil davlatda ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish, millatning taqdiri va istiqbolini ta'minlash kabi jiddiy muammolarni hal qilishning ilmiy asoslari va amaliy yo'llarini yaratishda buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari, ta'limotlarini hayotimizga tadbiiq etish taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006-y.
2. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: iqtisod-moliya, 2009, 240 b.
3. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya" nashriyoti, 2003 y. - 171 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. "Nasaf", 2000 - y. -80 b.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA UNI AMALDA QO‘LLASH

Hamdamova Nozima Mukimovna

Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc), p.f.f.d. (PhD), dotsent

Barotova Surayyo

Buxoro davlat Pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Bugungi kunda yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yurtboshimiz Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, yurtimiz kelajagi bo’lmish yoshlarning vatan ravnaqi yo’lida har taraflama yetuk inson sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo’lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda.

Jamiyatning har bir a’zosi, o’zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, o’qituvchi ham o’z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin. Har bir o’qituvchi mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o’z axborot muhitini shakllantirishga zamin yaratishi lozim.

Buning uchun u doimiy ravishda o’z ustida ishlashi, ya’ni dars o’tish jarayonida axborot texnologiyalaridan qanday foydalanish, innovatsion texnologiyalarni kerakli joyda qo’llay bilish, eng asosiysi o’quvchilarni darsga jalb qilish va qiziqishini uyg’otish va shunga o’xshash kerakli bilim va malakalarga ega bo’lib borishi zarur.

Ma’lumki ta’lim mazmunini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan qo’llab quvvatlovchi axborotni ko’paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligi, gipermatn va multimedia, o’qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan. Xususan, texnologiya darslarini oladigan bo’lsak, har bitta mavzu uchun taqdimot qilinadi, ko’rgazmalarning yasashiga va yaratilishiga oid videolavhalar tashkillashtiriladi, ba’zi metodlarni ham kompyuter texnologiyalari orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari o’qituvchining barcha hujjatlari AKT orqali yaratiladi (hemis, dars ishlanma, dastur, shaxsiy ish reja, sillabus, fan dastur, tarqatma materiallar, ko’rgazmalar va hk).

Dars o’tish jarayonida turli xildagi qiziqarli va aqlni charxlovchi, mustaqil izlashga undovchi metodlardan foydalanish ish samaradorligi va unumdorligini

osHIRadi. Bunday metodlardan biri Keys-stadi metodidir. Keys-stadi – inlizcha keys-to‘plam, aniq vaziyat, study- ta‘lim degan ma‘nolarni anglatadi.

Keys-stadi bu muammoli o‘qitish texnologiyalaridan hisoblanadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar muayyan vaziyatlarni har tomonlama o‘rganadilar, faol fikrlaydilar, nazariy mashg‘ulotlarda eshitgan bilimlarini mustaqil o‘rganish davomida to‘plagan ma‘lumotlar bilan taqqoslaydilar. Keysda bayon qilingan va o‘quvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltirilgan aniq real yoki sun‘iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslanadigan ta‘lim uslubidir. Unda tavsiflangan aniq vaziyat o‘rganishni voqelikka bog‘lab qo‘yadi: sizga muammoni hal qilish bo‘yicha vaziyatni tahlil qilish, tahminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash va aniq qadamlarni loyhalashtirish imkonini beradi. Keys- stadi metodini innovatsion metod desak ham bo‘ladi. Buning sababi, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari dars o‘tish jarayonida yuzaga keladigan muammolarga o‘quvchilar bilan birgalikda yechim izlash, ularni mustaqil fikrlash va izlanishga undaydi.

Texnologiya fani bizga ta‘lim tizimining yangi sohalariga qadam qo‘yishga bo‘lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga misol qilib mehnat ta‘limi fanining texnologiya faniga o‘zgartirilganligini aytishimiz mumkin. Buning sababi mehnat so‘zi keng ma‘no mazmunga ega bo‘lsada ,hozirda rivojlanib borayotgan texnologiyaga to‘g‘ri kelmaydi. Texnologiya fani darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik tamoyillarni qo‘llashda, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O‘quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar. Ularni qiziqishi oshib borgan sari, intilishi ham yuksalib boradi.

Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish ob‘ekti sifatida emas, balki o‘quvchilar amaliy ishlarini faollashtiruvchi ko‘rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta‘limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bor. O‘quvchilarni texnologiya fanini to‘liq o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi innovatsion- pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”), “in” qo‘shimchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo‘lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo‘ldi. Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o‘sish samaradorligini ta‘minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy

jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Texnologiya fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari ham juda katta samara beradi. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Hamkorlik pedagogikasi
2. Pedagogik jarayonda shaxsni kuzda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);
3. O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);
4. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga, qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);
5. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Graniskaya, V.D.Shadrikov texnologiyasi);

Maktablarda "Texnologiya" fanining o'qitilishi insonlar hayotida zarur bo'ladigan amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda muhim o'rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo'lmang, "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalaringiz sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. Texnologiya fani 2 yo'nalishda olib boriladi: texnologiya va dizayn hamda servis xizmati yo'nalishlari. Bunda texnologiya va dizayn yo'nalishida chilangarlik, temirchilik, o'ymakorlik kabilar o'rgatilsa, servis xizmati yo'nalishida esa tikuvchilik, pazandachilik, ya'ni ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi o'rgatiladi.

"Texnologiya" darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlar o'zlashtiriladi. Mahsulot ishlab chiqarish va uyro'zg'or buyumlarini ta'mirlashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz. O'quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo'ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar keltirib o'tilgan.

Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog'liq umummehnat ko'nikmalari har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a'zosining bilim va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligi bu ko'nikmalarning zaruratini yanada oshirmoqda. Texnologiya darsimizda asosiy rol o'ynaydigan narsa ijodkorlikdir.

Ijodkorlik – bu yangi g‘oyaga asoslangan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo‘lib bormoqda. Sizni o‘rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlar tomonidan yaratilgan texnik vosita va texnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrlı boshqa ne‘matlar yaratilgan. O‘quvchilarda ijodkorlikni oshirish uchun oldin fanga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish hamda yuksaltirish lozim.

Qiziqish bu – shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro‘yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini bilish o‘qituvchidan juda ham katta mahorat talab qiladi. O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ham ona , ham psixolog, ham tarbiyachi, qisqa qilib aytganda o‘quvchini hamma tomonlama tushunadigan shaxs bo‘lishi kerak.

Har bir o‘tiladigan dars reja asosida o‘tilishi kerak. Samarador bo‘lgan dars rejasi to‘rt asosiy elementni o‘z ichiga olishi zarur. Bular:

- Qiziqtiruv-motivatsiya
- Taqdimot- prezentatsiya
- Amaliy-prakrika
- Natija- o‘zlashtirish darajasini tekshirish

Yuqorida aytib o‘tilgan elementlar o‘qituvchi-pedagogka katta imkoniyatlar yaratib beradi va o‘quvchilar bilan muloqot qilishga hamda ularni darsda faol ishtirok etishini ta‘minlab beradi.

Innovatsion texnologiyalar – ta‘lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni ya‘ni birdamlikni oshirish orqali o‘quvchilarning qabul qilish faolligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta‘limning maqsadi – o‘quvchilarga ko‘proq bilim berish emas, balki ularni mustaqil ravishda o‘rganishga, izlanishga o‘rgatish; mustaqil ishlash, olgan bilimlaridan kerakli joyda foydalana olish va eng asosiysi o‘z oldiga aniq bir maqsadni to‘g‘ri tanlay olishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanilsa, dars jarayonlari kompyuter orqali tashkil etilsa, iloji boricha dars jonli tarzda o‘tilsa, ya‘ni kichraytirilgan maketlar, hayotiy voqealar, qiziqarli metodlar bilan o‘tilsa dars albatta sifatli va samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Ta‘limda innovatsion texnologiyalar” T.:2008. – 128 b.
2. Hamdamova, N. M., Barotov, M. H., & Shoyimova, M. R. (2023). O‘QUVCHILARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPITENSIYALARINI

- RIVOJLANTIRISHDA LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK
ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH. Educational Research in Universal
Sciences, 2(1), 248–252. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1338>
3. Barotov M. H., “Texnologiya va dizayn” modulining mashg‘ulotlarida steam texnologiyalaridan foydalanib, mavzularni takomillashtirish texnologiyasi. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “TOPICAL ISSUES OF SCIENCE” <https://doi.org/10.5281/zenodo.7236434>
4. LXXV INTERNATIONAL CORRESPONDENCE SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY 16.03.2022 yil. 106-108 betlar. <https://internationalconference.ru/images/PDF/2022/75/history-of-beads.pdf>
5. Muqimovna K. N. DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS WITH THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – T. – C. 44-49.
6. . Хамдамова Н. М. РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА УЧЕНИКОВ //The 2nd International scientific and practical conference “Results of modern scientific research and development”(May 2-4, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 640 p. – 2021. – С. 357.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK O‘QUV JARAYONLARIDAN FOYDALANISH

Hamdamova Nozima Mukimovna

Falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent

Barotov Murodjon Hamroyevich

Buxoro davlat Pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilariga texnologiya fanini o‘qitish bo‘yicha turli tushunchalar hamda inavatsion g‘oya va takliflar berilib, ularni xususida mulohaza yuritiladi

Kalit so‘zlar: konstruktsiya, didaktika, muhokama, ta’lim, texnologiya, dizayn, innovatsiya .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 05.09.2018 yildagi PF-5538 Farmonida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi kiritilishi haqida so‘z boradi. Bunda ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni, shu jumladan, o‘quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi,

videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash; uch oy muddatda o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalaniish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko'rib chiqilishi belgilangan.

Shunga ko'ra, Respublikamizning har bir h hududida prizident maktablari ochildi va unda maktabda o'qitiladigan fanlar bilan bir qatorda zamonaviy kasblar ham o'rgatilishiga katta ahamiyat qaratilgan. Texnologik ta'lim fanining " texnologiya va dizayn" yo'nalishi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda dunyo miqyosida " texnologiya " fanini multimedia vositalari asosida o'qitishni takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari darsda o'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha "Ma'rifiy, ma'naviy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish" to'g'risidagi bitimida dunyo miqyosida ta'lim oluvchilarni o'qitish sifatiga nisbatan keng ko'lamdagi ishlar olib borish, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga ega. Bu borada samaradorlikka erishish hamda multimedia vositalarining rolini va ta'sirini oshirish, mavjud muammolarni konseptual o'rganish va tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi

Texnologiya fani alohida predmet sifatida o'qitish 1- sinfdan boshlanadi. O'quv materiallari - «Turli oshxonalar va duradgorlik vositalari», «O'simlik va hayvonot olami», va "milliy hunarmandchilik vositalari" mavzulariga birlashtirilgan. Tabiiy fanlar bo'yicha dastur kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga faqat jonajon tabiat go'zalligi va boyliklarinigina emas, balki respublikamizning texnologiyasini o'rganishga ham ham imkon beradi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishda har bir dars mavzuyini bayon qilishga e'tibor beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi. Pirovard natijada ta'lim samaradorligi ortadi. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

«Klaster» metodi. Ushbu metod o'quvchilarga muammolar (mavzular) xususida erkin , ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. «Klaster» metodi turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bu metod

aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. «Klaster» metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

«6 x 6» metodi. «6 x 6» metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan darsda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi.

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo yechimi sif atida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. «6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- guruhlarning har bir a'zosini faol bo'lishiga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir hecha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko'rib chiqilishi belgilangan.

Shunga ko'ra, Respublikamizning har bir hududida prezident maktablari ochildi va unda maktabda o'qitiladigan fanlar bilan bir qatorda zamonaviy kasblar ham o'rgatilishiga katta ahamiyat qaratilgan. Texnologik ta'lim fanining "texnologiya va dizayn" yo'nalishi shular jumlasidandir.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

Talabaning dars davomida befarqi bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

Talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;

Talaba talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Dastlabki darslardayoq o'quvchilar tabiiy materiallar, qog'oz va karton, gazlama, turli materiallar bilan ishlar ekanlar, texnik elementlar bilan tanishadilar, qism va detal, oddiy yig'ish, detallarni biriktirishning qattiq, suriladigan, olinadigan usullari va buyumlar haqidagi tasvurga ega bo'ladilar.

O'quvchilar detallarni biriktirishning turli usullari shunungdek, mix bilan tirqish qoldirib biriktirish kabilar bilan tanishadilar. Bir yoki bir nechta detallardan tashkil topuvchi oddiy narsalar misolida bolalar pishiqlikni oshirish, ishqalanishning zararli tahsirini bartaraf etib, foydali tahsirdan foydalanish, o'zlari ishlayotgan materiallarning tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. O'quvchilarda narsalarni yasash ustida ishlash tartibini mo'ljallash, tayyorlash, yig'ish, bezash, amalda tekshirish, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish kabilar haqida tasavvuri shakllanadi. Bularning barchasidan keyinchalik modellar hamda texnik o'yinchoqlarni yasashda foydalaniladi, ular bolalarning ijodiy fikrini o'stiradi, bolalarga to'plangan mehnat tajribalarini atrofdagilarga texnika bilan bog'lashlariga yordam beradi.

O'quvchi: o'tilgan mavzuni yana bir marotaba takrorlash, bahs-munozaraga tayyorgarlik ko'rish. "Klaster" tayyorlash va eng muhimi darsda o'zini erkin sezish, fikrlarini qo'rqmasdan bildirish. Texnologiya ta'limi darslarni amaliy mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib tashkil etishda va o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishda quyida keltirilgan mulohazalarni bajarish kerak deb o'ylaymiz: - ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta'minlash; - ta'limda innovatsion texnologiyalarni foydalanish ko'nikmalarini jubdan isloh qilish; - nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash va talabalarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb qilish imkonini berish; - amaliy dars mashg'ulotlarini xalqaro talablar doirasida tashkil etish va unda pedagog kadrlarni kasbiy kompetentligini takomillashtirish; - kasbiy va tayanch layoqatlarini

shakllantirishni va rivojlantirishni ta'minlash; - xalqaro nufuzli oliygohlarda o'qituvchilarning malakalarini oshirishni ta'minlash. Yuqoridagilarga tayangan holda, bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini, amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadini quyidagicha ifodalaymiz: izchil olib boriladigan ta'lim-tarbiya, amaliy mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida olib borish natijasida, intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi barkamol shaxsni tarbiyalash va shu asnosida o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi: uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida texnologiya o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini yuksaltirish yo'llarini izlab topish, amaliy mashg'ulot darslarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'qituvchilarda kreativ fikrlashni muntazam ravishda takomillashtirib borish, o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularning yoshi va dunyoqarashini hisobga olgan holda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish.

Xulosa: Xulosa qilib aytganimizda, bugun ta'lim dargohlaridagi kadrlar masalasiga e'tiborni kuchaytirishimiz zarur. Ayniqsa, Texnologiya ta'limini rivojlantirish davr talabi. Yosh avlod ta'lim – tarbiyasida Texnologiya fani muhim ro'l o'ynamoqda. Shunday ekan, yoshlarimiz kelajagimiz, kelajagimizga befarq bo'lmaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. BO'LAJAK TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI OSHIRISH VA AMALIY MASHG'ULOT DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH Savurova Shahrizoda Abdumalik qizi , Mo'minov Sarvar Qo'chqorovich
2. Hamdamova, N. M., Barotov, M. H., & Shoyimova, M. R. (2023). O'QUVCHILARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 248–252. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1338>
3. Barotov M. H., "Texnologiya va dizayn" modulining mashg'ulotlarida steam texnologiyalaridan foydalanib, mavzularni takomillashtirish texnologiyasi
4. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "TOPICAL ISSUES OF SCIENSE" <https://doi.org/10.5281/zenodo.7236434>
5. LXXV INTERNATIONAL CORRESPONDENCE SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY 16.03.2022 yil. 106-108 betlar. <https://internationalconference.ru/images/PDF/2022/75/history-of-beads.pdf>

6. Muqimovna K. N. DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS WITH THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – T. – С. 44-49.

7. Хамдамова Н. М. РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА ОБУЧАЕМЫХ НА УРОКАХ ФИЗИКИ //The 2nd International scientific and practical conference “Results of modern scientific research and development”(May 2-4, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 640 p. – 2021. – С. 361.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Hamdamova Nozima Mukimovna

Falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent

Hamidov Ruslan Asliddinovich

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Texnologiya darslarida yog‘och o‘ymakorligi elementlaridan foydalanish hamda inavatsion g‘oya va takliflar berilib, ularni xususida mulohaza yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: texnologiya, yog‘och o‘ymakorligi, pedagogik texnologiyalar, xalq hunarmandchiligi, yog‘och, ishchi asboblari.

Fan va texnikaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi natijasida bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Zamonaviy ta’lim qaysi sohada bo‘lmasin insonga o‘zi va uni o‘rab turuvchi olam haqida bilim beruvchi, yashashni o‘rgatuvchi, ushbu bilimlar asosida jamiyat taraqqiyoti uchun egallangan kasbini mukammal bilishga undovchi va rivojlantiruvchi maqsadlarga ega. Bundan kelib chiqqan holda bilim olish – bu maqsad emas, balki hayotda maqsadga aylangan strategiyani amalga oshirishga qaratilgan vositadir.

Shu nuqtai nazardan texnologiya darslarini yanada qiziqarli va mazmundor bo‘lishida yog‘och o‘ymakorligi elementlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Malumki, yog‘ochlarning fizikaviy, kimyoviy va mexanik xossalari mavjud bo‘lib, yog‘ochga ishlov berishda ularni inobatga olish zarur.

O‘lchami, qurishi, og‘irligi, rangi, hidi, teksturasi, namligi, zichligi, issiqlik va elektr tokini o‘tkazuvchanligi yog‘ochning fizik xossasidir.

Yog‘ochning hidi va ko‘rinishi uning qanday material ekanligini bildiruvchi belgilar bo‘lib, ular ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Bu ma’lumotlar geografiya, biologiya, kimyo fanlari orqali ma’lum bo‘ladi.

Bulardan ko‘rinadiki, yog‘ochlarni tanlashda ularning xususiyatlarini aniqlash uchun geografiya, biologiya, kimyo, fizika kabi fanlardan; ularga ishlov berishda

olchash, rejalash ishlarini amalga oshirishda esa matematika, chizmachilik kabi fanlardan chuqur bilimga ega bo'lish kerak. Umuman olganda esa mehnat ta'limi darslarini maktabda o'tiladigan barcha fanlarga bog'lash mumkin. Malumki yog'ochlarga ishlov berish - xalq hunamiandchiligimng keng rivojlangan sohalaridan biridir.

Xalq hunarmandchiligi 150dan ziyod sohaga ega bo'lib o'zida mehnat va kasb ta'limining ko'pgina xususiyatlarini - amaliyligi, ijodiyliigi, milliyliigi, mahalliy xom-ashyolarni topish va ularga ishlov berishning qulayliigi, o'g'il va qiz bolalar mehnatining o'ziga xosliigi asosiy hollarda murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblalar va stanoklarni talab qilmasliigi, mashg'ulotlarni tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi.

Yog'ochga ishlov berishda xalq hunarmandchiligining bir necha turlari mavjud. Ular - beshikchilik, sandiqchilik, mebelsozlik, yog'och o'ymakorliigi kabilardir. Bulardan yog'och o'ymakorliigi o'zbek xalqi amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog'och buyumlarga chizib, kesib, o'yib ishlanadi.

O'rta Osiyoda yog'och o'ymakorliigi qadimdan rivojlanib, kishining uy-ro'zg'or buyumlarida va binolar qurilishida juda keng qo'llanilgan. Bu o'ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, har xil to'sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan.

Yog'och o'ymakorligida duradgorlikni bilmasdan turib o'ymakorlikni tushunib yetish qiyin. Chunki har bir o'ymakor usta o'yiladigan buyum detallarini alohida tayyorlab, ya'ni detalni o'lchab, arralab, randalab tayyorlaydi.

O'quvchilar yog'ochga ishlov berish sohasidagi xalq hunamiandchiligida duradgorlik kasbidan xabardor bo'lishi va shu kasbda ishlatiladigan asboblarni bilishi lozim demakdir.

Duradgorlik kasbi shunday kasblardanki, bunchalik xalq turmushiga singib ketgan kasblar kam topiladi. Duradgor yasagan buyumlar har bir xonadonda ko'plab topiladi. Ma'lumki, har qanday buyumni yasash uchun uning tegishli chizmasi va texnologik jarayonining asosini tashkil qiladigan texnologik kartasi bo'lishi shart



Yog'ochga ishlov berishda o'lchash va rejalash asboblari hamda ishchi asbobuskunalar ishlatiladi. Bunda dastarra, burcharra, lobzik arra, iskana, yog'ochga birlamchi ishlov beruvchi randa va maxsus randalar, o'yuvchi, yo'nuvchi va nov iskanalar, qo'l parmalari, egovlar kabi ishchi asboblalar ishlatiladi.

Xulosa. Texnologiya darslarida yog‘och o‘ymakorligi elementlaridan foydalanish o‘quvchilarda narsalarni yasash ustida ishlash tartibini mo‘ljallash, tayyorlash, yig‘ish, bezash, amalda tekshirish, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish kabilar haqida tasavvuri shakllanadi. Bularning barchasidan keyinchalik modellar hamda texnik o‘yinchoqlarni yasashda foydalaniladi, ular bolalarning ijodiy fikrini o‘stiradi, bolalarga to‘plangan mehnat tajribalarini atrofdegilarga texnika bilan bog‘lashlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khamdamova N. USING OF ALTERNATIVE ENERGY SOURCES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVITY
2. Каххоров С. К., Жураев Х. О., Хамдамова Н. М. Использование учебных материалов по источникам альтернативной энергии в интеграции на уроках физике //Иновация в науке. – 2019. – №. 5 (93). – С. 17-24

TALABALARNI GOMOGEN VA GETEROGEN GURUHLARDA O‘QITISH

Akobirova Madina Bo‘ronovna

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Mamlakatimizning barcha oliy o‘quv yurtlarida talabalarni turli xil guruhlarda bo‘lib, o‘qitish amalga oshirilmoqda. Biz ham tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida talabalarni gomogen va geterogen guruhlarda o‘qitishning ilmiy tahlillarini o‘rgandik. Bugungi kunda qanday qilib odam kuchli raqobatga to‘la jamiyatda muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Bunda insonlarda akademik yutuqlar va ijtimoiy muvaffaqiyatli bo‘lish jarayonida munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Oliy ta‘lim maskanlari talabalarning jamiyatda muvaffaqiyat qozonishlari, bilim olishlari, shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun talabalarga ta‘lim berish maqsadida ta‘lim maskanlari o‘qitish usullarini an‘anaviy yoki raqobatbardosh ta‘limdan hamkorlikka o‘zgartirmoqda [1]. Slavinning 2010 yildagi ma‘lumotlariga ko‘ra, kooperativ ta‘lim bu-o‘qitish usullaridan bo‘lib, o‘qituvchilar talabalarni kichik guruhlariga ajratgan holda bir-birlariga yordam berish uchun birgalikda ishlaydigan akademik tarkibdir deb ta‘riflagan[1]. Garchi bitta guruhdagi har bir talabaning o‘z vazifasi bor bo‘lsada, bu butun guruh topshirig‘ining bir qismi bo‘lib, ular butun guruh natijalari asosida baholangan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalar qo‘shma ta‘limda an‘anaviy o‘quv muhitiga qaraganda yaxshiroq mustaqil ishlaydi. Ijtimoiy o‘zaro ta‘sirlar talabalar o‘qishida juda muhim rol o‘ynaydi. O‘quv jarayonida talabaning ma‘lumotlari yoki g‘oyalari bilan faol bo‘lishish mumkin bo‘lsa, talabalar orasida bilim olish osonlashadi. O‘quv jarayonida talabalar o‘zlarini ifoda etadilar, o‘z fikrlarini boshqa talabalar bilan baham ko‘rishadi va ular birgalikda o‘qitishning bir qismi sifatida munozaralarda qatnashib, fikrlar almashadilar. Munozaralar davomida fikrlardagi

farqlar va dastlabki g'oyalar ularni qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi va ular o'zlarini o'zgartirishi yoki qayta ko'rib chiqishi mumkin bo'ladi. Birgalikda o'qitishda qo'shma, o'zaro ta'sirlarning ta'siri talabalarni o'qitish, guruh a'zolarining ishtirok etish darajasiga bog'liq. Agar ular boshqa ishtirokchilar bilan faol ravishda ma'lumot almashishga tayyor va fikr-mulohazalarni ijobiy qabul qilsa, birgalikda o'zaro ta'sirlarning talabalar ta'limiga ta'siri ijobiydir. Agar buning aksi bo'lsa, ya'ni o'zlarini ifoda etishni istagan, lekin faqat passiv fikr-mulohazalarni qabul qiladiganlar ta'limda kasbiy sifatlarni rivojlantirishda salbiy ta'sirga ega bo'ladi.

Biroq, bitta savol tug'iladi: talabalarni qanday qilib mos ravishda guruhlash mumkin, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirlar talabalarning bilim olishiga va kasbiy sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinmi? Umuman aytganda, odatda ikkita guruhlash strategiyasi qo'llaniladi: geterogen guruhlash va gomogen guruhlash.

Geterogen guruhlardagi talabalar jinsi bo'yicha, o'rganish qobiliyati, oldingi yutuqlari yoki boshqa tegishli xususiyatlari bo'yicha farqlanadi.

Gomogen ya'ni bir xil guruh talabalari o'xshash o'rganish qobiliyatiga, oldingi akademik ko'rsatkichlar yoki boshqa kognitiv xususiyatlarga ega.

Olib borilayotgan tadqiqotimiz quyidagilarga qaratilgan- talabalar gomogen va geterogen guruhlarda bo'linganida ta'limda akademik ko'rsatkichlarga va ta'lim samaradorligiga ta'sir qiladi. Tadqiqotchilar geterogen va gomogen guruhlashning ta'siri haqida talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun qobiliyatlarni guruhlash singari turli xil fikrlarni bildiradilar. Ba'zi tadqiqotchilar geterogen guruhlash foyda keltiradi deb hisoblashadi, ya'ni talabalarni o'qitish gomogen guruhlarga qaraganda kengroqdir. Masalan, Slavinning ta'kidlashicha qobiliyatlarga asoslangan geterogen guruhlash talabalarning bilim olishiga, foyda keltiradi. [2] Tatti va Kleinning fikricha qobiliyati past bo'lgan talabalar geterogen guruhlashdan ko'proq foyda olishadi, chunki ular boshqa a'zolaridan yordam olishlari mumkin. Muhokamalar davomida talabalar savollarni yaxshiroq tushunishlari mumkin va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishadi.

Biroq, boshqa tadqiqotchilar gomogen guruhlashni qo'llab-quvvatlaydilar. Misol uchun Baerning ta'kidlashicha, geterogen guruhlarda bir hil guruhlardagi talabalar boshqalarga qaraganda yaxshiroq ishlashadi. Bir xil guruhlash qobiliyati yuqori va o'rta sinf talabalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, qobiliyat darajasi past bo'lgan talabalarga ta'sir qilmaydi.

Geterogen guruhlash birgalikdagi o'qitishda samaradorlikni o'rganadigan ko'plab tadqiqotlarda qo'llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki geterogen guruhlash bir xil guruhlashdan ko'ra samaraliroq emas. Boshqacha qilib aytganda, birgalikda o'qitish qo'llanilganda, qanday guruhlash (geterogen yoki gomogen guruh) talabalarning yutuqlariga, ularning qoniqishlariga yaxshiroq ta'sir qilishiga erishish muhim masala bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Slavin, R. E. (1980). Cooperative learning. Review of Educational Research, 50(2), 315-342.
2. Slavin, R. E. (1995). Cooperative learning: Theory, research, and practice. Boston, MA: Allyn and Bacon.
3. Мадина Бурановна Акобирова, Нодир Уткирович Зиедуллоев, Методы изготовления лекал одежды. WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS, 2018. С-51-53
4. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Madina Buronovna Akobirova. A communicative approach to teaching students in english of their specialties. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. B.404-408
5. Madina Bo‘ronovna Akobirova, Mirjon Sharopov Nurxonog‘li, Teaching technology of hands crafts subject into English language. Asian Journal of Multidimensional Research, 2021. P-1549-1555
6. Akobirova Madina Bo‘ronovna, IXTISOSLIK FANLARNI XORIJIY TILDA O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. “INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION 2022/20”. 2022/12/28. B-42-47

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUVCHILARINI LOYIHAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING SAMARADORLIGI

Orishev Jamshid Bahodirovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

e-mail:jamshidorishev@gmail.com

Ta‘lim tizimi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash borasida respublikamizda katta amaliy ishlar olib borilmoqda. Yetuk mutaxassislar tayyorlashning muhim omillaridan biri - bu ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari hamda innovatsion texnologiyalari, jumladan, loyihaviy faoliyat muhim o‘rin tutadi.

Loyiha tushunchasi eskiz va rejalarni anglatish uchun dastlab Rim arxitektura maktabida XVI asrda paydo bo‘lgan. Asta – sekin bu tushuncha ta‘lim oluvchilar tomonidan mustaqil bajariladigan tanlov topshirig‘i sifatida pedagogik ma‘noda ham ishlatila boshlandi. “Loyixa” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi lotinchada “projectus” – “asliga muvofiq”, “oldinga tashlangan” degan ma‘noni anglatadi [1;11-b.].

Ta‘limda loyihalash faoliyatining ko‘zga ko‘ringan xorijiy tadqiqotchilardan Dj. Dyui, V.X.Kilpatrik, S.T.Shatskiy, V.N.Shulgina, M.V.Krupenina, K.Frey, Ye.Kollings, A.S.Makarenko, P.F.Kapterev, P.P.Blonskiy, D.Snezden, Ye.G.Kagarov, N.A.Kralya, Ye. S. Polat, N.V.Matyash, N.Yu.Paxomova, S.Pavlova, Dj. Djonson va boshqalar, shuningdek yutimiz olimlaridan R.X.Jo‘rayev, Ch.E.Mirzayev, M.Tojiyev,

B.Ziyomuxammadov, J.G'.Yo'ldoshev, N.A.Muslimov, M.B.Urazova, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov, C.Bozorova, F.Z.Yusupova, S.Yu.Ashurova, K.Xojiyeva, L.V.Peregudov, L.V.Golish, B.Yu.Xodiyev, G.M.Anarkulova, R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov kabilarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Ushbu ishda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonidagi loyihaviy faoliyat haqida ba'zi mulohazalar bayon etiladi.

Taniqli rus psixologi A.N.Leontyevning fikriga ko'ra, faollikning shakli sifatidagi faoliyat turli darajadagi psixikaning shakllanishida boshlang'ich nuqta hisoblanadi, u o'z navbatida, ehtiyoj bilan belgilanadi - har qanday o'ziga xos sharoitlarda insonning normal ishlashiga bo'lgan ehtiyoj holati. Sub'ekt ehtiyojni shunday idrok etmaydi, u qoniqmaslik va noqulaylik hissini uyg'otadi, odamni harakatga, izlanishga undaydi [2;3-b].

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari tomonidan loyihaviy faoliyatning amalga oshirilishi ularda axborot madaniyati kengroq shakllanishiga ko'maklashadi, bu esa shaxsiy qobiliyatlar va pedagogik salohiyatdan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Loyihalar usulidan foydalanish faol yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi, oliy ta'limning turli bosqichlarida fanlarni o'rganishda olingan ko'nikmalar, bilimlarni qo'llashga, ularni muayyan loyiha ustida ishlash jarayoniga joriy etishda ko'maklashadi. Loyihaviy faoliyat nafaqat bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari tomonidan loyiha texnologiyalarini o'rganishni, balki ta'lim va maktabdan tashqari faoliyatni ham nazarda tutadi. Loyihaviy faoliyat «bilish usuli» sifatida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga bilimlarning hayot va ta'limdagi o'rnini tushunishda, kasbiy tayyorgarlikda vositaga aylanib, fikrlash madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shishda amaliy yordam beradi. Loyihaviy faoliyat shuningdek bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining psixofizik, axloqiy va intellektual rivojlanishiga, ularning moyilligi va qobiliyatlarini, muhim kasbiy sifatlarini va pedagogik kasbini faollashtirishga, kelajakdagi muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatga va umuminsoniy qadriyatlar tizimiga kirishishga, ularning faoliyati, kognitiv talab va ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishga, o'z taqdirini o'zi belgilash, ijodiy o'zini namoyon qilish va uzluksiz ta'lim olish uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan "loyihaviy faoliyat" talabalarning faoliyatini aktivlashtiradi, buning natijasida ular tomonida sub'yektiv, ba'zan esa ob'yektiv yangilikka ega bo'lgan mahsulot yaratiladi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari loyihaviy faoliyatni bajarishning turli bosqichlarida o'z tushunchalari darajasida, muammolarni hal qilishda harakat taktikasini tushunadilar, turli xil murakkablikdagi loyihalarning mazmuni haqida g'oyalarni shakllantiradilar. Loyihalashda talabalar "nostandart" vazifalarni hal qilish (ma'lumotlarning yetishmasligi yoki ortiqcha bo'lishi, meyoriy yechim yo'q bo'lgan taqdirda) uchun bilimlardan foydalanish tajribasiga ega bo'ladilar. Shu tufayli

ijodkorlikni o'zlashtirish tajribasi, tashqi sharoitlarni o'zgartirish orqali yangi natijaga erishish uchun ma'lum yechimlarni birlashtirish va takomillashtirish imkoniyati beriladi.

Loyihalar usuli mavjud muammoni hal qilish uchun qo'llaniladi, muammoni hal qilish esa turli axborotlar va texnologiyalaridan, o'quv qo'llanmalaridan foydalanish, shuningdek, bilim va ko'nikmalarni birlashtirish, fan, texnika, texnika va ijodkorlikning turli sohalaridan bilimlarni qo'llash zaruriyatini anglatadi. Ushbu usuldan foydalanish tufayli bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari o'rtasida bunday o'zaro ta'sir shaxsning ijodiy harakatlari ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llanilganda yuzaga keladi, buning natijasida qo'yilgan maqsadga erishish bilan birga, o'sib borayotgan shaxsning ichki dunyosi takomillashadi.

Loyihalashning tarbiyaviy funksiyasi mehnat munosabatlarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining ma'naviy hayotida aks etishi, ularning fikr va his-tuyg'ularida aks etishi, shuningdek, shaxsning ixtiyoriy harakatlarining kengligi darajasi bilan namoyon bo'ladi. Har bir bosqichda loyihaviy faoliyat bo'lajak o'qituvchining fikrini harakat bilan birlashtirishi lozim, harakat – fikr bilan, gumanitar madaniyatni – texnik, mehnatni – ijod bilan, badiiy faoliyatni – loyihalash va konstruksiyalash, texnologiyani esa – ob'yektiv dunyodagi har qanday o'zgarishlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlarini baholash bilan – bularning hammasi "loyihalash vazifalari"ni o'rnatishni belgilaydi, ular talabalarda yakuniy mahsulot va dasturlar shaklida ifodalangan intellektual va umumiy kasbiy bilimlari, ko'nikma va malakalari tizimini shakllantirishni hamda ijodiy qobiliyatlarni, mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Loyihaviy faoliyat bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga, bir tomondan, tadqiqotga bo'lgan intilish va motivatsiyaning paydo bo'lishiga yordam beradi, boshqa tomondan, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash uchun sharoit yaratadi.

Y.S.Polat, N.Y.Paxomovalar tomonidan o'quv loyihasining zarur tarkibiy qismlari va eng muhim xarakterli xususiyatlarini quyidagicha ajratadilar:

- tadqiqotdagi muhim muammoning mavjudligi;
- talabalarning maqsadli, mustaqil faoliyati;
- natijalarning amaliy, nazariy, kognitiv ahamiyati [3,4].

Demak, loyihalash o'qituvchi tomonidan talabalarning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to intellektual yoki oddiy mahsulotni ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, zamonaviy ta'limda sifat va samaradorlikni oshirish, talabalarning mustahkam nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlashda loyihalash faoliyatidan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Крала Н.А. Метод учебных проектов как средство активизации учебной деятельности учащихся. Россия. Омск. 2005. 59 с.
- 2.А.Н.Леонтьев Что такое деятельностный подход в образовании //Начальная школа: плюс-минус. Россия. 2001 с.3-5.
- 3.Пахомова Н.Ю.Развитие методики использования “учебных проектов” при обучении информатике в общеобразовательной школею Дис.канд.пед.наук. -М.,1997
- 4.Полат Е.С., Бухоркина М.Ю., Моисеева М.В. Петров А.Е. Новые педагогические и информаионные технологии в системе образования. М. “Академия”, 2001, 272 с.
- 5.То‘raqulov X. A. Orishev J.B .Loyihali ta’lim–ta’lim samaradorligi garovi // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. Ilmiy – uslubiy jurnal. Toshkent, № 3-4 , 2011 y. B. 38-41
6. Orishev J.B. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda loyihalash texnologiyasidan foydalanish//“Tafakkur ziyosi” ilmiy-uslubiy jurnal. 2022 № 4. Jizzax. B.59-63

TEXNOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Turayev Doniyor Amirovich

Termiz davlat pedagogika instituti Texnologik ta’lim kafedrası o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarining grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘z: kasb, kompetensiya, texnologiya, talabalar, axborot, mutahassis, ishlab chiqarish, tadqiqot, muhandislik, kompyuter grafikasi

Talabalar grafik kompetentligini rivojlantirish tizimi ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlar, tashqi va ichki omillarga bog‘liq. Har qanday pedagogik tizim tarkibida ikkita tushuncha aniq ko‘rinadi: Didaktik vazifa va uni hal qilish texnologiyasi. Didaktik vazifa tuzilishida istalgan inson faoliyati sohasidagi kabi vaziyatlar (sharoitlar) va mavjud axborot (faoliyat mazmuni)ga asoslangan maqsadlar aks etadi.

Texnologik ta’lim talabalarini tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish borasidagi tadqiqotimiz maqsadi texnik tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilar grafik faoliyatini tashkil etish uchun texnologik ta’lim talabalarning grafik kompetentliklar mazmuni (tarkibiy qismlari) ko‘rib chiqilgan axborotlar vositasida shakllantirish hisoblanadi.

Tadqiqotimizda o‘quv materiallarining mazmuni talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning har bir bosqichida grafik va o‘quv-konstruktorlik faoliyatini integratsiyalash yo‘li bilan belgilanadi.

Texnologik ta‘lim talabalarining grafik kompetentligini rivojlantirish jarayoni tizimli-faoliyatli yondashuv asosiga quriladi. Uning ijodiy faoliyati, ya‘ni grafik faoliyatda ko‘nikma va malakalaridan ijodkorona foydalanish tajribasida ixtirochilik sifatlarini o‘rni juda beqiyos. Ixtirochining ijodiy loyihaviy-konstruktorlik faoliyati mantiqiy mazmuni konstruktsiyalash uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Konstruktorning faoliyati quyidagi bosqichlarga ajratilgan:

1. Ob‘ektni yaratish kontseptsiyasi - loyihalashda konstruktsiyalash bosqichi bo‘lib, unda ob‘ektning dastlabki modeli aqliy yoki matn bilan, grafik vositalar yoki eksperimental tarzda amalga oshiriladi; buning natijasi texnik qurilmani konstruktsiyalash va texnologik metod ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

2. Konstruktsiyalash – loyihalash bosqichi bo‘lib, unda mazmuni ifodalash texnik buyum detallari bilan aniqlanadi. Konstruktorlik jarayonida konstruktor faqat aqliy faoliyatining samarasi bo‘lgan, hali mavjud bo‘lmagan narsani aks ettirishi kerak. Bu texnika sohasidagi ijodiy muhandislik vazifasidir.

Sintez – buyumni amalda qo‘llash uchun tayyorlash texnologiyasi va texnik qurilmalarda konstruktorlik g‘oyalari ijodiy birlashtirishdir.

“Loyihalash” va “konstruktsiyalash” atamalarini yoritishda, ularni birga ko‘rib chiqilishi kerakligi va bir tushunchani boshqasidan ajratmaslik maqsadga muvofiq. Aslida “konstruktsiyalash” atamasi qurish, “loyihalash” esa – loyiha, g‘oyani yaratishni bildiradi, konstruktsiyalash loyihalashni o‘z ichiga oladi. Konstruktsiyalash faoliyatida texnik qurilmalarni yaratishda loyihaviy-konstruktorlik faoliyatni e‘tiborga olish kerak.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, loyihalash va konstruktsiyalash bu ijodiy, murakkab va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan jarayon deb hisoblash mumkin. Loyihalash – bu muhandislik faoliyati ko‘rinishi bo‘lib, biror konstruktsiyani tayyorlash uchun loyiha ishlab chiqish bilan bog‘liq, konstruktsiyalash esa – loyihalash bosqichi bo‘lib, konstruktsiya variantlarini yaratish, hisob-kitoblar, operatsiyalarni bosqichma-bosqich bajarishni o‘z ichiga oladi.

Texnologik ta‘lim talabalarining grafik kompetentligini rivojlantirish jarayonini tahlil qilish tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo‘lajak texnologik ta‘lim talabalarini tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish uchun davlat ta‘lim standartlari, o‘quv rejasi va dasturlarining tizimliliigi hamda izchilligiga e‘tibor qaratishni tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri deb belgiladik. Shunga ko‘ra, tadqiqotni olib borishda ilmiy izlanish ob‘ekti sifatida tanlangan ta‘lim yo‘nalishining umumiy

mohiyatiga tayangan holda talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlar to'g'risidagi tasavvur oydinlashtirib olindi.

Texnologik ta'lim umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagogik kadr tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchilarning sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish; ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- ta'lim jarayoni; - o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;

- ta'limning nazariy masalalari; - o'qitish metodikasi;

- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

- mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlari.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi fanlaridan, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari kasbiy fanlardan dars berish, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quv ustasi bo'lib ishlash;

- umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;

- ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;

- texnologik ta'lim o'qituvchisi mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

- pedagogika va texnika fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

umumiy o'рта ta'lim muassasalarida va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ishlash;

mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash.

Tadqiqotlar va izlanishlar jarayonida texnologik ta'lim talabalarining kasbiy rivojlanishi uchun va kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kompetentsiyalar aniqlandi. Texnologik ta'lim talabalarining kasbiy rivojlanishi uchun kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kompetentsiyalar majmui keltirilgan.

Texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari: pedagogik; ilmiy-tadqiqot; ma'naviy-ma'rifiy; tashkiliy-boshqaruv; ishlab chiqarish faoliyati. Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy modeli asosida texnologik ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishda pedagogik jamoatchilikning qiziqishini oshirish, ta'lim maqsadlari va natijalarini qayta ko'rib chiqish masalasi ko'plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bitiruvchining kompetentli modeli ta'limning amaliy yo'nalishini, shu jumladan shaxsiy va faol tomonlarini, ta'limning insonparvarlik yo'nalishini mustahkamlaydigan kompetentli yondashuv asosida shakllantiriladi. Kompetentli yondashuv natijaning operatsional tomoniga e'tiborni kuchaytirishga, ta'lim mazmunini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi"gi (2019 yil 29 oktabr) Qonuni // <https://lex.uz/doc/4571490>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017 yil 7 fevral) Фармони // https://lex.uz/pages/getpages.aspx?list_id=3107036# 3109146
3. Nishonova S. "Komil inson tarbiyasi", Toshkent, "Istiqlol", 2003 y. 2. O'. Tolipov va boshqalar "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". T., "Fan", 2005 y.
4. Vyazankova V.V. Axborot va ta'lim muhit shartlarida tayyorlanishning texnik yo'nalishlari bo'yicha bakalavranlarning grafik kompetensiyasini shakllantirish // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. - 2021 yil - 2-son; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=30663> (kirish 09.12.2022).
5. Turayev Khumoyiddin Abdugafforovich, Sattarov Shavkat Yuldashevich, Tashkuziyev Bakhriddin Muhiddinovich, Turayev Doniyor Amirovich - Project Development Of Competence Of Future Drawing Teachers Using Geometric

Reflection Techniques- Project Development Of Competence Of Future Drawing Teachers Using Geometric Reflection Techniques. 13791-13800. 2019/12/31.

6. Choriev, R., & Kucharov, S. (2023). METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC TEXTBOOKS IN THE FIELD OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B1), 371-373.

7. Choriev, R., & Kucharov, S. (2023). OPPORTUNITIES OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE TRAINING OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS. Science and innovation, 2(B4), 152-155.

8. Odinayev A., Qalandarov R., Xolmatov B. PROBLEMS OF IMPROVING THE TECHNOLOGY OF REPAIRING BLOCKS AND CYLINDER LINERS //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 97-99.

9. Rozimurod, Q., Kocharovich, O. A., & Ogli, Y. S. F. (2023). ABOUT VIBRATION NOISE PROBLEMS IN MACHINERY AND MACHINES USED IN COTTON GINNING FACTORIES (CCP). Science and innovation, 2(A4), 220-226.

10. Гадаймуратов, Ш. М. (2022). БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЎЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. TALQIN VA TADQIQOTLAR, 5.

11. Dusyarov, X. C., Odinayev, A. K., & Kucharov, S. A. (2021). CRITERIA FOR ASSESSING STUDENT KNOWLEDGE IN TECHNOLOGY CLASSES. Academic research in educational sciences, 2(3), 1168-1173.

12. Chorshanbiyevich D. X. Effectiveness of ecological laboratory work in the teaching of physics in connection with labor education //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 04. – С. 93-95.

13. Дусяров А. С., Файзуллаев И. М., Камолов Б. И. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТЕПЛОВЫХ ПОТЕРЬ ПОМЕЩЕНИЙ С ИНСОЛЯЦИОННЫМИ ПАССИВНЫМИ СИСТЕМАМИ СОЛНЕЧНОГО ОТОПЛЕНИЯ //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-3 (100). – С. 8-12.

14. Дусяров Х. Ч. Квалификационные требования специалистов к содержанию высшего образования //Педагогическое образование и наука. – 2019. – №. 5. – С. 7-8.

15. Тураев Дониёр Амирович ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ Modern Scientific Research International scientific journal (ISSN: 1817-0315) Journal 2023 Volume 1 Issue 3

16. Turayev Doniyor Amirovich BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHISINING KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIGINI

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB O'QITISH METODIKASI SAMARADORLIGI

Baxtiyorova Sobira Ixtiyor qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedra o'qituvchisi

Jo'rayeva Dilorom Bafo qizi

BuxDPI "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: zamonaviy o'quv mashg'ulotlarida, xoh o'rta, xoh umumiy, xoh kasb-hunar bo'lsin, elektron o'quv qurollari bugungi kunda jadal rivojlanmoqda, bu texnologiyaning doimiy takomillashuvi bilan bog'liq hisoblanadi. Kerakli dasturlarni o'zlashtirish uchun interfaol doskalar va kodoskoplar (ref-proyektorlar), kompyuterlar, shuningdek, raqamli tashuvchilardan ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarishga mo'ljallangan eng yangi qurilmalar paydo bo'ldi va ulardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Pedagogik dasturiy vositalar asosida o'quvchilarni tayyorgarligini rivojlantirish metodikasining afzalliklari va amaliy ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: axborot texnologiyasi, power point, kompyuter turlari, zamonaviy texnologiyalar.

Barchamizga ma'lumki, XXI asr – globallashtirish davri, texnika asri deyiladi.. Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o'tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o'zini mas'ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish talab etiladi.

Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta'lim maktablari ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istalgan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining umumta'lim maktablari ta'lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inobatga olgan holda, ta'lim jarayonida dasturiy vositalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Umumta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari vositasida o'qituvchi va o'quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar ochiladi:

- axborot yig'ishning yangi usullarini va ularni qo'llashni bilib oladilar;
- bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga qiziqishlari ortadi;
- mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;
- bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Dasturiy vositalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish, Ta'lim tizimidagi har qanday dasturiy vositalar ta'lim samaradorligini oshirishga va uni zamonaviy ta'lim talablariga to'la qonli javob berishiga qaratilgan.



1-rasm. Zamonaviy dasturiy ta'lim vositalari.

Dasturiy vosita (ta'minot) bu - kompyuterning ikkinchi muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ma'lumotlarga ishlov beruvchi dasturlar majmuasini va kompyuterni ishlatish uchun zarur bo'lgan dasturlarni o'z ichiga oladi. Insonning dastur bilan va dasturning inson bilan o'zaro muloqoti foydalanuvchi interfeysi deyiladi.

Dasturiy vositalarning tasnifi.

Barcha dasturiy ta'minotlarni uchta kategoriya bo'yicha tasniflash mumkin:

- tizimli dasturiy ta'minot;
- amaliy dasturiy ta'minot;
- dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari.



2-rasm. Multimediali dasturiy ta'lim vositalari.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi.

Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Zamonaviy, raqobatbardosh o‘quvchilar bilimini nazorat qilish, sinash va baholashning ahamiyati katta. Agar uni yaxshi yo‘lga qo‘yilmasa, turli-tuman metodlarni qo‘llashimiz, qiziqarli dars o‘tish uchun turli topshiriqlar tayyorlashimizdan qat’iy nazar, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi.

Chunki inson ongida har doim o‘z mehnat faoliyatini baholovchi psixologik jarayon ro‘y berib, o‘z ishini natijasi baholanmasa yoki baholanishidan, taqdirlanishidan ko‘ngli to‘lmasa faolligi susayadi. Shuning uchun o‘quvchilar bilimini, muntazam tekshirish va baholash ularni predmetni chuqur o‘rganish va nazorat usullarini takkomillashtirish vazifasini yuklaydi.

Umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan texnologiya fani darslarida ham dasturiy ta’lim vositalari, turli xil ko‘rinishga ega bo‘lgan multimediali dasturlar asosida darslarni tashkil qilish, buning natijasida o‘quvchilarni kompyuter texnologiyalari tadbqiq qilish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan texnologiya fani darslarini dasturiy ta’lim vositalari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, elektron manbalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil qilish, dars jarayoni uchun samarali hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki texnologiya darslarini o‘tishda o‘qituvchi dasturiy ta’lim vositalaridan keng foydalana olishi, kompyuter texnologiyalaridan foydalanib darslar o‘tishi, dars jarayonida mavzuga oid taqdimotlar, multimediali dasturlarda tayyorlangan vositalardan keng ko‘lamda foydalana olsa uning o‘tayotgan darsi sifatli va unumli bo‘ladi.

Chunki inson eshitgan narsalarining 40% ini eslab qolsa, ko‘rgan narsalarining esa 60% ini esida saqlaydi. Shuning uchun o‘qituvchilar dars o‘tish jarayonida texnik vositalardan foydalanilsa samaradorlik yaxshi bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.I. Baxtiyorova, X.Y. Hamroyeva. “Methods of Teaching Materials Science on the Basis of Innovative Educational Technologies”. Journal of Pedagogical

Inventions and Practices. Peer Reviewed International Journal. 2022. Amerika. 133-136 pg. <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1309>

2. Sobira Ixtiyor qizi Baxtiyorova, Dilorom Bafo qizi Jo'rayeva. 5 SINF TEKNOLOGIYA DARSLARIDA "MATERIALLARGA ISHLOV BERISH BO'LIMI" NI INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. - GOLDEN BRAIN, 2023. 73-79. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/5457>

3. Sobiraxon Ixtiyor qizi Baxtiyorova, Ziyoda Omonboy qizi Ganjayeva. TEKNOLOGIK TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMINI JORIY ETISH METODIKASI. - GOLDEN BRAIN, 2023. 67-72. <file:///C:/Users/Admin/Downloads/67-72.pdf>

4. Собирахон Ихтиёровна Бахтиёрова. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ. Наука, техника и образование, 2021. 80-83. <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-programmnogo-obespecheniya-v-prepodavanii-materialovedeniya/viewer>

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA HAMKORLIKDA O'QITISH TIZIMINI JORIY ETISH METODIKASI

Baxtiyorova Sobiraxon Ixtiyor qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Ganjayeva Ziyoda Omonboy qizi

BuxDPI "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: umumta'lim maktablarida hamkorlikda o'qitish o'quvchilarni ta'lim sifati, muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish hamda birgalikda ta'lim olishni nazarda tutiladi. Bunday ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'quvchilar o'quv topshiriqlarini sheriklari bilan hamkorlikda to'g'ri bajarishlari bilan birga, guruhning har bir a'zosida ta'limiy faollikni yuzaga keltirishga ham e'tibor qaratiladi.

Tayanch so'zlar: hamkorlikda o'qitish tizimi, o'quvchi va o'qituvchi, hamkorlikda o'qitish tizimini maqsadli yo'nalishlari, hamkorlikda o'qitish konsepsiyasi.

Umumta'lim maktablarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalari o'quvchilarning kreativ tadqiqotchilik xarakteriga ega, ijodiy tafakkurni jadal ravishda rivojlantirish ta'limi qobiliyatlarini takomillashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum. O'quvchilarda kreativlik qobiliyatining rivojlanishiga, ijodiy fikrlashiga, o'quvchi g'oyalar va ob'ektlarni erkin egallashga yo'naltirishga, ijodiy

jarayonlar to'g'risida asoslangan axborot bera olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o'qitish pedagogika fanida ancha yillardan buyon amalga oshirilmog'da. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi nimanidir birgalikda bajarish emas, balki birgalikda o'qishdir. Hamkorlik ta'limi pedagog va o'quvchilarni ta'limiy faoliyat jarayonida birgalikda rivojlanishi, bir-birini chuqur tushuna olishi, bir-birlariga nisbatan qalban yaqinlikni his qilishi, faoliyat bosqichlari va shu bosqichlarda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishdan iborat bo'lib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni o'zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish hamda birgalikda ta'lim olishni nazarda tutadi. Bunday ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'quvchilar o'quv topshiriqlarini sheriklari bilan hamkorlikda to'g'ri bajarishlari bilan birga, guruhning har bir a'zosida ta'limiy faollikni yuzaga keltirishga ham e'tibor qaratilishi lozim. Hamkorlikda o'qitish o'qituvchining talim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka tartibda, jamoa bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi, o'quvchilarning o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi interfaol jarayon hisoblanadi. O'quvchilar topshiriqlar ustida kichik guruhlarda hamkorlikda ishlaydilar va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam beradilar.

Hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'rganilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, guruhiy ish natijasida mavzu (material) yaxshi o'zlashtiriladi.

2. O'quvchilar 2-3 kishilik kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan hujjatlar mezonlariga rioya qilishadi.

4. O'quvchilar mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishadilar. O'qituvchi o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etadi, tayyorlaydi, ularni talab darajasida sifatli amalga oshirilishni ta'minlaydi, muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan samarali foydalanishni tashkil qiladi. Mashg'ulot va topshiriqlar o'quvchilarning bir-birlariga ko'maklashishlarni talab etadigan holda tuziladi.

5. O'quvchilarning ta'lim olish jarayonidagi mas'uliyati oshadi. Hamkorlik ta'limi quyidagi maqsadli yo'nalishlarga asoslanadi.

- pedagogik talabni inkor etgan holda ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;

- o'quvchilarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;

- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish

Hamkorlikda o'qitish konsepsiyasi quyidagilardan tarkib topadi.

- o'quvchi bilan hamkorlik munosabati;
- o'quvchida ijobiy emotsional qoniqishhosil qilish;
- maktab ta'limini muvaffaqiyatli amalga oshirish;
- muloqot va mehnat qilish ko'nikma va malakasini hosil qilish;
- o'quvchilar bilan birgalikda mehnat qilish va yutuqqa erishishga ishontirish;
- o'quvchiga yordam berish g'oyasi;
- har bir o'quvchi sinf ishida erkin qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
- o'quvchilar ishini rag'batlantirish maqsadida baholash.

Hamkorlikda o'qitish o'quvchiga, o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi, o'quvchil



1-rasm.Hamkorlikda o'qitish tizimini joriy etish.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridansamarali foydalanishning o'ziga xos pedagogik-psixologik va uslubiy asoslari:

- tashkiliy-pedagogik asoslar - o'quv reja, dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o'zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida o'quv mashg'uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit imkoniyatlarini belgilash va amalga oshirish;

- psixologik asoslari - o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish, o'quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, dars mazmunidagi tushuncha, atama va boshqa shartlarning o'quvchi uchun sodda va tushunarli bo'lishi;

- uslubiy asoslari - mashg'ulot uchun zarur vositalarni oldindan tayyorlash, ularning talab darajasida, sifatli bo'lishni ta'minlash;

- muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish.

Xulosa qilib aytganimizda hozirgi kunda zamonaviy maktablarda hamkorlik o'qitish tizimi har bir o'quvchining tahsil olishidagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyishtirishga zamin tayyorlaydi. O'quvchi shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo'yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning shakllanishi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda uning individualligini

rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg'unlikda olib borish kabi g'oyalarni ilgari suradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.I. Baxtiyorova, X.Y. Hamroyeva. "Methods of Teaching Materials Science on the Basis of Innovative Educational Technologies". Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Peer Reviewed International Journal. 2022. Amerika. 133-136 pg. <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1309>
2. Sobira Ixtiyor qizi Baxtiyorova, Dilorom Bafo qizi Jo'rayeva. 5 SINF TEKNOLOGIYA DARSLARIDA "MATERIALLARGA ISHLOV BERISH BO'LIMI" NI INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. - GOLDEN BRAIN, 2023. 73-79. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/5457>
3. Sobiraxon Ixtiyor qizi Baxtiyorova, Ziyoda Omonboy qizi Ganjayeva. TEKNOLOGIK TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMINI JORIY ETISH METODIKASI. - GOLDEN BRAIN, 2023. 67-72. <file:///C:/Users/Admin/Downloads/67-72.pdf>

TEKNOLOGIK TA'LIM TIZIMIDA AMALIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Bahronova Shaxlo Islomovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

baxronovashaxlo342@gmail.com

Davlatova Nasiba Ubaydilloyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabasi

davlaton1988@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologik ta'lim tizimida amaliy metodlardan samarali foydalanish ularni qaysi paytda qanday vaziyatlarda qo'llash metodikasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: metod, pedagogik kuzatish, suhbat, test, eksperiment, matematik va statistik tahlil, ijtimoiy tadqiqot metodi, tarbiya jarayoni, mutaxassislik, so'rovnomalar, hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlar.

Didaktik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning hatti-harakatlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyo qarashini, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Tahsil natijasida o'quvchi shaxsining turli xislatlari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni kuzatish, hisobga olish pedagogik tadqiqotlarning asoslaridan hisoblanadi. O'quvchilar va o'qituvchilarning o'quvishlari sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, metod va vositalari orasidagi bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari qanday ob'ektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday ob'yektiv xarakterga egadir. Ta'lim va tarbiyaga taalluqli hatti-

harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktika da yagona usul hisoblanishini Yan Amos Komenskiyning “Buyuk didaktika”, K.D.Ushinskiyning “Inson tarbiya fani sifatida” asarlarida ko‘rish mumkin. O‘quv-tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan emperik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

Texnologiya ta’limida qo‘llaniladigan amaliy metodlar.

Texnologiya ta’limi muammolariga yaratilgan ilmiy izlanishlar o‘tkazishdan maqsad ta’lim va tarbiya xususiyatlari, samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliy qo‘llash, texnik vositalarini qo‘llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir. Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. O‘qituvchining adabiyotlarni o‘rganishi va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

2. Gipoteza qurish, ya’ni o‘qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. O‘qituvchining faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni berishi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirishi va o‘quv jarayoniga qo‘llashi. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umum ilmiy va maxsus metodlari qo‘llaniladi Umumilmiy metodlarga :nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

Nazariy metod - adabiyotlardan o‘rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar to‘plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma’lumotlardan foydalaniladi. Ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to‘g‘ri tanlansa ta’lim-tarbiya mazmuni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Kuzatish metodi. Odatda tabiiy kuzatish orqali o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Bilvosita kuzatish obyektни bevosita kuzatish imkoniyati bo‘lmaganda amalga oshiriladi. Shunday ob’yektdagi shaxsning tug‘ma qobiliyati, imkoniyatlari, intizomlilik, rostlik, kamtarlik, kamsuqumlik kabi xislatlari kirishi mumkin. Bunday xislatlarni bevosita kuzatish natijasida aniqlash qiyin. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘ziga qulay ko‘rsatkichlardan foydalanadi.

Bevosita va bilvosita kuzatish bilan bir qatorda faol kuzatish ham qo‘llaniladi. Faol kuzatishda didaktik jarayonda bevosita o‘qituvchining o‘zi ham qatnashadi va jarayonning borishiga ta’siretadi.

Suhbat metodi.Suhbat bu so‘rashning bir turi bo‘lgani holda o‘qituvchining jiddiy tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan o‘quvchi bilan bevosita aloqada bo‘lish vaqtida og‘zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo‘llaniladi.

Pedagogik so‘rash metodi – o‘qituvchining boshqa hamkasblaridan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So‘rash savollarning mantiqiy o‘ylangan tizimi, ularning aniq ifodalanishi, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat’iy formadagi javobni (“ha”, “yo‘q”) ham taqozo etishi mumkin.

Test, so‘rovnoma – bu so‘rovnoma, ya’ni anketa usuli qo‘llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o‘quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qizishlarini, kelajak orzuistaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi.

Test sinovlar metodi – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda test savollarining ma’lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlash imkon beradigan qilib tuziladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Texnologiya darslarida amaliy metodlar ya’ni kuzatish, so‘rovnoma, test, suhbat, pedagogik so‘rash metodlaridan foydalanish davomida ta’lim oluvchilarda qabul qilish ko‘nikmalari yaxshi rivojlantirar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003, TDPU,- 174 bet.
2. Avliyaqulov N.X., Musaev N.N. Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / a-Toshkent: Cho‘mpon NMIU, 2012.208 b.
3. Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti. Toshkent. 2014 - y. 366 b.
4. Жўраев А.Р., Сайфуллаева Д.А., Бахронова Ш. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИНАДИГАН ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.
5. D.A.Sayfullayeva., Sh.I. Bahronova., «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. -2022.- Т. 1. №. 8. -С. 230238.

6. Muxamedov Sh.M. “Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –B.: 2022 y. – 155 b.

O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHISINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Umarjonova Nodira Abduxamid qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Texnologik ta’lim
metodikasi” kafedrası Stajor o‘qituvchisi
nodira5655@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish, uning mazmuni va dolzarbligi masalalari hamda bu jarayonni tashkil etishda rivojlantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kommunikatsiya, kompetensiya, texnologiya, kommunikativ kompetensiya, axborot yetkazish, kompetensiyalar to‘plami.

Yurtimizda bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyalarini doimiy ravishda shakllantirib borish hamda ta’lim bosqichlari uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi taraqqiyot jarayoning dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning, xususan, texnologiya fani o‘qituvchilarining shaxsiy hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish ularda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi o‘rtasidagi munosabatlarni mutanosib ravishda o‘rnatish uchun kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi barchamizga ma’lum. Shundan kelib chiqqan holda, “kompetensiya” tushunchasiga alohida urg‘u berishni lozim deb topdik.

Ushbu tushuncha lotin tilidan tarjima qilinganda inson yaxshi biladigan, bilim va tajribaga ega bo‘lgan bir qator masalalarni anglatuvshi tushuncha sifatida ifodalash mumkin. “Kompetensiya” tushunchasi pedagogik tushunchalardan farqi shundan iboratki, uning asosida turgan real hayotiy ob‘yektiv tushunchalar tarkibida muhim o‘rin egallaydi. “Kompetensiya” tushunchasi atrofidagi tushunmovshilik va noaniqliklar, kompetensiyaning yagona va haqiqiy ta’rifini olishga tayyor bo‘lgan ob‘yektivlik nuqtai nazardan kelib shiqadi. Ushbu muammo bir nechta ta’riflarning mavjudligini nazarda tutgan konstruktiv yondashuv nuqtai nazaridan kelib shiqqan holda yechiladi. Ushbu yondashuvda tushunchaning adekvatlik mezoni sifatida ta’rif qo‘llangan kontekstda ma’noga ega bo‘lgan semantik soha chegaralari xizmat qiladi [1; 256-b.].

O'qituvchi uchun kommunikativ kompetensiyalar (professional-maxsus kommunikativ kompetensiya), uning kasbiy faoliyati uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ta'lim jarayonining ikkita asosiy sub'ekti – o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'siri asosan axborotli va u bilan amalga oshiriladi. O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi, shuningdek, hamkorlik muhitida o'z maqsadlariga erishish uchun uning hamkasblari, ota-onalari va o'quv jarayonining boshqa sub'ektlari bilan ishbilarmonlik munosabatlarining butun tizimini tartibga soladi. Pedagogik sohadagi muloqot o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasining mazmunini belgilaydigan bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi [2; 93-b.].

Texnologiya fani o'qituvchilari ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar bilan doimiy muloqotda bo'lishi hamda ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim sifati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga erisha olishlari muhim. Chunki, fan mazmunidan kelib chiqqan holda doimiy amaliy mashg'ulotlar bajarish, har bir ta'lim oluvchi bilan individual tarzda ishlashni talab etadi. Agarda texnologiya fani o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyalarini doimiy shakllantirib bormasa, ta'lim oluvchilar bilan muloqotga kirishishida maummolar yuzaga kelishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning turli oila vakillari, turli yosh kategoriyalari hamda turli sharoit farzandlari ekanligini inobatga olish o'qituvchining kommunikativ kompetensiyalarini qay tarzda rivojlantirish va muvofiqlashtirish uchun ko'rsatma bo'ladi.

Kommunikativ kompetensiyaning xususiyatiga to'xtalib o'tsak, u ta'lim beruvchidan doimiy muloqotchanlikni, har qanday vaziyatda ta'lim oluvchilar va ularning jamoasi bilan ijobiy va muvofiqlashgan munosabat o'rnata olishni talab etadi. Ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar o'rtasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil eta olishi, faoliyatga undab turuvchi motivatsiya bera olishi, maqsadlarga ongli yondashishga unday olishi, ideal dars strukturasi muvofiq ta'lim oluvchining mustaqil ravishda ta'lim jarayoniga yondasha olishga o'rgatishi lozim. Bu esa, fan o'qituvchisidan kompetensiyalar to'plamiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida, kadrlar tayyorlash, xususan, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish masalalariga alohida yondashish, notiqlik mahorati hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha mahorat darslari, psixologik treninglarni tashkillashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.Sh.Kadirov "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida amaliy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari" "Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami 2023-yil 30-may.

2. N.I.Amirov “Universal va professional kommunikativ kompetensiyalar tarkibiy komponentlarining xususiyatlari” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ISSN:2181-1784 3(1), Jan., 2023.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Shamsiyeva Dilso‘z

Xalqaro Innovatsion Universiteti o‘qituvchisi

Temirov Ma‘ruf

Xalqaro Innovatsion Universitet 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning shakl va vositalari hamda konseptual xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, tarbiya, faoliyat, ijodiy yondashuv, fazilat, qobiliyat, innovatsiya, o‘qituvchi, fikr, jarayon, natija, muvaffaqiyat.

“Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma‘naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir» - deb ta‘kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev (Yangi O‘zbekiston Strategiyasi) asaridan.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash” to‘g‘risidagi farmoni joriy etildi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib “yangilanish” “o‘zgarish” degan ma‘nolarni. Innovatsiya-umumiy ma‘noda “o‘zgarish tomon, yangilik, kashfiyot, ixtiro sinonimlik hosil qiladi va ma‘no jihatdan qilsada, har holda tushunchalarning barchasi natija-ijodiy faoliyat ijodkorlik bilan bog‘liqdir. Innovatsiya bu yangi g‘oyalar, fikrlar hamda konsepsiyalar yaratish demakdir. Innovatsiya har qanday turdagi yangilik sifatida emas balki mavzud tizimning samaradorligini oshirishga qaratilgan jarayon sifatida qarashimiz lozim.

Hozirgi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash eng muhim kasb etadigan jarayon hisoblanadi. Innovatsiya bu ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish faoliyatini boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda

ularni ijro etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat narijasidir.hozirgi bo'lajak pedagoglar darsni noan'anaviy olib borishi ham bilishlari joizdir.Noan'anaviy ta'lim tizimining afzalliklari shundaki talabalarining darsda faol qatnashish imkoniyati kengligi dars mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi, shu bilan birga faqat mazmunini o'zgartirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy tahliliy fikrlashni ham rivojlantirishga yordam berishi bilan xarakterlanadi.Innovatsion jarayoning mohiyati – o'qituvchi va tajribalarning birgalikdagi faoliyati mazmunida namoyon bo'ladi, jarayonda faoliyatni pedagog tajribalarga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi, Pedagogik yordamning asosiy mohiyati innovatsion uslubning tavsifi, uning maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilar ifodalanadi. Innovatsion jarayonni amalga oshirish shartlari vosita va yo'llari tuzilishini to'liq anglamagan yoki uni yuzaga keltiradigan ehtiyojga bog'lanmagan holda amalga oshiriladi, ya'ni stixiyali innovatsiyadir. Bu tarzda innovatsiyalar ko'pincha ilmiy asoslar bilan bog'liq bo'lmay empirik asosida vaziyat talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Innovatsion pedagogik jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarining bilish faoliyatini rivojlantirish.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativligidir. Kreativlik shaxsning yangin tushuncha yaratish va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati xislatini bildiradi.Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda nutq madaniyati ham muhim ro'l o'ynaydi. Nutq madaniyati, chinakkam ma'noda adabiy til bilan bo'g'liq hodisadir.Nutq madaniyati a'zolarining umumiy nutqiy faoliyati jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko'zda tutadi.

Ta'lim innovatsiyalari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayoning o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatini o'zgarishi;
- o'quvchi (talaba)faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi;

Yangilanish ta'lim jarayonining qaysi bo'lagiga o'zgartirish kiritishni aniqlashdan boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1..Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali

marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash" to'g'risidagi farmoni. ПФ-6097 сон.29.10.2020 у

3. Леонтев А.Н. Наука и человечество. 2 т.-М.: Знания, 1963.-366 с.

4. Ziyomuhhammadov B. Abdullayeva Sh. Pedagogika. -Т.: O'qituvchi, 2000. -126

5. Слободчиков В.И. Инновационное образования. //Ж. Школьные технологии. - 2005. -№2. - 4-12 с.

DOKTORANTURA DASTURLARI SIFATINI MONITORING QILISH VA BAHOLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Bekmuradova Gulnoza Maxmudovna

Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti. Ilmiy-
metodik bo'limi boshlig'i.

E-mail: bekmuradovagulnoza@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada rivojlangan xorij mamlakatlarida yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'yicha to'plangan tajribalar, qo'llanilayotgan yondashuvlar, erishilan yutuq va mavjud muammolar soha olimlarining ilmiy mahsulotlari (maqola, qo'llanma, monografiya va dissertatsiyalar), mazkur sohaga doir me'yoriy hujjatlar va tartib-qoidalarni o'rganish va tahlil qilishning turli usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish asosida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlashning turli mexanizmlari mavjudligiga va ularning har biri o'ziga xos ilmiy-amaliy asosga ega ekanligiga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: oliy ta'limdan keyingi ta'lim, ilmiy-pedagogik kadrlar, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligi, sifat madaniyati.

Ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Ushbu turkumda ma'lum bir o'rinni universitetlarning turli reytinglari (mahalliy va xalqaro) egallaydi, bu ma'lum bir universitetni baholash va universitetlarni bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi.

Eng nufuzli global universitet reytinglari Britaniyaning Times nashri Tomson Reuters bilan birgalikda tuzilgan reytinglar (The Times Higher Education World Reputation Rankings; The Times Higher Education World University Rankings) va Britaniyaning Kuaskuarelli Symonds xalqaro konsalting agentligining reytingi (QS World University Rankings) [1, 15-b.].

Hozirda MDH davlatlarida aspirantura va doktoranturaning reytinglari mavjud emas [2, 87-b.]. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ta'lim vazirligining aspirantura faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan monitoring ko'rsatkichlari orasida faqat ikkitasi mavjud.

Bu har 100 talabaga to'g'ri keladigan ta'lim tashkiloti aspirantlari (ad'yunktlari), rezidentlari, stajorlari, assistentlari soni va hisobot davrida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan ilmiy-pedagogik xodimlarning ilmiy-pedagogik xodimlarning umumiy sonidagi ulushi [3].

MDH mamlakatlarida aspirantura va doktoranturani ilmiy kadrlar tayyorlashning murakkab ilmiy-ta'lim tizimi sifatida qarash yondashuvi shakllangan [4]. Ilmiy-tadqiqot va ta'lim yo'nalishidagi tayyorgarlikning o'zaro bog'liqligi "aspiranturaning samaradorligi" konsepsiyasining alohida mazmunini belgilaydi.

Ayrim tadqiqotlarda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimining samaradorligini baholashda iqtisodiy yondashuvdan foydalanilgan va bunda uning ikkita tarkibiy qismini ajratib ko'rsatilgan: ichki va tashqi [5, 142-b.].

Samaradorlikning ichki komponenti tizim ichidagi samaraning unga erishish xarajatlariga nisbati sifatida baholanadi va doktorantlar (aspirantlar), ilmiy ishlar, kashfiyotlar, patentlar va boshqalar sonining ko'payishi sifatida ifodalanadi. Tashqi komponent ijtimoiy tizim faoliyatining iqtisodiy oqibatlarini, butun jamiyatga taalluqli bo'lgan va unga erishish xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan natijani ifodalaydi. Mualliflar aspirantura va doktorantura ko'lamini kengaytirish, ta'lim oluvchilar sonini rejalashtirish iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish bilan bog'liq bo'lishi va alohida maqsad bo'lmasligi kerakligini ta'kidlaydilar.

Aspirantura va doktoranturaning samaradorligi to'g'risida xulosalar chiqarilgan asosiy ko'rsatkichlardan biri aspirant va doktorantlarning dissertatsiyalarni o'z vaqtida himoya qilish ko'rsatkichidir.

Yuqoridagi baholashning to'laqonli emasligi "samaradorlik" tushunchasining noaniqligini pesh qiluvchi mutaxassislar tomonidan ta'kidlangan, bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, u nafaqat ilmiy va ta'lim faoliyati natijalarini biron bir miqdoriy ko'rsatkichga keltirish qiyinligi, balki natijaning xarajatlarga nisbatini izohlashdagi qiyinchilik tufayli ham samarasizdir.

Ba'zi mualliflarning nuqtai nazariga ko'ra, aspiranturaning samaradorligi "aspiranturaning asosiy maqsadli funksiyalarga erishish shartlari va darajasini aks ettiruvchi va miqdoriy usullar bilan aniqlangan resurs bazasi, o'quv jarayoni va aspirantlarni tayyorlash natijalarining muvofiqlashtirilgan parametrlarini o'z ichiga olgan" kompleks ko'rsatkichdir [6, 81-b.].

Bunday samaradorlik tizimini ishlab chiqish va ko'rsatkichlarni tanlashda asosiy tamoyillar murakkablik, minimallashtirish, muvozanat va qulaylik tamoyillari edi. Samaradorlik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, ushbu tizim aspirantura samaradorligining umumlashtirilgan ko'rsatkichini aniqlash uchun normallashtirish, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, vazni farqlash va ko'rsatkichlarning raqamli qiymatlarini me'yorlash algoritmini ham o'z ichiga oladi. Yuqoridagi metodologiya, mualliflarning

fikricha, texnik, ijtimoiy va gumanitar fanlar uchun ham moslashtirilishi mumkin. Aytish mumkinki, ushbu tadqiqot eng to'liq va izchil, ammo ko'p qirrali tadqiqotlardan biridir, chunki bitta samaradorlik ko'rsatkichi ilmiy kadrlarni tayyorlash va sertifikatlashning butun tizimining ko'p qirrali faoliyatini aks ettira olmaydi.

Boshqa "malakaviy" yondashuv nuqtai nazaridan, aspiranturada o'quv faoliyatining asosiy maqsadi ma'lum darajadagi mutaxassisni tayyorlashdan iborat bo'lib, dissertatsiya yozish muhim, ammo ta'limning yagona vazifasi bo'lib qolmoqda. Ushbu yondashuv zamonaviy aspiranturaning tashkiliy va mazmuniy asosi bo'lgan federal davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topgan [7, 46-b.].

Oliy ta'limning boshqa jihatlari singari, Yevropada doktoranturaning sifati ham muassasalar va mamlakatlar o'rtasida katta farq qiladi. Yevropa universitetlarida faoliyat yurituvchi sifatni ta'minlash va nazorat qilish tizimlari ma'lum bir mamlakatga xos bo'lgan sifat an'alariga qarab shakllangan; universitetning kattaligi va muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, muassasaning yoshi, joylashgan joyi, tashkilot madaniyati va umumiy yo'nalishi (tadqiqot yoki pedagogik faoliyatga). Shunga qaramay, doktorantura sifatining bir jihati barcha Yevropa universitetlari uchun umumiydir – doktorantlar ta'limining sifati, ya'ni doktorantlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqot sifati ushbu tadqiqot olib borilayotgan ilmiy muhit bilan uzviy bog'liqligini va shuning uchun ham u bakalavriyat yoki magistratura bosqichiga xos bo'lgan ta'lim sifatiga emas, balki ta'lim sifatini ta'minlashning boshqa mezon va metodologiyalar tizimiga asoslanishi lozimligini tushunishdir.

Yevropaning doktorantlarni tayyorlash tizimlarida ichki va tashqi sifatni ta'minlash o'zaro farqlanadi. Tashqi sifat kafolati (yoki sifat menejmenti) doktorantura dasturlarini baholash jarayonlarida muhim rolni o'ynovchi va oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish, baholash va auditini o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan milliy organlar va xalqaro assotsiatsiyalar vakolati doirasiga (masalan, Yevropa Oliy Ta'lim Sifat Assotsiatsiyasi (ENQA) yoki YeAU) kiradi. Tashqi baholashning vazifasi, birinchi navbatda, universitetning o'z sifatini ta'minlash tizimiga ega ekanligiga ishonch hosil qilish va shu orqali uning akademik mustaqilligini hurmat qilishdan iborat.

Benchmarkingni yuqoriroq sifat standartiga erishish va uni yanada takomillashtirish maqsadida tashkilotni ichki va tashqi baholash jarayonida ilg'or tajribalarini aniqlash, o'lchash, taqqoslash, o'zlashtirish, qo'llash va joriy etishga qaratilgan uzluksiz jarayon deb tariflash mumkin. Benchmarking oliy ta'lim muassasalariga sifatni oshirishga qaratilgan tadbirlarni samarali amalga oshirish uchun o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Olib borilgan o'rganish va tahlillar ta'lim tizimi va uning alohida boqichi bo'lgan oliy ta'limdan keyingi ta'limning samaradorligini ta'minlashga turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi.

Bunda, bizning mamlakatimizda va MDH mamlakatlarida hozirda ham amalda bo'lgan samaradorlikni baholash yondashuvi bir yoqlamalilik tavsifiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Samaradorlikni dissertatsiyani o'z vaqtida himoya qilganlarning salmog'i bilan o'lchash yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlari sifatini va uning jamiyat uchun foydalilik darajasini baholash imkoniyatini bermasligi aniqlandi.

Doktorantura orqali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini ta'minlash uchun faqat doktoranturadagi jarayonlarni takomillashtirish kifoya emasligi, buning uchun doktorantura faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasasida (universitet, institut) sifat madaniyatini joriy etish zarur.

Ta'limi rivojlangan Yevropa mamlakatlarida yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va bunda sifat va samaradorlikni ta'minlashga doir qo'llanilayotgan yondashuv va mexanizmlarni mamlakatimiz ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda doktorant va mustaqil tadqiqotchilarni tayyorlash tizimiga joriy etish lozim. Bunda Yevropa komissiyasi tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilgan UZDOC loyihasining O'zbekistonda doktorantura ta'limi sifatini ta'minlashga doir tavsiyalaridan unumli foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Зулькарнай И. У. Российские вузы в глобальных рейтингах [Текст] / И. У. Зулькарнай, Г. Р. Ислакаева // Высшее образование в России. – 2015. – № 12. – С. 13–21.

2. Калинина И. А. Специфика и эффективность подготовки научно-педагогических кадров в аспирантуре в контексте развития и модернизации образования [Текст] / И. А. Калинина // Актуальные проблемы психологического знания. – 2014. – № 3. – С. 82–89.

3. Методика расчета показателей мониторинга эффективности образовательной деятельности организаций высшего образования 2016 года (АК-6/05вн от 21.03.2016) [Электронный ресурс]: официальный сайт Минобрнауки РФ. – http://stat.miccedu.ru/info/monitoring15/%D0%90%D0%9A-6_05%D0%B2%D0%BD%20%D0%BE%D1%82%2021.03.2016.pdf

4. Непомнящая Л. В. Аспирантура как научно-образовательная система развития кадрового потенциала высшей школы [Электронный ресурс]: дис. канд. пед. наук: 13.00.08. – Краснодар, 2005. – 158 с.

5. Казанцев А. К. Национальная система подготовки научных кадров высшей квалификации: состояние и проблемы развития [Текст] / А. К. Казанцев, И. А. Никитина // Вестник Санкт-Петербургского университета. – 2004. – Т. 1 (№ 8). – Сер. 8. – С. 135–164.

6. Бедный Б. И. Оценка эффективности подготовки научных кадров в аспирантуре [Текст]: электронное учебно-методическое пособие / Б. И. Бедный,

TIKUV MASHINALARINING YARATILISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI O'RNI

Toshtemirova Mohina Sobir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabasi

Protasov Yorqinjon Yoqubjon o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda tikuv mashinalarining o'рни juda ham katta. Vazifasi va tuzilishi jihatdan turli xil bo'lib fan va texnika yutuqlaridan foydalanib yaratilgan. Hozirgi zamonaviy texnologiya talablariga javob beradigan avtomatlashtirilgan, elektr boshqaruvli tikuv mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Tikuv mashinalari bugungi kunga kelib tikuvchilikda, charm poyabzal tikishda, uy-ro'zg'orda keng miqiyosda ishlatiladi.

Kalit so'zlar: qo'l yurutmali tikuv mashinalari, oyoq yuritmali tikuv mashinalari, elektr yuritmali tikuv mashinalari, zamonaviy tikuv mashinalari unversal tikuv mashinalari

1834-yil amerikalik Volter Xant Benjamin egri iginali tikuv mashinasini yaratdi. Keyinchalik bu mashinani takomillashtirib 1850-1851-yillarda Alena Vilson va Isaak Jingerlar qaytadan tuzib chiqdilar. Shundan so'ng tikuv mashinalari ommalashib bordi. 1900-yillarda jahon miqiyosida 100 ga yaqin maishiy va tikuv mashinalarini ishlab chiqaradigan korxonalar qurildi. Germaniyaning "Shtrobel", "Praff", "Aller", "Diurkapp", Yaponiyaning "Yamako" va "Juki" firmalari shular jumlasidan.

XIX asrning ikkinchi yarimiga kelib, tikuv mashinasining yurtimizda ommalashuvi olamshumul voqea bo'ldi. Bu paytda "Zinger" mashinasining, so'ng esa "Podolsk" tikuv mashinalarining O'zbekistonga keltirilganligini tikuvchilik sohasini yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Dastavval, tikuv mashinalarining qo'l bilan ishlaydiganlari, so'ng esa takomillashib oyoq mashinalari yaratilgan. Yartilgan tikuv mashinalarining ikki turi bo'lgan.

1. Mokili tikuv mashinalari

2. Mokisiz tikuv mashinalari

Tikuvchilik ustaxonalarida, atelyelarda unversal, ya'ni to'g'ri bahyaqatorli, mokili bahyaqatorli tikuv mashinalaridan foydalanilgan. Unversal tikuv mashinasida har qanday ishni bajarsa bo'ladi. Maxsus mashinalarda esa faqatgina ayrim ishlar bajariladi. Masalan, tugma chatiladi, izma yo'rmalanadi.

Elektrli tikuv mashinasini ishga tushirish uchun kinopkasi bosiladi. Mashina elektr toki bilan ta'minlanadi. Oyoq tepkisini asta bosish orqali harakatga keltiriladi. Elektr tikuv mashinalarining tezligi katta bōladi. Bu esa mehnat unumdorligini oshiradi.

“Chayka” tikuv mashinasi siniq bahyaqator hosil qilishda mashina ignasi bir yo‘lda vertikal va gorizantal harakat qiladi. Siniq bahyaqator 5 ta asosiy mexanizmlar (igna, moki, ip, tortkich, tepki, surish mexanizmlar) bilan qo‘shma ignani og‘diruvchi mexanixmni bir biriga bog‘liq harakatidan hosil bōladi. Bunday turdagi tikuv mashinalariga “Tula”, “Shayka” (Rossiya), “Lada”, “Veritas”, “Koller” va boshqalar kiradi.



1-rasm. Zamonaviy tikuv mashinasining turlari

Xulosa. Hozirda ko‘plab elektronika qo‘llangan, dasturlangan, mikro kompyuterli tikuv mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Masalan, Shvetdiyaning “Xuskvarna” firmasida ishlab chiqarilgan mashinalar dastur asosida turli kashtalar tikadi, bezaklarni biriktirib tikadi, applikatsiyalarni bezatib biriktiradi. Tugma qadash mashinalari bitta tugmani bir sekundda qadaydi. Bir smenada tugma qadash mashinalari 5 ming ta tugma qadashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

7. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003, TDPU,- 174 bet.
8. Avliyaqulov N.X., Musaev N.N. Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / a-Toshkent: Cho Mpon NMIU, 2012.208 b.
9. Abduqodirov A., Pardayev A. Ta‘lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti. Toshkent. 2014 - y. 366 b.
10. Жўраев А.Р., Сайфуллаева Д.А., Бахронова Ш. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИНАДИГАН ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.
11. D.A.Sayfullayeva., Sh.I. Bahronova., «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. -2022.- Т. 1. №. 8. -С. 230238.

12. Baxronova Shahlo Islom qizi “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish” «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. -2022.- T. 1. №. 8. -C. 230-238.

13. Bahronova Sh.I. “XALQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH (ZARDO‘ZLIK SAN’ATI MISOLIDA)” IJODKOR O‘QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL MATERIALLARI TO‘PLAMI 5-MART, 2023-YIL 27-SON

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA BIRIKMALAR HAQIDAGI BILIM VA KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Abdulloyev G‘iyos G‘ulomovich

Buxdpi Texnologik ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada o‘quvchilarda texnologik hamda politexnik bilimlarni shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiladigan ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarning turlari, ishlatilish sohalari yoritilgan

Kalit so‘zlar: ajraladigan va ajralmaydigan birikmalar; uchma-uch, ustmaust, burchakli, payvand birikmalar; bir qatorli, ko‘p qatorli, shaxmat nusxa, parchin mixli birikmalar; uchburchakli, to‘g‘ri to‘rtburchakli, metrik rezbali birikmalar; prizmatik, silindrsimon va segmentsimon shponkali birikmalar

Mashinasozlikda mexanizm va mashinalarni yig‘ishda ba’zi detalar o‘zaro biriktirilib, ajralmas yoki ajraladigan birikmalar hosil qilinadi. Ajraluvchan birikmalarni shkastlantirmasdan, buzmasdan qismlarga ajratish mumkin. Rezbali birikmalar eng ko‘p tarqalgan birikma bo‘lib, vintli, shpilkali turlarga bo‘linadi. Ular mahkamlovchi va zichlovchi bo‘ladi. Rezbalarning shakli uchburchak, to‘rtburchak va trapetsiya shaklida bo‘ladi. Oddiy mahkamlovchi rezbali birikmalarda bolt yoki vint teshikka ma’lum zaror bilan kirgiziladi.

Zichlovchi birikmalarda esa bolt urib kiritiladi. Birikma ajralib ketmasligi uchun kontrgaykalar, shaybalar ishlatiladi. Shponkali va shlitsali birikmalar vallarda yoki o‘qlarda aylanadigan detallarni o‘zaro biriktirishda ishlatiladi. Shponkalarning prizmatik, silindirlik va segmentsimon turlari bor va ular tushadigan kuchlanish bo‘yicha tanlanadi. Birikmalardan to‘g‘ri foydalanish uchun ularning tuzilishini, ishlatilish sohasini, parametrlarini bilish kerak. Rezbali birikmalarning afzalliklari shundan iboratki, ular nisbatan katta yuklanish ta’sirida yetarli darajada ishonchli ishlaydi; ularni ajratish va yig‘ish oson; nisbatan arzon, barcha o‘lchamlari standartlashtirilgan.

Rezbaning hamma o'lchamlari standartlashgan bo'lib rezbalar silindrsimon va konussimon sirtlarda kesiladi. Asosan silindrsimon rezbalar ishlatiladi, jips birikmalar hosil qilish uchun konussimon sirtlarda kesiladi. Rezbadagi o'ramlarning yo'nalishi chapdan o'ng tomonga yo'nalgan bo'lsa o'ng rezba, o'ngdan chap tomonga yo'nalgan bo'lsa chap rezba deb ataladi. Mashinasozlikda eng ko'p tarqalgan rezba metrik rezba bo'lib, uchburchak shaklida bo'ladi va burchagi 600 ga teng. Metrik rezbalar asosan mahkamlash uchun ishlatilib rezba qadami yirik yoki mayda bo'lishi mumkin. Shponkali va shlitsli birikmalar yordamida shkiv, tishli g'ildirak, mufta va shunga o'xshash detallar vallarga mahkamlanadi. Bunda birikma asosan burovchi moment bilan yuklanadi.

Bu birikmalar val, shponka hamda g'ildirakni (shkiv, tishli g'ildirak, yulduzcha va boshqalar) gupchagidan iborat bo'lib, shponka burovchi momentini uzatish uchun ishlatiladi. Shponkali birikmaning afzalligi bu uning tuzilishi oddiy bo'lib, ularni yig'ish va qismlarga ajratish nisbatan yengil va arzonligidadir. Kamchiliklari: shponka uchun mo'ljallangan o'yoq bo'lishi, bu esa shu kesimning mustahkamligini kamaytiradi.. Shuning uchun shponkali birikmalar dinamik yuklanish bilan ishlaydigan va katta tezlik bilan harkatlanuvchi vallarda ishlatish tavsiya etilmaydi. Kamchiliklardan yana biri bu har bir shponka o'tqaziladigan joyiga moslab o'rnatilishi kerak, shuning uchun katta seriya bilan tayyorlanadigan uzellarda ham tavsiya etilmaydi. Shponkali birikmalar zo'riqqan va zo'riqmagan bo'lishi mumkin.

Zo'riqmagan birikmalarda prizmatik, segmentli shponkalar, zo'riqqan birikmalarda silindrsimon, ponasimon shponkalar ishlatiladi. Standart bo'yicha tayyorlanadigan shponkalar uchun mustahkamligi 500 MPa dan kam bo'lmagan uglerodli va legirlangan po'lat materiallar ishlatiladi. Ruxsat etilgan kuchlanishlarning qiymati ish rejimiga, val hamda vtulka materiallarning mustahkamligiga bog'liq bo'ladi.

Valning sirtida va unga o'rnatilgan detall gupchagi teshigining sirtida ariqchalar o'yilib, detallardan birining chizig'i, ikkinchisining botig'iga tushadigan qilib o'rnatilsa, shlitsli birikma hosil bo'ladi. Bunday birikmalarda shponkali birikmalardagiga nisbatan quyidagicha afzalliklari bor: birinchidan detallar valda yaxshi markazlanadi, kerak bo'lganda ularni val o'qi bo'ylab suriladigan qilib o'rnatish ham mumkin; ikkinchidan o'lchamlari bir xil bo'lgan birikmalarda shlitsli birikmalar shponkali birikmalarga nisbatan katta burovchi moment uzata olishi mumkin; uchinchidan yuklanish zarb bilan bo'lganda ham ishonchli ishlaydi. Shlitsli birikmalarning barcha o'lchamlari standartlashgan bo'lib, shakli to'g'ri to'rtburchakli va uchburchakli bo'lishi mumkin. Bulardan eng ko'p tarqalgani to'g'ri to'rtburchak shaklli shlitslardir. Uchburchak shlitsli birikmalar, nisbatan katta bo'lmagan momentlarni uzatish uchun qo'zg'almas birikma shaklida ishlatiladi. Hozirgi vaqtda ko'p ishlatiladigan ajralmas birikmalarga payvand va parchin mixli birikmalar kiradi.

Payvand birikmalar detalarni uchma – uch, ustma – ust va burchakli qilib briktirishda ishlatiladi Payvandlash – payvandlanadigan qismlarni, detalarni mahkamlash yoki umumiy qizdirib, plastik deformatsiyalab, atomlararo bog‘lanish hosil qilib ajralmas qilib biriktirish jarayonidir. Payvandlashning 60 dan ortiq turi bor (elektr yoyli, elektr shlakli, elektron – nur , plazmali, yorug‘likli, gazli va boshqalar). Payvandlash dastaki, yarim avtomatik va avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Mashinasozlikda asosan elektr yoy va gaz alangasida payvandlashdan foydalaniladi.

Payvandlash darzlar, o‘yiqlar, yoriqlar, singan joylar, sinib qolgan jismlarni ulashda, yamab berkitish va detallarni bir-biriga ulashda qo‘llaniladi. Yoy yordamida payvandlash uchun o‘zgaruvchan tok manbalari (payvandlash transformatori) yoki o‘zgarmas tok manbalari (payvandlash to‘g‘rilagichlari va o‘zgartkichlari)dan foydalaniladi. O‘zgarmas tokda payvandlashda detal manbaning manfiy qutbga (teskari qutbililik) yoki musbat kutbga (to‘g‘ri qutbililik) ulanishi mumkin. Detal musbat qutbbga ulanganda ko‘p issiqlik ajralib chiqadi. Detal yuzasini payvandlashga tayyorlshn uchun qirralar kertib kengaytiriladi, tozalanadi, organik eritmalar yoki kaustik soda yordamida yuvib yog‘sizlantiriladi. Payvand chok sovitgandan so‘ng unga yo detal sirti bilan bir tekis bo‘ladigan qilib, yoki chokdan detalga ravon o‘tadigan qilib ishlov beriladi.

Po‘lat detallarni payvandlash asosan metall elektrodlar 1-12 mm diametrli Sv-0.8, Sv-08 GA simi vositasida elektr yoy yordamida bajariladi. Sim tarkibida stabillovchi (yoyning turg‘un yonishiga yordam beruvchi), himoyalovchi (atmosferaaning zararli tasiridan) shlak va gaz hosil qiluvchi, ba‘zan esa chokning sifatini yaxshilaydigan ko‘p chatuvchi va legirlovchi elementlar bo‘lgan qatlam bilan qoplanadi. Yaxshi payvandlanadigan kam uglerodli va kam legirlangan po‘latlar (15X, 20X) oldindan detallar qizdirmasdan va keyin ishlov bermasdan E-34, E-38, E-42, E-42A, E-46 elektrodlar bilan o‘zgaruvchan tokda payvandlanadi. O‘rtacha uglerodli, ko‘p uglerodli va ko‘p legirlangan po‘latlar teskari qutbli o‘zgarmas tokda payvandlanadi.

Bunda detallar chokning ichki kuchlanishlarini va nuqsonlarini yo‘qotish maqsadida 150-700°C (odatda 250°~300°C) gacha qizdiriladi. Payvandlangandan keyin metal toblanadi va bo‘shatiladi. Katta detallar to‘g‘ri qutbli o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tokda, yupqa devorli detallar esa teskari qutbli tokda payvanldanadi. Gaz alangasida payvandlashdan, asosan, qalinligi 2-3 mm bo‘lgan yupqa detallarni payvandlash uchun foydalaniladi. Payvandlash materiali sifatida Sv-08, Sv-08A, Sv-08GS va boshqa turdagi simlar ishlatiladi. Payvandlashdan oldin chok gorelka yordamida 650-700°C temperaturagacha qizdiriladi.

Cho‘yan detallarni payvandlash gaz alangasida yoy yordamida ham bajariladi. Payvandlashning uch turi bor: butun detalni 500-700°C gacha pechda yoki ko‘rada qizdirib payvandlash; gorelka yordamida detalning ayrim joylarini 250-450°C gacha

qizdirib payvandlash (chala qizdirib payvandlash); qizdirmasdan payvandlash (sovuqlayin payvandlash). Payvandlangan birikma asta-sekin sovitiladi. Bolgʻalanuvchan choʻyan uchun: mis-temir elektrodlar, CSh-4 markali poʻlat elektrodlar, latun yoki monel-metaldan ishlangan 3-4 mm diametrli chivichlar ishlatiladi. Alyuminiy va uning qotishmalaridan ishlangan detallar avval yaxshilab tozalanadi, 250°C gacha qizdiriladi va yoy yordamida payvandlanadi. Gaz yordamida payvandlash neytral atsetelen alangasida bajariladi. Mis va mis qotishmalaridan tayyorlangan detallarni payvandlash gaz yoki yoy yordamida amalga oshiriladi. Misli yoy yordamida payvandlashda M1 markali mis sim yoki fosforli mis sim, koʻmir yoki grafit elektrodlar ishlatiladi.

Latun va bronzalardan yasalgan detallarni payvandlash koʻmir elektrodlar bilan amalga oshiriladi. Barcha detallarni payvandlashda payvandlash materiali sifatida payvandlanadigan material bilan bir jinsli material ishlatiladi. Payvand birikmalar uchma-uch, ustma-ust va burchak ostida amalga oshiriladi. Payvand choklar shakliga qarab ustma-ust va burchakli choklarga bulinadi. Payvand birikmalarning boshqa ajralmas birikmalardagiga qaraganda birmuncha afzalliklari bor, masalan birikma kam mehnat talab qilishi bilan birga, metallni tejashga imkon beradi. Bundan tashqari, murakkab shakilli yirik choʻyan quymalar oʻrniga payvand birikma vositasida tayyorlangan yengil poʻlat detallar ishlatilishi, materialni 30-40% tejashga imkon beradi.

Payvandlashni suyuqlantirib va bosim ostida payvandlash usullariga boʻlinadi. Suyuqlantirib payvandlashga elektr yoyi, elektroshlak usulida, gaz alangasida, elektron nuri yordamida plazma, lazer nuri yordamida va boshqa payvandlashlar usullari kiradi. Bosim ostida payvandlashga kontakt usuli, ishqalab, portlash, sovuqlayin va boshqa usullar kiradi. Sanoatda asosan elektr yoyi yordamida, gaz alangasini yordamida hamda kontakt usulida payvandlashlar koʻp ishlatiladi. Payvandlashda maxsus elektrodan (ustki qismi suyuq shisha aralashmasi qoplangan metall sterjen) foydalaniladi.

Payvandlash jarayonida erigan metal chok hosil qiladi, bunda sterjen ustidagi aralashma erib chokni ustini qoplaydi (flyusi) bu esa havo tarkibidagi kislorod va azotdan chokni saqlaydi, natijada chok sifatli boʻladi. Kontakt payvandlashda – biriktiriladigan joy kerakli darajada tok yordamida qizdiriladi, bunda ulanadigan joyi plastik holatga keladi, unda detallar maʼlum kuch bilan siqilganda payvand chok hosil boʻladi. Detailarni oʻzaro uchma-uch, ustma-ust va burchak ostida payvandlash mumkin. Parchin mixlar asosan diametri 20 mm dan ortiq boʻlmagan poʻlat, mis, alyuminiy simlaridan tayyorlanadi.

Oʻrnatish qulay boʻlishi uchun parchin mixning diametri teshikning diametridan kichikroq qilinadi. Parchin mixli birikmalarda choklar bir, ikki va shaxmat qatorli qilib oʻrnatilishi mumkin. Shuningdek birikma bir kesimli, ikki

kesimli hamda ko'p qismli bo'lishi mumkin. Parchin mixli birikmalarning mustahkamligi parchin mix sterjeni kesimining kesilishdagi kuchlanishga, sterjen yuzasining ezilishdagi kuchlanishga hamda o'zaro biriktirilgan listlarning cho'zilishdagi kuchlanishga chidamliligi bilan belgilanadi. Parchin mixli birikmalar samolyotsozlikda va raketsozlikda asosiy birikma sifatida ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'.Sh.Zokirov. Mashina va mexanizmlar nazariyasi.T.: "O'zbekiston", 2002.
2. R.Tojiboev, A.Jo'raev. Mashina detallari. T: "O'qituvchi", 2002.
3. A.V.Pyataev, B.K.Muhamedjanov. Mashina detallari.T.: "Moliya iqtisod", 2007.
4. A.Jo'rayev va boshqalar. Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi T.: "O'qituvchi",2002.
5. R.Tojiboyev, A.Jo'rayev, R.Maksudov. Mashina detallari. T.: "Fan va texnologiya", 2008

TEXNOLOGIYA FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARDA AHOLI JOY NOMLARINI XALQ HUNARMANDCHILIGI TURLARI BILAN NOMLANISHI BO'YICHA TUSHUNCHALAR BERISH

Umarov R.T., Mamajonov Z. Isoqov Sh.T

o'qituvchilar, Qodiriy nomidagi JDPU, Jizzax sh

Ma'lumki, xalqimiz ko'p zamonlardan beri turli xildagi kasb-hunarlar bilan shug'ullanib kelgan. Aksariyat aholi joy nomlari ularning shug'llanadigan kasb-hunari nomlari bilan atalgan.

Ushbu maqolada Texnologiya fanidan xalq hunarmandchiligi bo'limidagi(5-9 sinflarda)amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarga xalq hunarmandchiligi turlari bilan aholi joy nomlarini atalishi bo'yicha tushunchalar berish haqida to'xtalib o'tiladi.

Toshkent va Qo'qon shaharlaridagi Degrezlik mahallasidagilar o'tmishda cho'yandan qishloq xo'jaligi va ro'zg'or buuymlari yasash, jumladan qozon quyish bilan shug'ullanishgan. Mahallaga berilgan nom shu kasbga ishoradir, "Degrizlik" atamasi fors –tojikcha so'z bo'lib, ikki qismdan iborat: "deg"-qozon, "rez"- "rextion", ya'ni quymoq degan ma'noni anglatadi. Toshkent viloyatidagi Ohangaron tumani nomi "ohan"- temir, "gar" kasbni bildiruvchi qo'shimcha hamda ko'plik ko'rsatkichi –"on"(-lar) qismlaridan tuzilgan bo'lib, u aynan olganda "temirchilar" degan ma'noni bildiradi va shu hududda aholisini o'tmish kasb-koriga ishora qiladi. Xuddi shu kabi Samarqand shahridagi So'zangaron mahallasi aholisining asosiy mashg'uloti igna tayyorlash bo'lgan. Shuning uchun ham mahallaning nomi So'zangaron, ya'ni igna tayyorlovchilar, igna ustalari deb yuritilgan [Oxunov N.:23].

Tikuvchilik kasbi ham xalqimiz orasida keng tarqalgan sohalardan biri hisoblanadi. Uning kashtadoʻzlik, qoʻrmadoʻzlik, etikdoʻzlik, doʻppidoʻzlik, zardoʻzlik kabi tarmoqlaridagi ish jarayoni butkul qoʻl mehnati bilan bajarilgan. Margʻilon shahridagi Yoʻrmadoʻz mahalla ahli kashtachilikda qoʻllaniladigan chok turlaridan biri – yoʻrma tikish bilan shugʻullanganligi bois mazkur joy shu nom bilan atalgan. Buxoro shahridagi maxsi tikuvchilar mahallasi ham xuddi shunday yoʻsinda Mahsidoʻzon deb yuritilgan.

Teri oshlab undan charim tayyorlash bilan shugʻullanuvchi kasb egalari koʻnchi nomi bilan atalgan. Bu haqda Oʻzbekiston entseklpediyasida shunday deyiladi: Koʻnchilik Oʻrta Osiyo qishloq va shaharlarida rivoj topgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda, Xorazmda, Fargʻona vodiysida XX-asrning boshlarida yuzlarcha koʻnchilik doʻkonlari mavjud boʻlgan. Ularda qoramol, qoʻy, echki, tuya terisidan turli navlardagi koʻn tayyorlangan. Poyafzal, telpak, ot-ulov abzallari, qayish, qin kabilar tayyorlashda koʻn asosiy material boʻlgan. Margʻilon shahridagi Koʻnchilik, Chust shahridagi Charmgaron, Surxondaryo viloyatidagi Charmguzar deb yuritiluvchi mahalla va qishloqlar shu tarzda koʻn, charm tayyorlovchi kishilarning kasb nomlari bilan atalgan. Shuningdek Nonvoylik guzar (Qoʻqon shahri), Shirmonpaz(Margʻilon shahri) mahallalarining nomlari esa novvoylik kasbiga bogʻliq. Shu kabi Qassoblik(Jizzax shahri) mahallasining nomi shu malla aholisining qadimda qassobchilik kasbi bilan shugʻullanganligidan dalolat beradi [Oxunov N.: 31].

Qogʻozgar mahallasi Qoʻqonning janubi-sharqida, hozirgi Oʻzbekiston tumani hududida joylashgan boʻlib, mazkur joyda ilgari qogʻoz ishlab chiqaruvchi fabrika qurilgan. Tarixchi A.F. Fedochenkoning yozishicha, “fabrika shahar”ning Moʻymuborak darvozasiga yaqin erda joylashgan, bu erda oliy navqogʻozlar ishlab chiqarilgan. XIX- asrda Qoʻqon qogʻozi Oʻrta Osiyodagi eng yaxshi qogʻozlardan hisoblangan. Qogʻozlar joy nomi shu erdagi aholi kasbiga nisbat berish natijasida yuzaga kelgan.

Bulardan tashqari, Respublikamizda Koʻmirchi(Oltiariq tumani), Chinniga ron, Nosgar(Rishton tumai), Sandiqchi, Qamchifurush(Toshloq tumani), Egarci (Ishtixon tumani), Ohakchi(Bagʻdod tumani), Qayishfurish(Pxtachi tumani), Toshkesar(Margʻlon shahri), Taroqchilik(Qoʻqon shahri), Oʻqchi(Oʻzbekiston tumani) va Sovungarlik(Jizzax shahri) kabi joy nomlari mavjud boʻlib, bu atamalar da xalqimiz oʻtmishda shugʻullanib kelgan turli kasb-hunarlar oʻz aksini topgan. Shunigdek Toshkeskan (Zomin tumani) mahallasi, bu malla aholisi qadimda toshlar kesib, turli xil xoʻjalik buyumlari tayyorlaydigan kasb hunar egalari yashaydigan qishloq. Shunga oʻxshash Bgʻbon(Mirzachoʻl tumani) qishlogʻi nomi kasb-hunar turi asosida paydo boʻlgan [Ҳақимов Қ.: 106].

O'lkamiz tarixiga nazar tashlasak, boshqa kasb hunar qatori kulolchilik ancha rivoj topganligining guvohi bo'lamiz. Bu kasb egalari turli –tuman spool idishlar – kosa, tovoq, piyola, lagan, ko'za, tandir, ularga sir berish bilan shug'ullanib kelishgan. Kulolchilik ayniqsa o'zbeklar bilan tojiklar yonma- yon yashaydigan joylarda keng taraqqiy etgan. Shahar va qishloqlarda bu kasb bilan shug'ullanuvchi kishilar istiqomat qiladigan joylar mazkur kasb nomi bilan bog'liq holda yuritib kelingan. Farg'on vodiysidagi Kupolon(Kulollar), Kulol, Kulolcha, Kosa garon(Kosachilar), Tovoqchi va Jizzax shahridagi Sovungarlik, Zargar, Tandırchi va Qassoblik deb yuritiluvchi qishloq va mahalla nomlari bularga yorqin misol dir[Umarov R.T.:107].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarga yuqoridagidek otmishdagi xalq hunarmandchiligimizga oid aholi joylarining tarixiy nomlari bilan Texnolo giya fanidan dars jarayonida hunarmandchilikning turlari bo'yicha har bir mashg'ulotda qisqa tanaffus orqali tushunchalar berish ko'hna tarixga bo'lgan xalqimizning o'ziga xos hunarmandcilikk bo'yicha boy moddiy va madaniy merosini chuqur idrok etishda mu him hyotiy saboqlari sifatida alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oxunov N. O'tmishga aylangan nomlar. "Fan va turmush", №4, 1986y. , 23b.
2. ҲАКИМОВ Қ. Жиззах вилояти топонимиялари, Жиззах-2014, «Сангзор» 204б.
- 3.Umarov R.T. va boshqalar. Darslarda milliy hunarmandchiligimiz turlari bilan aholi joy nomlarini atalishi bo'yicha qisqa muddatli tushunchalar berish. "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni o'qitishga yo'naltirishning muammo va echimlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Jizzax,JDPI,FTTF, TTK, 2022 y.19-aprel, 105-107b..

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA IQTISODIY TUSHUNCHALAR BERISHDA RESPUBLIKA OLIMLARINING QARASHLARI

Allaberganova Nargiza Polvannazirovna

UrDU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedra o'qituvchisi

Bugun farzandlarini axloqiy barkamol, komil inson qilib ulg'aytirish niyatida bo'lgan har bir ota-ona, bolalarga ta'lim berishga mas'ul kishilar iqtisodiy munosabatlar insoniy munosabatlar asosiga qurilishi zarurligini, avvalo o'zlari bilishlari, qolaversa, bo'lg'usi savdo-sotiq munosabatlari ishtirokchilariga faqat chin insoniy fazilatlar egasidan halol savdogar, vijdonli ishbilarmon chiqishi mumkinligini yoshlikdanoq uqtirib borishlari zarur.

F.Qodirova maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishga doir qarashlarida “bolalarga iqtisodiyotga oid bilim va ma’lumotlar berish – bu iqtisodiy hodisalar mohiyatini tushunib yetish va ularni iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirishdir”, deya baholaydi.

A.Tojiboev, M.Asatullaeva IX-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan, savdo-sotiq, iqtisod rivojini quyidagicha izohlaydilar: Bu davrlarda butun dunyoga tanilgan mutafakkirlar yashab ijod etdi. Ular asarlarida iqtisod, tijorat, mulkdorlik, hunar sirlari, qarz olish, qarz berish, meros taqsimlash, yetim-yesirlarga muruvvat ko‘rsatish, xayr-ehson qilish, soliq turlari va miqdori, halol mehnat qilish, kasb egallash, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish haqida ibratli fikrlar bayon etilgan. Ular bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

D.A.Abdurahimovning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolaning ongiga singdirilgan bilim va ma’naviy qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli o‘zaro va oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish, bolalar tarbiyasida milliy tarbiya usullari hamda zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish, uyg‘un rivojlangan bola shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan.¹

A.Islomov, E.Egamovlar “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmasida A.Navoiyning iqtisodiy qarashlarini shunday izohlaydilar: Navoiy boylikni ikki yo‘l bilan topish mumkinligini aytadi: birinchi yo‘l o‘z mehnati bilan boylik to‘plash va yig‘ish. Bunday boylikni u qo‘llab- quvvatlagan. Navoiy olingan boylikni uch qismga bo‘lib, ya’ni birinchi qismini ketgan xarajatlarga, ikkinchi qismini o‘zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlariga sarflashni tavsiya etgan. Boylik topishlikning ikkinchi yo‘li bu o‘g‘irlik, ta’magirlik va zo‘rlik hisobiga boylik orttirishdir. Navoiy bunday boylik orttirishga keskin qarshi chiqdi va qoraladi. Ko‘rinib turibdiki, Navoiy mehnat va kasb-hunarga nisbatan muhim ijtimoiy burch sifatida yondashish, pul topish yo‘lida vijdonan, halol mehnat qilish, uning mahsulini qadrlash, ishbilarmonlik va tadbirkorlik yo‘li bilan topilgan boylikni tejash, maqsadli sarflashni yuqori o‘ringa qo‘yadi.

T.L.Xurvaliyeva tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari, ya’ni insonparvarlik, tolerantlik, variativlik asosida individual yondashish, psixologik barqarorlikka erishishning muhimligini har bir pedagog anglagan bo‘lishi lozim. Aynan ushbu tamoyillar maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarida alohida ko‘zda tutilgan. Zamonaviy maktabgacha ta’lim bolalar hayotini tashkil etishda estetik talablarga

¹ Abdurahimova D.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Ped.fanl.doktori (DSc) dis. Avtoreferati. Toshkent – 2020. 15-b

rioya etish, pedagogik jarayonda ma'naviy fazilatlarni shakllantirish, tarbiyachining umummadaniy kompetensiya talablari doirasida faoliyat yuritishini talab etishi haqidagi qarashlarni ilgari surgan.

B.Tolipov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat va shaxsning iqtisodiy madaniyati tushunchasi nafaqat iqtisod falsafasi balki, madaniyat falsafasi negizida ham qamrab chiqilishi ilmiy asoslab berilgan².

X.Y.Najmiddinova tadqiqot ishlarida maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalanish zarurati, maktabgacha ta'lim tizimi uchun ishlab chiqiladigan multimedia texnologiyalariga qo'yiladigan pedagogik, psixologik va metodik talablar hamda bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida foydalanilayotgan multimedia texnologiyalarining tasnifi bo'yicha fikrlar bildirilgan.³

M.B.Artiqova iqtisodiyot asosida dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim muassasalarida tadbirkorlikni o'rganish muhim rol o'ynaydi. Bolalar va o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash mamlakatimizda zamonaviy ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri. Shuni ta'kidlash kerakki, tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali usullaridan biri o'quvchilarning ko'nikmalari oila va maktabning birgalikdagi ishidir.⁴

Demak, iqtisodiy kategoriyalar: mulk, soliq, tadbirkorlik, tejamkorlik, ayirboshlash, ehtiyoj, talab-taklif, qiymat, iqtisodiy madaniyat kabilar va iqtisod tushunchalari pedagogik-psixologik jihatdan bir qancha olimlar tomonidan talqin qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Cho'lpon, 1994. – 182 b. – 62-63, 64 b.

3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b.

4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b. – 78-81 b.

5. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.

² <http://nauka-pedagog.com>

³ Najmiddinova X..Maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda multemediya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. p.f.d. avtoref., – T.: 2021;18-b

⁴ Артикова М.В Роль Сотрудничества школы и семьи для развития предпринимательских навыков у учеников . International scientific review, 2019.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA IQTISODIY TUSHUNCHALAR BERISHDA MDH OLIMLARINING QARASHLARI

Allaberganova Nargiza Polvannazirovna

UrDU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedra o‘qituvchisi

Iqtisodiy tarbiya – maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiyot asoslari bilan tanishtirish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob – kitob va shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatni kamol toptirishdir.

Ilk iqtisodiy tushunchalarni bolalarda shakllantirish muammolarini tadqiq etishda rossiyalik pedagog **A.Makarenko**ning quyidagi fikrlari asosli sanaladi “...bola oilaviy sharoitda erta yoshdan boshlab kelajakdagi iqtisodiy faoliyatga odatlangan holda halollik, g‘amxo‘rlik, tejamkorlik, mas’uliyat haqidagi tushunchaga ega bo‘lishi lozim”. Mehnatsevarlik, tejamkorlik tashabbuskorlik, oila byudjeti va oddiy hisob-kitobni amalga oshirish kabi fazilatlar integrativ yondashuvi asosidagi iqtisodiy tarbiya jarayonida bolaning faolligi va kuzatuvchanligini rivojlantirish hamda ta’limiy faoliyatlar davomida tizimli ma’lumotlar berib borish muhim hisoblanadi.

Rossiyalik olim **S.A.Kozlova** bolani ba’zi iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish kerakligini aytadi. Biroq, u bolalar uchun mavjud bo‘lgan iqtisodiy ta’limning mazmuni, usullari va vositalarini aniqlashni zarur deb biladi.⁵

G.M.Lyamina qarama-qarshi nuqtai nazarga ega edi. U bolalarni maktabgacha yoshdagi iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirmaslik kerak deb hisoblardi. Muallif, shuningdek, bolalarni pul va reklama bilan tanishtirishga qarshi edi.⁶

XX-asrning ikkinchi yarmida **R.I.Jukovskaya** birinchi marta bolalarda shaxsiy narsalarga va jamoat mulkiga hurmatni tarbiyalash muammolarini ko‘rib chiqdi. R.I.Jukovskaya, narsalarga hurmat haqidagi g‘oyalar oilada shakllanadi, deb ishongan, chunki bola ota-onasidan o‘rnak oladi. Uning fikriga ko‘ra, shaxsiy narsalarga tejamkor munosabat o‘yinchoqlar bilan bir xil munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. U o‘z ishida bolada biror narsa tushunchasini insonning mehnat faoliyati natijasi sifatida shakllantirish zarurligini ta’kidladi.⁷

E.Dukanova qarashlarida, iqtisodiy munosabatlarning yangi tizimi sharoitida yosh avlodning ijtimoiy kafolatlari muammosini hal qilish bugungi kunda jamiyat uchun ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning ham mehnat, ham ijtimoiy befarqligi

⁵ Козлова С.А. Дошкольная педагогика. / Козлова С.А., Куликова Т.А.. – М.: Издательский центр «Академия», 2015. – 416 с.

⁶ Бойко С.Л. Отклики на статью А.Д. Шатовой «Нужно ли и зачем дошкольнику экономическое воспитание?». / С.Л. Бойко, Р.П. Заводовская, С.А. Козлова, Г.М. Лямина, В.Л. Одинцова. // Дошкольное воспитание. – №6. – 2002. – С. 59-62.

⁷ Бабунова Т.М. Дошкольная педагогика. – М.: Сфера, 2007. – 204 с.

kuchaymoqda. Bozor munosabatlari tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ehtiyotkorlik, mehnat va kasbiy harakatchanlik kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishni talab qiladi. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yuqori darajadagi iqtisodiy ta'limni va yosh avlodni tarbiyalashni talab qiladi.⁸

S.A.Kozlova⁹ fikricha, maktabgacha pedagogikada iqtisodiy ta'lim muammosi bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy ta'limi muammosini mehnat ta'limining ajralmas qismi deb biladi.

L.V.Knysheva¹⁰, **N.G.Timofeeva**¹¹ va boshqalarning fikriga ko'ra, iqtisodiy ta'lim iqtisodiy fikrlashni o'z ichiga oladi – mehnat, tabiat, material, qadriyatlar va pulga mazmunli munosabat. Shu bilan birga, iqtisodiy ta'limni uyushgan pedagogik faoliyat, MTT tarbiyachisining iqtisodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan maxsus o'ylangan ish tizimi sifatida belgilash berilgan.

N.G.Timofeeva iqtisodiy ta'lim barcha rejim lahzalariga kiritilishi, tarbiyachilar va bolalar o'rtasidagi muloqotdan o'tishi kerakligini aytadi. U tarbiyachilar va otionalarning izchil va birgalikda ishlashining muhimligini ta'kidlaydi, bu esa bolani iqtisodiy tarbiyalash asoslarini yaratishga imkon beradi.¹²

L.N.Galkinaning fikricha, bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning vazifalari iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va iqtisodiy faoliyat davomida muloqot madaniyatini tarbiyalashdir. L.N.Galkina maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning asosiy vazifalari iqtisodiy qonunlar, mehnatni tashkil etish to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish, shuningdek, shaxsning axloqiy va iqtisodiy fazilatlarini tarbiyalash deb hisoblaydi.¹³

Demak, iqtisodiy tushunchalarni bilish, iqtisodiy kompetensiyalarga ega bo'lish, iqtisodiy ta'lim jarayoni uni tashkil etishning turli shakllardan foydalanish tarbiyachiga ijodkorlik, integratsion va polifunksional yondashuv asosida

⁸ Дуканова Е.И. Содержание формы и методы обучения, учащихся основам семенной экономики: Пед. наук. ... дисс. – Брянск. 1999. – С. 197.

⁹ Козлова С.А. Дошкольная педагогика. / С.А. Козлова, Т.А. Куликова. – М.: Издательский центр «Академия», 2015. – 416 с.

¹⁰ Кнышева Л.В. Экономика для малышей, или Как Мишка стал бизнесменом. – М., 2006.–128 с.

¹¹ Тимофеева Н.Г. Формирование экономических представлений у детей дошкольного возраста (из опыта работы). // Педагогическое мастерство: материалы IX Междунар. науч. конф. – М.: Буки-Веди, 2016. – С. 153-154. – URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/208/11276/>

¹² Тимофеева Н.Г. Формирование экономических представлений у детей дошкольного возраста (из опыта работы). // Педагогическое мастерство: материалы IX Междунар. науч. конф. – М.: Буки-Веди, 2016. – С. 153-154. – URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/208/11276/>

¹³ Галкина Л.Н. Экономика для детей. – Челябинск: Цицеро, 2013. – 112 с

individuallikni namoyish etish va shu bilan birga, ayniqsa, iqtisodiyotni bilish jarayonini qiziqarli va qulay qilish imkoniyatini berishiga guvoh bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Козлова С.А. Дошкольная педагогика. / Козлова С.А., Куликова Т.А.. – М.: Издательский центр «Академия», 2015. – 416 с.
2. Бойко С.Л. Отклики на статью А.Д. Шатовой «Нужно ли и зачем дошкольнику экономическое воспитание?». / С.Л. Бойко, Р.П. Заводовская, С.А. Козлова, Г.М. Лямина, В.Л. Одинцова. // Дошкольное воспитание. – №6. – 2002. – С. 59-62.
3. Бабунова Т.М. Дошкольная педагогика. – М.: Сфера, 2007. – 204 с.
4. Дуканова Е.И. Содержание формы и методы обучения, учащихся основам семенной экономики: Пед. наук. ... дисс. – Брянск. 1999. – С. 197.
5. Козлова С.А. Дошкольная педагогика./ С.А.Козлова, Т.А. Куликова. – М.: Издательский центр «Академия», 2015. – 416 с.
6. Кнышева Л.В. Экономика для малышей, или Как Мишка стал бизнесменом. – М., 2006.–128 с.

BOLALARNI TURLI FAOLIYAT YO'NALISHLARIDA SAVODGA O'RGATISHGA TAYYORLASH

Yakubova Gulnoz

UrDU “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrasida o'qituvchisi

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko'rgazmali, o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi, shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

Bolaning faoliyatdagi mavqei uni faqat tarbiya ob'ektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub'ektiga ham aylantiradi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallashdagi muvaffaqiyat oiladagi, Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiya va ta'lim sharoitlariga bog'liq, bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadikn, u bolaga maktabdagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshida asosiy narsa o'qish bo'lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqei o'z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o'zgacha nuqtai nazardan – maktab o'quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulq-atvoriga va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy-tarixiy tabiati har bir yosh avlodga ob'ektiv ravishda berilgan bo'ladi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimlarda, san'atda, ahloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lgan paytda tarbiya va ta'lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiati ana shunday shakllanadi. **Bola nutqi rivojlanganligini aniqlash (savodxonlikka o'rgatish).**

Maqsad: Bolalarning tovushlar, so'zlar va so'z birikmalari haqidagi bilim va tasavvurlarini, ularning so'zlarni bo'g'inlarga ajaratish hamda berilgan so'zlardan gap tuzishni bilishini aniqlash.

1. «Chiroyli stol» so'zi ishtirokida gap tuzish.
2. «Ruchka» chiqib so'zi bilan so'z birikmasi o'yla.
3. Koptok haqida imkon qadar ko'p so'z ayt.
4. «Bolalar maktabga kelishdi. Ular sinfda o'tirishibdi. Dars boshlandi. Bir o'quvchini doskaga chaqirishdi». Bu hikoyada nechta gap bor (har bir gapni uchburchak bilan belgilang. Qancha uchburchak bo'lsa, demak shuncha gap bo'ladi).

5. «Mashina», «oshxona» so'zlarini bo'g'inlab ayt.
6. «Bahor keldi» so'z birikmasidan gap tuz.
7. So'z nimadan tashkil topgan?
8. Gap nimadan tashkil topgan?
9. Xonadagi «O» tovushi bor narsalarni ayt (boshqa tovushlarni ham aytish mumkin).

- *Ikkita gapni eplab gapira olmasang, maktabda kanday uqiysan?*
- *Sanashni bilmaysan-u, maktabga qanday borasan?*
- *Maktabga borsang, o'rtoqlaring bu kiligingdan lol qolishadi!*

- *Xech narsani bilmaysan, maktabga borsang bizni uyaltirasan!*

Kabi ta'na-dashnomlar, bolada maktabdan qo'rkish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Shunday kurkuv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uygotish uchun xaddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e'tibor zarur bo'ladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda shubxasiz, murakkab jarayondir.

Nutq o'stirish va savodga tayyorlash mini muhitiga M.Montessori va boshqalarning nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishning turli uslublarini qo'yish mumkin. Hozir maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qishga o'rgatish to'g'risida munozaralar o'tkazishayapti. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi metodik jihatdan ishni to'g'ri tashkil etishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan o'yin faoliyati orqali bolalar harflar bilan o'ynashadi, o'qishga o'rganishadi, so'zlar yozilgan turli tuman kartochkalardan, yirik bosma shriftlar, chiroyli rasmlardan foydalanishadi. M.Montessorining shiori – «Menga o'zim bajarishim uchun yordam ber, men o'zim bajaraman». Tarbiyachi doim mehribon, sabr-toqatli, bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirishi, o'zining shaxsiy namunasi bilan nima qilish va qanday qilish lozimligini ko'rsatishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: "ISTIQLOL", 2006y. O'quv qo'llanma.
2. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish metodikasi" T.: Fan va texnologiyalar 2009yil. O'quv qo'llanma.
3. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018y. Darslik.
4. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: TDPU 2017yil. O'quv qo'llanma.

TIBBIYOTDA GENDER TENGLIK ASOSIDA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Ortiqova Nodira Mamajonovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tadqiqotchisi

Mamlakatimizda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish maqsadida "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (2020-y.) qabul qilinib, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasida o'ziga xos tajriba yaratilgan bo'lib, uning afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin.

Mamlakatimizning barcha hududlarini bosqichma-bosqich jinoyatchilikdan xoli “Xavfsiz hudud”ga aylantirish maqsadida har bir mahallagakamida bir nafar profilaktika inspektori biriktirilib, ular ma’muriy hududdagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasini, shu jumladan, oilalarning tinch va osoyishtaligini ta’minlashga alohida ahamiyat qaratmoqda[1]. Xususan, profilaktika (katta) inspektorlarining soni hozirgi kunda 7299 nafardan 10154 nafarga yetkazildi. Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqbuzarliklar profilaktikasi yo‘nalishida 363 ta xotin-qizlar masalalari inspektorlar lavozimlari joriy etilib, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi yo‘lga qo‘yilgan [2].

O‘zbekistonda milliy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlarini o‘zida saqlab kelgan, oilalarni birlashtirgan tuzilma sifatida *mahalla fuqarolar yig‘inlari* ma’muriy hududlardagi kriminogen vaziyatning barqarorligini ta’minlash, noqobil oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, oilada oila a’zolari o‘rtasida buzilgan munosabatlarni tiklash, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar xulq-atvorini jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish borasidagi ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Mahalladagi xotin-qizlar faoli hamda fuqarolar yig‘inining xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha komissiyasi tomonidan ma’muriy hududda yashovchi og‘ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan xotin-qizlarni aniqlash va ularning muammolarini hal etish, ularning farzand tarbiyasidagi hamda oilalarda ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashdagi rolini oshirish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish, xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, yoshlarni oila qurishga tayyorlash hamda yosh oilalardagi ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish borasidagi ishlarni amalga oshiradi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi huzuridagi Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga qasd qilishga moyil bo‘lgan xotin-qizlarga tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy yordam ko‘rsatish; oilaviy-maishiy zo‘rlilik ishlatishning sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish va ularga barham berish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, og‘ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan ayollarga psixologik va huquqiy yordam Bugungi kunda dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha qonunlar qabul qilingan bo‘lib, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Fransiya, Avstraliya kabi davlatlar o‘zining tajribasi va o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

AQSHda ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha quyidagi amaliyot mavjud: a) oiladagi zo‘ravonlik jabrlanuvchilari uchun 1,5 ming ta markazlar, alohida uylar mavjud; b) kecha-yu kunduz faoliyat yurituvchi “ishonch telefon”lari tashkil qilingan; d) oilada zo‘rlilik ishlatishning oldini olishga qaratilgan maxsus rejalar ishlab chiqilib samarali profilaktik choralarni amalga oshirishga

alohida e'tibor qaratiladi; e) yakka tartibdagi profilaktikasi yaxshi yo'lga qo'yilgan [3].

Kanada davlati oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha quyidagi tajribalar mavjud: 1. Krizis markazlari tashkil etilib, ularning soni ehtiyojdan kelib chiqib ko'paytirilgan. 2. Sog'liqni saqlash vazirligida oiladagi zo'ravonlik holatlarini tahlil qiladigan va umumlashtiradigan markaz ochilgan. 3. Mamlakatda oiladagi zo'ravonlikning salbiy jihatlarini ko'rsatuvchi 50dan ortiq filmlar tayyorlangan va namoyish qilingan. 4. "Yuzma-yuz" deb nomlangan oiladagi zo'ravonlik holatlarini yoritib boruvchi ijtimoiy nashr joriy qilingan. 5. Ijtimoiy himoya xodimlarini tayyorlash programmalari tuzilgan [4].

Shvetsiya davlatida oiladagi zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha quyidagi tajribalar mavjud: a) oiladagi zo'ravonlik holatlarining oldini olishning eng asosiy usullari sifatida ayollar o'zlarining huquq va erkinligini to'liq bilishi hamda undan foydalanishi talab etiladi; b) parlament a'zolarining yarmiga yaqini ayollarni tashkil etadi; d) mamlakatda ikkala jins ham qog'ozda, ham hayotda teng huquqlarga egadir; e) "Erkaklarning ayollarga nisbatan zo'ravonligining oldini olish va oldini olish bo'yicha Milliy strategiya" qabul qilinib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha chora-tadbirlar hukumat darajasida belgilab qo'yilgan[5].

Fransiyada oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha quyidagi amaliyot mavjud: aholi o'rtasida oiladagi zo'ravonlik yuzasidan so'rovlar o'tkazish va ularni tahlil qilib borish; psixologlar muntazam ravishda jabrlanganlar ro'yxatini tuzib, ular bilan ishlarni tashkil etib boradi; zo'ravonlikka duchor bo'layotgan va bo'lgan shaxslar uchun vaqtinchalik boshpana-manzilgohlar faoliyati tashkil etilgan; kecha-yu kunduz faoliyat yurituvchi ishonch telefonlari mavjud [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi IIV JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining ma'lumotnomasi.
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatlarni jilovlash bo'yicha "fuqarobay", "oilabay" va "mahallabay" ishlash tizimini tashkil etish metodikasi: O'quv-metodik qo'llanma / Ziyodullayev M.Z., Tursunov A.S., Murodov A.Sh. va boshq. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 42 b.
3. https://travel.state.gov/content/dam/visas/IMBRA/IMBRA_uzb.pdf.
4. Предотвращение насилия и личная безопасность [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.un.org/women/plate4d.htm>.
5. cyberleninka.ru/article/n/borba-s-nasiliem-i-zhestokostyu-v-otnoshenii-zhenschin-opyt-frantsii/viewer
6. <https://ru.sweden.se/lyudi-i-obschestvo/ravnopravie/kak-v-shvetsii-boryutsya-s-domashnim-nasiliem>.

TALABALARDA ILMIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA ILMIY DUNYOQARASHNI AHAMIYATI

Otayeva Salamat Sabirovna

UrDU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Gmail: otayevasalamat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda ilmiy dunyoqarashni tarkib topdirish, shuningdek dunyoqarashning tarkibiy qismlari ilmiy bilimlar, qarashlar, nuqtai nazarlar, e'tiqodlar, ideallar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ilmiy dunyoqarash, ilmiy bilim, e'tiqod, ideal, g'oya, ijtimoiy ong, voqea, hodisa.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Ilmiy dunyoqarash kishiga tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan hodisalarni to'g'ri anglashga imkon beradi. Dunyoqarash voqea, hodisalarni to'g'ri tushunish, xabardor bo'lish, baho berish kabi vazifalarni bajaradi. Shuning uchun ham u shaxsning ma'naviy, mafkuraviy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy, axloqiy va estetik rivojlanishida, ijtimoiy faolligida muhim asos, birlashtiruvchi faktor bo'lib, kishining xulqi, xatti-harakatlarini bir maqsadga yo'naltiradi, o'z g'oyalari va jamiyatning insonparvarlik ideallarini ro'yobga chiqarishda qat'iy bo'lishga da'vat etadi. Shunday ekan talabalarda, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'rta va oliy maktablarda barcha ta'lim-tarbiya ishlarining muhim vazifasi hisoblanadi.

Dunyoqarash inson shaxsini tavsiflaydigan muhim belgilardan biridir. Bu tushuncha "dunyo" va "qarash" so'zlarining birikuvidan tarkib topgan. Umumiyroq qilib aytganda, u ong shakllaridan biri bo'lib, insonning atrof-olamga, unda o'zining tutgan o'rniga bo'lgan qarashi, nuqtai nazarini anglatadi. Albatta, har bir odamning tevarak-atrofdan, tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan voqea, hodisalarga nisbatan o'z munosabati, qarashi, fikr-mulohazasi bor. Shu ma'noda dunyoqarash ikkiga, ya'ni kishining turmush sharoitidan kelib chiqadigan, har bir odamning aql-idrokiga asoslangan oddiy dunyoqarashga va ilmiy dunyoqarashga ajratiladi. Shuningdek, dunyoqarashlar to'laligi, kengligi, chuqurligi jihatidan ham farqlanadi.

Dunyoqarash ma'lum qarashlar, e'tiqod va ideallarning umumlashgan tizimi bo'lib, u kishining tabiiy va ijtimoiy muhitga munosabatini ifodalaydi. Dunyoqarash kishidagi bilim, tajriba va hissiy kechinmalarning birlashmasi, kishining butun faoliyati va hayotining g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi. Dunyoqarashning tarkibiga quyidagilar kiradi: a) ilmiy bilimlar; b) qarashlar, nuqtai nazarlar; d) e'tiqodlar; e) ideallar, orzular. Dunyoqarashning bu tarkibiy qismlari obyektiv (ilmiy bilimlar) va subyektiv (qarash, e'tiqod, ideal) xususiyatga ega.

Dunyoqarashning obyektiv xususiyati shundaki, u bilimlar, ilmiy haqiqatlar tizimidan iborat. U tabiat va jamiyat hodisalarining obyektiv jihatlarini anglash, tushunish bilan bog'liq bo'lib, hamma odamlar tomonidan bir xil qabul qilinishi, tushunilishi mumkin. Demak, bilim o'z-o'zidan kishining dunyoqarashini belgilayvermaydi. Bilim kishida dunyoqarashni shakllantirishi va o'stirishi uchun u, subyektiv ahamiyat (ma'no) kasb etishi, uning nuqtai nazari, qarashi, e'tiqodiga, ideallariga aylanishi lozim.

Dunyoqarashning muhim qismi e'tiqoddir. E'tiqod bu biror g'oyaga qattiq ishonch bo'lib, kishining faoliyati, xulqi va shaxs sifatida rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi.

Dunyoqarashning asosiy belgilaridan biri idealdir. Ideal bu eng yuksak kamolotni anglash va uning olijanob maqsadga, eng yuksak orzu va tilakka, yashashdan maqsadga aylanishidir.

Shaxs dunyoqarashi quyidagi turlarga ajratiladi: mifologik dunyoqarash; diniy dunyoqarash; ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash; falsafiy dunyoqarash; estetik dunyoqarash; ilmiy dunyoqarash; hayotiy tajriba. [3; 56 b.]

Shaxs dunyoqarashi turlari orasidan ilmiy dunyoqarashni hosil qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz:

- Talabalar va o'quvchilarda qarash, e'tiqod va ideallarni hosil qilishga imkon beradigan narsa, bu g'oyalardir. Ilmiy dunyoqarash hosil qilishda talabalar, o'quvchilar o'zlashtiradigan tabiiy, gumanitar va estetik predmetlarga doir bilimlar muhim.

- G'oyalarning eng muhimlari: olamning moddiyligi va jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlari, insonning shakllanishida nasl, tarbiya, muhitning roli, moddiy ishlab chiqarish — jamiyat rivojlanishining asosi ekanligi, tarixda xalq ommasining hal qiluvchi roli, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy ongning roli va shakllari shuningdek, shaxsning roli va o'rni, hozirgi dunyoning rivojlanishida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ahamiyati va boshqa g'oyalar.

- O'rta va oliy maktabda o'qitiladigan predmetlarning har biri talabalarda ilmiy dunyoqarashni o'stirishga ma'lum darajada ta'sir o'tkazadi. Darsdan tashqari ishlar, to'garak mashg'ulotlari, fakultativ mashg'ulotlar, ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy-

ommaviy tadbirlar, talabalar, o'quvchilarning mehnat faoliyati ularni dunyoqarashga doir bilimlar, g'oyalar bilan qurollantirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar va o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarbiyalash uchun ilmiy haqiqat, qarashlar va e'tiqodning o'zaro bog'liqligi asos qilib olinishi zarur. Demak, bilim dunyoqarashning negizini tashkil etadi. Olamda, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan hodisalarga munosabatni bildirish uchun kishi, avvalo, bu hodisa nimaligini bilishi, u haqda atroflicha va to'g'ri tushunchalarga, bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev. B, Choriyev. A. Saliyeva. Z. "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi". Darslik. 2018-y.
2. M. Ochilov, N. Ochilova "Oliy maktab pedagogikasi". Darslik. 2008-y
3. B. Abdullayeva, M. Usmonbayeva, O'. Asqarova, F. Ehsanova, S. Hakimov Pedagogika. Izohli lug'at. Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 275-bet.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Urganch davlat peagogika instituti b.f.d. dots. X. Bekchanov
Urganch davlat peagogika instituti o'qituvchisi F. Yusupova
Urganch davlat peagogika instituti o'qituvchisi R. Abdullayeva


Inson tabiat bilan chambarchas bog'liqdir. Biz tabiatni e'zozlashimiz, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishimiz atrof muhit tozaligiga go'zalligiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash ularni tabiatga va atrofdagilarga nisbatan mehrlil va hurmat izzatda bo'lishga o'rgatilsa bu eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Bolalarning ekologiya va tabiat obyektlari haqidagi fikrlarini ko'rib chiqamiz. Sharq mutafakkirlarining tabiatning inson hayotida tutgan o'rni haqidagi fikrlari va ilmiy asarlarini o'rganamiz. Bolalar tabiat burchagida haynovot olami, o'simliklar dunyosi va jonsiz tabiat obyektlari haqida ularning tuzilishi oziqlanishi ahamiyati foydali va zararli taraflari haqida bir qancha malumotlarga ega bo'ladilar. Bu esa bolaning dunyoqarashining shakllanishida, tabiatga, o'z o'lkasiga va tabiat in'omlariga mehrlil bo'lish tuyg'usini oshirishdan iboratdir.

Y.A. Komenskiy, J.J. Russo, I.G. Pestolotsiy kabi olimlarning bola tarbiyasida ekologik tarbiyaning va tabiatning tutgan o'rni haqidagi ilmiy asarlari katta ahamiyat kasb etadi. Go'zal tabiat yosh qalbgaga shunday katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadiki, hatto pedagogikaning ta'siri ham u bilan raqobatlashishga ojizdir", -degan edi pedgog olim Ushenskiy. Bizga ma'lumki, bola dunyoga kelar ekan ilk yoshligidan boshlab

atrof muhit bilan tabiat bilan muloqotda bo‘ladi. Bu haqda buyuk pedagog olimlarimiz o‘zlari yashab o‘tgan davrda, bolaning har tomonlama o‘shida ma`naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne`matidir deb ta`kidlab o‘tganlar.

Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo‘lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo‘lishi zarurligini hamda ruhiy jismoniy holatiga mos holda soddadan murakkabga qarab yo‘naltirilishi lozim. Masalan: Erta bahorda kunlar isishini. Kunlar isigani sababli daraxtlar kurtak chiqaradi. Osmon ko‘m-ko‘k tus oldi biz endi tashkilotning yer maydonchasiga ekin ekishimiz mumkinligini fasllarni taqqoslash va tabiat hodisalarini ajratib ko‘rsatish orqali amalga oshirdik. Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega bo‘ladilar. Ilmiy prinsip bolalar yoshiga mos bo‘lsagina samarali natija beradi. Bu haqda Y.A.Komenskiy shunday degan: Oddiydan - murakkabga, yaqindan- uzoqqa, tanishdan-notanishga tomon borish kerak. Bu prinsiplar dasturdagi tabiat bilan tanishtirish bo‘limida o‘z aksini topgan.

Bolalarni yoshiga qarab tabiat bilan tanishtirsh prinsiplari



Bolalar yoshiga mos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo‘lishi bilan birga ilmiy aniq bo‘lishini ta’minlanadi. Masalan: o‘simlikni yorug‘likka, suvga, issiqlikka bo‘lgan ehtiyoji. Bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi asosida ko‘rgazma berilishi shart. O‘z o‘lkasi tabiati haqida chuqur bilim berish. Ekologik tasavvurlarni oshirishda barcha sohalari (botanika, zoologiya, astronomiya) haqida bilim berish lozim. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylilik prinsipiga tizimlilik prinsipiga ketma ketlik prinsiplariga ko‘proq urg‘u berilishi lozim. Tevarak atrofga axloqiy munosabatni shakllantirish ekologik tarbiya bilan bevosita bog‘liqdir bola qalbida mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantiradigan tabiatga, uy va oilaga, mamlakat madaniyati va tarixiga, bo‘lgan munosabatni teranlashtirish bu pedagog va oila hamkorligida amalga oshadi.

Ekologik ta’lim intellektual qobiliyatlarni, vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishda foydali ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshda bilish shakllarini rivojlantirish muhim ro‘l o‘ynaydi. Atrofdagi dunyo va idrok, obrazli tafakkur va tasavvur kabilarni rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Tabiiy ob’ektlarni idrok etish, ularning xilma-xilligini tushunish bolalarga ta’sir qiladi, chunki tabiatdagi turli hodisalar atrof

muhit tirik organizmlar ularda bolalar uchun ijobiy his-tuyg'ular, ajablanish, zavqlanish hayratlanish kabilarni ochib beriladi. Bugungi jamiyatning o'ta muhim vazifasi insonni tabiat obyektlariga befarq bo'lmaslikni jonli va jonsiz tabiat obyektlarini asrab avaylashni o'rgatish ziyon yetkazishdan va isrof qilmaslikka o'rgatish lozim.

Foydalanilgan va tavsiya qilinadigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent O'zbekiston 2017
2. Isaqulova N.J. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari..
3. Xusanova S.I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida —Xayot xavfsizligi asoslaril kursi mavzulari orasidagi uzviylikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish: Ped.fan.dokt. (DSc)diss...- Chirchiq, 2021,-222b
4. Xusanova S.I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida —Xayot xavfsizligi asoslaril kursi mavzulari orasidagi uzviylikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish: Ped.fan.dokt. (DSc)diss...- Chirchiq, 2021,-222b
5. Nishonova N.U. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish:
6. www.Ziyonet.uz
7. www.pedagog.uz

TIBBIY TA'LIMDA GENDER TENGLIK SIYOSATI

Ortiqova Nodira Mamajonovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tadqiqotchisi

Insoniyat yaralibdiki, erkak va ayollar o'rtasidagi munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli, gender tenglik va gender adolat muammolariga e'tibor qaratilib kelinadi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy jabhalarida gender tenglikni ta'minlash butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi o'z isbotini topgan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi", —deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlab o'tdi. Haqiqatan ham, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli

ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doir 30 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. Joriy yilning 1-mart sanasida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni hamda joriy yilning 7-martida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni xotin-qizlar bilan ishlash tizimining yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi, "2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy Dastur" qabul qilindi.

O'z navbatida, gender tengligini ta'minlash bo'yicha muammolar ham yetarlicha. Xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, ishsiz xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish, ish bilan ta'minlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagani, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, ularni ehtiyojmandlik holatidan chiqarishga qaratilgan ishlar samarali tashkil etilmagani, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga hamda huquqiy oqibatlarini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lami yetarli emasligi, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda voyaga yetayotgan qizlarning iqtidorlarini o'z vaqtida aniqlash, ularni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish tizimi joriy etilmagani kabilar shular jumlasidandir. Mazkur muammolarni hal etish bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish yo'lidagi asosiy vazifalar hisoblanadi. So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "**Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar**" [1], deb belgilangan. Demak, gender tengligining ham

xalqaro, huquqiy ham konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Ta'kidlash joiz, qabul qilingan normativ-me'yoriy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O'zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me'yor va standartlariga to'liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo'yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan.

Binobarin, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlarning bajarilishini ta'minlash uchun "Yo'l xaritalari" va gender tengligi bo'yicha milliy strategiya ham qabul qilingan.

Insonlarga oila, maktab, professional muhit, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari va madaniy normalar katta ta'sir ko'rsatadi. Yangilanayotgan O'zbekiston davrida gender tengligining o'ziga xos Sharqona vositalari, shakl va uslublaridan keng foydalanilmoqda. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi gender tengligining ta'minlanishi natijasida uy-ro'zg'or yumushlari, farzandlar tarbiyasi va boshqa barcha vazifalar ayolga emas, balki otaning zimmasiga ham yuklatilayotganini alohida e'tirof etish mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ota-onalar G'arbona gender tengligi bilan Sharqona gender tengligi masalalariga mentalitet nuqtayi nazardan ham e'tibor berishlari masalaning yanada oydinlashishiga xizmat qiladi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 1992.
2. Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-iyun oyida Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi.
3. <http://ec.europa.eu/social/main.jsp>.
4. <https://www.un.org/ru/observances/equal-pay-day>.
5. Platon. Dialogi [Dialogues]. Translation from ancient Greek. Khar'kov, Folio Publ., 1999. – 383 p.

Баркамол шахс тарбиясида миллий кадриятлар

Хамидова Нигина Обидовна

Бухоро ИУ 2-босқич магистри

Аннотация : Ўзбекистонда миллий тарбия масаласи долзарб ҳисобланади. Миллий тарбия беришда эса ўзбек халқининг кадриятлари, тарбия бериш имкониятлари муҳим. Мақолада миллий тарбия беришда кадриятларнинг муҳимлиги тўғрисида сўз юритилади.

Калит сўзлар : Миллий тарбия, мактаб, тарих, ижтимоийлашув, миллийқадриятлар, миллат

Аннотация: В Узбекистане остро стоит вопрос национального образования. Ценности узбекского народа и возможности образования имеют важное значение в обеспечении национального образования. В статье говорится о значении ценностей в национальном образовании.

Ключевые слова: Национальное образование, школа, история, социализация, национальные ценности, нация.

Abstract: The issue of national education is acute in Uzbekistan. The values of the Uzbek people and educational opportunities are important in providing national education. The article talks about the importance of values in national education.

Key words: National education, school, history, socialization, national values, nation.

Ўз тақдирига бeфaрқ бўлмаган қайси жамиятда ижтимоий ислохот зарурати юзага келса, ўша жамиятда мактабга, тарбияга эътибор кескин кучайиб, тарбия - жамиятни такомиллаштиришнинг бош воситаси, дея тан олинади. Тарих бу каби мисолларга бой. Ана шу нуқтаи назардан мустақил Ўзбекистон мактаблари қаршида турган вазифа долзарб ва мураккабдир. Чунки замонавий мактаб ўзбек халқининг энг гўзал фазилатларидан бўлган миллий ғурур, миллатлараро мулоқот маданияти, ватанпарварлик, миллий одоб, соф виждон, миллий ғояни ўз кўрсаткичи қилиб олиб, ягона Ватан - Ўзбекистоннинг дунё миқёсидаги шарафига хизмат қила олувчи ўғил - қизларнинг янги авлодини тарбиялаб етиштириши лозим. Бу миллий - истиклолий буюртма комплекс тарзда - оила, мактабгача таълим ташкилотлари, мактаб, маҳалла, турар жойларда, мактабдан ташқари муссасалар ҳамкорлигида олиб борилувчи миллий тарбия жараёнидагина амалга оширилиши мумкин.

Миллий тарбия тушунчаси кўп қиррали тушунчадир.

Унинг:

- миллий қадриятлар асосида олиб борилувчи мақсадга йўналтирилган тарбиявий фаолият;
- умуминсоний тарбиянинг ҳар бир халққа хос ва мос бетакрор шакли;
- халқ ва унинг маданиятини сақлаб қолиш, тиклаш ва ривожлантириш (ЮНЕСКО тамойили) воситаси;
- Ўзбекистон Республикаси « Таълим тўғрисида » ги Қонун мақсад, вазифаларининг таркибий қисми;
- турли миллатлар болаларини ҳар томонлама ривожлантириш жараёнининг хусусий, маънавий манбаи;
- ўқувчиларни ахлоқий, меҳнатсеварлик, ватанпарварлик, гўзаллик, иқтисодий, экология ва бошқа йўналишларда тарбиялашнинг бош тамойили;

- миллатлараро мулоқот маданиятини тарбиялаш ва бунинг натижасида Ўзбекистонда умумфуқаровий тотувликка эришишнинг инсонпарварона йўли ва воситаси;

- ижтимоий тарбия ва мактаб тарбияси уйғунлигининг педагогик шартли;

- инсониятни умумбашарий уйғунликка олиб боришнинг педагогик йўли;

- ижтимоий - маънавий жабҳада миллий хавфсизликни таъминлашнинг стратегик объекти ва воситаси;

- ўқувчиларда миллий (авто ва гетеро) стерео типларни мақсадли шакллантириш, маънавий бойитиш жараёни эканлиги шундан далолат беради⁹.

Ижтимоийлашув (социализация) эса одам моҳиятини гўдакликдан бошлаб камолотга эришув томонга ўзгартира боради. Аждодларимизнинг миллий қадриятларини ижодий ўзлаштирувчи, замонийлаштирувчи, бойитувчи ва ўзгартирувчидир. Ана шу инсоний бурчларнинг ҳар бир шахс томонидан мукамал бажарилиши ижтимоий тараққиётнинг бой, ранг - баранг маданий оқимларини ҳосил қилади, сақлаб туради. Шу нуқтаи назардан, ҳар бир инсон ўзида тарихий, ижтимоий, маданий - миллий кўрсаткичларни мужассамлаштирувчи тарбия маҳсулидир. Антропологларнинг шаҳодат беришларича, одамнинг ташқи кўриниши кечки палеолит - кроманьонлар давридан буён ўзгармасдан келмоқда. Бу фикрнинг замонавий фанлар томонидан тасдиқланганлиги одамнинг биологик эволюцияси тугалланганлигини билдиради. Одамдаги эволюцион ривожланишнинг яқунланиши эса ундаги маданий ривожланишни бошлаб беради. Одамда олий тараққий этган турларга хос бўлган эмоционал - инстинктив хусусиятлар генетик мерос сифатида мавжуд бўлиб, бу хусусиятларни чақалоқ дунёга келганида, унинг ривожланишининг илк ойларида кузатиш мумкин.

Турли халқларнинг бир - бирларини танишида, билишида, билвосита ва бевосита миллатлараро мулоқотларда инсоннинг миллий жиҳатлари алоҳида қизиқиш уйғотган. Ҳар бир миллатда, мамлакатда давом этаётган тарбиявий жараён умуминсоний тарбия тизимининг таркибий қисмидир.

Мустақил Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларининг миллий тарбия тизими - бу ўзбек халқининг ўзига хос миллий маданий феъл - атвори, ахлоқ қоидаларига ва миллий мустақилликни мустаҳкамлашнинг тарбиявий талабларига асосланувчи, халқ ҳаётининг барча жабҳалари билан чамбарчас боғлиқ, янги, ҳеч кимдан кам бўлмаган баркамол авлодни шакллантиришнинг педагогик жараёнидир. Чунки ўзбек халқининг тарихи

ўзбекчиликка асосланган миллий тарбиянинг тарихи ҳамдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Куронов М. "Миллий тарбия" Тошкент- "Маънавият" нашриёти, 2007й. 22-б.
2. Жабборов. И. Ўзбек халқ этнографияси / Масъул маҳаррир: К.Н.Шониёзов / -Т.: Ўқитувчи, 1994. –320б.
3. Педагогик атамалар луғати. Джураев Р.Х., ва бошқалар. –Т.: Қори Ниёзий ном.ИТИ нашриёти, 2008.

O‘QUVCHILARDA ERKIN FIKRLASH IMKONIYATLARI

Jonpo'lotova Nigora Akmalovna-

Buxoro IU 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Erkin fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishida qator imkoniyatlar mavjud. Bular o‘quvchilarga erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Maqolada shular to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Erkin fikrlash, ko‘nikmalar, maqsad, ta’lim jarayoni, muammo, bilim, mahorat.

Аннотация: Существует ряд возможностей в формировании навыков свободного мышления. Это поможет учащимся развить навыки свободного мышления. О них и рассказывается в статье.

Ключевые слова: Свободомыслие, умения, цель, учебный процесс, проблема, знание, умение.

Abstract: There are a number of possibilities in developing free thinking skills. This will help students develop free thinking skills. They are discussed in the article.

Key words: Freethinking, skills, goal, educational process, problem, knowledge, skill.

O‘quvchilarga erkin fikrlash uchun eng avvalo, ularning o‘zlari mas’ul ekanliklarini anglatish lozim. Pedagogning vazifasi erkin fikrlashni rag‘batlantirib turuvchi muhitni yaratishdangina iborat bo‘ladi.

Erkin fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim:

- o‘quvchida o‘ziga hos nuqtai-nazarni paydo qilish;
- bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
- murakkab muammolarni yechish mahorati;
- dalillarga asoslangan holda bahslashishga odatlantirish;
- yagona fikrni ishlab chiqish uchun o‘zaro hamkorlikda ishlash mahorati;
- o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan bilimlar erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qay darajada hizmat qilishini aniqlash.

Erkin fikrlashni rivojlantirish oson narsa emas. Bu muayyan yosh davrida tugallanishi va unutilishi mumkin bo‘lgan masala ham emas. Erkin fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo‘llar yo‘q. Biroq, o‘qitish shartlarining muayyan to‘plami

borki, uning yordamida erkin fikrlovchilarni tarbiyalash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlarga alohida e'tibor berish zarur:

1. Erkin fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish;
2. O'quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish;
3. Turli g'oya va fikrlarni qabul qilish;
4. O'quv jarayonida o'quvchilarning faol qatnashishlariga imkon berish;
5. O'quvchilarni erkin mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishonirish.

Shu bilan birga, o'quvchilar:

1. O'z-o'ziga ishonchni rivojlantirib, o'z g'oya va fikrlarining qimmatini tushunishlari kerak;
2. Ta'lim jarayonida faol qatnashishlari lozim;
3. Turli fikrlarni hurmat bilan eshitishlari kerak;
4. O'z mulohazalarini shakllantirishga tayyor bo'lishlari yoki undan o'zlarini tiyishlari lozim.

Erkin fikrlash xususiyatlari quyidagilar:

- erkin fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir;
- axborot- erkin fikrlashning boshlanishidir;
- erkin fikrlash savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;
- erkin fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;

erkin fikrlash-ijtimoiy fikrlashdir.

Erkin fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o'quvchilarning fikrlash jarayoni jadallashadi;
- o'quvchilar o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'ya boshlaydilar hamda ushbu maqsadga erishish yo'llarini izlaydilar;
- o'quvchilar o'zaro bir-birlari bilan faol muloqotga kirishish ko'nikmasini egallay boshlaydilar;
- o'quvchilarda bilim olish, yangi axborotlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlar ortadi;
- o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarda faollik ta'minlanadi;
- o'quvchilarda ular orasida vujudga kelgan rangba-rang fikrlarni tinglash va mushohada qilish ishtiyoqi kuchayadi;
- o'quvchilarda o'z fikrlarini dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi;
- o'quvchilar egallagan bilim va tushunchalarini qayta ishlash, ular yordamida fikr ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni "guruh-sinf-guruh" tizimida ishlashga o'rgatish yaxshi natija beradi, chunki ularning fikrlash jarayoni rivojlanadi. Bunda o'quvchilar faol o'quv pozitsiyasini egallashadi. Bularning hammasi shaxs

o'zgarishiga olib keladi, bu esa mustahkam bilimga ega bo'lishning sharti hisoblanadi. O'quvchi muayyan ma'noda o'qituvchi rolda bo'lishi, o'qituvchi faoliyatining ayrim qismlarini bajarishi, unda sherikchilik hissiyotini o'stiradi.

O'quvchilarda erkin fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun ularda ijodiy fikrlash malakalarini o'stirish zarur.

Shunday qilib, erkin fikrlash faollik bilan bog'liq jarayon ekanligini inobatga olsak, dars mobaynida o'qituvchi o'quvchilarni o'ylashga, fikr va ideallari bilan o'rtoqlashishga jalb qilishi, o'quv materialini taqdim qilishda motivatsiya bosqichidan foydalanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva Q., Yusupov M., Mahmudova M., Rahmonbekova S. O'qish kitobi. 2–sinf uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2004. –176 b.
2. Abdulayeva Q., Yusupova M., Rahmonbekova S. Odobnoma. 2–sinf uchun darslik. –T.: Mehnat, 2004. –78 v.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Tashkent: Fan, 2005. –206 b.
4. Hasanboyeva O., Ne'matova A., Ibragimova G. Odobnoma. 4–sinf uchun darslik. – T.: «O'zbek milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 96 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR ERKIN FIKRLASHIDA QIZIQISHNING AHAMIYATI

Muzaffarova Amira

Buxoro TYIU 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarga erkin fikrlash muhim sanaladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Maktabgacha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida erkin fikrlashning roli kattadir. Maqolada shular to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: erkin fikrlash, maktabgacha yosh, qobiliyatlar, ijod, fantaziyani axloq me'yorlari, qiziqish.

Аннотация: Для детей дошкольного возраста важно свободное мышление. Потребности и интересы детей дошкольного возраста быстро растут. Роль свободного мышления важна в жизни дошкольников и их умственном развитии, информация об этом представлена в статье.

Ключевые слова: свободомыслие, дошкольный возраст, умения, творчество, нравственные нормы фантазии, интерес.

Abstract: Free thinking is important for preschool children. The needs and interests of preschool children are growing rapidly. The role of free thinking is

important in the life of preschool children and their mental development, information about this is presented in the article.

Key words: free-thinking, preschool age, skills, creativity, moral standards of fantasy, interest.

Ma'lumki, bugungi kun yoshlardan XXI asr muammolarini hal etish uchun hayotiy zarur qobiliyatlar asosini yaratishga harakat qiladi. Bunday qobiliyatlar jumlasiga biz quyidagilarni kiritamiz:

- o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni qo'yish va hal etish;
- ijodni, fantaziyani va ixtirochilikni namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-muhit to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Har bir bola alohida holda o'sadi va rivojlanadi, biroq shunga qaramay barcha bolalar rivojlanishning ma'lum ketma-ketlikdagi bosqichlaridan o'tadilar. Ushbu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar kuzatiladi.

Rivojlanish sohasidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bola hayotining dastlabki to'qqiz yili o'sish davrining muayyan davomiyligida o'tadi, bu umumiy va oldindan aytib berish mumkin bo'lgan bosqichdir. Bu bosqichlar rivojlanishning har bir sohasidagi o'zgarishlar bilan ajralib turadi: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv. Bolalar o'sishining o'ziga xosligi to'g'risidagi bilimlar tarbiyachilarga ta'lim muhitini yaratishga va faoliyatning muvofiq turlarini rejalashtirishga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Rivojlanish xususiyatlariga mos kelish usullarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun tarbiyachilar me'yordagi rivojlanishning borishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bunda tarbiyachilar shuni yodda tutishlari lozimki, bolalar rivojlanishning bir xil bosqichini bosib o'tishlariga qaramasdan, ularda bu jarayon bir vaqtning o'zida kechmaydi. Bir xil yoshdagi bolalarda o'ziga xos individual farqlar bo'lishi muqarrar.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgachayoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik maktabgachayoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta maktabgachayoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta maktabgachayoshilarga ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti- harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi

munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning maktabgachayoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi¹⁴.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Maktabgacha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Maktabgachayoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Maktabgacha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. SHuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan

¹⁴ Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" o'quv metodik qo'llanma. T.: 2004. 118 b.

narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent-2022
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent-2018
3. Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" o'quv metodik qo'llanma. T.: 2004. 118 b.
4. Jumaev.M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T.: Ilm ziyo, 2005. -224 b.
5. Ишмухаммедов.Р., Абдуқодиров.А., Пардаев.А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т.: Истеъдод, 2008. -108 б.

II SHO‘BA

FANLARARO INTEGRATSIYALASH ASOSIDA TALABALARNI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

FANLARARO INTEGRATSIYALASH ASOSIDA TALABALARNI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Aminov Alijon Axtamovich

BuxDU Geliofizika, QTEM va elektronika kafedrası o‘qituvchisi
alijon.aminov@mail.ru

Bo‘lajak fizika mutaxassiligi o‘qituvchilari uchun ta‘lim jarayonlarini turli noanaviy yondashuv va ta‘lim texnologiyalar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqiyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham yangi O‘zbekistonimiz yoshlarini komil inson bo‘lib, erkin fikrlashni qaratilayotgani ham e‘tibordan holi emas. Shunday ekan biz bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilari hozirgi yangi O‘zbekiston talablari asosida dars mashg‘ulotlarini zamonaviy yondashuvlar va noanaviy metodlar bilan boyitib tashkil qilishni oldimizdagi yuksak vazifalardan biri sifatida qo‘yishimiz lozim.

Bizning asosiy maqsadimiz talabalarni faqatgina o‘zining mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha yetuk kadr tayorlash emas balki fanlararo integratsiyadan foydalanib boshqa fanlarni ham o‘rgatib uning boshqa soha vakillari bilanhar qanday muammolar bo‘yicha muhokama qila olishini, dunyoqarashini oshirishimiz zarur.

Fanlararo integratsiya - bu fanlararo ta‘lim tizimida bir necha fan yoki sohalar orasidagi bog‘lanishni kuchaytirish va chuqurlash uchun amalga oshiriladigan jarayon va usullar. Bu, o‘quvchilarning bir nechta fanlarni bir qatorda o‘rganishini, ulardan foydalanishni va ularni bir-biriga bog‘lashni ta‘minlaydi. Integratsiya jarayoni o‘quvchilarning tushunishini chuqurlashtiradi, ularning ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning mustaqil o‘zlashtirishga yordam beradi.

Talabalar innovatsion kasbiy faoliyati, o‘quvchilarga yangi, asosiy fikrlarni rivojlantirish va ularni amalga oshirish uchun muhit yaratishni anglatadi. Bu faoliyat o‘quvchilarga qulaylik, qiziqish, kreativlik va maslahatlar yaratishga yo‘l ochib beradi beradi.

Talabalar innovatsion kasbiy faoliyatlar yordamida:

1. **Yangi yondashuvlarni o'rganish:** Talabalar masalalarni bajarishda yangi yondashuvlardan foydalanish yo'llarini topish va o'zlarining mantiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

2. **O'zlashtirish:** Innovatsion faoliyatlar, o'quvchilarga o'zlarini o'zlashtirish, tahlil qilish va yangi fikrlar rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

3. **Maslahatlar:** O'quvchilar masalalarga yangi yechimlar qidirish, kreativliklarini kuchaytirish uchun maslahatlar berishadi.

4. **Muammoli vaziyatlar:** Talabalar innovatsion kasbiy faoliyatlari orqali, muammoli vaziyatlarga yangi yechimlar topish va jismoniy-keskin muammosini yechish orqali muammoli vaziyatlarga tezkorlik bilan yechim topishga yuqori darajada rivojlantirishadi.

Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishni quyidagicha tushuntirish mumkin

1. O'quvchilarga innovatsion kasbiy faoliyatning mohiyatini tushuntirish: O'quvchilarga innovatsion kasbiy faoliyatning nima ekanligini, uning ahamiyatini va ulardagi potentsialni tushuntirish zarur. Bu bilan o'quvchilar motivatsiyalashadi va ularga innovatsion kasbiy faoliyatga qiziqishini oshiradi.

2. O'quvchilarning yaratuvchanlik yondashuvlar bilan ta'minlash: O'quvchilarga yaratuvchanlik yondashuvlar, masalan, yaratish, tahlil qilish, tajriba va tahlillar, laboratoriya jihozlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish zarur. Bu bilan o'quvchilar o'zlarining ijodiy va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

3. Amaliyotda ishlash: O'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda ishlab chiqish imkoniyatini berish zarur. Ular yangi tajribalarni yaratish, natijalar aniqligini rivojlantirish, tajriba tahlillarini olib borish va boshqalar bilan hamkorlik qilish orqali amaliyotda tajriba va bilimlarini oshirishlari kerak.

4. Murojaatlar va tajribalar: O'quvchilarga innovatsion kasbiy faoliyatning eng muhim qismi bo'lgan murojaatlar va tajribalar olish imkoniyatini berish zarur. Ular innovatsion muammolarni yechish, yangi tajriba natijalarini olish va ularni o'quv mashg'ulotlariga tadbiiq etish bo'yicha tajribaga ega bo'lishlari kerak.

5. Monitoring va baholash: O'quvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish uchun monitoring va baholash muhimdir. Bu bilan o'quvchilar o'zlarining rivojlanishini kuzatib borishlari mumkin va ularning qaysi yo'nalishlarda rivojlanishlari kerakligini aniqlashlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak fanlararo integratsiyalash asosida talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish hozirgi kunda juda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Masalan, Fizika va ingliz tilini fanlarini integratsiyalaydigan bo'lsak, fizika darslarida davomida o'qituvchi tominidan asosiy terminlarni ingliz tilida aytish talabi qo'yilsa yoki ingliz tilidagi

tarjimasi ham aytib o‘tilganda o‘quvchilarimizning fizika fani bilan birga ingliz tili savodxonligi ham oshib boradi. Fizika fanini matematika, geometriya, kimyo, biologiya, geografiya, tabiatshunoslik va barcha ijtimoiy gunanitar fanlarga bilan ham integratsiyalab o‘qitish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Евгений Адольфович Кац, Университет им. Бен-Гуриона в Негеве, Израиль, “Экология и жизнь” №8, №9 2010;
2. Э.Г. Исламгалиев Профессиональная компетентность педагога (социологич. анализ): Дисс... канд. соц. наук – Екатеринбург, 2003.
3. А.А. Аминов – “umumta’lim maktabning 9-sinf o‘quvchilariga nanotexnologiyalarga oid kompetensiyalarni innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirish” Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. 2021/6.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHISI KASBIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH IMKONIYATLARI, O‘RNI VA AHAMIYATLARI

Shaxboz Tilavov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchisi

E-mail: tilavovshaxboz395@gmail.com

Bugungi kunda yosh avlodga ta’lim berayotgan o‘qituvchilarning o‘zlari zamonaviy innovatsion texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirgan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari, umuman barcha ta’lim-tarbiya sirlaridan voqif bo‘lishlari talab etiladi.

O‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta’lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o‘choqlarida topilgan tarixiy madaniy obidalar bu o‘lkalarda o‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar o‘qituvchilik bilan shug‘ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo‘lishgan. Yunonistonda faqat ozod kishilargina o‘qituvchilik qilishga haqli hisoblangan. Shuningdek, 18-19-asrlarda boy oilalarda murabbiy, guvernior singari uy o‘qituvchilaridan foydalanish keng yoyilgan. [2]

Shuni aytish kerakki, o‘qituvchi alohida ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat a’zolarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatlari

kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi kuni qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o'qituvchining professional jihatdangina yetuk bo'lishi kifoya qilmaydi. Uning ma'naviy olami o'quvchilarga singdirilishi ko'zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to'yingan bo'lishi kerak. O'qituvchilar tayyorlanadigan o'quv yurtlarida ayni shu jihatga alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy pedagogika fani o'qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini

qayd etadi. Ana shu vazifalarni to'la uddalaydigan o'qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsata oladi. Istiqlol davri o'qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta'minlash omilidir.

Hozirgi globallashuv jarayonlari tobora keskinlashayotgan bir davrda bevosita yoshlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bilan shug'ullanuvchi jismoniy tarbiya o'qituvchilariga hamda murabbiylariga qaratilayotgan e'tibor bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ularning muhim xizmatlaridan biri shundaki, o'quvchi-talabalarni tarbiyaviy, madaniy, tibbiy, sanoat qurilish, ishlab chiqarish kabi kasb-hunarga yo'naltirish bo'lsa, ikkinchidan ularni maxsus jismoniy tayyorgarlik bilan qurollanishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishdan tolmaygigan jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi qo'yinki, har bir pedagog - yoshlarga axloqodob, kasb-hunar, ilm-fan sohalarini o'rgatish, san'at, sport mashg'ulotlariga rahbarlik qilish faoliyati. trener oilada, mahallada, ta'limtarbiya muassasalarida, mehnat va jamoat tashkilotlarida amalga oshiriladi. Bolalar va o'smirlarning turli yosh davrlarida trenerlar turlicha mazmun va yo'nalishda olib boriladi. Go'daklik va bog'cha yoshi davrlarida bolaning nutqi, axloq-odobi va ilk dunyoqarashini shakllantirishga ota-ona, tarbiyachi va enagalar murabbiylik qiladi. Maktab, akademik litsey, kasb-xunar kolleji, oliy o'quv yurtida pedagog-o'qituvchilar, ishlab chiqarish korxonalarida esa o'z kasbini puxta egallagan, pedagoglik ko'nikmalarni o'zlashtirgan, usta nomini olgan tajribali ustozlar, trenerlik qiladilar. O'zbekiston Respublikasida eng yaxshi murabbiylarga "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni ta'sis etilgan. Kasb (lotincha: professio - rasmiy ko'rsatilgan mashg'ulot, ixtisoslik) - maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi.[3]

Jismoniy tarbiya fani uni o'qitib o'ratuvchi o'qituvchilik, *kasbi* - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor. Hususan, jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'qituvchilik kasbiga sadoqatli bo'lish, o'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilishi, pedagogik qobiliyatlarini

namoyish eta olishi, pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi eng muhim komponentlardan bo'lib hisoblanadi.

Shu jihatdan olganda, jismoniy tarbiya o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati davomida quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim deb hisoblaymiz:

- jismoniy tarbiyaga doir bilimlar tizimini mukammal egallagan bo'lishi;
- jismoniy mashqlarni o'quvchilarga to'laqonli yetkaza olish ko'nikma va malakasiga egaligi;
- o'z fanini o'zlashtirganligi bilan birgalikda umummetodologik fanlar asosini, xususan davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- atrofda sodir bo'layotgan ijtimoiy muammolar va jarayonlarni o'z nuqtai nazardan mustaqil tahlil qila olishi;
- o'quvchilarning yoshga doir xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlarni o'rnida qo'llay olishi;
- vujudga kelgan yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishi, takomillashtirishi va o'z mehnat faoliyatida ilmiy asosda foydalana olishi;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi;
- pedagogik faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi va hakoza.

Hususan, mazkur maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchisi ilmiy pedagogik faoliyatida uchraydigan asosiy atamalar, pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati davomida alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlari va qay tarza yondashish zarurligi, shuningdek, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion va texnologik faoliyatini tashkil qilish xususida so'z yuritiladi. Har bir bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisi pedagogik mahoratni to'liq egallashi uchun: birinchidan, o'z o'quv fanini davr talablari asosida o'zlashtirgan bo'lishi, ikkinchidan, psixologik va pedagogik bilimlarga ega bo'lishi (o'quvchilar xarakteriga mos usullarni qo'llay olishi), uchinchidan, o'zida pedagogik izlanuvchanlik va fidoyilikni tarkib toptirishi muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'z pedagogik faoliyatlarida qo'llaniladigan jismoniy madaniyat atamalarini mukammal bilishlari shart. Albatta, o'qituvchi tomonidan atamalarning tushunarli tarzda aniq va o'z o'rnida qo'llanilishi o'quvchining jismoniy tayyorgarlik sifatini ham yaxshi bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Darhaqiqat, har birimiz kundalik hayotimizda jismoniy madaniyat atamalaridan bugun keng foydalanamiz. Deyarli, ta'lim muassasalarida mavjud barcha fanlarda ularni uchratishimiz va u bilan to'qnashish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "bugun dunyo miqyosida mavjud 300 ga yaqin sport turlariga xos 15 mingdan ortiq tushuncha va atamaları mavjud". [3]

Xulosa. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'z pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida teran, ta'sirli, mantiqli, chiroyli gapira olishi va o'z o'rnida tarbiyaviy ahamiyatga molik iboralardan o'rnida to'g'ri foydalana olishi zarur. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'qituvchining nutqi har bir o'quvchi uchun ibrat manbai bo'lib, hatto beparvolik bilan uning jahlini chiqarib, intizomni buzib turgan o'quvchiga nisbatan qo'pol muomala, haqoratlash, kamsitish, shaxsiyatiga tegish bilan emas, balki pozitiv yondashgan holda vaziyatdan chiqib ketish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi dars mashg'ulotini olib borar ekan, uning ovozi auditoriyani boshqarish quroli bo'lishi lozim. Jismoniy tarbiya bilan bog'liq mashqlarni tushuntirish vaqtida u ovozini kerakli o'rinda ko'tarish va pasaytirish orqali o'quvchilarning nimalarga asosiy urg'u berish kerakligini bildira olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Niyazova R.R., Kun E., Matkarimov R.M. Triatlon nazariyasi va metodikasi (Sport tayyorgarligi asoslari) o'quv qo'llanma – T.: 2020y-207 b.
2. Bobomuratov I.B. «Triatlon nazariyasi va uslubi». Darslik. Chirchiq: O'zDJTSU, 2022.
3. Raximova Z.D., Niyazova R.R., Tilavov Sh.S., Lozovoy D.A. «Tanlangan sport turi bo'yicha mutaxassislikka kirish (triatlon)» o'quv qo'llanma. Chirchiq-2023

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM OLUVCHILARNI TAJRIBAVIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING TASHKILY-PEDAGOGIK SHARTLARI

Kadirova Gulnora Xasanovna

Professional ta'limni rivojlantirish instituti doktoranti

gulnorakadirova1986@gmail.com

Primov Dilmurod Dusmatovich

Xalqaro Nordik universiteti magistranti 974433952

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim sifati va tuzilmasini takomillashtirishga, bitiruvchilarini tayyorlashda ularda kompetensiyalarni shakllantirish kabi ta'lim sohasidagi zarurlarga qaratilgan. Ushbu maqolada ta'lim oluvchilarning integratsion yondashuv asosida tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari qisqacha yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: integratsion yondashuv, tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyati, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatlarining asosiy mazmuni, birinchi navbatda, amaliyot asosida tekshirilgan ilmiy nazariyalardir. Shuning uchun ham amaliyot va nazariya o'rtasida mavjud tafovutlar funksional xarakterga ega: amalga oshirilgan tadqiqotning

nazariy natijasi sifatida shakllangan faoliyat dastlabki tadqiqotlarning yuzaga kelish sharti hisoblanadi.

Tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatining o'ziga xos jihatlari tegishli bo'lgan metodik masalalarga to'xtalib o'tamiz va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlaymiz.

O'quvchilarning tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatini biz G.P.Xomchenko, P.I.Pidkasistiy kabi tadqiqotchilarning fikrlariga qo'shilgan xolda, ularning ma'lum bo'lmagan faktlarni ochishlariga olib keladigan izlanish xarakteridagi harakatlar majmui, nazariy bilimlari va faoliyat turlarini tushunamiz.[2] O'quvchilar shunday yo'llar bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bu o'rinda o'quvchilardan majmuaviy tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini o'zlashtirganlik talab etiladi. Metodik adabiyotlarni tahlil qilish, izlanuvchi-olimlar tomonidan taklif qilingan tadqiqotchilik ko'nikmalari bo'linish tamoyillarini umumlashtirish asosida biz o'quvchilarni tajribaviy-tadqiqot faoliyat usullariga o'rgatishda ularning integratsion fikrlashlarini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirsak, mazkur jarayon nisbatan samarali kechadi, degan farazdan kelib chiqdik.

Amaliy mashg'ulotning asosiy urg'usi ta'lim oluvchilarining quyidagi uch psixik faoliyatini integratsiyalashuviga qaratiladi: kognitiv, **emotsional-motivatsion** va axloqiy.

Tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyat usullarini egallashning **kognitiv komponenti** - bu amaliy tajribalarni belgilash va o'tkazish yuzasidan ko'nikma va malakalarni mukammal egallashga intilish.

Emotsional-motivatsion komponent – ijobiy motivatsiyalar mavjudligi, o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati usullarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarining davom etayotganligi, o'zaro hamkorlik va ijodiy muhit asosida ifodalanadigan emotsional qulaylik.

O'quvchilarning amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishlariga ijodiy munosabatlarining **xulqiy jihatlari** ularning o'quv-biluv faoliyati bosh vazifalarini bajarishlarida mustaqillik va ijodiy faolligi, axloqiy yondashuvlari bilan belgilanadi.[2]

Ta'lim oluvchilarni integratsion yondashuv asosida tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda biz quyidagi tamoyillarga asoslandik:

1. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda mavjud tarkibiy bilimlarini maksimal tarzda optimallashtirish (nazariyalar, qonunlar, tushunchalar). Tajribaviy vazifalar ma'lum hajmdagi nazariy materiallarni qamrab olishi mumkin.

2. Amaliy ko'nikma elementlari tarkibini takomillashtirish. Tajribaviy topshiriqlar tarkibiga o'quvchilarning ijodiy tadqiqotchilik faoliyat usullari uchun keng imkoniyatlar beradigan vazifalar kiritiladi.

3. Aqliy harakatlar usullaridan atroflicha foydalanishni ta'minlash. O'quvchilarga taklif etilayotgan tajribalar ularga umumlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, aniqlash, mavhumlashtirish, induksiya, deduksiya, tahlil, tarkib kabi usullarni qo'llash imkonini beradi.

4. Vaziyatlar yangiligi va noodatyligi. Bu tamoyilni bajarish, bir tomondan, o'quvchilarning oldin egallagan bilimlarini yangi sharoitlarda qo'llash ko'nikmalarini aniqlash, ikkinchi tomondan, aniq bir vazifani bajarish va natijalarni olishga katta qiziqish uyg'otadi.

5. Amaliy mashg'lotni amalga oshirish variativligi tajribaviy-tadqiqotchilik vazifalari yechimini aniq va to'g'ri hal qilish yoki o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

6. Fanlararo aloqalarni ta'minlash. Mazkur tamoyil bizga o'quvchilarning dialektika asosiy masalalarini tushunishlari, to'g'risida, qiziqish doiralarning kengligi, fanning boshqa fanlar bilan aloqalari xususida mulohaza yuritishga ko'maklashadi.

7. Amaliy mashg'ulotlar murakkablik darajasining xilma-xilligi. Bu tamoyil psixologik ahamiyatga ega. Dastlab nisbatan oddiy tajribalarni amalga oshirib, o'quvchilar katta ishonch bilan navbatdagi nisbatan murakkab tajribalarni bajarishga kirishadilar. Soddadan murakkabga qarab asta-sekinlik bilan o'tish o'quvchilarini ijodiy topshiriqlarni bajarishga ilhomlantiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'quvchilarning tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash tamoyillari va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bosqichlarini integratsion yondashuv asosida amalga oshirish kutilgan natijalarni bera oladi.

Integratsion yondashuv asosida o'quvchilarni tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashni amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy - pedagogik shartlarning bo'lishi talab qilinadi:

- O'quvchilarning tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlash motivatsiyani rivojlantirish;

- Uzluksiz o'z-o'zini tahlil qilish, nazorat qilish va boshqarish;

- O'quv - metodik ta'minotni yaratishda pedagogik innovatsiyalar va innovatsion faoliyat natijalaridan foydalanish;

- Integratsion yondashuv asosida innovatsion – metodik loyihalarni bajarish;

- Integratsion o'qitish muhitini yaratishda interfaol va integratsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish.

O'quvchilarni tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlashda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tabiat hodisalari, kundalik turmushda, tabiatda kuzatilayotgan jarayonlarni mohiyatini anglashga qaratilgan muammoli vaziyatlarni yaratish va ularga javob topish tarzida tashkillash integratsion yondashuv asosida ta'limni amalga oshirish uchun xizmat qila oladi.[3]

Integratsion yondashuv asosida amaliy mashg'ulotlarni olib borish o'quvchilarda yaratuvchanlik, tajribalar o'tkazish, yangilikka intilish, o'z g'oyalari va loyihalari ustida izlanish ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M D ., Sayfurov D.M., Turayev A.B. - Toshkent, 2015. -120 bet.
2. Использование материала связанного с жизнью на уроках химии, / Кудинова Н.Ф., - Москва, ИздательствоМГОУ, 2009, - 39с.
3. Pozilova Sh.X., Matkurbanova N.SH. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsip va qoidalari // Высшая школа.- Москва, 2017. - №10. S.62-65

ALLOMALARNING BOLA TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI VA ULARDAN TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH

Ismatova Guli Rustamovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani 4 - DMTT direktori.

Annotasiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola tarbiyasida allomalarning qarashlari va ularning fikr-mulohazalari va ularni bugungi kunda tarbiya jarayonida qo'llash ta'lim jarayonidagi muammolarni hal qilishga yordam berish va o'rganish uchun ilgari ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Al xorazmiy, Alisher Navoiy, tarbiya, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy.

Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarning, ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog'liq ezgu intilish bo'lgani bois istiqloqlning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohotlar yosh va barkamol avlodni aqlan, axloqan kamolga yetkazish va unda shaxs sifatlarini tarkib toptirishdan iboratdir. Ma'lumki ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarning bilimlarni, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada allomalarimizning fikrlari, qarashlari ular olib borgan tarbiyaviy g'oyalar to'laqonli ahamiyatga egadir. Shuning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bu qarashlarni shakllantirish va amaliyotga joriy etish muammoning dolzarbligini tashkil qiladi.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik , biologic mavjudot hamdir. Demak uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologic va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir biridan ajratib bo'lmaydi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak degan g'oyani ifodalaydi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uning muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlarga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma'naviy meroslari muhim dasturil amal ahamiyatiga ega bo'ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'z o'tmish madaniy merosini chuqur o'rganmagan va e'zozlamagan, ajdod-avlodlari bosib o'tgan tarixiy yo'lni idrok etmagan, milliy mustaqillik yo'lida jon fido qilgan buyuk ajdodlar faoliyatidan xabardor bo'lmagan inson o'zligini hech qachon anglab yetmaydi.

Abu Nasr Farobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudodning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota-ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

Mirzo Ulug'bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baho beradi, ularni hayotda chidamli, mehnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur, deydi. Buning dalili sifatida "Zij" ustida ishlash paytidagi qiyinchiliklar haqida shunday deydi: "Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz o'zimizga qadar yaratilgan jadvallarni taqqosladik, qayta tuzdik va shu tariqa yuz

qaytalab tuzatishlar kiritgach , o‘n sakkiz yildan so‘nggina o‘z ko‘zlagan niyatimizga yetdik”.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida , kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e‘tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘shishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamaq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda axloq , ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy qoida bo‘lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning istiznosiz hamma sohalarida kishilarning xatti - harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi.

Axloq tarbiyasi insonni axloqiy barqarorlikka yetkazish va uning bashariyat jamiyatiga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat.

Bolalar suvga o‘xshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishga bo‘lsa , o‘sha rangda tovlangani kabi , bolalar ham qanday muhitda bo‘lsalar o‘sha muhitning shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko‘proq yaxshi va yomon axloqni o‘z uylaridan , ko‘chadagi o‘rtoqlaridan , bog‘cha va maktabdagi o‘quvchilardan qabul qiladi. Demak, axloq butun insoniyatga xos bo‘lgan tushunchadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Pedagogika tarixi “. Alisher Navoiy nashr. Toshkent – 2005.
2. Каримов, У., & Каримова, Г. (2018). ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ.
3. “Pedagogika nazariyasi”. Termiz – 2013.
4. “Maktabgacha pedagogika”. Sh.Sodiqova . Tashakkur bo‘stoni nashr. Toshkent – 2013.
5. Abu Ali ibn Sino .Falsafiy qarashlar. – T.: O‘zadabiynashr, 1963-yil.
6. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri.” Tanlangan asarlar. – T.:A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.
7. Sad‘iy. Guliston – T.: Bad.adab.nashriyoti, 1968-yil.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TAYYORLASHDA INNOVASION

YONDASHUVNING AHAMIYATI

Nadjimitdinova Muxlisa Anvarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar, ta‘lim sifatini yaxshilashga qo‘yilayotgan talablar bo‘ljak pedagoglarni innovasion faoliyatga tayyorlash zarurligini ko‘rsatmoqda. Ta‘lim sohasidagi innovasion faoliyatning mohiyatini tushunmaydigan, ilg‘or tajribalar va texnologiyalarini o‘zlashtirgan pedagogni yetuk mutaxassis deb hisoblab mumkin.

Oliy ta'lim muassasasida innovasion faoliyat pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi va hamkorlikda ishlashga undovchi kuchdir. Innovasion faoliyat bu yangi ijtimoiy talablar bilan amaldagi me'yorlarning mos kelmasligi natijasida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Innovasion faoliyatda ilmiy izlanishlar olib boriladi, yangi ishlanmalar yaratiladi, tizim yoki jarayon takomillashtiriladi.

Innovasion ta'lim - ta'lim oluvchida yangi g'oyani ilgari surish, yangilik yaratish, boshqalar tomonidan yaratilgan yangilikni qabul qilishga oid sifatlar, qobiliyatlar va malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir.

“Maktabgacha ta'lim” yo‘nalishi talabalarining ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan innovasion jarayonda ta'lim-tarbiya jarayonining qaysi qismiga o‘zgarishlar kiritishni aniqlashtirish bilan boshlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari “Maktabgacha ta'lim” yo‘nalishi talabalarida ijodkorlikni shakllantirish turli yo‘nalishlarida olib borilishi kerak.

Bizga ma'lumki “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida ko‘rsatib o‘tilgan bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish .

Bo‘lajak tarbiyachida bolani har tomonlaman rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi uchun turli faoliyatlarda ijodkorligi namoyon bo‘lishi kerak .

Talabalar ijodiy faolligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan yangi metodika, ilg‘or tajribalar va metodik ishlanmalar amalda joriy etishligi bo‘yicha aprobatsiyadan o‘tishi lozim. Aprobatsiya natijasi baholanib zaruriy o‘zgartirishlar kiritiladi.

Bo‘lajak tarbiyachini kelajakda innovasion faoliyat yuritishga o‘rgatish ham oliy ta'lim muassasasi pedagogi oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak tarbiyachilarning ijodiy faolligini oshirishda innovasion yondashuvni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sayfullaeva D., Zhuraev A., Jalolova D., Savrieva I. Improving the Quality of Education in Higher Educational Institutions with the Using Innovative Educational Technologies. AIP Conference Proceedings.2022, 2647, 030045.
2. Sayfullaeva D. A., Innovative Educational Technologies. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. 9(1S) (2019).
3. Olimov K. T. and Z. Sh. Tukhtaeva, «Scientific researches for development future» International Conference (New York, USA, 2019), pp. 38-40. 4. B.

TALABALARNI RIVOJLANISH BIOLOGIYASI FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Kamolova F.I.

Navoiy davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchi

Bugungi kunda tsivilizatsiya rivojlanishining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bilimlarni avlod-dan-avlodga o'tkazish nuqtai nazaridan sifat jihatidan yangi o'zgarishlar bilan bog'liq. Buning sababi axborot texnologiyalar bilan ishlashning yangi vositalarning paydo bo'lishidir. Axborot texnologiyalari o'quv faoliyatining turli sohalarida, jumladan, ta'lim muassasalarida biologiyani o'qitish jarayonida tobora muhim rol o'ynamoqda. Shu sababli, ta'limining dolzarb vazifasi o'qitish amaliyotiga axborot texnologiyalari vositalarini joriy etishdir, bu o'z-o'zidan muqarrar va ularning jamiyat hayotining turli sohalarida ortib borayotgan ahamiyati bilan bog'liq.

Albatta, har qanday yangilikni joriy etish jarayoni tabiiy ravishda davom etishi kerak, mavjud tajriba va an'anaviy ta'lim vositalaridan foydalanishning muvaffaqiyatli amaliyotini hisobga olgan holda, shu jumladan jarayonning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan shaxsni mustaqil kognitiv faoliyatni rivojlantirish uchun.

Talabalarning mustaqil shug'ullanish orqali bilim olish faoliyati bir qator olimlar tomonidan etirof etilgan [1,2].

Mustaqil ta'lim o'quvchilarning mustaqil bilim faoliyatiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishning eng muhim shaklidir. Uy vazifasining o'ziga xos xususiyati shundaki, darsdagi mustaqil ishlardan farqli o'laroq, uy vazifasini bajarishda o'quvchilarga o'z ishini bajarishda katta mustaqillik beriladi, ularni o'zlariga maqulroq bo'lgan usullarda ishlash imkoni bo'ladi.

Darhaqiqat, mustaqil ta'limning o'quv jarayonining samaradorligi, shu jumladan o'quv materialini sifatini oshirishga ta'siri masalalari [1-3] tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish, shu jumladan uy vazifalarini bajarishda, odatda, turli xil o'quv vositalaridan foydalanishga asoslanadi. Biologiya o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlari o'qitish uchun barcha mavjud axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Agar yaqin kunlarga ta'lim axborotining asosiy manbai kitob va darsliklar bo'lgan bo'lsa, hozirda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari asosiy axborot manbai bolib xizmat qilmoqda.

Biroq, bizning fikrimizcha, biologiyadan mustaqil ta'lim vazifalarini tashkil etish jarayonida AKT vositalaridan foydalanish muammosi yetarli darajada ishlab chiqilmagan, jumladan:

- AKT vositalarini biologiyani o'qitish jarayoniga uning turli bosqichlarida kiritish zarurati va talabalarning uy vazifalarini tashkil etishda ulardan foydalanish usullari toliq qamrab olinmagan;
- AKT vositalaridan foydalangan holda biologiyani o'qitish sifatini oshirish va topshiriqlarni mustaqil bajarish, o'rganish bo'yicha aniq uslubiy tavsiyalarning kamligi.

Ma'lumki, darsdan tashqari ishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u majburiydir. Talabalarning mustaqil ishi qanday tashkil etilganligi uning muvaffaqiyatli bajarilishini, darsdan tashqari soatlarda o'quv materialini o'zlashtirishning muvaffaqiyatini belgilaydi va bu o'z navbatida keyingi darsning qanday o'tishini belgilaydi. Dars jarayonidagi mustaqil ishlardan farqli o'laroq, uy vazifalari o'quvchilarga tez sur'atda va o'zlariga mos keladigan tarzda ishlashlari mumkin bo'lganda ishlash uchun katta mustaqillik beradi.

O'qitishning yangi vositalari sifatida AKT vositalarining paydo bo'lishi o'quv jarayonida o'quvchilarning o'quv va kognitiv faolligini oshirishga qaratilgan bir qator pedagogik g'oyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Demak, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining umuman o'quv jarayonida, xususan, biologiya fanidan o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishdagi o'rnini va rolini ochib berish zarurati tug'iladi.

Zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda mustaqil ta'limni vazifalarini bajarish jarayonida biologiya fanidan talabalarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etishning uslubiy shartlari kompleks va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan eng muhimlari quyidagilardir:

- o'quvchilarning individual psixologik-pedagogik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lim vazifalarining o'zgaruvchanligi;
- talabalar uchun AKT vositalarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyati;
- AKT vositalarining biologiyani o'qitishning an'anaviy vositalari bilan oqilona uyg'unligi;
- o'qituvchining aniq bayoni va talabalarning aniq mustaqil ta'lim vazifalarini bajarishda AKT vositalaridan foydalanish maqsadini bilishi;
- talabalar ishining bajarilishini nazorat qilish va majburiy baholash.

Umumii holda xulosa qilib aytishimiz mumkinki, AKT vositalaridan foydalangan holda biologiyadan mustaqil ta'lim vazifalarini bajarish jarayonida talabalarning mustaqil bilim faoliyatini tashkil etish usullaridan foydalanish biologiya ta'limi sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Федчишин Ю. И., Майорова Н. В. Самостоятельная работа студентов и ее место в учебном процессе, как фактор повышения эффективности обучения //

Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 37. – С. 131–141. – URL: <http://e-koncept.ru/2016/56797.htm>.

2. Болтаева М., Дадамирзаев Ф. Методологические основы формирования самостоятельного образования // Проблемы образования, 2008. № 1. В.78–79.

3. Ли, Т. Г. Роль самостоятельного образования в формировании преподавательской компетентности у студентов / Т. Г. Ли. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 41 (383). — С. 84-87.

**BIOLOGIYA FANIDAN SINFDAN TASHQARI O‘QUV FAOLIYATNI UCH
OLCHOVLI O‘QUV VOSITALAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH
METODIKASI
Sadilloyeva L.S.**

Navoiy innovatsiyalar universiteti oqituvchisi

Jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar mamlakatimiz ta’lim tizimiga yangi talablarni belgilaydi. Oquvchining o‘qish davrida va uni tugatgandan so‘ng muvaffaqiyatli o‘zini-o‘zi anglashi, uning jamiyatda ijtimoiylashuvi, mehnat bozoriga faol moslashishi ta’lim jarayonining eng muhim vazifalari hisoblanadi.

Maktab ta’limi tizimida fanlarning biologik jarayoni alohida o‘rin tutadi, o‘quvchining har tomonlama kamol topishiga, yosh avlodda dunyoning zamonaviy tabiatshunoslik manzarasini shakllantiradi. Biologiya fanlarini o‘qitishni ta’lim jarayonini sinfdan tashqari ishlari bilan bog‘lasak, u bugungi kunda umumiy ta’lim va tarbiya tizimidagi ahamiyati tobora ortib borayotgan ijobiy ta’lim natijalarini beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan, shu jumladan 3D modellashtirishdan foydalanish maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish va texnik kasblar sohasida o‘z taqdirini o‘zi belgilashga tayyorlik darajasini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Uch o‘lchovli o‘quv vositalarni o‘zlashtirish yangi ta’lim vositasi bo‘lib, o‘quvchilarda o‘z konstruksiya va dizayn g‘oyalarini amalga oshirish odatini singdira oladi. Bu texnologiyalar fanlararo aloqalarni rivojlantirish, loyiha asosida ta’lim olish uchun keng imkoniyatlar ochib berish, mustaqil ijodiy ishlarni o‘rgatish imkonini beradi.

Maktab biologiya kursining tarbiyaviy vazifalari sinf-dars o‘qitish tizimi o‘quvchilarning darsdan tashqari ishlari bilan chambarchas bog‘liqligi asosida eng to‘liq hal qilinadi. Biologiya fanidan o‘quvchilarning darslarda, laboratoriya mashg‘ulotlarida, ekskursiyalarda va o‘quv-tarbiya ishlarining boshqa shakllarida olgan bilim va ko‘nikmalari sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda sezilarli chuqurlashuv, kengayish va xabardorlikni topadi, bu esa ularning fanga bo‘lgan qiziqishining umumiy ortishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ammo shuni ta'kidlashimiz mumkinki, bugungi kunda darslarda 3D texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan hatto ularning ishtiroki ortmoqda. Shu sabab, ta'lim-tarbiya jarayoni yanada rang-barang bo'lishi, oquv jarayoni yanada samarali bo'lishi uchun uch olchovli oquv vositalarining ahamiyati kattadir. Ularning biologik ob'ektlar yoki jarayonlarni batafsil o'rganishga qiziqishi, murakkab mavzularni osonroq tushunishlari va katta hajmdagi ma'lumotlarni osonroq eslab qolishlariga imkon beradi.

Biologiya fanidan sinfdan tashqari ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning mazmuni va tashkil etilishi bilan bog'liq. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar maktab o'quvchilarida qiziqish uyg'otishi va ularni turli xil faoliyat turlari bilan o'ziga jalb qilishi kerak. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning bilimiga qiziqishlarini shakllantirish, maktab o'quvchilari faoliyatining har bir bosqichida murakkablashib boruvchi yaxlit, murakkab, ko'p qirrali va uzoq davom etadigan jarayondir. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda uch olchovli oquv vositalarga asoslanishining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat deb qarash mumkin:

1. O'quv mashg'ulotlaridan farqli o'laroq, sinfdan tashqari mashg'ulotlar ixtiyoriy asosda tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Bu uning birinchi xususiyati. O'quvchilar o'z qiziqishlari va moyilligiga qarab, mustaqil ravishda turli to'garaklar mashg'ulotlariga yoziladi, agar xohlasa, darsdan tashqari ommaviy va yakka tartibdagi ishlarda qatnashadi. Binobarin, ixtiyoriylik, eng avvalo, sinfdan tashqari faoliyat turlarini erkin tanlash demakdir. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarni muammosiz darsdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilishdir.

2. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish - bu majburiy dasturlar doirasi bilan bog'liq emas. Uning mazmuni va shakllari asosan o'quvchilarning qiziqish hamda mahalliy sharoitga bog'liq. Agar ushbu dasturlar va o'quv ko'rsatmalari asosida o'quvchilarning o'ziga xos sharoitlari va istaklarini hisobga olgan holda ish rejaları uch olchovli o'quv vositalarini hisobga olgan holda tuzilsa maqsadga muvofiq boladi. Bu maktab o'quvchilarining qiziqishlari va ehtiyojlarini qondiradigan sinfdan tashqari ishlar mazmunini yanada moslashuvchan qilish imkonini beradi.

Sinfdan tashqari ishlarga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri uning hayot bilan chambarchas bog'liqligidir. Uzluksiz ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan, shu jumladan 3D modellashtirishdan foydalanish maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish va texnik kasblar sohasida o'z taqdirini o'zi belgilashga tayyorlik darajasini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin. Uch olchovli o'quv vositalarni o'zlashtirish yangi ta'lim vositasi bo'lib, o'quvchilarda o'z konstruksiya va dizayn g'oyalarini amalga oshirish odatini singdira oladi. Bu texnologiyalar fanlararo aloqalarni rivojlantirish, loyiha asosida ta'lim olish

uchun keng imkoniyatlar ochib berish, mustaqil ijodiy ishlarni o'rgatish imkonini beradi. Biologiya fanidan sinfdan tashqari ishlar o'rganishning ikkita tamoyilini - nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni, biologiya va hayot o'rtasidagi aloqani yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, sinfdan tashqari mashg'ulotlar uch olchovli oquv vositalarga asoslansa, bu maktab o'quvchilarini turli mumkin bo'lgan mehnat bilan tanishtiradi: tajriba o'tkazish va o'simliklarni kuzatish uchun tuproqni tayyorlash, ularga g'amxo'rlik qilish, daraxt va butalarni ekish, qushlarni boqish uchun ozuqa tayyorlash, dehqonchilik hayvonlarini parvarish qilish, hamda o'z navbatida ularda mas'uliyat hissini uyg'otadi. Biologiya fanidan sinfdan tashqari ishlarning katta ahamiyati maktab o'quvchilarini vaqtni behuda o'tkazishdan chalg'itishi bilan bog'liq.

Shunday qilib biologiya fani mashg'ulotlari axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanilib, tushuntirish va illyustrativ, reproduktiv, muammoli taqdimot, qisman qidiruv va tadqiqot o'tkazish usullari yordamida tashkil etilsa o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini faollashtirishga erishgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov E.Q. Gistologiya. Toshkent. «O'qituvchi». 1994 y.
2. Zufarov K.A. Gistologiya. Toshkent. «Medisina». 1991 y.
3. Zavarzin A.A. Osnova sravnitel'noy gistologii. Uchebnoe posobie. Leningrad. LGU. 1985 g.

TA'LIM MUASSASALARIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Primov Dilmurod Dusmatovich

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada fanlarni integratsiya asosida o'qitishning o'ziga xosligi, ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va integratsiyaning roli, ahamiyati, mazmuni va mohiyati, uni zamonaviy pedagogik ta'limda qo'llashning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, integratsiya, integrativ fanlar, uzviylik, integrirlangan dars.

Respublikamizda hozirgi sharoitda ta'lim tizimini sifat jihatidan milliy va xorijiy tajriba uyg'unlashgan xalqaro standartlarga mos tarzda yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun belgilangan ustuvor topshiriqlarni amalga oshirish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biri uzluksiz ta'lim tizimi o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalarini amalga oshirishdan iboratdir.

Integratsiya - bu nafaqat o'quv materialining maxsus kombinatsiyasi, balki o'quv faoliyatini tashkil etish usuli bo'lib, o'quv materialini turli xil pozitsiyalardan tahlil qilish, asosni ajratib olish, ma'lum bo'lganlar bilan yangi aspektda operatsiyalarni bajarish, o'quv muammolarini hal qilish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. ijodiy Integratsiya darsni hamkorlik yo'nalishiga yo'naltirishga imkon beradi, bunda fikrlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin, ammo bu eng qimmatli fazilatlardan birini rivojlantirishga yordam beradi: boshqasini tinglash, uning dalillarini o'rganish, bironing nuqtai nazarini o'z nuqtai nazari bilan solishtirish qobiliyati va boshqalar. "Darsda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha fikr yuritadiganlarga tegishlilik hissi darsning motivatsion sohasining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu esa bilimga bo'lgan ishtiyoqni rivojlantirishga qodir"[2]

Fanlarni integratsiyalash – mavzularning takrorlanmasligi, vaqtni tejash, ya'ni kam vaqt sarflab katta hajmdagi materialni o'zlashtirish imkonini beradi va o'zida tashkilotchilik vazifasini ham ifodalaydi.

"Integratsiya" tushunchasini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, uning pedagogik-psixologik va falsafiy jihatlariga e'tibor qaratamiz.

Integratsiya:

- 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha;
- 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni differentsiatsiya bilan birga kechadi;
- 3) ikki va undan ortiq ob'yektni o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish[1];

Dialektikada - "integratsiya" tushunchasi borliqni yaxlitlikda tadqiq qilishning markaziy falsafiy va uslubiy asosi sifatida qaraladi, tabiat, jamiyat va ong rivojlanishining umumiy qonunlari sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, faoliyatning yetakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi. Integratsiya ta'lim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, uzviy va tizimli joylashtirilishini, yangi mavzuni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanishni, o'quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishini, o'quv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligi va yaxlitligini ifodalaydi.[2]

Hozirgi vaqtda integratsiya muammosiga ta'limni tashkil etish jarayonidagi o'rniga yanada katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta'limda integratsiya ta'lim oluvchilarga yanada samarali va oqilona ta'sir ko'rsatish maqsadida undagi ishlarni yaxshilashga, o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan yangi pedagogik yechimlarni faol izlash yo'nalishlaridan biri tushuniladi.[3]

Ma'lumki, o'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki, bugungi zamonaviy texnologiya miqdor oshishi emas, balki

sifat o'zgarishlari doirasini kengaytirishni taqozo etmoqda. Bu esa, ta'limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'qitishni ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida fanlarni integratsiyalash quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- har bir fanlararo aloqadorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

-fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;

-ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishda hamkorlik pedagogikasi hamda simmetrik pedagogika imkoniyatlaridan murojaat etish lozim.

Integratsiya nafaqat kongnitiv, balki ta'limning sub'yektivlik tamoyillariga qaratilgan bo'lishi zarur. Bu esa ta'lim oluvchilarning tayanch(SOFT) kompetensiyalarni integrativ shaklda rivojlantirishga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

Integratsiya ta'lim oluvchining doimo izlanuvchanligini va bilim va tajribasini orttirib boruvchi, ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biridir.

Zamonaviy ta'limda integratsiya o'quvchilarga yanada samarali va oqilona ta'sir ko'rsatish maqsadida ularlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan yangi pedagogik yechimlarni faol izlash yo'nalishlaridan biri tushuniladi.

Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. Integratsiya jarayonlari tashkillashtirilgan sistemalarda bo'lishi mumkin. Bu holda ular sistema butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini oshiradi. Integratsiya jarayonlari oldin bog'lanmagan elementlarni biriktirish asosida hamda shakllangan sistemalarda ham yuz berib, natijada sistemaning bir butunligi va tashkiliy darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o'rtasida aloqadorlikning murakkablashuviga olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo'ladi. Shuning uchun ta'limda integratsiyasi muammosi nazariya va amaliyot uchun juda muhimdir.

Integratsiya tushunchasi rivojlanish jarayonining va elementlarning yaxlit birlashishi bilan bog'liq tomoni sifatida belgilanadi. Integratsiya elementlar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sirlarning hajmi va intensivligining o'sishi, ularning tartibga solinishi va sifat jihatidan yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi bilan ma'lum bir yaxlit ta'limga aylanishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogika fanining vazifasi o'qituvchiga o'quv maqsadlari va funksiyalarining bir xilligi bilan turli xil ob'yektlarning individual elementlari va qismlarini bir butunga tiklash va birlashtirishga qaratilgan integratsiyani amalga oshirishga yordam berishdir. Bu esa ta'limda fan ichidagi va fanlararo integratsiyasi

masalalarining dolzarbligini belgilaydi. Shuning uchun ham dars jarayonlarida integratsiyalashgan fanlarni tashkillashtirish zamon talablaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.-T., Moliya, 2003-yil.
2. Tolipov O'.Q, Barakaev M, Sharipov Sh.S. "Kasbiy pedagogika" T., 2001-yil.
3. Tojiyev M, B. Ziyomhammadov "Milliy pedagogik texnologiyani ta'lim -tarbiya jarayoniga tatbig'i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni" T., 2010-yil

TALABALARNING KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sattarov Sh. Y., TerDU erkin tadqiqotchi

sattarovs215@gmail.com

Turayev X. A., p.f.f.d. (PhD), dotsent (ilmiy rahbar)

TerDU, drawing_master.th@mail.ru

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida kreativlik kompetentlik termini ishlatilib kelinmoqda. Bu terminga barcha pedagogika sohalarida duch kelamiz. Shuning uchun ham tezisimizda bu terminga va talabalarning kreativlik kompetentligini qay tariqa rivojlantirish usullariga to'xtalib o'tamiz

Kalit so'zlar: interaktiv metod, interfaol metod, kreativlik, kreativlik kompetentlik, chizmachilik fani, usul.

Bizning tariximizning ma'naviy va madaniy merosi juda boy ekanligini istiqloq tufayli angladik va o'zligimizni bilib, o'tmishimizda dunyoviy hamda diniy ilmi olimlarimiz dunyoviy va diniy ilm hamda madaniyatga ulkan hissa qo'shganliklaridan xabardor bo'lishga muyassar bo'lib kelmoqdamiz.

Ma'lumki, har qanday detal, buyum, bino va inshootlar yaratishdan oldin ularning chizmalari chizib olinadi. VII – XV asrlarda Markaziy Osiyo (hozirgi O'zbekiston xududi)da buyuk ilmiy kashfiyotlar va yirik obidalar bunyod etilgan. Bunday yirik va hashamatli obidalarni hamda ilmiy kashfiyotlarni chizmalarsiz yaratib bo'lmaydi.

O'sha davrlarda chizmachilik ilmi me'morchilik bilan birga uning ajralmas qismi sifatida rivojlangan. Chizmachilikka bir vosita sifatida qaralgan va fan sifatida unga ahamiyat berilmagan.

Chizma - bu mavjud davlat standart talabida barcha qonun-qoidalarga rioya qilib ma'lum geometrik yasashlar ko'lami qo'llanilib, chizma asboblari yordamida biror maqsadni ko'zlab bajariladigan tasvir hisoblanadi [1; 5-b.].

Yurtimizda 1932-yildan boshlab chizmachilik alohida fan sifatida o‘qitila boshlangan. 1934-yilda esa birinchilardan bo‘lib V.O.Gordon “Texnik chizmachilik asoslari” nomli darsligini nashr ettirdi.

Hozirgi kunda chizmachilik fani mamlakatimizda umumta’lim maktablarining 8- va 9-sinflarida haftasiga 1 soatdan o‘qitilmoqda [2; 92-b.]. Bu fanni o‘qitishda esa o‘z kasbining yetuk va bilimli mutaxassislari faoliyat yuritishmoqda. Hozirgi zamon talabi asosida bu kasb egalarini bilimli, ilmi, malakali kadrlar qilib tayyorlashda esa albatta zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi kunda talabalarning kreativlik kompetentligini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Chunki yuqori texnologiyalarni yaratish va amalga oshirish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bilim va ma’lumotlarning o‘sib borayotgan o‘rni yuqori malakali mutaxassislarga katta talab qo‘ymoqda.

Bu ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi shakllarini talab qiladi va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qodir bo‘lgan yangi avlod o‘qituvchilarini shakllantirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Avvalombor kreativlik kompetentlik nima?, u bizga nima uchun kerak? kabi savollarga javob berib o‘tamiz

Kreativlik - bu qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayondir.

Kompetentlik – ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo‘lib, ma’lum sohadagi bilim, ko‘nikma va tajribani mujassamlashtirishi.


Kreativ kompetentlik - shaxsda mustaqil fikrlash sifatleri namoyon bo‘lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi [3; 83-b.]. Barcha tariflar bir-biridan keskin farq qilishiga qaramay, uning ba’zi umumiy jihatlarini ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, kreativ kompetentlik natijasi sifatida olinadigan mahsulotning sifat jihatidan yangilikka ega bo‘lishi;

Ikkinchidan, ushbu jihatlar kreativ kompetentlikning dastlabki asoslarida mavjud bo‘lmaganligi;

Uchinchidan esa, har qanday kreativ kompetentlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanadi.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatleri, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda pedagoglar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim [4; 265-b.].



Pedagoglar oldida turgan asosiy vazifa-bu yoshlarda kreativlik, uning o'ziga xos sifatlari to'g'risida nazariy bilimlarni berish, ular asosida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishdan iborat. Mazkur vazifani ijobiy hal etishda ta'lim jarayoni, shu jumladan fanlarni o'qitishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, mashg'ulotlarni noan'anaviy shakl, metod va vositalari yordamida qiziqarli va mazmunli tashkil etish kutilgan samaralarni beradi [5; 146-b.].

Talabalar o'zlarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar bo'lajak o'qituvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash va qo'rquv hissi mavjud bo'lsa yoki tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmonov I. va boshqalar. Chizmachilik o'qitishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent – 2012.
2. Sattarov S. Y., Turayev X. A. METHODS OF CONSTRUCTING SURFACES ON THE BASIS OF GEOMETRICAL CONDITIONS USING AUTOCAD GRAPHICS SOFTWARE //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 89-93.
3. Sattarov S. Y. AutoCAD GRAFIK DASTURI YORDAMIDA MODEL YASASH ORQALI TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI OSHIRISHGA OID METODIK TAVSIYALAR //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. CSPU Conference 1. – C. 82-84.
4. Turayev X. A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 264-268.
5. Sattarov Sh.Y. “Model yasash yo‘li bilan talabalarning fazoviy tasavvurini oshirish”. Termiz muhandislik texnologiyalari instituti, “Muhandislik fanlarini o‘qitishning dolzarb muammolari va yechimlari” Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari. 4-5-noyabr 2022-yil. 146-149-betlar.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINI TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OT SO‘Z TURKUMI USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Atajonova Anorgul Jumaniyozovna

Xorazm viloyati UrDPI “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedra mudiri f.f.n.,
dotsent

Sobirova Aziza Farxodovna

UrDPI “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasida stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ona tilining izchil kursida beriladigan bilim, malaka, ko‘nikmalar, ona tili darslarining maqsadi, shu jumladan, ot so‘z turkumining umumta’lim maktablarida o‘qitish usullari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ot so‘z turkumining o‘qitish jarayoni ketma-ketlikda amaliy topshiriq va misollar orqali yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: iboralar, otlar, morfologiya, uyga vazifa, ona tili, o‘quvchi, maktab.

Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga

sogʻlom, kuchli va taʼsirchan motivatsiyani shakllantirish” [4] kabi muhim vazifalar belgilangan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek oʻquvchilar nutqini oʻstirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab boʻlishi kerak.
2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali boʻlishi lozim. Bu material qanchalik toʻliq, boy, qimmatli boʻlsa, uning bayoni shunchalik mazmunli boʻladi.
3. Fikr tinglovchi tushunadigan soʻz, soʻz birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi.

Boshlangʻich sinflarda “Ot soʻz turkumi“ mavzusini oʻrganishda “Aqliy hujum “Omadli eshiklar” oʻyini metodidan foydalanish oʻquvchilarning keng va har tomonlama erkin fikr yuritish koʻnikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

“Omadli eshiklar” oʻyini. Vatmanga uchta eshik chiziladi. Sinf oʻquvchilari guruhga boʻlinadi. 1-eshikka 2 ta savol, 2-eshikda 3 ta savol, 3-eshikda 4 ta savol boʻladi.

1-eshik uchun savollar;

1. Kim? soʻrogʻiga javob boʻladigan soʻzlarni toping.

Mushuk, kuchuk, Noila, daftar, Buxoro, kitob.

1. Koʻplikdagi otlarni toping.

Bizlar, chizgʻich, televizor, Gulzor, boshoq.

Savollarga toʻgʻri javob bergan guruh 2-eshikka yuzlanadi. 2-eshik uchun savollar:

1. Nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni toping.

Bogʻbon, qalam, Zulfiya, qalamdon.

2. Bosh harf bilan yoziladigan soʻzlarni toping.

shahar, andijon, shifokor, akmal, duradgor.

3. Birlikdagi otlarni toping.

Olchazor, behilar, shahar, qizlar, kitobcha.

3-eshik uchun savollar:

1. Osmon soʻzining maʼnodoshlarini toping va ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

2. Berilgan soʻzlardan foydalanib, bogʻlanishli gaplar tuzing: *yoz, taʼtil, oromgoh, qishloq, dala, ish, yordam, mashgʻulot, kitob, ertak.*

Quyidagi xulosalarga keldik:

Otni oʻrgatishga tayorlov bosqichi savod oʻrgatish davriga toʻgʻri keladi. Bu bosqichda oʻquvchilar narsalarni, ularning nomi boʻlgan soʻzlarni farqlashga oʻrganadilar. Keyingi bosqichda otning leksik maʼnolari va grammatik belgilari ustida ishlanadi. Kim? yoki nima? soʻrogʻiga javob boʻlishi ularni farqlashni oʻrganadilar. 2-sinfda otlarning leksik maʼnosi haqidagi bilimi chuqurlashtiriladi. 3-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik

shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

4- sinfda o'quvchilarning yuqorida olgan bilimlari chuqurlashtiriladi. O'quvchiga ot so'z turkumini o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'zlashtirishda nutq o'stirish uchun muhim ta'limiy vosita hisoblanadi. O'quvchining fikrlash qobiliyatini o'stiradi. 4-sinfda ot so'z turkumi ustida ishlashda noan'anaviy usullardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytiradi, og'zaki va yozma nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda turli zamonaviy ta'lim metodlaridan o'z o'rnida va unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Otga xos bo'lgan grammatik kategoriyalarni o'rganish orqali o'quvchilar gap tuzish ko'nikmalariga ega bo'la boradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <http://agroxizmat.uz/oz-OZ/president>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.- <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyevning-oqituvchi-va-murabbiylar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi->

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni// (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TALABALARINING METODEK KOMPONENTLIGINI MA'RUZA MASHG'ULOTI ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Umbarov Abduvohid Uktam o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: umbarovabduvohid@gmail.com

Pedagogika oliy ta'lim muassalari talabalari umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limidan metodik tayyorgarligining muhokama qilingan komponenti doirasida ko'proq yoki kamroq o'ziga xos ish uslubini ko'rib chiqish uchun o'quv dasturining muayyan versiyasiga tayanish kerak. Pedagogika oliy ta'lim muassalarida umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limi III semestrda (ikkinchi kurs uchinchi semestr) o'quv rejasiga muvofiq 180 soat ajratilgan bo'lib shundan 44 soati ma'ruza mashg'uloti hisoblanadi. Ma'ruza mashg'uloti davomida talabalarning metodik komponentini rivojlantirish mumkin bo'lgan jihatlarni qarab chiqaylik.

Pedagogika oliy ta'lim muassalarida umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limidan ma'ruza mashg'ulotida (2 soat) talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish muammosiga bag'ishlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu muammo pedagogika oliy ta'lim muassalarida umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limi umumiy ta'lim xarakteriga egami va shuning uchun barcha talabalar tabaqalashtirilgan ta'lim sharoitida individual ta'lim traektoriyasi asosida talabalarning metodik komponentlarini rivojlantirishlari kerakmi degan savolni hal qilish bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ushbu ma'ruza mashg'ulotlarida umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limi fan sifatida o'qitish metodikasi va pedagogika oliy ta'lim muassalarida fizikani o'rganish vazifalari to'g'risidagi savollarni ko'rib chiqqandan so'ng birinchilar qatorida reja bo'yicha borishi mumkin. Ushbu ma'ruza mashg'ulot uchun quyidagi sxemani taklif qilishimiz mumkin [1-4]:

1. Pedagogika oliy ta'lim muassalarida umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limi va talabalarning dunyoqarashi.
2. Umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limi o'qitishda talabalarning dunyoqarashini shakllantirish komponentlari.
3. Fizika professor-o'qituvchisining talabalarning dunyoqarashini shakllantirishdagi faoliyati.
4. Umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limini o'qitishda talabalarning dunyoqarashini shakllantirishning uslubiy muammosini ishlab chiqishning ayrim istiqbollari.

Yuqoridagi masalalarni fizika o'qitish metodikasi bo'yicha ma'ruza mashg'ulotida aks ettirishning mumkin bo'lgan jihatlarini tavsiflaymiz.

Talabalar bilan umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limi o'rganish usullarini muhokama qilganda, bilimlar tipologiyasi, fizik eksperiment, fizik hodisalarni tushuntirishga e'tibor berishimiz lozim.

Ushbu ma'ruza mashg'ulotida uslubiy masalalarga katta e'tibor berishimiz lozim.

Umumiy fizikaning "Elektromagnetizm" bo'limidan birinchi maruza mashg'ulotida quydagicha boshlaganimiz maqul.

Asosiy o'zaro ta'sirlar.

Elektromagnit o'zaro ta'sir.

Elektromagnit maydon va elektr zaryad tushunchalarining uslubiy mazmuni.

Elektromagnit maydonning moddiyligi. Elektromagnit maydon misolida materiya va harakatning birligi.

Elektromagnetizmning rivojlanish tarixidagi dialektika qonuniyatlari.

Tarixiy va fundamental tajribalar. Ularning o'quv eksperimenti bilan aloqasi.

Metodikaning muayyan masalalari bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarda muhokama qilinishi mumkin bo'lgan sanab o'tilgan uslubiy jihatlarga qo'shimcha

ravishda, har qanday bo‘lim yoki mavzuni ko‘rib chiqishda, hech bo‘lmaganda, ushbu o‘quv materialining g‘oyaviy imkoniyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tish zarur.

Fizika o‘qitish metodikasi bo‘yicha ma’ruzalar paytida talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish turli professor-o‘qituvchilar tomonidan turli usullarda amalga oshiriladi. Ma’ruza mashg‘uloti davomida talabalarga individual tarzda savol javob qilish orqali ma’ruza mashg‘ulotini diqqat bilan idrok etishga undaydi ma’ruza mashg‘ulotlari oxirida ma’ruza mashg‘uloti materialini qanchalik o‘zlashtirganligini tekshiradigan topshiriqlar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi [1-5].

Talabalar ma’ruza mashg‘uloti davomida topshiriqlar ustida ishlaganda, faktik materiallar bo‘yicha bilimlarni tekshirish vazifasi birinchi o‘ringa chiqmaydi. U o‘z o‘rnini metodikani o‘rganishni rag‘batlantirish va talabalarning uslubiy qiziqishlarini shakllantirish vazifalariga bo‘shatib berish bilan bir qatorda talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi[4-6].

1. Elektroliz hodisasi orqali elektr zaryadi haqida qanday bilimlarni olish mumkin?

- a) zaryadli zarralarning ishoralari;
- b) zaryadning bo‘linuvchanligi;
- c) zaryadning diskretligi;
- d) zaryadning saqlanish qonuni;
- e) zaryadning o‘zgaruvchanligi;
- f) zaryadni o‘lchashning turli usullari;
- g) elektr zaryadi va elektromagnit maydon o‘rtasidagi bog‘liqlik?

2. Quyidagi fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri?

- A. Elektr va magnit maydonlar mustaqil, real hayot obektlari bo‘lib, faqat ma’lum sharoitlarda ularni yagona elektromagnit maydonga birlashtirish mumkin.
- B. Elektr va magnit maydonlar yagona elektromagnit maydonning ko‘rinishi bo‘lib, mos yozuvlar tizimini tanlashga qarab, maydonning ma’lum xususiyatlari paydo bo‘ladi.
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

3. O‘zgaruvchan elektr maydoni o‘zgaruvchan magnit maydon hosil qiladi degan fikrni kim ilgari surgan?

- 1) Faraday 2) Maksvell 3) Lenz 4) Kulon

4. Agar professor-o‘qituvchining vazifasi talabalarda sig‘im kabi fizik miqdorni joriy etishning obektiv zarurligi haqidagi tushunchalarini shakllantirishga hissa qo‘shish bo‘lsa, elektr sig‘im tushunchasini kiritish uchun tajriba nechta bosqichni o‘z ichiga olishi kerak?

- 1) bitta; 2) ikkita; 3) uchta; 4) to‘rtta; 5) besh.

Xulosa o‘rnida shuni takidlashimiz lozim berilgan topshiriq misollari nafaqat ma’ruza mashg‘uloti davomida talabalarning bilim faolligini oshirish uchun, balki

ta'labalarning individual ta'lim traektoriyasi orqali talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usarov, J. E., Khimmataliev, D. O., Makhmudova, D. M., Abdusalomovna, H. S., & Nizamiddinovich, E. A. (2023). Pedagogical Foundations of the Student's Individual Training Trajectory. *Telematique*, 22(01), 1259-1264.
2. Umbarov A.U. Fizikadan elektron ta'lim resurslari talabaning individual ta'lim traektoriyasini amalga oshirish vositasi sifatida // "Birinci Rennans: Abu Rayhon Beruniy va tabiiy fanlar evolyutsiyasi" nomli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya – Navoiy, 2023-yil 25-may. – B. 91-94.
3. Tursunov I.G., Umbarov A.U. Higher education pedagogical - psychological support of individual educational trajectories of students // *JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal* // ISSN: 2581- 4230 (Impact Factor: 8,155). – India, 2023. – Vol.9, – №6. – P. 11-15.
4. Dustnazar O. Khimmataliev et al/ PEDAGOGICAL COMMUNICATION AS AN IMPORTANT ASPCT IN PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY. *NeuroQuantology* |December 2022 | Volume 20 | Issue 16 |Page 4601-4612| doi : 10.48047/NQ.2022.20.16.NQ880467
5. Ochilova.G.O Kasbiy kompetentlik. O'quv qo'llanma "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" T – 2021.
6. M.Djo'rayev Fizika o'qitish metodikasi /o'quv qo'llanma/ Toshkent-2015.

ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA FANLAR INTEGRATSIYASI VA DIFFERENSIATSIYASIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Zufar Ashurov, i.f.f.d. (PhD), k.i.x.

Xususiy lashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi
direktor o'rinbosari
e-mail: zufara@mail.ru

Oxirgi yillarda O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda, uni isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni [1] bilan "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" qabul qilindi. Mazkur konsepsiya mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, ularni amalga oshirish mexanizmlarini belgilab berdi. Shu

o'rinda, ilm-fanni rivojlantirishda fanlar integratsiyasi va differentsiatsiyasi masalalariga ham chuqur e'tibor qaratilishini talab etadi.

Ilm-fanning rivojlanishi ikki qarama-qarshi jarayonlarning o'zaro dialektik ta'siri bilan tavsiflanadi: differentsiatsiya va integratsiya. Fanning alohida ijtimoiy institut sifatida rivojlanishi bilan uning differentsiatsiyasi, ya'ni yangi ilmiy fanlarning ajralib chiqishi sodir bo'lgan. Shu bilan birga, fanlarning integratsiyasi, ya'ni bir qator fanlarning o'zaro birlashishi sodir bo'lgan. Turli fanlar va ilmiy yo'nalishlar mustaqil ravishda emas, balki bir-biri bilan aloqada, o'zaro hamkorlik qilgan holda rivojlanib boradi [2]. Ilm-fan rivojining ayrim bosqichlarida differentsiatsiya (ayniqsa, fanning umumiy holda fanning hamda alohida fanlarning paydo bo'lishi davrida) ustunlik qiladi, boshqalarida esa ularning integratsiyasi sodir bo'ladi, bu zamonaviy ilm-fan uchun xosdir [3].

Xo'sh, fanlar integratsiyasi va differentsiatsiyasi nima? Mohiyatiga ko'ra, differentsiatsiya – bu alohida qismlarni bir butundan ajratish, turli elementlarga bo'lish jarayonidir. Fanlarning differentsiatsiyasi alohida ilmiy fanlarni ularning o'rganish predmeti va usullari bilan ajralib chiqishida namoyon bo'ladi (masalan, biologiya fanidan bioximiya fani ajralib chiqqan). Insoniyat tarixida, birinchi navbatda, tabiiy va aniq fanlar shakllana boshladi, keyinchalik 19-asrda ijtimoiy va gumanitar fanlar ajralib chiqqan. Har bir fanda tobora ko'proq turli xil tadqiqot ob'ektlari aniqlangan va yangi fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Shu tariqa, fanlar differentsiatsiyasi alohida ob'ektlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishga va ilmiy bilimlar tizimini murakkablashtirishga yordam berdi. Biroq, fanlar differentsiatsiyasi fanning turli elementlarini yagona nuqtada birlashtirib, tabiat va jamiyatning asosiy qonuniyatlarini tushuntirishga imkon bera olmadi. Shuning uchun ham fanlarning integratsiyasi yuzaga kela boshladi. Mohiyatiga ko'ra, integratsiya – bu alohida elementlarni birlashtirish, yagona butunlikni shakllantirish jarayonidir. Yangi ilmiy yo'nalishlarning o'sishi bilan bir qancha sohalar kesishmasida yangi ilmiy fanlar paydo bo'ldi. Ayrim fanlarda boshqa sohalardagi usul va tushunchalardan foydalanish boshlandi. Ayniqsa, bu hodisa global muammolarni hal qilish va ularning oqibatlarini baholashda juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Fanlar differentsiatsiyasi bilimlarning tez o'sishi va murakkablashib borishining ob'ektiv qonuniyatlarga asoslangan oqibati hisoblanadi. Bu muqarrar ravishda ilmiy mehnatning ixtisoslashuvi va taqsimotiga olib keladi. Differentsiatsiya jarayoni bilan bir vaqtda integratsiya jarayoni ham sodir bo'ladi, ya'ni fanlar, ilmiy va o'quv fanlarning birlashuvi, o'zaro kirishi, sintez bo'lishi, fanlar (yoki ularning usullari) ning yagona bir butunlikka birlashuvi, ular orasidagi chegaralarning yo'qolishi. Bu, ayniqsa, bugungi kunda kibernetika, sinergetika va b. kabi ilmiy bilimlarning sintetik, umumilmiy sohalari jadal rivojlanayotgan zamonaviy fanga xosdir [2]. Ilmiy sohada integratsiya deganda fanlarning yaqinlashuvi va birlashuvi jarayoni tushunilib, u

fanlarning differentsiatsiyasi jarayonlari bilan birga sodir bo‘ladi. Bilimlarning tadrijiy rivojlanishi davomida fanlar differentsiatsiyasi va integratsiyasi jarayonlari birgalikda rivojlanib borgan [4].

Shunday qilib, ilm-fanni rivojlanishida fanlar differentsiatsiyasi va integratsiyasidan ham foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ham ilm-fanni yanada rivojlantirish uchun aynan fanlar differentsiatsiyasi va integratsiyasi jarayonlariga ham e‘tibor qaratish lozim, bu esa turli ilmiy yo‘nalishlarni, turli xil usullar va g‘oyalarni birgalikda olib borilishiga, va natijada yangi fanlarning paydo bo‘lishiga hamda O‘zbekistonning jahon fani taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

2. Парахонский А.П., Венглинская Е.А. Интеграция и дифференциация наук, их связь с образованием. // Успехи современного естествознания. – 2009. – № 9. – С. 86-87

3. Кохановский В.П., Золотухина Е.В., Лешкевич Т.Г., Фатхи Т.Б. Философия для аспирантов: Учебное пособие. Изд. 2-е. – Ростов н/Д: “Феникс”, 2003. - 448 с.

4. Глузман Н.А. Интеграционные процессы в системе профессиональной подготовки педагогических кадров. // Образование – территория инноваций. Сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции. – Чебоксары: НОУ ДПО «Экспертно-методический центр», 2017. – С. 67-71.

MNEMIK JARAYONLARNING AMALGA OSHIRISH IZCHILLIGINI TA’MINLASH

Jumayev Xushboq Soatmumin o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrasida
o‘qituvchisi

E-mail: xjumayev96@gamil.com

Annotatsiya. Maqolada Maktab ta‘limi o‘quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqegini, sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolini o‘zgartirish kabilar haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: kichik maktab o‘quvchi yoshlari, xotira, mnemik jarayon, o‘quv samaradorligi, rivojlanish, ko‘nikma va malaka, bilim, ixtiyoriy va ixtiyoriy yodlash, mustaqil vazifalar, o‘rganish, jarayon, fikrlash, tushunish, mantiqiy yodlash.

Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolini o'zgartiradi, uning asosiy vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, tabiat va jamiyat to'g'risidagi qonuniyatlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Ta'lim muayyan darajada uyushqoqlik, intilish, irodaviy zo'r berish, faollik va maqsadga muvofiq faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz hatti-harakat o'rnini anglashilgan, rejali, aqliy mehnat egallay boshlaydi. O'quvchi doimo tengtoshlari bilan birga muayyan sinf jamoasida bo'ladi.

Demak, uning oldida hamma vaqt sinf jamoasining manfaatini himoya qilish, shahsiy istaklarini umumjamo'a intilishiga bo'ysundirish, o'zaro yordam, o'zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch hislarini egallash vazifasi turadi. Ta'lim jarayonida esa o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar tobora ko'payib va murakkablashib boraveradi.

Shuningdek bolaning yetakchi faoliyati o'zgarishi bilan katta yoshli kishilarning unga munosabati ham o'zgaradi. Ayni paytda yangi faoliyat sababli o'quvchi bolaning o'z asosiy faoliyatiga yangi munosabati paydo bo'ladi. Uning burch hissi o'sa boradi, u o'zining o'qishi shart ekanligini, o'qish o'zining burchi ekanligini va belgilab qo'yilgan tartib qoidani bajarishi shart ekanligini anglaydi. Bundan tashqari bolada yaxshi o'qish istagi ham tug'iladi. Demak, bola o'quvchi bo'lib qolgach, o'ziga ham boshqacha qaraydigan bo'ladi, chunki u endi katta, jiddiy ishga qo'shildi, u – o'quvchi. Ana shu paytdan boshlab shaxsning o'zini anglash o'ziga ongli munosabati kuchaya boradi.

O'qishning dastlabki kunidanoq kichik maktab yoshidagi bolaning o'sishini xarakterlatgan turli ziddiyat qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zaminida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy hislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Talablarning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqozo etadi va shu berk zanjirning uzlukchsiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlar mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga tevarak atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan iboratdir. Shu ehtiyojlar o'z portfeliga, dars tayyorlash burchagiga kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi tuyg'usi yotadi, holos. Bundan tashqari bilimlar kunidagi shodiyona ayyom, o'quvchilik safiga qabul payti, maktab mamuriyati va o'quvchilarning unga bildirgan samimiy tilaklari yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari bolaning his tuyg'usiga ijobiy ta'sir etadi. Sinfidagi o'rtoqlari bilan qatorlashib, saf totib yurishlari, birlashib o'ynash, oshxonaga borish, o'qituvchining o'g'itlari ham bolani o'ziga rom etadi.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarning kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat, irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsa bilan diqqatni ta'minlash o'z xulqini idora qilish ekanligini anglaydi. Shunday aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi tug'iladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlash kerak.

Birinchi navbatda ota-onalar bolada o'qishga xavas uyg'otishlari kerak, bolaning o'qishga istalgan yoqimli bir narsaga intilgandek intilishi va maktabning hamma talablarini ko'ngildagi kabi idrok etishi ko'p jihatdan ota-onalarga bog'liq bo'ladi. Lekin bolada o'qishga ijobiy munosabatni tarbiyalab borish bilan birga, bolaga o'qish faqat yoqimli ish, deb uqtirmaslik lozim, uni o'quv faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni va muvaffaqiyatsizliklarni yengib chiqishga tayyorlash kerak.

Birinchi sinf o'quvchilarining aksariyati zo'r ishtiyoq bilan maktabga boradi, o'quv faoliyatining juda muhimligini anglab, yaxshi o'qishga intiladi. Bolaning o'qish borasidagi bunday motivlarni o'quvchilarni ham ota-onalar ham har taraflama qo'llab quvvatlashlari va rivojlantirib borishlari kerak. Ota-onalar bolalarda tegishli malaka va ko'nikmalar, yana quloq sola bilish va o'quvchi bo'lish, kuzatish, esda qoldirish, katta yoshli odamlarning talablariga bo'ysunishi talablarini malakalari va ko'nikmalarini hosil qilishlari zarur.

Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining aynan o'ziga qiziqishi ko'zga tashlanadi. Maxsus tadqiqotlarda bolalar bilan keraksiz mashqlar o'tkazilgan va ularga oldindan bu mashqlar keyinchalik kerak bo'lmasligi aytilgan, lekin bolalar ularni bajonidil bajarishga kirishganlar. O'quvchi shaxsiy faoliyatda erishgan dastlabki yaxshi natija uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat mahsuli shodlik va quvonch his tuyg'usini keltirib chiqaradi. Masalan, ayrim o'quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o'qishga harakat qiladi. O'qish faoliyatiga qiziqish, uneing mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. SHABBAZOVA, D. (2023). A PERSONAL VALUE APPROACH MODEL FOR ELEMENTARY LITERACY INSTRUCTION. *World Bulletin of Social Sciences*, 22, 1-4.
2. Ruzikulovna, S. D. (2021). The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes. *JournalNX*, 7(11), 78-82.
3. Jumayev, X. S. (2023). TA'LIM MUVAFFAQIYATIDA MNEMIK QOBILIYATLARNING O'RNI. *Interpretation and researches*, 1(1).
4. Jumayev, X. (2023, May). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O

‘QUVCHILAR IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. In *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*.

5. Jumayev, X.S. (2023) O‘quv jarayonida kichik maktab o‘quvchilarining mnemik qobiliyatlarining operatsion mexanizmlarini ishlab chiqish, Namangan davlat universiteti axboratnomasi, 506-510.

6. Ruzikulovna, S. D. (2023). Analysis of the Level of Valuable Approach to Primary Class Students. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 227-230.

7. Dilfuza Shabbazova. (2023). PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE LITERACY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON A PERSONAL VALUE APPROACH. *Academia Science Repository*, 4(05), 12–19.

FIZIKA DARSLARIDA FOYDALANISHGA MO‘LJALLANGAN MOBIL DASTURIY VOSITALAR TA‘MINOTI

Jamolova Shahlo Qobilovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi mobil vositalar pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbasiga aylanmoqda. Ta‘lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta‘limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta‘lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri bo‘lib sanaladi. Ta‘lim jarayoniga mobil ilovalarni tadbiq etish orqali ta‘lim sifati oshishiga turtki bo‘ladi.

Mobil ilovalar (mobil ilovalar sifatida ham tanilgan)-smartfon va planshetlar kabi mobil qurilmalar uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minot. Ular mobil qurilmalarni funksiyali va qiziqarli miniatura kuchlariga aylantiradi. Ba‘zi qurilmalar ishlab chiqaruvchilarning ayrim uyali ilovalari yoki ular bilan bog‘langan uyali aloqa provayderlari masalan (Verizon, AT & T, T-Mobile va boshqalar) bilan oldindan o‘rnatilgan bo‘ladi, lekin ko‘plab ilovalar qurilmaga xos ilova orqali mavjud qismlar.

Mobil ilova-bu ma‘lum platformada o‘rnatilgan va ma‘lum funksiyalarga ega bo‘lgan planshetlar va smartfonlar uchun ishlab chiqilgan dastur. Oddiy qilib aytganda, u muayyan harakatlarni amalga oshiradi va ma‘lum bir qator masalalarni hal qiladi.

Mobil ilovada mavzuga oid maruza matni joylanadi. Mavzuga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak asosan talaba mexanik harakat, harakatning nisbiyligi, sanoq jism, sanoq sistema tushunchalari haqida bilimga ega bo‘lishi kerak. Bunda mexanik harakat tushunchasini o‘quvchiga turli harakatli animatsion tasvirlar orqali mavzu yoritilganda o‘quvchi og‘zaki tushuntirilganga nisbatan ko‘proq va tezroq tushunishini

ko‘rishimiz mumkin yoki, harakatning nisbiyligi ham xuddi shunday. Harakatning nisbiyligi bu juda keng qamrovli tushuncha buni ham turli animatsion tasvirlar orqali tushuntirish ham ancha samara beradi. Sanoq jism va sanoq sistema tushunchalarini ham turli grafiklar, suratlar orqali tushuntirish talabning fikrlar qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari har bir talaba ixtiyoriy ravishda mavzuga qo‘shimcha tarzda turli metodlardan foydalanishi mumkin. Qolaversa mobil ilovaning yana bir ijobiy tomoni shundaki o‘qituvchi ananaviy dars jarayonida vaqt chegaralanganligi sababli imkoniyatlari chegaralangan. Mobil ilovada ixtiyoriy qo‘shimcha ma’lumotlar, metodlar orqali yondashishi mumkin.

Yuqoridagidek har bir mavzu qo‘shimcha imkoniyatlar bilan boyitilsa talabalarning o‘zlashtirish samaradorligi oshishiga erishiladi. Masalan talaba qandaydir sabablar bilan darsga qatnasholmay qolsa mobil ilova orqali qoldirilgan mavzuni o‘zlashtirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

So‘nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar dunyosi juda jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda har kim odatdagidan tashqari shaxsiy kompyuter, smartfon, planshet, mp3 pleer va boshqalar kabi turli gadjetlari to‘plamiga ega.

Uydagi kompyuter yoki noutbuk juda qulay narsalar emas, chunki ularni ko‘chirish juda ko‘p vaqt talab qiladigan jarayondir. Odamlarning hayotini osonlashtirish uchun “Aqlli” deb nomlangan telefonlar, smartfonlar, va boshqa ko‘plab mobil qurilmalar yaratildi.

Mobil ilovalarni ta’lim jarayoniga tadbiiq etish orqali biz ta’lim sifatini yanada oshirishga erishamiz. Aslida bu g‘oyani amalga oshirish bir qarashda ko‘rinadigan darajada qiyin va qimmat emas. Biz faqat mobil ilovadan nimani kutayotganimizni juda yaxshi bilishimiz va maqsadlarimizga qanday yo‘llar bilan erishishimizni aniqlab olishimiz zarur.

Mobil ilovani rivojlantirishning ijobiy tomonlari:

1. Mobil ilovadan foydalanishni boshlash uchun uni o‘rnatishingiz kerak. Saytdan foydalanish uchun uchun faqat havolaga o‘ting. Agar siz saytga va dasturga havolalar bilan QR-kodlarni joylashtirgan bo‘lsangiz, u holda har doim saytga mobil ilovaning o‘rnatilishidan ko‘ra ko‘proq tashrif buyurishlar bo‘ladi.

2. Foydalanuvchi tomonida yo‘l qoyilgan kamchiliklar darhol aniqlanadi.

3. Tezkor yangilanishlar.

4. Mobil ilovani saqlash xarajatlari odatda yuqori bo‘lmaydi.

5. Mobil ilova foydalanuvchining barcha ma’lumotlarini eslab qolish va uning ehtiyojlariga qarab interfeysni o‘zgartirish qobiliyatiga ega. Agar foydalanuvchi ba’zi ma’lumotlarni kiritga bo‘lsa masalan ism, familiya, manzil, unda u ushbu manzilni qayta kiritishga hojat qolmaydi. Hatto turli xil qurilmalar bulutli sinxronizatsiya yoqilganda, u har doim shaxsiy ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan dasturlarni ko‘radi.

Yuqori sifatli interfeys.

Bunday dasturlarni mobil qurilmalar uchun moslashtirish yaxshi, shunchaki uni kichik ekranga joylashtirib bo'lmaydi. Sichqoncha kursori emas, balkibarcha boshqaruv elementlari (tugmalar, matn qutilari, havolalar) barmog'ingiz bilan bosish uchun qulay bo'lishi kerak. Qurilma ekranlari hajmi va piksel zichligi bilan (retina displeylari) telefon ekrani juda yuqori piksellar soniga ega bo'lishi mumkin (masalan, 1440x2560 piksel) lekin shunga qaramay ijtimoiy o'lchamlari kichik. Shunday qilib, telefon ekranlari o'lchamlari bo'yicha noutbuk displeylariga qaraganda kattaroq bo'lishi mumkin, ammo bu bilan birga kichikroq diagonallarga ega.

Mobil ilovada interfeysning sifati navigatsiyaga ham ta'sir qiladi. Har qanday mobil telefon operatsion tizim dasturlarda ish ekranlari o'rtasida almashish uchun o'z mantig'iga ega. Androidda bu "Orqaga" tugmasi IOSda bu ekranning chap chetidan siljish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В.С. Кукушин Дидактика (теория обучения) - Москва - Ростов- на- Дону, 2003
2. I.G. Tursunov, U.A .Eshniyozov, S.A. Durdiyeva. "Turli muhitlarda elektr toki" mavzusini o'qitishdagi innovatsiyalar. Academic Research in Educational Sciences, v.2, issue.2, pp.513-523, 2021.
3. I.G. Tursunov, U.A .Eshniyozov. Elektrotexnika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Academic Research in Educational Sciences, v.2, issue.4, pp.1030-1040, 2021

RAGOZA O'SIMLIGINING ELEKTR O'TKAZUVCHANLIGINI TEMPERATURAGA BOG'LIQLIGINI TATBIQ QILISH

Mamadalimov A.T., Khakimova N.K. J.N. Hasanov
khasanovjonibek775@gmail.com

¹Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Toshkent sh.

²Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti

Tabiiy tolalarning elektrofizik xususiyatlarini tatbiq qilish bugungi kunda yarimo'tkazgichlar fizikasi sohasidagi zamonaviy yo'nalishlardan biri bo'lib juda ko'plab sohalarda qo'llash mumkin bo'lgan muhim tatqiqot obyektidir. Biz tatqiqot obyekti sifatida Ragoza o'simligini oldik va tolalar tarkibiga kimyoviy moddalardan Yod va $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ moddalarini kiritdik. Ragoza tolasi ushbu moddalar bilan legirlangan holda 70°C haroratgacha 8,5 soat davomida termopara qilindi.

Omik kontaktlar olish uchun grafit va suyuq shisha qarishmasi asosida elektr o'tkazuvchi yelim tayyorlandi. Yelim tayyorlash uchun maydalangan grafit kukuni suyuq shisha bilan quyuq holatga kelguncha aralashtiriladi. Tolalarning ikki chetiga o'tkazuvchi yelim surtiladi va quritish kamerasiga joylashtiriladi Yarimo'tkazgich moddalarda elektro'tkazuvchanligining temperaturaga bog'liqligi eksponensial

ravishda o'zgaradi va tabiiy tolalar ham shu xususiyatni namoyon qilishini ko'rishimiz mumkin.

Tajriba uchun 3 xil turdagi na'muna tayyorlandi: Birinchi legirlanmagan Ragoza tolalaridan na'muna tayyorlanib (VAX) tekshirildi. Bunda kuchlanish 0 dan 100 V gacha oraliqda kuchlanish berildi, oqadigan tok kuchi $I_{\max} < 7$ nA bo'ldi. Ikkinchi na'munada Ragoza tolasini legirlash uchun $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ning suvdagi 10%li eritmasidan foydalanildi. Legirlash jarayoni 50°C temperaturada 45 min davom etdi Bunda kuchlanish 0 dan 100 V gacha oraliqda kuchlanish berildi, oqadigan tok kuchi $I_{\max} < 23$ nA bo'ldi Uchinchi na'munada Ragoza tolasini legirlash uchun Yodning spirtidagi 10%li eritmasidan foydalanildi. Legirlash jarayoni 60°C temperaturada 30 min davom etdi Bunda kuchlanish 0 dan 100 V gacha oraliqda kuchlanish berildi, oqadigan tok kuchi $I_{\max} < 215$ nA bo'ldi. Ragoza tolasining ultrabinafsha nur ta'siridagi volt-amper xarakteristikasini o'rgandik. Tajribalarni xona temperaturasida olib bordik.

Na'munani qorong'u xonada 0 V dan 100 V gacha kuchlanishda 150 sekund davomida ultrabinafsha nur ta'siridagi fotoo'tkazuvchanligi tekshirildi. Bunda na'munadan o'tayotgan tok kuchi 1,8 nA dan 2,4 nA gacha oshganini ko'rishimiz mumkin. Ragoza tolasini legirlash uchun $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ning suvdagi 10%li eritmasidan foydalanildi va 0 V dan 100 V gacha kuchlanishda 110 sekund davomida ultrabinafsha nur ta'siridagi fotoo'tkazuvchanligi tekshirildi. Bunda na'munadan o'tayotgan tok kuchi 15,8 nA dan 28,5 nA gacha oshganini ko'rishimiz. legirlash uchun yodning spirtidagi 10%li eritmasidan foydalanildi va 0 V dan 100 V gacha kuchlanishda 100 sekund davomida ultrabinafsha nur ta'siridagi fotoo'tkazuvchanligi tekshirildi. Bunda na'munadan o'tayotgan tok kuchi 78 nA dan 110 nA gacha oshganini ko'rishimiz. Tajribalar shuni ko'rsatdiki , legirlanmagan , yod va $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ bilan legirlangan na'munalarda ultrabinafsha nur ($h\nu = 5$ eV) yoritilganda chuqur sathlar bilan bog'liq bo'lgan fotoo'tkazuvchanlik namoyon qilindi. 1-rasmda ragoza o'simligining $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ tuzi bilan legirlangan vaqtdagi elektr o'tkazuvchanligi berilgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamadalimov A.T., Oksegendler B.L., Otazhynov Sh.O., Turaev B.E., Usmanov T.A., Khakimova N.K., and Kadrov Zh.A. Features of the Photoconductivity of Iodine-Doped Cotton Fibers Illuminated in the Fundamental Absorption Range. Technical Physics Letters, 2002. Vol. 28, №7, pp.581-583
2. Giorgio Mattana, Piero Cosseddu, Beatrice Fraboni, George G. Malliaras, Juan P. Hinstroza, Annalisa Bonfiglio. Organic electronics on natural cotton fibers. Organic electronics 12 (2011) 2033-2039.
3. Mamadalimov A.T., Khakimova N.K., Khakimova R.U. Study of Electro physical Properties of Cotton Fibers Doped Iodine. Journal of Scientific and Engineering Research (JSAER), 2018, 5(2), p.14-17.
4. Mamadalimov A.T., Khakimova N.K., Norbekov Sh., Hasanov J.N. RESEARCH ON ELECTROPHYSICAL PROPERTIES IN KMnO₄- DOPED “KOMOLOT-79” GRADE OF COTTON FIBERS

INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI SHAKLLANTIRAGIGAN KO'NIKMALAR. INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI O'XSHASHLIGI VA FARQLARI

Isroilov Adizjon Alijonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi isroilov.adiz@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi «Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora tadbirlari» to'g'risidagi PQ-4963-son qarorining ilovalarida ya'ni “Yo'l xaritalarida” ko'rsatib o'tilgan bir qator vazifalarda shuni tushunishimiz mumkinki, jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichi O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi uchun bir qator tubdan yangi vazifalarni qo'ydi, ular orasida ta'lim sifati va foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, ta'limning turli darajalari o'rtasidagi aloqani kuchaytirish va jahon ilmiy va ta'lim makoniga qo'shilish zaruriyati ta'kidlangan.

Shuning uchun so'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston Respublikasi ta'limini rivojlantirish biz uchun muhim vazifani yuklaydi. Bunday muammoning yechimi yo'lida STEM ta'limi yangi bir trend sifatida ta'limga kirib kelmoqda. Fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi va STEM mutaxassislariga bo'lgan talab ortib olishi tufayli, ta'lim dasturlari fan va texnologiyani yaxshilashni rivojlantirishga yordam beradi. Bu talabalarni ularning professional hayotiga tayyorlaydi. Fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) bo'yicha ta'lim o'quvchilar hayotining ko'p jabhalarida sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarga STEM ta'limining asosiy ta'siri quyidagilardir:

1. Ko'nikmalarni rivojlantirish: STEM ta'limi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, analitik ko'nikmalar va mantiqiy fikrlash kabi keng ko'lamli ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ushbu ko'nikmalar ham akademik, ham professional kontekstda qimmatlidir.

2. Bilimlarni amaliy qo'llash: STEM ta'limini olgan talabalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular haqiqiy qurilmalar va tizimlarni yaratishi va loyihalashi, tajribalar o'tkazishi va haqiqiy muammolarni hal qilishi mumkin. Bu o'quvchilarga o'qiyotgan mavzularni yaxshiroq tushunishga va hayajonlanishga yordam beradi.

3. Kelajakdagi martaba uchun tayyorlang: STEM ta'limi talabalarni fan, texnologiya, muhandislik va matematika bo'yicha kelajakdagi martaba uchun tayyorlaydi. Muhandis, dasturchi, olim yoki ma'lumotlar tahlilchisi kabi kasblar talabga ega va yaxshi martaba istiqbollarini ta'minlaydi.

4. Innovatsiya va ijodkorlikni rag'batlantirish: STEM ta'limi talabalarda innovatsiya va ijodkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu ularning fikrlashlarini an'anaviy doiradan tashqarida rag'batlantiradi, ularga tajriba o'tkazish va yangi g'oyalar va echimlarni yaratish imkonini beradi.

5. Karyera imkoniyatlarining keng doirasi: STEM ta'limi talabalarga axborot texnologiyalari, tibbiyot, energetika, aviatsiya va boshqalar kabi turli sohalarda ko'plab martaba imkoniyatlarini taqdim etadi. Ular ilmiy laboratoriyalarda, muhandislik kompaniyalarida, texnologik startaplarda va boshqa sohalarda ishlashlari mumkin.

6. Dunyoqarash va umumiy bilimlarni yaxshilash: STEM ta'limi talabalarga fan va texnologiyani hurmat qilish va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ularning dunyo haqidagi bilimlarini kengaytiradi va iqlim o'zgarishi yoki giyohvand moddalarni ishlab chiqish kabi murakkab global muammolarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

7. Hamkorlik va muloqot: STEM ta'limi ko'pincha jamoaviy ish va hamkorlikda o'rganishni o'z ichiga oladi, bu jamoaviy ish, muloqot va etakchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu ko'nikmalar ham akademik, ham professional sharoitlarda qimmatlidir.

Global STEM ta'limi: Kelajakda turli mamlakatlar va madaniyatlar o'rtasida faol hamkorlik va tajriba almashish orqali STEM ta'limi yanada globallashadi. Ilmiy va texnik muammolar fanlararo va global nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Kompyuter savodxonligini rivojlantirish: raqamli ko'nikmalar va kompyuter savodxonligini rivojlantirish kelajakda STEM ta'limining muhim elementi bo'lib qoladi. Talabalar dasturlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, kiberxavfsizlik va raqamli asrda ishlash uchun zarur bo'lgan boshqa ko'nikmalarni o'rganadilar. STEM ta'lim tarixi fan, texnologiya, muhandislik va matematika bilan baholash va o'zaro aloqada

evolyutsiyani ko'rdi. STEM ta'limining kelajagi yanada integratsiyalashgan, amaliy va fanlararo yondashuvga o'tadi, talabalarni global raqamli iqtisodiyot va muammolarga tayyorlaydi. STEM va STREAM ba'zi o'xshashliklarga ega, ammo ularning o'quv jarayoniga yondashuvlarida ham sezilarli farqlar mavjud.

O'xshashliklar:

1. Fanlar integratsiyasi: STEM ham, STREAM ham fan, texnologiya, muhandislik va matematikani (STEM) san'at (ART) bilan integratsiya qilishga intiladi. Ular ushbu sohalar o'rtasidagi bog'liqlikning muhimligini tan oladilar va talabalarni yaxlit fikrlashga, bilim va ko'nikmalarni real vaziyatlarda qo'llashga undaydilar.

2. Loyihaga asoslangan ta'lim: Ikkala yondashuv ham loyihaga asoslangan ta'limdan foydalanadi, bu yerda o'quvchilar amaliy vazifalarni bajaradilar va muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun haqiqiy mahsulotlar yaratadilar.

Farqlar:

1. San'at: STEM va STREAM o'rtasidagi asosiy farq - bu san'atning integratsiyasi. STEM fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga e'tibor qaratgan bo'lsa, STREAM san'atni ham o'z ichiga oladi. San'atning qo'shilishi o'quvchilarga o'z ijodini namoyon etish, estetik baholashni rivojlantirish va san'at va fan va texnologiya fanlari o'rtasidagi sinergiyani o'rganish imkonini beradi.

2. STEM ta'limi odatda hukumat yoki notijorat tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan rasmiy fan, texnologiya, muhandislik va matematika dasturi bilan bog'liq. O'z navbatida, STREAM yanada erkinroq ta'riflangan va ko'pincha innovatsion yoki qo'shimcha ta'lim imkoniyatlari doirasida san'at, fan va texnologiya fanlarini birlashtiradigan dasturni nazarda tutadi.

3. STEM va STREAM turli ta'lim muassasalarida amaliy tatbiq etishda farq qilishi mumkin. Ba'zi maktablar va dasturlar ushbu tushunchalardan birini afzal ko'rishi mumkin, boshqalari esa ularni birgalikda qo'llashi yoki muayyan o'quv maqsadlari va maqsadlariga asoslangan yondashuvni tanlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda qaysi yondashuvni tanlash - STEM yoki STREAM, o'quvchilarning ta'lim maqsadlari, resurslari va ehtiyojlariga bog'liq. Ikkala yondashuv ham fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at bo'yicha ko'nikma va bilimlarni rivojlantirish uchun qimmatli imkoniyatlarni taqdim etadi va talabalarning o'quv jarayoniga va kelajakdagi martaba imkoniyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-5032-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021 y., 07/21/5032/0226-son, <https://lex.uz/docs/5338558>

2. Sanders. M. STEM, STEM education.//The Technology Teacher. 2009, №68. – P.20

3. Sangirova Z.B. STEAM o'quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda vosita sifatida //Uzluksiz ta'lim// – T.: 2020, № 6. – B.54-57.

FIZIK TAJRIBALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING FANGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH

Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

E-mail: isroilovshermurod94@gmail.com

Annotatsiya: Maqola o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish muammosini fizik tajribalar misolida qarab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Fizik tajriba, tadqiqotchilik ko'nikmalari, eksperimental.

Fizika o'qitishning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda. Mezonlar darajalar tizimi bo'lgan yangi jismoniy bilimlarni o'zlashtirishni baholashga yondashuv, bu yerda har bir keyingi darajaga o'tish faqat avvalgisi mavjud bo'lganda amalga oshirilishi mumkin. Maktab laboratoriyasi yordamida tizimli-faollik yondashuvini amalga oshirishga asoslangan fizika fanidan o'quvchilarga eksperimental faoliyatni o'rgatish usuli taklif etiladi. Asosiysi metodika talabalarining nafaqat mazmunini, balki yangi bilim olish jarayonini o'zlashtirishdagi faolligidadir.

Fizik tajribalar maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, uning davomida o'qituvchi o'quvchilarning his-tuyg'ularini boshqaradi va ularda ma'lum tasavvur va tushunchalarni shakllantiradi. Fizik tajribalar o'qituvchi nutqi bilan qo'shilishi – fizik tushunchalarni muvaffaqiyatli shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Buning uchun, fizika fanidagi laboratoriyani o'rganish va tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda fizik tajribalar murakkab texnologiya bo'lib, u odamga ob'ektni his qilish imkonini beradi, haqiqiy ko'rishdir.

Fizika tajribalari bo'lajak fizika o'qituvchilar tomonidan fizika fanini o'rganishning eng vizual va intuitiv usuli hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilarining fizikaga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishning eng yaxshi usuli hamdir. Fizik tajribalarni tashkil etilishi zamonaviy fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishiga va an'anaviy fizika laboratoriyasida ta'lim tarixidagi katta yutuqlarga asoslangan. Bu o'quvchilarning ilm - fan va madaniyat sohasidagi bilimlarini tezroq va yaxshiroq egallashga, shuningdek, madaniy savodxonligini rivojlantirishga ham yordam beradi.

O'quvchilarni o'quv-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishda muammolar bo'lishi tabiiy.

Bular: fan o'qituvchisida o'quvchini o'quv-tadqiqotchilik faoliyatga yo'naltiruvchi psixologik-pedagogik ko'nikmalarining yetarlicha shaklanmaganligi hamda ta'lim muassasalarida moddiy - texnik ta'minotning yetarli emasligi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bugungi kunda umumta'lim maktablarida, xususan, fizika fanini o'qitish sohasida olib borilgan pedagogik tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni fizik tajribalar faoliyatiga yo'naltirish masalasi pedagogik muammo sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Shu bois, tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda, fizik tajribalar, amaliy mashg'ulotlar hamda laboratoriyalar asosida o'quvchilarni o'quv-tadqiqotchilik faoliyatiga rivojlantirishning konsepsiyasini ishlab chiqish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Bu muammolarni samarali hal qilish hamda o'quvchilarning "Fizika" faniga bo'lgan qiziqishlarini Fizik tajribalar yordamida hamda virtual laboratoriyalardan ham foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilinsa ko'zlagan maqsadga erishishimiz mumkin. Shu tarzda o'quvchilarning bilim hamda ko'nikmalari oshadi. Shu tariqa biz umumta'lim maktabi o'quvchilarining Fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshishiga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5338558>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 apreldagi "Ilmiy va innovasion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari"to'g'risidagi PF-6198-son Farmoni.<https://lex.uz/docs/-5352267>

3. Ergashev J. B. Bo'lajak matematika o'qituvchilari kasbiy tayorgarligining mazmunini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori diss. avtoref. – Toshkent, UzMU, – 2019. – 46 b.

4. Xabibullaev P., Boydedaev A., Baxromov A., Usarov J., Suyarov K., Yuldasheva M. Fizika 8-sinf darsligi. –T.: O'qituvchi, 2019.

5. Fizikadan laboratoriya va namoyishli tajriba ishlari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun) / Suyarov Q.T., Choriyev R.Q, G'ofurov N.B., Ergashev A.I. –Toshkent.: Talqin. 2003-y

FIZIKA FANIDAN O'QUVCHILARDA O'QUV-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIKANING O'RNI

Xo'jamberdiyeva Jamila Norqobilovna, Haqberdiyeva Iroda Ortiqovna

Qarshi davlat universiteti "Umumiy fizika" kafedrası katta o'qituvchisi, Qarshi davlat universiteti 4-kurs talabasi

E-mail: jamila0478@mail.ru, physicist001iroda@gmail.com

Ta'limning turli darajalaridagi fanlararo aloqalarni, shu jumladan fizika va matematika misolida har tomonlama o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ishlardan farqli o'laroq, maqolada fizika va matematik bilimlarning o'zaro bog'liq tarixiy rivojlanishi tahlili keltiriladi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi dunyoda fizika paydo bo'lganida, matematika yordamida dunyo haqidagi g'oyalar to'g'ri tushunchaga ega bo'lgan. O'rta asrlarga kelib matematika fizika qo'lida ishonchli vosita sifatida qaralgani ayon bo'ladi. Atrofimizdagi dunyo haqidagi zamonaviy g'oyalar birinchi navbatda matematik model yordamida qurilgan, keyin esa fizik tajriba bu modelni tasdiqlagan.

O'quv jarayonini fanlararo bog'lanishlar yordamida tashkil etish samaradorligi ko'plab pedagogik tadqiqotlarda isbotlangan. Turli o'quv fanlarining o'zaro ta'siri haqida gap ketganda, ko'pincha fizika va matematika fanlari misol sifatida tanlanadi. Bu fanlar o'rtasidagi bog'liqlikning sabablari va ehtimolliklari tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilsa, osonroq tushunish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, matematika fan sifatida fizikadan oldin, insoniyat jamiyati rivojlanishining obyektiv sabablari bilan shakllangan.

Matematik bilimlarning boshlanishi qadimgi Sharqda allaqachon paydo bo'lgan. Tovar ayirboshlash zarurati paydo bo'lishi bilan hajmlarni o'lchash va jismlarni tortish zarurati paydo bo'ldi.

Qadimgi bobilliklar kvadrat va kub raqamlarni, kvadrat ildizlarni chiqarishni, tenglamalar tizimini yechishni va burchaklarni juda aniq o'lchashni bilishgan. Misrda topilgan qadimiy papiruslarda matematik masalalarning yechimlari, maydonlar va hajmlarni hisoblash formulalari mavjud. Antik davrning taniqli matematiklaridan biri Pifagor bo'lib, u "raqamlar hamma narsaning asosi, raqamlar dunyoni boshqaradi" deb ta'kidlagan. Matematika sohasida Pifagor katta meros qoldirgan. Misol sifatida juft va toq sonlar haqidagi ta'limotni yaratdi; oddiy va murakkab sonlar; progressiyalar va o'rtacha qiymat haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi; o'xshashlik haqida poydevor qo'ydi; nomi bilan atalgan teoremani isbotladi.

Fizika va matematika bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Fizika tabiat hodisalarini tasvirlash va o'rganish uchun matematik usullardan foydalanadi, matematika esa murakkab masalalarni yechish uchun fizikada o'z qo'llanilishini topadi. Ushbu ikki fan bir-biri bilan qanday o'zaro ta'sir qilishini va ularning

kombinatsiyasi bizga atrofimizdagi dunyoni tushunish va tushuntirishga qanday yordam berishini bilib olidik.

Fizika va matematika bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan va bir-biri bilan oʻzaro aloqada boʻlgan ikkita fandır. Fizika tabiat va uning hodisalari haqidagi fan sifatida tajriba va kuzatishlarga asoslanadi, lekin matematik usullar va vositalarsiz uning rivojlanishi mumkin emas edi. Maʼlum boʻlishicha, fizika va matematika bir-birini toʻldiribgina qolmay, balki ularning rivojlanishiga oʻzaro taʼsir koʻrsatadi. Matematika - bu fizika qonunlari va nazariyalarini ifodalash mumkin boʻlgan til. U fiziklarga oʻz gʻoyalari va tushunchalarini rasmiylashtirish va tartibga solishga, miqdoriy hisob-kitoblar va modellashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, fizika matematikaning rivojlanishiga hissa qoʻshadi, matematika faniga yangi muammolar va muammolarni taklif qiladi.

Fizik nazariyalar matematiklarni yangi matematik tushunchalar va usullarni yaratishga ilhomlantirishi mumkin. Masalan, kvant fizikasining rivojlanishi ehtimollar nazariyasi va murakkab oʻzgaruvchilar nazariyasi kabi yangi matematik nazariyalarning paydo boʻlishiga olib keldi. Fizika va matematika oʻrtasidagi munosabatlar hozirgi kungacha davom etmoqda. Maydon nazariyasi kabi zamonaviy fizika nazariyalari ularni oʻrganish va rivojlantirish uchun yuqori darajadagi matematik tushunchalar va vositalardan foydalanishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Джед З. Бухвальд; Роберт Фокс (10 октября 2013). Оксфордский справочник по истории физики.
2. Фрэнсис Байи; Джузеппе Лонго (2011). Математика и естественные науки: физическая сингулярность жизни.
3. Tegmark, M. (2014). Our Mathematical Universe: My Quest for the Ultimate Nature of Reality. Knopf.
4. Barbour, Julian “The End of Time:Time Next Revolution in physics”, 2001.
5. Folger, Tim, “Time May Not Exist” 2007.
6. www.en.wikipedia.org.
7. www.discovermagazine.com.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA FIZIKA FANI UZVIYLIGINI TA'MINLASH

Xo'jamberdiyeva Jamila Norqobilovna-

Qarshi davlat universiteti „Umumiy fizika“ kafedrasida o'qituvchisi

Xoliyorova E'zoza-

Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabasi

E-mail:ezoza19maktab@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Oliy va o'rta ta'lim muassaslarida fizika fanini o'qitish jarayonida ta'lim prinsiplaridan foydalanish haqida keltirilgan. Ta'lim prinsiplaridan foydalanish talabalarning fizika fani bo'yicha oladigan bilimlarining mukammal bo'lishi, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llay bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi, amaliy faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatiga ega bo'lish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim prinsipi, fizika, muammoli vaziyat, axborot texnologiyalari, tizimlilik prinsipi.

Oxirgi o'n yilliklarda zamonaviy fizikaning ochiq tizimlar fizikasi, nanotexnologiya, kondensirlangan muhitlar fizikasi, nohiziqli optika, yuqori energiyalar fizikasi, kvant fizikasi va fizikaning boshqa sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Ilmiylik prinsipi talablaridan biri o'quvchilarni ilmiy taqdiqot ishlariga qiziqtirish, ilmiy taqdiqot usullari bilan tanishtirish, adabiyotlar bilan mustaqil ravishda ishlash, taqdiqot natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarishiga o'rgatishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Bizning nazarimizda o'quvchilarda ilmiy kuzatish va izlanish faoliyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarni laboratoriya mashg'ulotlari paytida shakllantirib borishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Ya'ni laboratoriya ishlarini bajarish jarayoniga "ilmiy-taqdiqot element"larini kiritib borish maqsadida darslarni muammoli tashkil qilish lozim. Ma'lumki har bir laboratoriya ishini bajarishda ma'lum bir fizik kattaliklar aniqlanadi yoki biror fizik hodisa namoyish qilinadi. Bu jarayonni "kichik ilmiy - taqdiqot" ishiga yaqinlashtirish uchun o'quvchilar oldiga zarur ijodiy izlanish vazifalarini qo'yish mumkin. Bu vazifalarga berilgan fizik kattalikni aniqlash usullari bilan adabiyotlar yordamida tanishish, ularni taqqoslash, tanlangan usulga asos bo'lgan fizik xulosa, kerakli qonunlarni, laboratoriya jihozlari ishlashini o'rganish, o'qituvchi nazorati ostida mustaqil o'lchash ishlarini bajarib natijalarni olish, hisoblash va ularni tahlil qilib kerakli xulosalarga kelishi, olingan natijalarning amaliy ahamiyatini bilish bilan bog'liq masalalar kiradi.

Ko'p hollarda laboratoriya ishlarini "murakkablashtirish" texnik imkoniyatlari chegaralangan yoki mavjud bo'lmasa axborot texnologiya vositalaridan, masalan laboratoriya ishlari modellashtirilgan, virtual laboratoriya usullaridan foydalanish mumkin. Laboratoriya sharoitida amalga oshiriladigan ta'lim jarayoniga bunday

yondashuv natijasida o'quvchilar olingan nazariy bilimlarni mustahkamlab, o'rganalayotgan fizik hodisa qonunlarning, kattaliklarning mazmun mohiyatini chuqur o'rganish bilan bir qatorda ularda ijodiy ilmiy – tadqiqot ishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllanadi, ijodiy faollik oshadi.

Fizika fani sohasida bilimlarning mukammal bo'lishi ta'limning uzviylik va muntazamlilik prinsipi asosida tashkil qilishni taqozo etadi. Bunda berilishi lozim bo'lgan bilimlarning mantiqiy ketma-ketlik va tizimlashgan bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga egadir. Fanning barcha bo'limlarini o'rganishda mavzularni mantiqiy ketma-ketlikka ajratish, fizik hodisalar va qonuniyatlar orasida o'zaro aloqadorlik, uzviylikni aniqlash, tizimli tahlil yordamida umumiy xulosalar chiqarish, olingan bilimlarning keng qamrovli va yaxlit bo'lishiga yordam beradi. Oxirgi yillarda texnika va texnologiyalarning tez suratlarda rivojlanishi mutaxassislardan chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lishni va ularni amalda qo'llay bilishni talab qiladi.

Nazariy bilimlarning mukammal bo'lishida ta'limning ko'rgazmalik prinsipini qo'llash katta yordam beradi. Zamonaviy fizika ta'limida nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqlik printsipiga tayanish o'quvchi-talabalarda olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga katta yordam beradi. Bunda amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishga ijodiy yondashish, kompyuter va boshqa texnika vositalaridan foydalanish ilg'or innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash ijobiy natija beradi.

Fizika fani bo'yicha olinadigan bilimlarning yaxlit, umumlashgan bo'lishi uchun dars jarayonida integrativ va tizimli yondashuv prinsiplaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'limdagi integrativ yondashuv ayrim mavzular, mashg'ulotlar, fanlar va usullar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni, uzviylikni, sintez va umumiylikni taqozo qiladi.

Masalan, fizika fani doirasida alohida o'rganiladigan ba'zi hodisalar, qonunlar, ularni tizimlovchi bo'limlar, olib boriladigan mashg'ulot turlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, sintez va umumlashuv tendensiyalarini olib qarash mumkin. Ma'lumki, mexanika bo'limida barcha jismlar orasida yuz beradigan gravitatsion o'zaro ta'sir vositasi bo'lgan gravitatsion maydon, elektromagnitizm bo'limida elektrostatik, magnit va o'zgaruvchan elektromagnit maydonlar, yadro va elementar zarralar fizikasi bo'limida zaif va kuchli o'zaro ta'sir maydonlari alohida o'rganiladi.

Maydonlar uchun xarakterli bo'lgan umumiy tomonlar (o'zaro ta'sir mexanizmlari) mavjud ekanligi aniqlangandan keyin ularni birlashtiruvchi nazariyalar paydo bo'ldi. Bu nazariyalarga asosan sanab o'tilgan maydonlar yagona maydonning alohida ko'rinishlari sifatida qaraladi. Makro va mikro sathlarda kichik va katta tezliklarda yuz beradigan materiya harakatini o'rganadigan mexanika bo'limini shartli ravishda klassik, relyativistik va kvant mexanikasiga ajratadilar.

Hozirgi zamon tasavvurlariga asosan klassik mexanika relyativistik mexanikaning ma'lum chegaradagi xususiy holi sifatida o'rganiladi.

Geyzenberg noaniqlik prinsipi klassik va kvant mexanikasining qo'llanilish chegaralarini aniqlab beradi. Tabiatdagi barcha chiziqli tizimlarda kuzatiladigan to'liq jarayonlari bir xil qonuniyatlar asosida yuz beradi. Mexanik, elektromagnit va De-Broyl to'liqlari o'xshash tenglamalar yordamida ifodalanadi va talqin qilinadi. O'quvchilarning bilish jarayonida ularning mustaqil ta'limi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'imning mustaqillik prinsipida o'z aksini topadi. O'quvchilarda izlanish va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishda mustaqil ishlarning ham ahamiyati ortadi. O'quv dasturi qamrab olib ulgurmagani kashf qilingan yangi hodisalar, qonunlar, yaratilgan yangi nazariyalar haqidagi materiallarni o'quvchilarga mustaqil o'zlashtirish uchun taqdim qilish mumkin.

O'quvchilar bu ishlarni referat yoki taqdimot sifatida tayyorlab topshirishlari mumkin. Mustaqil ta'limda sinergetik yondashuv elementlari namoyon bo'ladi. Ta'limdagi o'z-o'zidan tashkil topish bu o'z-o'ziga ta'lim berishni (o'qitishni) anglatadi. Buning ma'nosi bilimlarni tayyor holda berish emas, balki bilimlarni oshirish, mukammallashtirish va tarmoqlangan bilimlar tizimida tez yo'l topish, o'z-o'ziga ta'lim berish usullarini egallashtirish iboratdir. Sinergika nuqtai nazaridan ta'lim, bu tayyor bilimlarni bir shaxsdan ikkinchisiga uzatish, berishdan iborat bo'lmagan, balki bu jarayon ochiq muloqot, to'g'ri va teskari aloqalar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamfikrlik, hamkorlikdan iborat nochiqli vaziyatda yuz beradigan jarayondir. Sinergika ta'limotiga asosan ta'lim qiziqtiruvchi, rag'batlantiruvchi va jonlantiruvchi ta'lim bo'lishi lozim.

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb- hunar kollejlari yangilangan fizika ta'limining ahamiyati jamiyatda fizikaning ahamiyatini oshirib borishi, fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishida hal qiluvchi ta'siri, shuningdek fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari haqida umumiy ma'lumot, hamda ishlab –chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Shunday ekan fizika fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda amaliyotga tadbiiq etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Я. А.Коменский. «Великая дидактика» М. Просвещение, 1988
2. И. Ф.Харламов. Педагогика - М., 2004
3. Е.С.Полат. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Под редакцией - М., 2003.
4. В.С.Кукушин Дидактика (теория обучения) - Москва - Ростов- на- Дону, 2003
5. I.G. Tursunov, U.A .Eshniyozov, S.A. Durdiyeva. "Turli muhitlarda elektr toki" mavzusini o'qitishdagi innovatsiyalar. Academic Research in Educational Sciences, v.2, issue.2, pp.513-523, 2021.

6. I.G. Tursunov, U.A .Eshniyozov. Elektrotexnika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Academic Research in Educational Sciences, v.2, issue.4, pp.1030-1040, 2021

ZAMONAVIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIMNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI UCHUN IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH

Ochilova Gavhar Farxodovna,

Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim xizmatlarining mohiyati va mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari, ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Bundan tashqari, ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda muallif tomonidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik, ta'lim xizmatlari, ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Har bir sohaning rivojlanishida ta'lim xizmatlarining o'rni beqiyos. Zero, har bir soha va tarmoqlarning nazariy va metodologik asosini ta'lim tashkil qiladi. Ta'lim orqali yangi tovarlar va xizmatlar, boshqaruv tuzimlari, faoliyatlarning nazariy, ilmiy va metodik asoslari yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida [1] O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadlari belgilab berilgan bo'lib, ularni bajarish bo'yicha aniq vazifa va topshiriqlar keltirilgan.

Jumladan: oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish; respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va

Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish;

oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichmabosqich o‘tish;

oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash;

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish va boshqa vazifalar keltirilgan. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko‘rsatish intensivligini ta’minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida dolzarb masala hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish ayniqsa, ta’lim xizmatlari sohasini rivojlantirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyati samaradorligini ta’minlash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘liqroq qondirish bilan bog‘liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi.

Shuningdek, soha korxonalarining xalqaro bozorlardagi ta’lim xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda xizmatlar eksporti hajmini ko‘paytirish respublikamizda iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida ta’lim xizmatlari korxonalarida iqtisodiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o‘rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish xo‘jalik yurituvchilar faoliyatlari natijasini aks ettiradi, ijtimoiy samaradorlik esa iqtisodiy subyektlarning ijtimoiy samaradorligini, uni jamiyat hayotining turli tomonlariga ta’sirini aks ettiradi. Bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik muayyan darajada o‘zaro bog‘liq holda aniqlandi.

Shuningdek, servis iqtisodiyotida xizmatlar alohida guruhlarini bo'yicha tasniflandi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'lim xizmatlari soni va sifatiga qo'yilayotgan talablar oshib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasining qo'llanishi xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, iste'mol bozori tarkibida o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Aholining ayrim qatlamlarining moddiy farovonligi oshishi natijasida xizmatlarga nisbatan o'zlarining talablari va ehtiyojlari mavjud bo'lgan iste'molchilarning yangi kategoriyasi vujudga keldi.

Moddiy jihatdan ta'minlangan iste'molchilar o'zlarining hayot qulayliklarini oshirishni ta'minlaydigan turli assortimentdagi xizmatlarga ancha talabgor hisoblanishadi. Shu sababli ayrim xizmat ko'rsatish korxonalarini o'z faoliyatlarini aynan aholining shu talab va ehtiyojlari qondirishga qaratadilar. Xulosa va takliflar. Ta'lim xizmatlari korxonalarining menejerlari uchun muhim muammo – bu samaradorlik hisoblanadi. Shunga ko'ra, mehnat unumdorligini oshirish – bu ham davlat darajasida, ham tashkilot yoki korxonada darajasida belgilanadigan muhim maqsad hisoblanadi.

Ta'kidlash mumkinki, mehnat unumdorligini oshirmasdan samaradorlikni oshirish bu qoniqarsiz natijalarga erishishning ancha oson yo'llarini topishning o'zginasidir. Ta'lim xizmatlari sohasida mehnat unumdorligini oshirish vazifasi nafaqat uning oshishi, balki ko'p jihatdan rahbariyatning harakatlari natijasi bo'lib hisoblanadigan baholash bilan ham bog'liq bo'ladigan o'ziga xos murakkabliklarni namoyon qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida intellektual mahsulot va nomoddiy qiymatliklar (masalan, tovar belgisi)ga nisbatan mulkchilik munosabatlarini qamrab oladigan intellektual mulk huquqi tobora keng yoyilmoqda. Intellektual mulk ob'yekti sifatida moddiy shakl emas, balki mazmun nazarda tutiladi. Lekin uni mulkchilik bilan birlashtiradigan asosiy jihat – bu intellektual faoliyat natijalariga to'la huquqning mutlaq xususiyati hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida kichik korxonalar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Jahon statistikasi shu haqida guvohlik beradiki, unga ko'ra, turli mamlakatlar va mintaqalardagi xizmat ko'rsatish ishlab chiqarishining katta qismi aynan kichik biznes sohasida jamlangandir. Ta'kidlab o'tish muhimki, xizmat ko'rsatish sohasining kengayib borishi barcha davlatlarning rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur sohaning rivojlanganlik darajasi jamiyat rivojlanishining mezoniga aylanib ulgurdi. Hozirgi vaqtda agarda xizmatlar sohasida yalpi milliy mahsulotning 65,0% dan kam qismi yaratiladigan bo'lsa, bunday mamlakat rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmaydi.

Demak, hozirgi zamon iqtisodiyotida eng muhim makroiqtisodiy mutanosiblik xizmat ko'rsatish va tovarlar ishlab chiqarish sohaslarining nisbati hisoblanadi.

Shunday qilib, ta'lim xizmatlari korxonalarida samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish jarayonlarini intensivlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon xizmatlarni ishlab chiqarishda innovatsion boshqarish usullari va texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Mazkur jarayon nafaqat xizmat ko'rsatishning innovatsion omillaridan foydalanishni, balki ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini ham oshirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>.

2. Vesnin V.R. Upravleniye personalom. Teoriya i praktika. – Moskva: Prospekt, 2011. – 688 s.

3. Odegov Y.G., Abduraxmanov K.X., Kotova L.R. Otsenka effektivnosti raboti s personalom: metodologicheskiy podxod: Uchebno-prakticheskoye posobiye. – Moskva: Izdatelstvo «Alfa- Press», 2011. – 752 s. 4. Sfera uslug: novaya konsepsiya razvitiya/V.M. Rutgayzer, T.I. Koryagina, T.I. Arbuzov i dr. – Moskva: Ekonomika, 1990. – S. 148.

4. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. – T.: "A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2001.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHDA MILLIY TARBIYANING AHAMIYATI

Atadjanova Shaxnoza Qosimboyevna

Urganch davlat universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi
email: atadjanovashaxnoza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni tarbiyalashda milliy tarbiyaning ahamiyati, yoshlarda milliy tarbiyani tarkib topdirishda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishning o'ziga xosligi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, xalq og'zaki ijodi, metod, vosita, shakl, ta'lim, tarbiya.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish, ijtimoiy va ma'naviy yo'nalishni aniqlash pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir. Milliy tarbiya O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor yosh avlodni tarbiyalab yetishtirishga xizmat qilishi zarur.

Ma'naviy qadriyatlar yosh avlodga xarakteri, qamrovi, shakl va mazmuniga ko'ra ta'sir etadi. Moddiy faoliyat moddiy qadriyatni yaratishning asosi bo'lib, inson va jamiyat hayoti uchun vosita ishlab chiqarishdan iborat. Ma'naviy faoliyat turli

g'oyalar (ilmiy, falsafiy, axloqiy, diniy) yig'indisini tashkil etadi. Har ikkala faoliyat turlari bir-birlari bilan o'zaro bog'liq va hamkorlikda yosh avlod ma'naviyatiga, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir etadi.

Mutalipovning Xalq pedagogikasi nomli qo'llanmasida **“Qadriyat – tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalardir”**- deb ta'rif beriladi. [3. 55 b]

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkiloti “Ilk qadam” dasturida xalq og'zaki ijodi namunalari salmoqli o'rinni egallagan. Unda, xalq og'zaki ijodidan mehnat qo'shiqlari, topishmoqlar, maqollar, afsonalar, asotirlar, ertak va latifalardan namunalar berilgan. Bevosita, ta'lim-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining yosh avlodni tarbiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish bilan birga, bu borada qo'llanilgan usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligini ifodalovchi hissiyotlarini, uning qarashlari va e'tiqodini ham tarkib toptiradi. Bu ikki tomon shaxsni kamolga yetkazishda doimo bir-birini to'ldirib keladi.

Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini xalq og'zaki ijodi ruhida tarbiyalashning asosiy yo'nalishlarini quyidagi muammolarni hal etishda o'z aksini topadi:

- har bir tarbiyalanuvchining umuminsoniy, milliy, ma'naviy axloqiy xususiyatlarining sifatini oshirish;

- maktabgacha yoshdagi bolaning o'z xalqining urf-odati, an'analari, tarixiy o'tmishini bilib olish, chuqur tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash;

- xalq og'zaki ijodi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish va bunga bolalar e'tiboriga jalb etish;

- xalq og'zaki ijodi namunalari o'rganish orqali vatanimiz xalqi uning an'analari, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirish hissinini tarkib toptirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini xalq og'zaki ijodi orqali o'stirish negizida ularda xalqning hayoti, tarizini bilib olish, axloqiy qoidalarni o'z ongiga singdirishni ta'minlash;

- milliy maktabgacha ta'lim tashkiloti negizida ta'lim-tarbiya tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida amalga oshirish.

Yuqorida sanab o'tilgan jihatlarni amalga oshirishda rejalashtirishning ahamiyati katta. “Ilk qadam” o'quv dasturida “Rejalashtirish –zarur shart-sharoitlarni, foydalaniladigan vositalar, shakllar va metodlarni ko'rstaish bilan o'quv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ketma-ketligini, tartibini oldindan belgilashdir.” –deb keltirib o'tilgan. [2.]

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz pedagogik ta'lim konsepsiyasi ham “Ta'lim to'g'risida” gi Qonun bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim sohasiga oid bir

qancha qonun hujjatlar milliy tarbiya asosida tuzilgan bo'lishini ko'rsatib berdi. Bu hujjatlarda birinchi o'rinda, yosh avlodni xalq urf-odatlariga, qadriyatlariga bo'lgan qiziqishini shakllantirish alohida ta'kidlab o'tilgan. Fikrlarimizni umumlashtirgan holda milliy ta'lim-tarbiyaning hususiyatlarini quyidagicha turkumlashtirishga harakat qildik:

- milliy ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadi – shaxsni milliy qadriyatlar asosida shakllantirish va rivojlantirish hamda qiziqtirish, uni har tomonlama yetuk, yuqori axloqli va ma'naviy pok inson qilib – shaxsning milliy o'zligini va tarixiy tomondan o'zligini anglashni ta'minlash;

- milliy ta'lim-tarbiya asosida shaxs milliy madaniyatini shakllantirish natijasida milliy ruhni tarkib toptirish va rivojlantirish;

- maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar tomonidan ona tilini mukammal egallash tilga hurmat – e'tibor va muhabbatni tarbiyalash;

- shaxsni o'qitish va tarbiyalashda milliy urf-odat, an'analar va qadriyatlarning tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarga diniy ilmlarga bo'lgan qiziqishini, ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni egallashga yo'naltirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviylikni an'anaviylik bilan o'zaro bog'lash, yani amaliyotda zamonaviy ilmiy pedagogika va tarbiyaviy ish tajribasini an'anaviy xalq tarbiya madaniyati bilan birgalikda foydalanish.

Xulosa qilib aytganda xalq pedagogikasi orqali milliy qadriyatlarni o'rganish va undan maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonida kengroq foydalanish uchun avvalo xalq ommasi to'plangan pedagogik ma'lumotlar, ko'nikma va malakalar qanday manbalardan olinganligini bilishimiz zarur. Milliy qadriyatlarni chuqur o'rganish, ulardan bola tarbiyasida kengroq foydalanish masalasi ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston. - 2021 y.
2. I. V. Grosheva, Sh. Sh. Mirziyoyeva, L.G. Evstafyeva, D. T. Maxmudova, Sh. B. Nabixanova, S. V. Pak, V. A. Nazarova, M. R. Isxakova, N. F. Abdunazarova “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi. /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ 2022-y.- 98 b.
3. Mutalipova M. J. Xalq pedagogikasi. O'quv qo'llanma T.: “Fan va texnologiya”, 2015 y. 160 bet.

MAKTABGACHA YOSH DAVRI BOLALARINING INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXIK-BILISH JARAYONLARINI MUVOFIQLASHTIRISH YO‘LLARI

F.R.Radjabova

Navoiy davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası
o‘qituvchisi, farangiza.radjabova@bk.ru

Ro‘ziqulova L.H.

Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi 4
kurs talabasi, roziqulovalaylo2@gmail.com

O‘zbekiston ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash ularni maktabga aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlash juda samarali yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, shahar va shahar hududiga yaqin joylashgan aholi yashash maskanlarida ko‘plab bolalar bog‘chalari tashkil qilingan. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta’lim muassasalari, jumladan, nodavlat maktabgacha ta’lim tarmog‘ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog‘lom raqobatni shakllantirish hamda ta’lim xizmatlari turini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari 2018 yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha tarbiya tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish ta’kidlab o‘tilgan [3; 22-b]. V.M.Karimovanning yozishicha, ongning muhim aks ettirish shakllari bo‘lmish bilish jarayonlariga: idrok, sezgi, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlar kiradi [5;196-b].

Bilish jarayonlari – bu shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o‘zini o‘rab turgan atrof-muhitning ma’lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga ular o‘stida o‘ziga zarur xulosalar chiqarib, o‘z xulq-atvorini rejalashtirishga imkonberadi. Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bilish jarayonlari ham ma’lum ma’noda boshqariladigan jarayonlar bo‘lib, agar siz o‘z imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo‘lsangiz, bu jarayonlarga oid ma’lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o‘zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o‘rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo‘lib o‘rgana boshlaganlar.

Bu jarayonlar – sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog‘liqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Masalan, ko‘rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko‘ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? 3-7 yoshgacha bo‘lgan davr maktabgacha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olganxolda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri, (4-5 yosh) kichik maktabgacha yoshi, o‘rta maktabgacha yosh davri (o‘rta maktabgacha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha yosh davri) katta maktabgacha yoshlilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o‘tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohidamaxsus munosabatga kirishadi [6; 257-b].

Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan hatti–harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi” deya ta’kidlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi. Bog‘cha yoshdagi bolalar turli narsa va voqea-hodisalarni idrok qilshda ularning ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga rang va shakliga asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bog‘cha yoshdagi bolalar kattalarning yordami bilan suratni analitik ravishda idrok qilsh qobiliyatga ega bo‘ladilar. Bolalar suratlarni idrok qiliyotganlarida kattalar turli xil savollar bilan tahlil qilshga o‘rgatishimiz lozim. Bunda asosan bolalar diqqatini:

- 1) Suratning mazmunini (syujetini) to‘g‘ri idrok qilshga;
- 2) Suratning umumiy ko‘rinishda har bir ta’sirlangan narsalarning o‘rnini to‘g‘ri idrok qilshga;
- 3) Tasvirlangan narsalar o‘rasidagi munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilishga qaratish kerak.

Xulosa sifatida, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini psixik jarayonlarni takomillashtirmasdan, bolalarda bu jarayonlarni (sezgi, diqqat, idrok, xayol, tafakkur, nutq) muvofiqlashtirib, tarbiyalamasdan samarali natijalarga erishib bo'lmaydi.

Sezgilar oddiy elementar psixik jarayondir. Idrok esa sezgilarga qaraganda murakkab psixik jarayon hisoblanadi. Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalanadi: Har bir idrok tarkibiga ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan, limonni idrok qilish. Bunda quyidagi sezgilar ishtirok etadi лимonning shakli va rangini aks etgiruvchi ko'rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid sezgisi, mazasinn aks ettiruvchi ta'm sezgisi, harakatni aks etgiruvchi teri sezgisi va boshqalar. Bu sezgilar taxlil yordamida ajratib olinadi va idrokning reseptiv tomonini tashkil etadi. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks ettiriladi

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Diqqat idrokning aktivligini oshiradi va uning mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Diqqatsiz hech narsani idrok qilish mumkin emas

Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati ixtiyorsiz boladi. Bog'cha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yinning ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

1) Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqatni bir obyekt ustida to'plab turish juda ham qiyin kechadi. Shu sababli bu davr yoshidagi bolalar diqqatini jamlashda tarbiyachilarga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

2) Miyani yetarlicha dam olishi (o'z vaqtida uyqu va sog'lom turmush tarzi, vitaminlarga boy ovqat).

3) Sistematik tarzidagi amaliy mashqlar (diqqatni bosqichma-bosqiya yaxshilaydigan muntazam ravishda olib boriladigan mashqlar).

4) Turli tuman topshiriqlar. (faol va passiv topshiriqlar).

5) O'yin tarzida bajariladigan mashqlar.

O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni ilgari suradilar va bu maqsadlar ular faoliyatini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 6(766)-son. – 70-modda

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha" PQ-3261-son qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2018 yildagi PQ-3955-son
4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T., 2012. – 196 b.
6. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik/E.G‘oziyev; O‘zR OO‘MTV, M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 544 b.

MARIYA MONTESSORI METODIKASINI BOLALARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDAGI ISTIQBOLLARI

Ismoilova Raviyajon Ozad qizi

UrDU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

Ta’lim sohasini isloh qilish bugungi kunda hukumatimiz tomonidan e’tibor qaratilayotgan eng muhim yo‘nalishlardan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonun va qarorlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori misolida ko‘radigan bo‘lsak, mazkur kontsepsiyani yanada rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur joriy tizimda innovatsiyalar, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengaytirish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta‘minlash, internet tarmog‘iga ulash bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda qonun ustuvorligini ta‘minlash va uni amaliy tajribada targ‘ib ettirish, jahon maktabgacha ta’lim tizimida erishilgan yutuqlarni milliy ta’lim tizimida qollashda horijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan texnika va yuqori texnologiyalar, metodikalarni olib kirishni o‘z loyiha ishimizda ko‘rsatib o‘tdik.

Mariya Montessori uslubining mohiyati – u shifokor, o‘qituvchi, olim va bolalarni o‘qitish bo‘yicha taniqli metodologiya muallifi. U Italiyadagi birinchi ayol bo‘lib, tibbiyot darajasini oldi va aqli zaif bolalar bilan ishladi. U 20-asrning boshida ishlab chiqqan dastur bolaning o‘zini o‘zi tarbiyalash g‘oyasiga asoslangan edi. Uning metodikasi bo‘yicha o‘qiyotgan rivojlanishida kechikishlari bo‘lgan bolalar dars boshlanganidan bir yil o‘tib fan olimpiadalarida birinchi o‘rinlarni egallab, to‘laqonli tengdoshlaridan ko‘ra chuqurroq bilim ko‘rsatib, birinchi o‘rinlarni

egallashi uning hamkasblarini ajablantirdi. Bundan tashqari, Montessori dasturini to'liq amalga oshirish nafaqat materiallarni sotib olishni, balki guruhlar uchun maxsus mebellarni ham talab qiladi. Bu borada deyarli barcha ishchi guruhlar ot-onalar ko'magida yoki tijorat asosida ish olib boradi.

Shuningdek, Montessori g'oyalarini joriy etish muammosi bolalar bog'chalarida Montessori usuli bo'yicha tarbiyalangan bolalarning oddiy maktabda muammolari borligi haqidagi mavjud noto'g'ri fikr edi. Qaysidir darajada bunday pozitsiya mavjud bo'lish huquqiga ega. Gap shundaki, Montessori bolalari ko'proq mustaqil bo'lib, bog'chada singdirilgan hamma narsani o'z-o'zidan o'rganish va o'z kuchiga tayanish odati ularga qandaydir noqulaylik tug'dirishi mumkin. Biroq, butun dars va mashg'ulot davomida pedagogni tinglash zarurati (yuqorida aytib o'tilganidek, Montessori guruhlarida darslar, mashg'ulotlar bir necha daqiqa davom etadi). Biroq, hamma narsa bolaning individual xususiyatlariga va uning xarakteriga bog'liq deb biladi.

Mariya Montessori shunday deydi: biz ularda tug'ilajak aqliy tuyg'ularini ehtiyojkorlik bilan rivojlantiruvchi hamda mashq qilidiruvchi omil hisoblanamiz. Demak biz bolalarni rivojlantiruvchi asosiy omil ekanmiz, inson uchun nima muhim biz ularga nisbatan qanday munosabatda bo'lishimiz kerak? – degan savolga javob izlashimiz zarur. Eng avvalo bola bizning shaxsiy mulkimiz degan fikrdan qutilishimiz kerak. U nafaqat o'z oilasining a'zosi balki jamiyatning bir bo'lagi ekaniga ko'nikishimiz zarur. Bundan tashqari bola boshqalarga tegishli bo'lgan yagona insoniy hilqat hisoblanishini ochiq tan olishimiz juda muhim. Montessori tizimi bo'yicha tarbiyalangan bolalar mustaqillik, aniqlik, mas'uliyat bilan ajralib turadi, ular qanday maqsad qo'yish va qaror qabul qilishni biladilar, ular tez aqli, masalaning tubiga etib boradilar va eng muhimi, ular qanday qilib ozod bo'lishni bilishadi va xohlashini ko'rsatib beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi (Montessori metodikasi bo'yicha) Agar biz bugungi kunda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning intellektual rivojlanish darajasi qay ahvolda? degan savolni bersak, Montessori bizning savolimizga shunday javob berar edi: —Maktabgacha ta'limda pedagog bolaning intellektining quruvchisi hisolanadi. Bola pedagog imkon bergan darajada shakllanadi. Pedagog nimaniki bergan bo'lsa, o'shani biladi. Pedagog nimani tushuntirgan bo'lsa, bola undan ko'p ham, kam ham narsani tushunmaydi. Bolalarning muvaffaqiyatlarini maqtashganda bu maqtovlar bevosita pedagogga ham tegishlidir.

Bolaning rivojlanishi erkinligi shartlari tamoyili: Intizom - bu ichki qobiliyat sifatida o'zo'zini egallash, o'zi uchun nima yaxshi va boshqalar uchun foydali bo'lgan narsa o'rtasidagi muvozanatni topish qobiliyati. Haqiqiy tartib-intizom ham bosim, majburlash bilan hech qanday bog'liq emas. Intizom bolaning mustaqil

o'sishiga yordam beradi, ya'ni. erkin bo'lish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'zini tuta bilish qobiliyatidir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 21.12.2022 yildagi pf-269-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi pq-4312-son
3. Djumanova D.M. "Bola shaxsiga yondashuv" «Zamonaviy ta'lim» ilmiy- amaliy, ommabop jurnali, 2012 yil, 1-son. 50-53b.
4. Lyubina, G. Montessori Harmonik Atmosfera G. Lyubina "Maktabgacha ta'lim." fg?0 2000. - No 11. - B.47-52.
5. Монтессори М. Научная педагогика. В 2-х томах. – М.: «Образовательные проекты», «Речь», «Сфера», 2014. –С. 528.

TAYYORLOV GURUH TARBIYALANUVCHILARINI SAVODXONLIKKA O'RGATISH

Yakubova Gulnoz

UrDU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga ta'lim-tarbiya berish sifatiga bog'liq. Shu bois Vatani, xalqini sevadigan, istiqloq g'oyalariga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni yetishtirish davlatning ta'lim sohasidagi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shuning bilan birga ta'lim tizimidagi tub islohotlar orqali shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlash mazkur yo'nalishning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, bu haqda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik muhim vazifalaridan biri ekanligi ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lim, umuman olganda, uzliksiz ta'limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o'qish uchun tayyor bo'lgan sog'lom va to'laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko'zda tutadi. O'zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yil 2-sentabrdagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunga muvofiq o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

Tarbiyachi savodxonlikka o'rgatish jarayonida o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olib mashg'ulotlarni rejalashtirishi lozim. Buning uchun

o‘zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

1. Savodxonlikka o‘rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish **unlilardan** boshlanadi. **Hozirgi o‘zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o‘.**

E harfi so‘z va bo‘g‘in boshida qo‘llanadi (ekin, echki, echkemar), undoshdan keyin o‘rta keng lablanmagan unli tarzida o‘qiladi (kel, tez).

O harfi o‘zbekcha, umumturkiy so‘zlarda quyi keng, lablangan o tovushini ifodalaydi, rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarda urg‘usiz bo‘g‘inda a tarzida (botanika), o‘ tovushi kabi (tonna), qisqa i tarzida (traktor) kabi talaffuz qilinadi.

A tovushi bahor, savol kabi so‘zlarda o kabi, muomala, munosabat kabi so‘zlarda i tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin a yoziladi.

U tovushi qovun, sovun kabi so‘zlarda i tovushiga yaqin talaffuz etilsa ham u yoziladi.

I tovushi bilan, sira kabi so‘zlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi.

2. O‘zbek tilida 24 ta **undosh tovush** bor. **Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi:** shulardan 3 tasi harf birikmasi, 20 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j (jumal), j (joja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g, sh, ch, ng. Undoshlarni o‘rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi.

Savodxonlikka o‘rgatish davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya’ni ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni bo‘g‘in va so‘z taikibidan ajratib olish oson. Lekin ng sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o‘rgatiladi. Harf birikmalarini o‘rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning savodxonlikka o‘rgatish davrining oxirgi bosqichida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, birinchi portlovchi j tovushini o‘rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko‘nikmalar hosil qilinadi, keyin esa sirg‘aluvchi j tovushi va uning talaffuzi o‘rgatiladi. So‘ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintetik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Sh tovushini ifodalovchi sh harf birikmasi ham s va h harfi bilan, ch tovushini ifodalovchi ch harf birikmasi h harfi bilan tanishtirilgach o‘rgatiladi. Tarbiyalanuvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovush sifatida o‘qish va yozishga ko‘nikishlari lozim. Bu davrda s‘h (is‘hoq) tarzida o‘qiladigan holatga to‘xtalmaydi.

Jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar talaffuzi (b-p, d-t, v-f, g-k, z-s kabi) haqida dastlabki amaliy tushunchalar hosil qilinadi, ularning talaffuzi va yozilishiga e’tibor qaratiladi.

X va h tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tushunchalar beriladi, ularni farqlash bo‘yicha maxsus mashqlar ham uyushtiriladi.

Tutuq belgisi (') unli tovushdan so'ng kelsa, uni cho'zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so'ng kelsa, undoshni unidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qo'llashga doir ko'nikmalar shakllantiriladi.

Savodxonlikka o'rgatish jarayonida **harflarning bosh va kichik bosma shakli** va ularning ishlatilish o'rni o'rgatiladi. **Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi.** Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlashni o'rgatish muhim sanaladi. Savodxonlikka o'rgatish davrida tarbiyalanuvchilar so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata oladi, bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi.

Savodxonlikka o'rgatish jarayonini tashkil etish metodikasi

Analiz-sintez metodida savodxonlikka o'rgatish jarayoni 2 bosqichda davom etadi. Birinchi bosqichda– tarbiyalanuvchilarga quyidagilar

- og'zaki va yozma nutq,
- gap,
- so'z,
- bo'g'in,
- tovushlar,
- nutqning gaplardan, gaplarning
- so'zlardan tuzilishi,
- so'zlarning bo'g'inlarga
- bo'linishi,
- bo'g'inlarning tovushlardan
- tashkil topishi haqida ma'lumot
- beriladi.
- tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o'rgatiladi hamda ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalari hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: "ISTIQLOL, 2006y. O'quv qo'llanma.
2. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: Fan va texnologiyalar 2009yil. O'quv qo'llanma.
3. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018y. Darslik.
4. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: TDPU 2017yil. O'quv qo'llanma.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARGA VAQT HAQIDA TUSHUNCHA BERISH

Madirimova Momajon Raximboyevna

UrDU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedra o'qituvchisi

Kichik guruhlarda bolalarning ertalab, kunduzi, kechqurun va kechasi vaqt haqidagi tasavvuri shakillantirish. Sutka qismlarini bolajonlarimiz o'z faoliyatlari mazmunining o'zgarishiga hamda shu vaqt oralig'ida o'z atroflarida bo'lgan katta yoshli kishilar faoliyatiga qarab farq qiladilar.

Avval bolalarda kun tartibi, bolalarning uyqudan turish, ertalabgi gimnastika, nonushta, faoliyat vaqtlari qat'iy belgilab qo'yilganligi va har bir kunning maroqli va unumli o'tishi uchun kunning turli vaqtga bo'lgan holda turli mashg'ulotlar o'tilishi haqida tasavvur hosil qilish uchun sharoitlar yaratiladi va bolalarda vaqt haqida tasavvurlar shakillantiriladi.

Pedagog ya'ni tarbiyachi vaqt bo'lagining nomini aytadi va bolalarning shu vaqtga mos bo'lgan faoliyat turlarini sanab chiqadi. Bolalar kundalik ish faoliyatini so'rasak ham bo'ladi va bunda bolalarda asta sekinlik bilan vaqt haqidagi tasavvurlari kengayib boraveradi. "hozir ertalab, biz gimnastika qildik, yuvindik, endi esa nonushta qilamiz". Yoki allaqachon nonushta qilib bo'ldik, shug'ullanib ham bo'ldik. Hozir kunduz kun. Tez orada tushki ovqatni eymiz. Bolaradan savol-javob tarzida vaqtni tushuntirishimiz ham mumkin.

Masalan, boladan quyidagilarni so'rasak bo'ladi: "Hozir ertalab. Sen ertalab nima qilasan? Sen o'ringdan qachon turasan?" va shu kabilar.

Kun davomida bolalar bilan birgalikda kunning turli qismlarida bolalar va kattalarning ish faoliyati tasvirlangan rasmlar ko'rib chiqiladi.

Rasmlar shunday bo'lishi kerakki, ularning vaqt bo'lagi uchun xarakterli bo'lagi belgilar aniq ko'rinib bilinib turishi lozim. Tarbiyachi pedagog bolalarga rasmni ko'rsatadi bolalar rasmdan bolalar nima ish qilayotganliklarini va bu harakat qaysi vaqtda bajarilayotganligini aytishlari kerak bo'ladi. Tarbiyachi bolalarga savollar beradi: "Sen erta bilan nima qilding? Kunduzi-chi?" Yoki "Sen qachon o'ynaysan? Qaysi vaqtda sayr qilasan? Sen qachon uxlaysan?" Keyin bolalar, masalan, erta bilan, kunduzi yoki kechqurun kattalar yoki bolalar nima qilayotganliklari tasvirlangan rasmni tanlab oladilar.

O'rta guruh. Kichik guruhlardagi kabi bu guruhlarda ham vaqtni bilish bolalarni asosan, kundalik hayotida o'stirib boriladi muhimi bu o'rgatishining puxta hissiyot asosida amalga oshirilishidir.

Pedagog tarbiyachi sutka qismlarining nomini bolalar va ularga yaqin katta yoshli kishilarning ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi nima qilishlari bilan bog'liq, bolalarning sutka qismlari haqidagi tasavvurlarini shakillantirib boradi.

Bolalarning vaqt haqidagi tasavvurini shakllantirish maqsadida ular bilan suhbat olib boriladi. Suhbatda taxminan bolalarning kundalik ishlari soʻraladi: avval tarbiyachi bolalardan ular bolalar bogʻchasiga kelishdan oldin nima ish qilganliklarini, ertalab bolalar bogʻchasida nima qilganliklarini, bolalar bogʻchasida kunduzi nima qilishlarini gapirib berishlarini aytamiz va ularga xatolashsa yordam berib turiladi. U bolalarning sutkaning har bir qismida nima qilayotganliklarini aniqlaydilar va umumlashtiradi. U suhbat oxirida ertalab, kunduz va tun - bular sutkaning qismlari ekanligini aytadi.

“Bugun”, “kecha” kabi vaqt tushunchalari nisbiy xarakterga ega. Bolalarning ularni oʻzlashtirishlari qiyinroq boʻlishi mumkin, buning uchun imkoni boricha gapirayotgan gaplarimizda bugun, ertaga, kecha soʻzlaridan koʻproq foydalanish va bolalarni bu soʻzlarni ishlatishga undab turish zarur va har kuni takrorlab bugun nima ish qilding ertalab kabi savollari berib turishi kerak. Tarbiyachi mashgʻulot davomida muntazam ravishda ularga biz qachon rasm soldik? Biz bugun nima koʻrdik? Ertaga qayerga boramiz? Savollari bilan murojaat qilib turishi kerak.

Katta guruh. Oʻquv yilining boshida katta guruhlar bolalarida ertalab, kunduzi, kechqurun va kechasi kabi vaqt qismlari haqida tasavvurlar mustahkamlanib yanada chuqurroq maʼlumot beriladi, vaqt bolalar faoliyatining aniq mazmuni va ular atrofidagi kattalar bilangina emas, balki vaqtning aniqroq koʻrsatkichlari-tabiʼat hodisalari (quyosh chiqishi) bilan bogʻlaydilar yaʼni vaqt haqidagi tasavvur bilimlari kengayadi.

Tarbiyachi bolalar bilan va ular atrofidagi kattalar bilan kun davomida nima qiladilar, ularni qanday izchillikda qachon bajaradilar, erta tong kunduz kechqurun haqidagi taassurotlari toʻgʻrisida suhbatlashadi va ohirida tarbiyachi bolalarga turli oʻyinlar savol jaoblar oʻtkazadi. Pedagog bolalarga vaqt haida sheʼr va hikoyalarni aytib beradi. Koʻrsatma material sifatida bolalarning kun davomida xilma xil faoliyat turlari aks ettirilgan rasm lardan foydalaniladi: oʻrin koʻrpalarni yigʻish, ertalabki gimnastika, yuvinish, ertalabki nonushta. Sutka qismlari haqida tasavvurlarni kengaytirib aniqlashda didaktik oʻyinlar, masalan, bizning kun oʻyini yordam beradi.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz joizki, Vatanimiz ertangi kuni va istiqbolini hal qiladigan hozirgi yosh avlodni munosib ravishda kamolga yetkazish taʼlim-tarbiya sohasini zamonaviy darajada uzluksiz takomillashtirib borish bilan bogʻliq. Oʻsib kelayotgan avlodni sogʻlom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, taʼlim-tarbiya jarayoniga samarali taʼlim va tarbiya shakllari, hamda usullarini joriy etish, maktabgacha taʼlimning samarali tizimini tashkil etish boʻyicha mamlakatimizda ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda va bu barcha xududlarda oʻz samarasini bermoqda. Shunday ekan, vatanimiz kelajagi boʻlgan farzandlarimiz taqdiriga befarq boʻlmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бикбаева Н.У., Ибрагимова З.И., Қосимова Х.И. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда элементар математик тасаввурларни шакллантириш. –Т.: Ўқитувчи, 1995 й.
2. Jumayev M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi. – Т., 2007.
3. www.pedagog.uz
4. www.edu.uz
5. www.ziyouz.com

BO‘LAJAK MUSIQA MADANIYATI O‘QITUVCHILARIGA BUXORO FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA AHAMIYATI

Hasanova Gulchehra Saidovna

Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti 1-bosqich magistranti

Nurullaev Farrux Gaybulloevich

BuxDPI “Musiq va tasviriy san’at” kafedrasida dotsenti (PhD)

Email: farrux1133@gmail.com

Buyuk alloma Forobiy musiq asarlarining inson vujudi, ruhiyati, umuman, ma’naviyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, musiq inson kayfiyatini o‘zgartirishdan tashqari, uning ma’naviy qiyofasiga ta’sir etishini estetik jihatdan asoslab bergan. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini aniq maqsadga yo‘naltirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar orqali estetik tarbiyalashda Buxoro musiq folklori muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Musiq darslarining estetik tarbiya vositasiga aylanishida o‘qituvchining bilimi, iqtidori, go‘zal ovozi, kiyinish madaniyati, nutqi etakchi ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Musiqaning buyuk qudrati shundaki, u o‘quvchining ichki dunyosiga ta’sir qilib, hissiyotlarini junbushga keltiradi. Psixolog olimlarning ta’kidlashicha, musiqiy ohang inson bosh miya yarim sharlaridagi nozik nuqtalarga ta’sir etmaydigan qatlamga kirib boradi va yaxshi musiq aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralari harakatga keltiradi.

O‘quvchilarda Buxoro folklori asosida shakllana boshlagan bilim, ko‘nikma va malakalar ularda milliy musiq san’atining nodir asarlarini tushunish va o‘zlashtirish, ulardan zavqlanish imkoniyatini kengaytiradi.¹⁵

¹⁵ Нуруллаев Ф.Г. Музыка таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро музыка фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.

Buxoro musiqa folklori vositasida 5-7-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

-5-7-sinf o'quvchilarida musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa hamda folklor qo'shiqlariga qiziqish va havas uyg'otish;

-har bir o'quvchida qo'shiqlarni ifodali va xushohang ijro etish ko'nikmasini qaror toptirish;

-milliy hamda Buxoro musiqa folklori qo'shiqlarini ongli va hissiyot bilan idrok etish, ulardagi nafislikni sezish va go'zallik nuqtai nazaridan baholashga o'rgatish;

- musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirish, musiqiy taassurotlarning kengaytirishga erishish;

-san'at va go'zallikni egallashga nisbatan barqaror ehtiyojni qaror toptirish;

-musiqa madaniyati darslarida estetik qadriyat namunasi bo'lgan odob, axloq, go'zallikka intilish, do'stlik, rostgo'ylik hissini shakllantirish.

Tezis metodologiyasi. Musiqa san'atining o'ziga xos shunday qudrati borki, bu uni boshqa san'at turlaridan ajratib turadi. Bu insonga kuchli ta'sir etuvchi ohang musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlari, vositalarida tovush tembri, baland - pastligi, ritm xilma-xilligi, garmoniya tuzilishi, interval va akkordlar tuzilishidagi rang-baranglik, dinamik tus va boshqalar o'quvchini his-hayajonga soladigan, uning tuyg'ulari olamida mo'jizalar yaratadigan beqiyos ta'sir vositasidir.

O'quvchi shaxsining kamol topishi va shakllanishida musiqaning, ayniqsa, xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlari silsilasidan yaralgan Buxoro musiqa folklorining tutgan o'rni beqiyosdir.¹⁶

Buxoro musiqa folklori namunalari avloddan-avlodga o'tib, qon- qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari hamda boshqa milliy bezaklarini tinglagan kishi unga befarq bo'la olmaydi, bevosita unga ergashadi, qo'shib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehrli olamiga etaklaydi.

Buxoro musiqa folklori estetik joziba olami bo'libgina qolmay, balki estetik ta'lim-tarbiya vositasi hamdir. Chunki, inson his-hayajoni zamirida ma'naviy-axloqiy tushunchalar, hissiyotlar, xulosalar ham yotadi.

Buyuk alloma A.Jomiy musiqaning xilma-xilligi inson ma'naviy ehtiyojlarining ifodasi ekanligi, ikkinchidan, estetik lazzat va huzur orqali inson ma'naviy barkamolligini ta'minlashini ta'kidlaydi. Musiqa misolida A.Jomiy e'tirof etadiki, "Ruhga lazzat biror narsani tushunib, bilib olmoqdan keladi. Nimaiki ruh

¹⁶ Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852

tomonidan tez idrok etilsa, uni hayratga, chuqur o‘ylashga majbur etsa, u eng lazzatli hisoblanadi ”.

Pedagogika hamda psixologiyaga oid adabiyotlarda musiqaning katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Bizning nazarimizda, inson ongida vujudga kelib, shakllanib, taraqqiy etayotgan ma’naviy qadriyatlar o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy, estetik fazilatlarni tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Estetik fazilatlarni tarbiyalash jarayonida o‘quvchilarning yangidan- yangi ma’naviy ehtiyojlari paydo bo‘ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa o‘quvchida o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Bu harakat bolaning o‘quvchilik davrida yaqqol ko‘zga tashlanadi. [2; 5-6-b]

Mavzu jihatidan turlicha bo‘lgan bolalarbop Buxoro musiqa folklori namunalarini muntazam ravishda o‘rganib borish, ijro etish o‘quvchilarning nafaqat repertuarini boyitadi, balki ularning milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan munosabatini barqarorlashtiradi, dunyoqarashini kengaytiradi va estetik fazilatlarning takomillashishiga yordam beradi. Bu tuyg‘ular g‘oyat ko‘p qirrali va xilma-xildir.

Tahlil va natijalar. Folklor sinkretik san’at sifatida musiqa, qo‘shiq, raqs, teatr san’ati turlarini o‘z ichiga oladi. Takomillashgan xar kandy sanat asarlari negizini xalq og‘zaki ijodi namunalari ya’ni folklor tashkil etishi to‘g‘risida ilmiy xulosalar, faktik misollar, arxeologik asoslar, og‘zaki ijodga asoslangan ustoz shogird an’analari xakidagi tajribalar, taniqli folklorshunos, musiqashunos, olimlar Xodi Zaripov, To‘ra Mirzaev, Oxunjon Safarov, Mamatqul Jo‘raev, Safarboy Ro‘zimboev, Fayzulla Karomatov, Maxmudjon Axmedov, Otanazar Matyoqubov, Fayzulla To‘raev, Sanoqul Do‘stov, Baxrom Madrimovlarning tadqiqotlarida tafakkurona bayon qilinadi.[1; 5-6-b] Musiqashunos olim Farrux Nurullaev “Musiqqa ta’limida Buxoro folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari” mavzusida ilmiy ish olib borgan. Bugun folklor janrlariga asoslangan o‘zbek musiqa madaniyatimiz jahon miqyosida ulug‘lanmokda, musiqiy asarlarimiz dunyo sahnalarida tarannum hamda e’tirof qilinmokda. Iqtidorli yosh ijrochilarimiz xalqaro tanlovlar g‘oliblari bo‘libgina qolmasdan rivojlangan xorijiy davlatlar oliygohlarida faoliyat ko‘rsatib chet ellik yoshlarga evropa klassik asarlari bilan birga o‘zbek mumtoz musiqiy merosimizni ham o‘rgatib kelmoqdalar.

Bugungi kunning asosiy maqsadi milliy-madaniy va ma’naviy-musiqiy merosimizni asrab avaylash va boyitish, san’at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada oshirishni rag‘batlantirish, milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirishdan iborat. YOshlar ongi va qalbida mustaqillik g‘oyasiga, yuqori manaviyat va insonparvarlik an’analariga sadoqat tuyg‘ularini yanada chuqur ildiz

otishi, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalariqa qarshi immunitetini mustahkamlash jamiyatni o'sib kelayotgan intellektual estetik va madaniy ehtiyoqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish, ijodkor yoshlarga har tamonlama ko'maklashish, ma'nan etuk yuqori madaniyatli shaxslarni tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Respublikamizda ushbu soxada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilishdan iborat ekan, yuqorida qayd qilingan ijodkor yoshlarimizning jahon miqyosidagi yutuqlari yurtimizda bo'lib o'tayotgan xalqaro festivallar ko'rik tanlovlari simfoziumlari "SHarq taronalari", "Xalqaro maqom san'ati anjumani" mavqei va nufuzi to'g'risidagi mag'rurona faxrlanish mumkin. Folklor, ayniqsa musiqiy folklor, tom ma'noda xalq ijodiyoti maxsuli, o'ziga xos xususiyatlari poliritmikasi, janrlar jozibadorligi, o'ynoqiligi, xalkchilligi bilan aloxidalik kasb etadi.

O'zbek musiqa fol'klori Respublikamizda Toshkent-Farg'ona, Buxoro-Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo-Syvxandaryo xududlarida lokal xususiyatlari bilan musiqashunos, folklorshunos, olimlarning ilmiy izlanishlarida manba sifatida qo'llanilmoqda, tadqiq qilinmoqda.

Xorazm musiqiy folklor janrlarida xalfalarning to'y marosim qo'shiqlari aytishuvlar, laparlar, xalq raqslarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, mehr-oqibat, go'zallik o'z ifodasini topadi. SHuningdek Buxoro musiqa folklorining "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari Vatanga xalqqa, yorga sadoqat, vafodorlik, jasurlik tuyg'ulari baland ruhda tarannum etiladi. Xorazm va Buxoro folklor janrlaridagi umumiylik, mushtaraklik, bilan birga shaklan va mazmunan o'ziga xoslik mujassamlashganini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek musiqiy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz zamini folklor nafaqat yoshlarimiz tarbiyasida balki yurtimizda tobora rivoj topayotgan turizm sohasida ham mavqei katta. Respublikamiz xududlarida jumladan Samarkand, Buxoro, Xiva, Surxandaryo, Qashqadaryoga tashrif buyurayotgan chet ellik mehmonlarga ko'rsatilayotgan madaniy xizmat turlarida folklor san'atini jozibasi, lokal xususiyatlari ohangrabosi, milliy liboslar jilosi sayyohlarni maftun qilgan holda ularni e'tiroflariga munosib bo'lib kelmokda.

Milliy musiqiy merosimizni o'rganish rivojlantirish bilan birga jahon bo'ylab keng targ'ib qilish g'oyatda muhim vazifa bo'lib nafaqat soha mutaxasislari balki etti yoshdan etmish yoshgacha bo'lgan xalqimiz orasida ommaviy ravishda tizimli targ'ibot ishlarini olib borish lozim. Ayniqsa maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilariga mumtoz kuylar, og'zaki ijod namunalarini tinglash madaniyatini yo'lga qo'yish ustoz-murabbiylar amaliyotiga tadbiq etib borish muhim ahamiyatga ega. Zero, g'arbda bugun "Ommaviy madaniyat" deya bong urayotgan turli noxolis fikrlar, g'ayritabiiy shovqinli ritmik kuchaytirinishlar yoshlar ongini zabt etishga urinayotgan bir paytda sof o'zbekona go'zal musiqaviy tarbiyaning o'rnini

kuchaytirish, xar jihatdan muhim. Ayniqsa qalbi toza bolajonlarni, o'spirin yoshlarni tashqi taxdidlardan himoya qilish uchun teatrlar, qo'g'irchoq teatr spektakllarini asl milliy musiqiy oxanglar bilan boyitib borish zarur deb hisoblaymiz.

Xalq og'zaki ijodiy, namunalari folklor san'ati qo'g'irchoq teatrlar rivojida muhim o'rin tutadi. Buxoro viloyati qo'g'irchoq teatrining ijodiy faoliyati va repertuarini kuzatishimizda xalq an'anaviy teatrining ilk ko'rinishlarini yodga soladigan qadimgi xalq o'yinlari, masxarabozlik san'ati qizikchilar, dorbozlar guruhidagi polvonlar, yog'och oyoq (cho'b poy)chilar taqlidchilar xatarli o'yin sohiblari, qo'g'irchoqbozlar, to'y va sayllarda tomosha ko'rsatadigan ijrochilar namoyishiga guvoh bo'ldik. Teatrlarda musiqiy fol'klor namunalaridan o'z o'rnida foydalanish bolalar va yosh tomoshabinlarni milliy musiqani his qilishga o'rgatadi. Teatrga, mumtoz musiqa san'atiga muhabbat hissini uyg'otish, bolalardan boshlansa yuksak natijalarga erishish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugun respublikamizda barcha sohalar jumladan musiqiy san'at sohasida olib borilayotgan islohotlar g'oyatda mas'uliyatli va sharaflil bo'lib faqat musiqiy madaniyat va san'at mutaxassislarigina emas balki butun musiqasevar xalqimizni ijodga chorlamokda. Zero, o'zbek milliy san'atimiz noyob madaniy merosimiz durdonalarini asrlar osha bizgacha etkazib kelgan ajdodlarimiz an'alarini munosib davom ettirish, go'zal va bebaho asarlarimizning bironta ohangini, bironta tovushini yo'qotmagan tarzda asl holatida kelajak avlodga etkazish xalqimiz, Vatanimiz oldidagi muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нуруллаев Ф.Г. “Музыка таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг илмий-методик хусусиятлари(5-7-синфлар мисолида)” -(PhD) дисс.иши БухДУ.2021й.
2. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III. ISSN 2056-5852.
3. Нуруллаев Ф.Г. Музыка таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро музыка фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.
4. Азимов Б. Нравственное воспитание молодежи средствами народной музыки. ...дис.канд.п.н. -Т.: 1991. -16 с.

ALOHIDA EHTIYOJGA EGA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH QOBILIYATLARINI SHAKLLANISHIDA TABIAT MARKAZIDA INKLYUZIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Ahmedova Gulnoza

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Abduraxmonova Mohidil

Urganch davlat Pedagogika instituti talabasi

Annotasiya. Har bir bola o'z tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega. MTTlariga inklyuziv ta'limning kirib kelishi ushbu jarayonni yuzaga kelishida yordam beruvchi omillardan biridir. Maqola davomida alohida ehtiyojga ega bolalarga ta'lim berish jarayonida inklyuziv muhitning ahamiyati va MTTda tashkil etilgan inklyuziv ta'limning ta'siri haqidagi fikrlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: alohida ehtiyojga ega bolalar, inklyuziv ta'lim, ta'lim va tarbiya, inklyuziv muhit, qobiliyat, bilish jarayoni.

Azal-azaldan xalqimiz bola tarbiyasi bilan doimiy ravishda alohida shug'ullanib kelishgan. Ularni har tomonlama barkamol, yetuk qilib tarbiyalash o'zining eng oliy burchi deb hisoblagan. Xalqimiz tomonidan nogironlar deb ataluvchi alohida ehtiyojga ega bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayoniga bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo bosh qotirmoqda. Shu o'rinda bunday bolalarga ta'lim-tarbiya berish dolzarb mavzulardan biri ekanligini aytib o'tish joizdir. Bilamizki, bunday bolalar e'tiborni, mehrni sog'lom bolalarga nisbatan ko'proq talab qilishadi va ular bilan doimiy ravishda shug'ullanish lozimligini eslatishadi. Afsuski, ba'zi insonlar ularga o'z mehrini berishni ham lozim topishmaydi. Lekin har bir inson, har bir Alloh bandasi o'z qobiliyatiga, o'z iqtidoriga egadir. To'g'ri, ularning nuqsoni bordir, ammo ular ham boshqa tarafdin judayam iqtidorli va iste'dodlidlirlar. Bu tajribalarda ham isbotlangan. Aynan mana shunday bolalar uchun davlatimiz tomonidan inklyuziv ta'limi tizimi joriy etilgan. Inklyuziv ta'lim bu- davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojga ega bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi. Ta'limning maqsadi ham MTTlarda alohida ehtiyojga ega bolalarning ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo'llab-quvvatlashdir. Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimi o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim

tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada- u sog'lommi yoki nogironmi takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

Shuning uchun ham hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi.

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan tashkilotda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart.

Bunday jarayon hosil qilish uchun har qanday sharoit ushbu tizimga moslashgan, tayyor va eng muximi, alohida ehtiyojga ega bolalar uchun mos bo'lishi zarurdir. Bu tizimda o'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida nuqson mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish yetarli bo'lmaydi. Bunday bolalar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o'rganishi zarurdir. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zaki mashg'ulotlardan ko'p informatsiyalar olishi kerak. Yana shu o'rinda inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Alohida ehtiyojga ega bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatishi, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muxtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanaдилar, ijtimoiy hayotda teng huquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar. Bilamizki bolalarga tabiat haqida tushunchalar bermoqchi bo'lsak sayrga olib chiqish ham samarali usuldir. Sayrda ham turli xil o'yinlarni tashkillashtirish mumkin. Albatta biror bir daraxtni kuzatish orqali tabiatni bir bo'lagini o'rgatsa bo'ladi. Sayr davomida bola ob-havoni o'rganadi. Turli hasharotlarni o'rganib boradi. Bolalarga o'yin orqali tabiatni tushuntirishimiz bilan birgalikda bolani jismoniy, aqliy, ijtimoiylashuv jarayonlari, nutqi rivojlanib boradi. Albatta mashg'ulotda bir-birlari bilan suhbat bo'ladi. Natijada kommunikativ kompetansiyasi hamda "men" konsepsiyasi rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, bolani rivojlanishida o'yinning ahamiyati katta. Atrof-olam borasidagi bilimlarni berishda o'yin orqali ta'lim-tarbiya berish samarali usuldir. Albatta o'yin o'ynayotgan bola o'zini qulay muhitda his qilishi, o'zini erkin tutishi, xona yorug' bo'lishi lozim. Asosiysi esa tashkillashtirilgan o'yin bolani yoshiga mos bo'lishi va mashg'ulotga xos tarzda tuzilishi kerak. Shundagina biz oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.M.Quchqorova. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilariga o‘yin orqali tarbiya berish” o‘quv-uslubiy qo‘llanma.-Toshkent 2022-yil 74-b.
2. F.Voxobova, D. Zayniddinova “Rivojlantiruvchi o‘yinlar” Toshkent “Bekinmashoq plus” 2009 y.
- 3.lex.uz

MAKTABGACHA YOSH DAVRI BOLALARINING INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXIK-BILISH JARAYONLARINI MUVOFIQLASHTIRISH YO‘LLARI

F.R.Radjabova – Navoiy davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi, farangiza.radjabova@bk.ru

Ro‘ziqulova L.H- Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi 4 kurs talabasi, roziqulovalaylo2@gmail.com

O‘zbekiston ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash ularni maktabga aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlash juda samarali yo‘lga qo‘yilgan.

Ayniqsa, shahar va shahar hududiga yaqin joylashgan aholi yashash maskanlarida ko‘plab bolalar bog‘chalari tashkil qilingan. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta’lim muassasalari, jumladan, nodavlat maktabgacha ta’lim tarmog‘ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog‘lom raqobatni shakllantirish hamda ta’lim xizmatlari turini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari 2018 yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha tarbiya tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish ta’kidlab o‘tilgan [3; 22-b]. V.M.Karimovanning yozishicha, ongning muhim aks ettirish shakllari bo‘lmish bilish jarayonlariga: idrok, sezgi, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlar kiradi [5;196-b].

Bilish jarayonlari – bu shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o‘zini o‘rab turgan atrof-muhitning ma’lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga ular o‘stida o‘ziga zarur xulosalar chiqarib, o‘z xulq-atvorini rejalashtirishga imkonberadi. Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bilish jarayonlari ham ma’lum ma’noda boshqariladigan jarayonlar bo‘lib, agar siz o‘z imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki

iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo'lsangiz, bu jarayonlarga oid ma'lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar.

Bu jarayonlar – sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqlik, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? 3-7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olganxolda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri, (4-5 yosh) kichik maktabgacha yoshi, o'rta maktabgacha yosh davri (o'rta maktabgacha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha yosh davri katta maktabgacha yoshlilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi [6; 257-b].

Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi" deya ta'kidlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rejalashtiriladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Ilk qadam" dasturini ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi. Bog'cha yoshdagi bolalar turli narsa va voqea-hodisalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga rang va shakliga asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bog'cha yoshdagi bolalar kattalarning yordami bilan suratni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qiliyotganlarida kattalar turli xil savollar bilan tahlil qilishga o'rgatishimiz lozim. Bunda asosan bolalar diqqatini:

- 1) Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;

2) Suratning umumiy ko‘rinishda har bir ta’sirlangan narsalarning o‘rnini to‘g‘ri idrok qilishga;

3) Tasvirlangan narsalar o‘rasidagi munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilishga qaratish kerak.

Xulosa sifatida, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini psixik jarayonlarni takomillashtirmasdan, bolalarda bu jarayonlarni (sezgi, diqqat, idrok, xayol, tafakkur, nutq) muvofiqlashtirib, tarbiyalamasdan samarali natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Sezgilar oddiy elementar psixik jarayondir. Idrok esa sezgilarga qaraganda murakkab psixik jarayon hisoblanadi. Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalanadi: Har bir idrok tarkibiga ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan, limonni idrok qilish. Bunda quyidagi sezgilar ishtirok etadi лимonning shakli va rangini aks etgiruvchi ko‘rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid sezgisi, mazasinn aks ettiruvchi ta‘m sezgisi, harakatni aks etgiruvchi teri sezgisi va boshqalar. Bu sezgilar taxlil yordamida ajratib olinadi va idrokning reseptiv tomonini tashkil etadi. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks ettiriladi

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo‘ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Diqqat idrokning aktivligini oshiradi va uning mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi. Diqqatsiz hech narsani idrok qilish mumkin emas

Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqati ixtiyorsiz boladi. Bog‘cha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o‘sib borishi uchun o‘yinning ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

6) Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqatni bir obyekt ustida to‘plab turish juda ham qiyin kechadi. Shu sababli bu davr yoshidagi bolalar diqqatini jamlashda tarbiyachilarga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

7) Miyani yetarlicha dam olishi (o‘z vaqtida uyqu va sog‘lom turmush tarzi, vitaminlarga boy ovqat).

8) Sistematik tarzidagi amaliy mashqlar (diqqatni bosqichma-bosqiya yaxshilaydigan muntazam ravishda olib boriladigan mashqlar).

9) Turli tuman topshiriqlar. (faol va passiv topshiriqlar).

10) O‘yin tarzida bajariladigan mashqlar.

O‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma‘lum maqsadlarni ilgari suradilar va bu maqsadlar ular faoliyatini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son. – 70-modda

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha” PQ-3261-son qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2018 yildagi PQ-3955-son
10. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
11. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T., 2012. – 196 b.
12. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik/E.G‘oziyev; O‘zR OO‘MTV, M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 544 b.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA UNI AMALDA QO‘LLASH

Ruziyeva Dilafro‘z Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

Barotova Surayyo Ixtiyor qizi

Buxoro davlat Pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Bugungi kunda yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, yurtimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarning vatan ravnaqi yo‘lida har taraflama yetuk inson sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda.

Jamiyatning har bir a‘zosi, o‘zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, o‘qituvchi ham o‘z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin. Har bir o‘qituvchi mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o‘z axborot muhitini shakllantirishga zamin yaratishi lozim. Buning uchun u doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, ya’ni dars o‘tish jarayonida axborot texnologiyalaridan qanday foydalanish, innovatsion texnologiyalarni kerakli joyda qo‘llay bilish, eng asosiysi o‘quvchilarni darsga jalb qilish va qiziqishini uyg‘otish va shunga o‘xshash kerakli bilim va malakalarga ega bo‘lib borishi zarur.

Ma’lumki ta’lim mazmunini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan qo‘llab quvvatlovchi axborotni ko‘paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligi,

gipermatn va multimedia, o'qitishda imitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan. Xususan, texnologiya darslarini oladigan bo'lsak, har bitta mavzu uchun taqdimot qilinadi, ko'rgazmalarning yasashiga va yaratilishiga oid videolavhalar tashkillashtiriladi, ba'zi metodlarni ham kompyuter texnologiyalari orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari o'qituvchining barcha hujjatlari AKT orqali yaratiladi (hemis, dars ishlanma, dastur, shaxsiy ish reja, sillabus, fan dastur, tarqatma materiallar, ko'rgazmalar va hk).

Dars o'tish jarayonida turli xildagi qiziqarli va aqlni charxlovchi, mustaqil izlashga undovchi metodlardan foydalanish ish samaradorligi va unumdorligini oshiradi. Bunday metodlardan biri Keys-stadi metodidir. Keys-stadi – inlizcha keys-to'plam, aniq vaziyat, study- ta'lim degan ma'nolarni anglatadi.

Keys-stadi bu muammoli o'qitish texnologiyalaridan hisoblanadi. Ushbu metod orqali o'quvchilar muayyan vaziyatlarni har tomonlama o'rganadilar, faol fikrlaydilar, nazariy mashg'ulotlarda eshitgan bilimlarini mustaqil o'rganish davomida to'plagan ma'lumotlar bilan taqqoslaydilar. Keysda bayon qilingan va o'quvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltirilgan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslanadigan ta'lim uslubidir. Unda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi: sizga muammoni hal qilish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, tahminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash va aniq qadamlarni loyhalashtirish imkonini beradi. Keys- stadi metodini innovatsion metod desak ham bo'ladi. Buning sababi, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari dars o'tish jarayonida yuzaga keladigan muammolarga o'quvchilar bilan birgalikda yechim izlash, ularni mustaqil fikrlash va izlanishga undaydi.

Texnologiya fani bizga ta'lim tizimining yangi sohalariga qadam qo'yishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga misol qilib mehnat ta'limi fanining texnologiya faniga o'zgartirilganligini aytishimiz mumkin. Buning sababi mehnat so'zi keng ma'no mazmunga ega bo'lsada ,hozirda rivojlanib borayotgan texnologiyaga to'g'ri kelmaydi. Texnologiya fani darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik tamoyillarni qo'llashda, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug'ullanadilar. Ularni qiziqishi oshib borgan sari, intilishi ham yuksalib boradi. Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish ob'ekti sifatida emas, balki o'quvchilar amaliy ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bor. O'quvchilarni texnologiya fanini to'liq o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan

foydalanish, yangi innovatsion- pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” soʻzidan olingan boʻlib, “yangilanish” (yoki “oʻzgarish”), “in” qoʻshimchasi esa lotinchadan “yoʻnalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” koʻrinishida tarjima qilsak – “oʻzgarishlar yoʻnalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi boʻlib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo boʻldi. Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli oʻsish samaradorligini taʼminlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Texnologiya fanini oʻqitishda shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim texnologiyalari ham juda katta samara beradi. Bu taʼlim oʻz mohiyatiga koʻra taʼlim jarayonining barcha ishtirokchilarini toʻlaqonli rivojlanishlarini koʻzda tutadi. Bu esa taʼlimni loyihalashtirilayotganda, albatta maʼlum bir taʼlim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bogʻliq oʻqish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Oʻqitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida oʻquvchi va oʻqituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega boʻladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Hamkorlik pedagogikasi
2. Pedagogik jarayonda shaxsni kuzda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);
3. Oʻquv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida oʻqitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);
4. Oʻquv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga, qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning oʻqitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);
5. Oʻqitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Graniskaya, V.D.Shadrikov texnologiyasi);

Maktablarda “Texnologiya” fanining oʻqitilishi insonlar hayotida zarur boʻladigan amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik koʻrishda muhim oʻrin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim boʻlmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va koʻnikmalariz sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. Texnologiya fani 2 yoʻnalishda olib boriladi: texnologiya va dizayn hamda servis xizmati yoʻnalishlari. Bunda texnologiya va dizayn yoʻnalishida chilangarlik, temirchilik, oʻymakorlik kabilar oʻrgatilsa, servis xizmati yoʻnalishida esa tikuvchilik, pazandachilik, yaʼni ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi oʻrgatiladi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga

oid bilimlar o'zlashtiriladi. Mahsulot ishlab chiqarish va uyro'zg'or buyumlarini ta'mirlashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz. O'quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo'ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar keltirib o'tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog'liq umummehnat ko'nikmalari har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a'zosining bilim va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligi bu ko'nikmalarning zaruratini yanada oshirmoqda. Texnologiya darsimizda asosiy rol o'ynaydigan narsa ijodkorlikdir.

Ijodkorlik – bu yangi g'oyaga asoslangan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo'lib bormoqda. Sizni o'rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlar tomonidan yaratilgan texnik vosita va texnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrlı boshqa ne'matlar yaratilgan. O'quvchilarda ijodkorlikni oshirish uchun oldin fanga bo'lgan qiziqishni shakllantirish hamda yuksaltirish lozim.

Qiziqish bu – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini bilish o'qituvchidan juda ham katta mahorat talab qiladi. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ona , ham psixolog, ham tarbiyachi, qisqa qilib aytganda o'quvchini hamma tomonlama tushunadigan shaxs bo'lishi kerak.

Har bir o'tiladigan dars reja asosida o'tilishi kerak. Samarador bo'lgan dars rejasi to'rt asosiy elementni o'z ichiga olishi zarur. Bular:

- Qiziqtiruv-motivatsiya
- Taqdimot- prezentatsiya
- Amaliy-prakrika
- Natija- o'zlashtirish darajasini tekshirish

Yuqorida aytib o'tilgan elementlar o'qituvchi-pedagogka katta imkoniyatlar yaratib beradi va o'quvchilar bilan muloqot qilishga hamda ularni darsda faol ishtirok etishini ta'minlab beradi.

Innovatsion texnologiyalar – ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi faollikni ya'ni birdamlikni oshirish orqali o'quvchilarning qabul qilish faolligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limning maqsadi – o'quvchilarga ko'proq bilim berish emas, balki ularni mustaqil ravishda o'rganishga, izlanishga o'rgatish; mustaqil ishlash, olgan bilimlaridan kerakli joyda foydalana olish va eng asosiysi o'z oldiga aniq bir maqsadni to'g'ri tanlay olishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanilsa, dars jarayonlari kompyuter orqali tashkil etilsa, iloji boricha dars jonli tarzda o'tilsa, ya'ni kichraytirilgan maketlar, hayotiy voqealar, qiziqarli metodlar bilan o'tilsa dars albatta sifatli va samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008.–128 b.
2. Muminovna R. D. Tikuv buyumlarini tayyorlashda ishlatiladigan pishirilgan iplarning tuzilish xususiyatlari va afzalliklari //so 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – t. 6. – №. 10. – c. 21-3. Muminovna R. D. Ta'lim tizimida foydalanishga mo'ljallangan dasturiy ta'lim vositalari tasnifi //наука и технологии. – 2023. – т. 1. – №. 3.
4. Ruzieva D. M. Features and advantages of the structure of baked threads used in the preparation of sewing products //golden brain. – 2023. – т. 1. – №. 17. – с. 401-408.
5. Bahronova Sh.I.,Ruziyeva D.M.,Rayimova D.D., Davlatova N.U."Texnologiya ta'limi praktikumi fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari"//ERIUS Scientific journal.
6. To'raqulov X.A. "Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari" Toshkent: Fan, 2006-y.
7. Qo'ysinov O.A. "Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari" 13.00.08-Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2008-y.
8. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar".- T.: Nihol, 2016-y.

TIL VA NUTQ MARKAZLARIDA TURLI GURUH TARBIYALANUVCHILARINING "KVEST" TEXNOLOGIYALARI FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH

Durdiyeva Mohinur Adilbekovna

UrDU o'qituvchi

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining BMT Bosh Assambleyasining 72 – sessiyasida so'zlagan nutqida— Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat,|- deya ta'kidlaganlar [1].

Ma'lumki, bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash, malakali pedagog – tarbiyachilar bilan ta'minlash, ta'lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari, metod hamda texnologiyalarni tatbiq etish, bu sohada o'quv va o'quv – metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish orqali bolalarni har tomonlama intellektual rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribalarga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlari va metodik tizimi maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish, atrof – olam haqidagi tushunchalarini kengaytirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuv asosida bilish faoliyatini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zero, respublikamizda maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining metodik tayyorgarligiga muhim talablar qo'yilayotgan bir vaqtda uning pedagogik – psixologik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, dastur talablari asosida ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etish, faoliyatlarga kreativ yondashgan holda turli usul va vositalarni amaliy qo'llay bilish va ularning pedagogik kasbiy kompetentligini shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardandir[2].

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida —maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish [3] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarning nutqini o'stirishga qaratilgan tizimli ishlarga innovatsion yondashish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

“Ilk qadam” davlat o'quv dasturining talablariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar ona -tilini eshitib, tushunishi, ona tilida to'g'ri talaffuz, mos grammatik shakllar, turli gap tuzilmalaridan foydalanish, badiiy adabiyotga qiziqish bildirishi, so'zning lug'aviy ma'nosi, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga va tushunchaga ega bo'lishi, gapning turli ma'no shakllarini mustaqil shaklda tuzib, so'zlab bera olishi kerak.[4]

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ona tilini o'rgatish bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug'atni o'zlashtirish, nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir.

Maktabgacha ta'limda mashg'ulot - faoliyatlarni yosh guruhlarining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Negaki, kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulot - faoliyatlarning

asosiy maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir. Katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi mashgʻulot - faoliyatlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarkib toptirib boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, masʼuliyat hissi takomillashtirib boriladi, ularda aqliy mehnat qilish malakasi va istagi tarbiyalanadi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida faoliyatlar bolalarda kreativ faollikni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ana shu mashgʻulotlarda bolalarda oʻquv faoliyati va jamoa boʻlib ishlash koʻnikmalari hosil qilinadi. Ularda barqaror diqqat, diqqatni bir narsaga qarata olish, irodaviy zoʻr berish qobiliyati rivojlanadi. Bolalarda tizimli oʻrganish natijasida bilishga qiziqish paydo boʻladi. Darvoqe, bolalarga jamoada taʼlim berish quyidagi afzalliklarga ega: a) birgalikda ishlashda ular bir-birlariga faol taʼsir etadilar.

b) tashabbus koʻrsatish imkoniga ega boʻladilar.

Mashgʻulot - faoliyatlarda taʼlim berish bolalardan aqliy va jismoniy zoʻr berishni talab etadi. Yaʼni bu faol harakatlanishi bilan bogʻliq boʻlib, bola maʼlum natijaga erishish uchun intiladi. Bu esa boladan uzoq, davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun faoliyatlarni ijodiy tashkil etishda bolaning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini eʼtiborga olish shart. Shuningdek, faoliyatning oʻtkazilish vaqti, kun tartibidagi oʻrni, dasturning har bir boʻlimlarini toʻgʻri almashtirib turishni oldindan puxta oʻylab, aniq belgilab olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 – sessiyasida soʻzlagan nutqi.[https://strategy.uz / index.php.news-615&lang-uz](https://strategy.uz/index.php.news-615&lang-uz).
- 2.Quchqorova N.M.Kichik yoshdagi bolalarga kreativ yondashuv asosida mashgʻulotlarni tashkil etish.Oʻquv – uslubiy qoʻllanma.Toshkent, 2022, B.-3.
- 3.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son —Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidal qarori. – Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106- son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.
4. —Ilk qadam.Oʻzbekiston respublikasi maktabgacha taʼlim tashkilotlari uchun Davlat oʻquv dasturi .(Takomillashtirilgan ikkinchi nashr).- T.: 2022. B.- 17.

**MUTAXASSISLIK FANLARIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI
O‘TKAZISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Muxamedov Shavkat Madjitovich

Buxoro davlat pedagogika instituti texnologik ta’lim kafedrası dotsenti, p.f.f.d(PhD)

Texnologik ta’lim yo’nalishida o’qitilayotgan mutaxassislik fanlaridan o’tkaziladigan o’quv mashg’ulotlarini krkdit-modul tizimi asosida o’qitishni ishlab chiqish, amaliy mashg’ulotlarning texnologik jarayonlari obyektlarini optimallashtirish orqali talabalarning mustaqil-ijodiy ishlash ko’nikmalarining rivojlanishi, o’quv materiallarini g’oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o’quv axborotlarining izchil bayon etilishi, talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantiruvchi metod, shakl, vosita va texnologiyalarning maqsadli, izchil qo’llanilishi, shuningdek pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko’nikmalarini qamrab oladi [1; 438-6.].

Ma’ruza materiallarini chuqurroq o’zlashtirish, o’rganilgan pedagogik ma’lumotlarni amalda qo’llay olish malakasini shakllantirish maqsadida amaliy mashg’ulotlar tashkil qilinadi. Amaliy mashg’ulot – bu ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo’naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi, mashg’ulotni o’qitish shaklidir. Amaliy mashg’ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma’ruza darsi mavjud bo’lgan va ma’ruza darsi mavjud bo’lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlar. Amaliy mashg’ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat’iy amal qilingan holda o’tkaziladi. Amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish bo’yicha zarur adabiyotlar ro’yxati beriladi. Ma’ruza darsi mavjud bo’lgan amaliy mashg’ulotlarda asosan ma’ruza darslarida o’tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi. [2].

Amaliy mashg’ulotning o’ziga xos tomoni o’quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o’rni, o’qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi bilan xarakterlansada, amaliy mashg’ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma’ruza, amaliy mashg’ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar bayon etilgan malumotlarni chuqur va puxta o’rganishga talaba mustaqil ishinining sifati va o’zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko’nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi. Fan-texnika taraqqiyoti ta’lim jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta’limning faol metodlari va texnologiyalarini qo’llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan

an'anaviy ta'lim berish usuli ta'lim oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o'sishiga ham yordam beradi.

Barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta'lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko'nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkiliy shakllari deganda, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning mutaxassislik tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi. O'qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o'qitishning har xil ko'rinishda qo'shib olib borilishi, o'qitishda ta'lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta'lim oluvchilarning o'qishga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi[4.].

O'qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta'lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o'quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog'liq bo'ladi. Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlilik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyliigi, o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi. [2.].

Mutaxassislik fanlarni o'qituvchilari mutaxassislik fanlardan amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda, talabalarni nazariy mashg'ulotlar davomida olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanadilar, ularni chuqurlashtiradilar. Amaliy mashg'ulotlardan ko'zda tutilgan maqsad ko'p jihatdan uni o'tkazish metodikasini talabalar ishiga mutaxassislik fan o'qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi.

Talabalar nazariy materialni o'zlashtirib olganlaridan, o'rganilayotgan hodisalar, jarayonlar bilan tanishganlaridan so'ng ular bilan tajriba-amaliy mashg'ulotni o'tkazish ancha oson ko'chadi. Bu holda o'qituvchining yangi mavzu bo'yicha mashg'ulot o'tkazishga oid o'quv axboroti nihoyatda qisqa va aniq bo'ladi. Natijasiga asoslanib talabalar ma'lum xulosalar chiqarishi kerak bo'lgan tajriba-amaliy mashg'ulotlarni bajarish ancha murakkab hisoblanib, ta'lim oluvchilarni bunga oldindan tayyorlash va o'qituvchining o'quv axboroti ancha batafsil bo'lishi zarur. O'qituvchi talabalarga tajriba-amaliy mashg'ulotlarining bajarilish jarayoniga yo'riqnoma berish yo'li bilan rahbarlik qiladi. [3.].

Yo'riqnoma berishdan ko'zlangap asosiy maqsad talabalar ongida topshiriqni eng samarali bajarish uchun faoliyatning yo'nalish asoslarini yaratishdan iborat. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, insonning mehnat faoliyati ikki

tomonga: yoʻnalish va ijro tomonlariga ega. Yoʻnalish tomoni faoliyatning obʻektiv sharoitlarining (masalalar, usullar, mezonlar, bajarilish shartlari, texnika vositalari va shu kabilar)ning inson ruhiyatidagi inʻikosi, ijro tomoni esa harakatning bevosita bajarilishi.

Amaliy mashgʻulotlarini oʻquv jarayonida amalga oshirishda yoʻriqnomalar tizimidan foydalaniladi. Yoʻriqnomalar mashgʻulotda oʻtkazilish vaqtiga koʻra kirish, joriy va yakunlovchi yoʻriqnomalarga; maʼlumot berish usuliga koʻra ogʻzaki va yozma yoʻriqnomaga boʻlinadi. Kirish yoʻriqnomasi talabalarni tajriba-amaliy mashgʻulotlarni bajarishga tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega. Har bir tajribaamaliy mashgʻulot bajariladigan ishdan koʻzlangan maqsad, maqsad sari olib boradigan yoʻllar talabalarga tushunarli boʻlgan taqdirdagina ijobiy va qimmatli natijalar beradi. Talabalar oʻzlariga taklif etilayotgan ish oʻrganilgan material bilan qanday bogʻlanganligini yoki yanada oldinga siljish uchun u qanday ahamiyatga ega ekanligini anglab olishlari kerak. Kirish yoʻriqnomasining metodikasi koʻp jihatdan tajriba-amaliy mashgʻulotni oʻtkazishdan koʻzda tutilgan asosiy didaktik maqsadga va uning qanday oʻtkazilishiga bogʻliq.

Mashgʻulotni amaliy, maʼruzada oʻtkazilishining muhim tomoni shundaki, unda oʻqituvchi ham talaba ham puxta tayyorgarlik koʻradi. Har ikkala faoliyat egasi, manbalar bilan ishlash, amaliy rejasida koʻrsatilgan savollarga javoblar topishda asosiy va qoʻshimcha adabiyotlar bilan tanashib chiqishlari lozim boʻladi. Amaliy mashgʻulotlarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar toʻqnashuvi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yoʻlga qoʻyiladi. [4.].

Shuning uchun amaliy olib boruvchi oʻqituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, bahs-munozara ishlarini, oʻz nuqtai nazarini dalilash, oʻzgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yoʻllarini aniq tanlashi lozim. Mashgʻulotning yakunida oʻqituvchi umumiy xulosa yasab, amaliy mashgʻulotning borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib, navbatdagi amaliy mashgʻulotini oʻtkazish haqida tavsiyalar berish, oʻylab koʻrish, fikrlarni yanada toʻldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar roʻyxatini eʼlon qilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Ilmiy nazariy, amaliy-metodik jihatdan yuksak darajada oʻtkazilgan amaliy mashgʻuloti talabalarga fanga qiziqishi, manbalar va adabiyotlar bilan ishlashga ishtiyoq faollikka intilish uygʻotsa, oʻqituvchilarga oʻz ilmiy- nazariy malakasiga oshirishga, ilmiy adabiyotlarga ijobiy munosabatda boʻlish, fan yangiliklarga ishoncheʼtiqod va fanga qoʻyilayotgan muammolarni yechishga ishtiyoqni tarbiyalaydi.

Demak, amaliy mashgʻulotlarining sifatli va samarali oʻtishiga oʻqituvchi mohorati muhim rol oʻynaydi. Amaliy mashgʻuloti oʻziga xos taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda talabalar oʻz fikrlarini, nuqtai nazarlarini ochiqdan ochiq

bayon etadilar, qatiyatlik bilan o‘zlashtirganlarini himoya qiladilar, muloqatda fikr almashinish amalga oshadi.

Amaliy mashg‘uloti haqiqatan ham qiziqarli bo‘lishi uchun u bahs-munozara shaklida, ammo boshqariladigan bo‘lishi lozim. Buning uchun bahs-munozara tartibi o‘qituvchi tomonidan oldindan o‘ylab chiqiladi, ishchi rejada ma‘lum savollar, misollar, syujetlar belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda amaliy mashg‘ulotning muvaffaqiyatliligi doimo talabalar faolligiga bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchining ikkinchi majburiyati – amaliy mashg‘ulotni har tomonlama rivojlantirish va talabalarni rag‘batlantirishdan iborat. Talabalarning faolligi bu nafaqat amaliy mashg‘ulotda qatnashish va bahs-munozaralar, balki eshitish qobiliyatini ham rivojlantirib boradigan jarayondir. Shu bois, talabalarga eshitish va gapirish qobiliyati kabi muhim fazilatlar tushuntirish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Muxamedov Sh.M. IMPROVED MODEL OF PREPARATION OF STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES ON THE BASIS OF CREDIT-MODULE SYSTEM//International Scientific and Practical conference "Topical Issues of Science" Part 4,10.04.2022 y.P.438-442
2. Qahhorov S.Q., Muxamedov Sh.M., Rahmatov I.I. "Materialshunoslik (materialshunoslik va konstruksion materiallar) fanidan amaliy mashg‘ulotlar" O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrug‘i asosida berilgan 166-607 raqamli guvohnomasiga asosan chop etishga tavsiya etilgan. – Buxoro. Durdoni nashriyoti. 2022 y. - 185 b.
3. Мухамедов Ш.М. Кредит-модуль тизимида тахсил олаётган техникавий йўналиш талабалари учун фан дастурини яратиш технологияси // Фан ва жамият журнали. 2021й. № 1. Б. 38-41.
4. Jo‘raev A.R., Rasulova Z.D., Baxtiyorova S.I., Bolliiev K.E., Shoimov A.M. Materialshunoslik (Materialshunoslik va konstruksion materiallar) O‘quv qo‘llanma. – Buxoro. Durdoni nashriyoti. 2021-yil. 187 bet

III SHO‘BA

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY TA‘LIM VOSITALARI VA INTEGRATSIYALSHGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING FAOLLIGINI OSHIRISHDA DASTURLASHTIRILGAN TA‘LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH

Jo‘rayev Akmal Razzoqovich

Buxoro davlat pedagogika instituti professori, p.f.f.d. (PhD)

Respublikamizda ta‘lim tizimini isloh qilish va jahon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash kasb ta‘limi o‘qituvchilari zimmasiga mihim vazifalarni qo‘ymoqda. Ana shu vazifalar qatorida o‘quv adabiyotlarining zamonaviy avlodini yaratish alohida ahamiyatga molikdir. Taraqqiyotning hozirgi bosqichi bir qator xususiyatlari bilan farq qilibgina qolmasdan, unga mos bo‘lgan talablarni ro‘yobga chiqarishni ham taqazo qilmoqda.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda fan va ishlab chiqarish integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta‘lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda talabalar o‘qishini jadallashtirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish xotirada saqlab bo‘lmaydigan katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash talab etiladi.

Natijada bugungi kunda tahsil olayotgan bilimga chanqoq, zukko ta‘lim oluvchini bundan 10-15 yil ilgari ta‘lim oluvchilarga tenglashtirish mumkin emas. Gap shundaki, yaqin 10 yil ilgari ta‘lim oluvchi zarur malumotlarni asosan o‘qituvchi va mavjud adabiyotlardan olgan bo‘lsa, bugun esa vaziyat keskin o‘zgardi. Zamonaviy va samarador texnologiyalarning hayotga keng joriy etilayotganligi, ayniqsa bu jarayonlarning axborot almashinuv tizimiga ham keng qamrovda kirib kelayotganligi vaziyatni tubdan yangilamoqda. Oqibatda hozirgi avlodning ma‘naviy ehtiyojlari ham tez o‘tib borayapti. Ularni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘qish mativlarini shakllantirishda o‘qituvchidan pedagogik bilimdonlik, pedagogik tajriba, ijodiy izlanuvchanlik hamda o‘z ustida tinimsiz ishlashi bilan birga zarur axborot vositasi va ta‘lim usullaridan oqilona va o‘rnida doydalanishi darsning samarali tashkil etilishini taminlaydi. Shundagina o‘quv jarayonining sifat va samaradorligi oshadi. Bundan kelib chiqqan holda isloh etilayotgan ta‘lim tizimi oldiga

talabalarimiz talablariga javob bera oladigan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish zaruratini qo'ymoqda.

Hozirda masofaviy ta'limda quyidagi zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalar qo'llanilmoqda: elektron pochta, telekonferensiyalar tizimi, Web-serverlar, mediaserverlar, kompyuterli videokonferensaloqa tizimlari va boshqalar. AQSH, Shetsiya, Finlandiya va Rossiya universitetlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning natijasiga asosan, tinglovchi o'quv ma'lumotlarini yetkazishning zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi nisbiy bo'linish tavsiya qilinadi: chop etilgan o'quv materiallari – 40-50 %; web-serverlarida joylashgan o'quv materiallari – 30-35 %; kompyuterli videokonferens aloqa – 10-15 %; o'quv materiallarini jo'natishning boshqa shakllari – 5-20 % ni tashkil etadi. Masofaviy ta'lim mamlakatimiz aholisining keng qatlamlariga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining majmuasi sifatida aniqlanib, u o'quv axborotlarini masofada almashinuvini ta'minlaydigan eng maqbul zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangandir. O'qitishning an'anaviy sirtqi shaklidan farq qilgan holda masofadan turib ta'lim berish axborot bazasini anchagina boyitish, tinglovchi bilan o'quv yurti o'rtasidagi o'zaro munosabatni jadallashtirish, ta'limining uslubiy ta'minlanishini boyitish imkoniyatini beradi.

Masofaviy ta'limni tashkil etish bo'yicha quyidagi ishlarni to'rt yo'nalish bo'yicha olib borish maqsadga muvofiqdir;

Birinchiidan masofaviy ta'limda ishtirok etuvchilar bilan olib boriladigan tashkiliy va o'quv uslubiy ishlar;

Ikkinchiidan masofaviy ta'limda qo'llaniladigan axborot va telekommunikatsion texnologiyalar bilan tanishish, o'rganish va kerakli texnikaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan kompyuter va dasturiy majmuani yaratish;

Uchinchiidan masofaviy ta'lim uchun o'quv uslubiy materiallarni yaratish bo'yicha ishlar;

Tortinchiidan masofaviy ta'limda qo'llaniladigan o'quv materiallarini yaratish texnologiyasini o'rganish va uni joriy qilish bo'yicha ishlar.

Masofaviy ta'limning eng asosiy elementlaridan biri elektron darsliklar yaratish imkoniyatlari har bir o'qiyuvchi faoliyatining ajralmas qismi sifatida o'rin egallasa darslarning noan'anaviy tashkil etilishini ta'minlaydi. Shu asosda multimedia muhitida o'quv kurslarini yaratish uzoq davon etadigan va moliyaviy jihatdan yuqori turadigan jarayonni tanlash, rejalashtirish va amalga oshirish masalalariga katta ahamiyat berish kerak. Shuning uchun kompyuterdagi o'quv kursini yaratishning barcha bosqichlarini va ishlab chiqishning har bir bosqichidagi qabul qilinishi mumkin bo'lgan yechimlarni oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi bosqichlar zarur bo'ladi.

Dastlabki bosqich multimedia muhitida ko'rsatilishi kerak bo'lgan o'quv fani tanlanadi. Bunda ushbu fan bo'yicha oldindan tayyorlangan kurslarni ajratish, kurslarni yaratish uchun mo'ljallangan mablag' va vaqtni, shuningdek kurs o'qiladigan auditoriya va uning mo'ljallangan tirajini aniqlash zarur bo'ladi.

Tayyorlash bosqichida kurs matni yozish, ko'rgazmali va bildirgi materiallarni tayyorlash, eskizlar interfeysi va o'quv dasturining ssenarisi, shuningdek alohida bloklarning ssenriylarini ya'ni animatsion fragmentlar, videofragmentlar, kompyuterli modellashtirishni amalga oshiruvchi dasturlar, bilimlarni tekshirish bloklari va boshqalar mo'ljallanadi.

Asosiy bosqichda kursni bevosita yaratish bo'yicha ishlar bajariladi.

Yakunlovchi bosqichda kurs mavzularga bo'linadi, gipermatnlarga jo'natish tizimi shakllantiriladi. O'quv multimedia kurslari uchun xarakterli bo'lgan katta bosqichdagi axborotlarni faqat yaxshi ishlab chiqilgan interfeys va navigatsiya tizimlari orqali qamrab olish mumkindir.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, o'qitishning yangi shakllari va usullaridan samarali foydalanish, o'qitilayotgan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarning texnik ta'minlanganlik darajasini oshirish, yuqori malakali jahon ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun talabalarning bilimegallashdagi faolligini oshirish masalalari ustida jiddiy izlanishlar olib boorish maqsadga molikdir.

O'quv jarayonida texnika, o'qitish vositalarining qo'llanilishi, ayniqsa uning dars jarayonini yaxshilash va takomillashtirish maqsadida ishlatilishi o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Bu omillar o'qituvchi va talaba faoliyatini takomillashtiradi, o'quv jarayonini jadallashtiradi, talabaga yetkazilishi kerak bo'lgan voqea va hodisalarning chuqurroq o'rganilishida, ta'limdan ko'zlangan maqsadga tezroq yetishishda, shuningdek talabalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omildir.

Bo'lajak kasb ta'limi va texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarni qo'llash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita bo'lishi bilan birga, talabalarda ushbu texnika imkoniyatlari to'g'risidagi tushunchalarning tegishli masalalarni echish jarayonida hosil qilinishi bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. – T.: SHarq, 2002 y. – 176 b.
2. Olimov Q.T. “O'quv adabiyotlarini yaratish nazariyasi va metodikasi”. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. – T.: 2010 y. – 158 b.

3. Mirzahmedov B.M.Zamonaviy darslikka qo'yiladigan didaktik talablar. "O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – B .: 2006 y. – 148 b.

O'QUVCHILARNING FIZIKAGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jo'rayeva Jasmina Toshpo'lat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda o'quvchilar bilimini baholashning metodik tizimini takomillashtirish, o'qitish mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashda innovasion texnologiyalardan foydalanish. O'quvchilari uchun mo'ljallangan ta'lim saytlari, ularda berilgan o'quv materiallari mazmuni yoritilgan. Fizika fanini o'qitish jarayonida mobil dasturiy ilova "Physics school"dan foydalanish orqali ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilar bilimini baholashda foydalanish imkoniyatlari bayon qilinadi.

Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish va ularni tashkil qilishda qanday usullardan foydalanishdan qat'iy nazar bu darslarni yaxshi tashkil qilish va ularni samaradorligini oshirishga katta etibor berilmoqda. Bu maqsadlarga erishish uchun barcha darslarda interfaol ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan keng qo'llanilmoqda, darslarni tashkil etish va yangi ma'lumotlarni o'quvchilarga yaxshi yetkazib berishda o'qituvchining innovatsion va kreativ yondashuvini mobil dasturiy vositalar orqali qo'llanilishi muhim rol o'ynamoqda. Bular esa o'qituvchidan o'z ustida ko'proq ishlashni, o'quvchilar bilan ko'proq shug'ullanishni va innovatsion g'oyalardan samarali va o'z o'rnida foydalanishni talab qiladi.

Umumo'rta ta'limda fizika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion va interfaol ta'lim metodlarini mobil dasturiy vositalar orqali dars jarayonlarining tashkil etilishini ko'rib chiqamiz.

„ BBB “ metodi - Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim. Ushbu metod yordamida 8-sinf fizika darsida „ Turli muhitlarda elektr toki ” mavzusini qaraydigan bo'lsak:

Metoddan maqsad: O'quvchilarni bu mavzu to'g'risida oldindan biladigan, dars vaqtida o'rganmoqchi bo'lgan va barcha ma'lumotlarni o'rganganligini tekshirishda qo'llaniladigan metod.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: Daftar, ruchka, tarqatma materiallar, taqdimot.

Mashg'ulotni o'tish tartibi:

1. Doskaga yangi mavzu yoziladi va o'quvchilarga daftoriga "BILARDIM" deb yozib, yangi mavzu bo'yicha bilganlarini yozishlari taklif etiladi.

- Yozishlari uchun vaqt beriladi.
- Bu mavzu bo'yicha taqdimot o'tkaziladi.
- Taqdimot vaqtida o'quvchilar yangi mavzu bo'yicha barcha bilganlarini aytib beradilar.
- Taqdimot davomida yana bir qoida aytilgan fikrlarni guruhdagi boshqalar tomonidan qaytib takrorlamaslik qoidasiga qat'iy rioya qilinadi.

2. O'qituvchi o'quvchilarga daftoriga "BILMOQCHIMAN" deb va yangi mavzu bo'yicha nimalarni bilmoqchi bo'lganliklarini yozdiradi.

- Vaqt beriladi.
- Taqdimot o'tkaziladi.

3. Yangi mavzu bayonidan so'ng o'quvchilarga daftoriga "BILIB OLDIM" deb yozib qo'yib, yangi mavzu bo'yicha tushunganlarini yozishlari taklif etiladi.

- Yozishlari uchun vaqt beriladi.
- Berilgan vaqt o'tgandan so'ng taqdimot o'tkaziladi.
- Yangi mavzuni o'quvchilar qanchalik tushunganlarini bilib olish mumkin.

Bugungi mobil vositalar pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbasiga aylanmoqda. Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri bo'lib sanaladi. Ta'lim jarayoniga mobil ilovalarni tadbqiq etish orqali ta'lim sifati oshishiga turtki bo'ladi.

Mobil ilovada mavzuga oid maruza matni joylanadi. Mavzuga e'tibor qaratadigan bo'lsak asosan talaba mexanik harakat, harakatning nisbiyligi, sanoq jism, sanoq sistema tushunchalari haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Bunda mexanik harakat tushunchasini o'quvchiga turli harakatli animatsion tasvirlar orqali mavzu yoritilganda o'quvchi og'zaki tushuntirilganga nisbatan ko'proq va tezroq tushunishini ko'rishimiz mumkin yoki, harakatning nisbiyligi ham xuddi shunday. Harakatning nisbiyligi bu juda keng qamrovli tushuncha buni ham turli animatsion tasvirlar orqali tushuntirish ham ancha samara beradi. Sanoq jism va sanoq sistema tushunchalarini ham turli grafiklar, suratlar orqali tushuntirish talabaning fikrlar qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni bajarishda o'quvchilar tartibni saqlagan holda bir-birini tinglash qoidasiga rioya qiladilar.

Yuqorida keltirilgan metod yordamida o'quvchilarni bilish faoliyatini shakllantirish, ularni fanga qiziqtirish va barcha bilan birdek shug'ullanish ta'lim samaradorligini oshirishga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В.С. Кукушин Дидактика (теория обучения) - Москва - Ростов- на- Дону, 2003
2. I.G. Tursunov, U.A .Eshniyozov, S.A. Durdiyeva. "Turli muhitlarda elektr toki" mavzusini o'qitishdagi innovatsiyalar. Academic Research in Educational Sciences, v.2, issue.2, pp.513-523, 2021.
3. I.G. Tursunov, U.A .Eshniyozov. Elektrotexnika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Academic Research in Educational Sciences, v.2, issue.4, pp.1030-1040, 2021

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Amanova Gulnoz Abdukayumovna

Oliy ta'limni rivojlantirish markazi doktoranti

Annotatsiya. Talabalarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish shaxsning ijtimoiy intellektual rivojlantirish uchun asosdir. Oliy ta'limda har bir talabaning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishga va rivojlantirishga ta'sir etuvchi samarali ta'lim texnologiyalarini aniqlash zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Maqolada pedagogika universiteti talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyati kontekstida kognitiv kompetensiyani rivojlantirish muammosi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv kompetensiya, tanqidiy fikrlash, ta'lim texnologiyalari.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirib, oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati hamda raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim tizimining sifat darajasini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimiga pedagogik loyihalashtirish jarayonini keng tatbiq etish orqali ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali metodlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'limdagi islohotlar kelajakda katta samaralar berishini rivojlangan mamlakatlar tajribasi yaqqol isbotlab turibdi. Bugun mamlakatimizda aynan ta'lim sohasiga yangicha boshqaruv tizimlarini joriy etish, ta'lim jarayonini tashkil etish darajasini jahon tajr sifatini oshirish va kelajak mutaxassislarining mustaqilligi va mas'uliyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir.

Kredit-modul tizimining asosiy mazmuni:

- 1) Talabaga yo'naltirgan ta'limni tashkil etish (student-centered education);
- 2) Ta'limda shaffoflikka erishish (transparent education);
- 3) Ta'limda moslashuvchanlikni kuchaytirishi (improving flexibility);
- 4) Talabalar mobilligini kuchaytirish (improving student mobility) kabi tamoyillariga asoslanadi.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting ball asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Kredit-modul tizimida ta'lim oluvchilar o'quv rejasida ko'rsatilgan fanlar (modullar) bo'yicha o'qish natijalariga (kreditlarga) erishish uchun ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bajarishlari kerak bo'ladi. Kredit-modul tizimida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40 % ga 60 % ekanligi, ya'ni talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har bir soat dars uchun unga darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi uchun vaqt zarur bo'ladi [1].

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va kompetnsiyalarni rivojlantirishdan iboratdir.

Kredit-modulli tizimning tuzilishi muayyan munosabatlar va o'zaro ta'sirlar to'plamini aks ettiradi, buning natijasida tizimga xos bo'lgan va uning alohida tarkibiy qismlarida mavjud bo'lmagan yangi yaxlit xususiyatlar paydo bo'ladi (o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan va faqat tizimlarga xos bo'lgan emerjent xususiyatlari). Emerjent – inglizcha «Emergent» so'zidan olingan bo'lib, qo'qqisdan, kutilmaganda, birdan paydo bo'lish manosi beradi.

Demak, kredit-modul o'qitish tizimi har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan, hamda modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetnsiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi. Kredit-modul tizimida talabani mustaqil ta'lim olish, bilim olishning

ijodiy yo‘llarini mustaqil izlash, pedagogni esa kreativ yondashuv bilan raqamli texnologiyalar asosida bilim berish kabi talabalarning kompetensiyalari rivojlantirilsa ta’limda sifat paydo bo‘ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”.

2. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jaraènini kredit modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: —Tafakkurl nashrièti, 2020 y. 120 bet

3. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: «Fan va texnologiyalar», 2013. 8 b.

4. Батышев, С.Я. Профессиональная педагогика: учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. /под ред. С.Я. Батышева, А.М. Новикова. Издание 3-е, переработанное. М.: Изво ЭГБЕС, 2009. 455 с.

IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYALAR VA ULARNING SHAXS

MA’NAVIY KAMOLOTIDAGI O‘RNI

Otaqulov Alisher Safaraliyevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan samarali foydalanish uchun ta’lim jarayoni ishtirokchilari – o‘qituvchilar hamda yosh avlod hayoti va faoliyatida qanday asosiy (universal) va malakali (maxsus) shaxsiy fazilatlarni talab qilishini aniq belgilashlari kerak. Ushbu muammoni hal qilish o‘qituvchilarning o‘z faoliyati uchun indikativ asosni shakllantirish qobiliyatini nazarda tutadi. Bu tarbiyaviy ishlar, uning predmeti, maqsadi, vositalari va natijalari tavsifi haqidagi ma’lumotlar majmuasidir. O‘qituvchi bolalarda keyingi hayotida unga foydali bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishi va rivojlantirishi kerak.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv yoshlarning bir-biridan ajratilgan ko‘nikmalarni egallashini emas, balki ularning kompleksini o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu qoidaga muvofiq ta’lim va tarbiya metodlari tizimi shakllantirilmoqda. Ularni loyihalash va tanlash jarayoni kompetensiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari va ta’lim vazifalariga asoslanadi.

Ayni paytda ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar ham yoshlarning bilimli bo‘lishi bilan birga ijtimoiy faolligini ta’minlashga ham qaratilgandir. Zamonaviy pedagogik tizimni modernizatsiya qilish konsepsiyasini

amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari bir qator muammolarni hal etishi zarur. Ulardan biri ta'lim jarayoni sifatini belgilovchi kompetensiyalarni shakllantirishdair.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tahlili asosida eamiyat a'zolarining ijtimoiy kompetensiyalar tarkibiga kiruvchi quyidagi komponentlarni sanab o'tish mumkin: tolerantlik; empatiya; mehr-oqibatlilik; mustaqillik; tezkorlik; ijodkorlik.

Zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar subyektlarning shaxsiy fazilatlariga yangi talablarni belgilaydi. Shaxsni tarbiyalash, unga asosiy ijtimoiy kompetensiyalarni kiritish juda erta yoshdan boshlab amalga oshiriladi. Tarbiyaning muhim sharti oilada, tengdoshlar orasida qulay psixologik muhitdir. Hissiy daraja maktabgacha ta'lim muassasasidagi, maktabdagi munosabatlarni aks ettiradi.

Bolalarda ijtimoiy kompetensiyalar kattalar nazorati ostida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Yosh avlodda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi::

O'qituvchi yoki ota-onalar bolaning ongining shaxsiy elementlari bilan ishlashga, uning mas'uliyatli tanlov qilish, fikrlash, o'z-o'zini tashkil qilish va ijodkorlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash uchun o'zlarini qayta yo'naltirishlari lozim.

O'quvchilarning dam olish va bo'sh vaqtlarini tashkil etish dasturlari ijtimoiy va hissiy komponentlar bilan to'ldirilishi lozim.

Ta'limda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak.

Psixologik tarbiya, tuzatish va rivojlantirish ishlari, maslahatlar olib borilishi lozim.

Agar kundalik hayotda qandaydir xulq-atvor modeli muvaffaqiyatli, deb tan olinsa, mehnat faoliyatida uni qo'llash turli mezonlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun har xil turdagi kompetensiyalarni (jumladan, ijtimoiy va kasbiy) rivojlantirish muhimdir.

Yoshlarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida quyidagi pedagogik shartlarga amal qilish lozim bo'ladi:

- bo'sh vaqt dasturlari uchun turli xil variantlarni amalga oshirishga asoslangan salbiy ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda tashkil etilgan maxsus yaratilgan ijtimoiy-pedagogik yordam tizimining mavjud bo'lishi;
- muvaffaqiyatli xatti-harakatlar natijalari uchun bolalarning hayot va faoliyatning turli sohalarida tajriba o'tkazish qobiliyatining shakllanganligi;
- izchil pedagogik ta'sirning amalga oshirilishi;
- hissiy o'zini o'zi boshqarish uchun asoslarni shakllantirish, hozirgi sharoitda o'z tajribalari va his-tuyg'ularining anglanganligi;
- atrofdagi odamlarning xulq-atvor xususiyatlarini bilish;

- muayyan subyektlar bilan muloqot qilish (maqsadli muloqot), yordam taklif qilish, suhbatdoshlar e'tiborini jalb qilish, ularga qiziqish ko'rsatish, aloqa o'rnatish, atrof-muhitni kezish, fikrlarni muhokama qilish, nizolarni hal qilish va oldini olish, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi sifatlarga ega bo'lish;

- ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyaning mavjudligi va o'zaro muvofiqligi;

- turli odamlar bilan konstruktiv munosabatda bo'lish, muloqotni davom ettirish, empatiya qilish, suhbatdoshning nuqtai nazarini tushunish va qabul qilish, muloqot sherigining psixologik holatini aniqlash, muloqot sharoitlarini baholash va ularga muvofiq nutqni qurish qobiliyatining mavjudligi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, yoshlarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga doir pedagogik jarayon sifatini oshirish ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, ularning jamiyatda tutgan mavqei va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimining ta'siriga bog'liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Hozirgi global innovasion rivojlanish davrida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish va sohalarni raqamlashtirish zarurati yuzaga kelayotgani sir emas. Mamlakatimizda muhandis injenerlar soni yetarlicha, ammo sifati haqida unday deya olmaymiz. Ayni paytda sifatli muhandis injenerlarni ko'paytirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Chunki kreativ yondashuvchi innovator muhandis injenerlar sanoat tarmoqlaridagi mavjud muammolarga yechim taklif etishi lozim. Kelajakda o'qitish ishlab chiqarishning ajralmas qismiga aylanadi, deb taxmin qilinmoqda. Bundan tashqari, ish joyidagi o'quvchilar nafaqat ta'lim xizmatlarining iste'molchilari, balki ularni ishlab chiqaruvchilar va drayverlar bo'ladi.

Elektr energetika ta'limi sifatini oshirish zamonaviy o'qitish dasturlarini immitasiya qila oladigan yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, interfaol shakllarni rivojlantirish, loyihaviy usullar va vositalardan keng foydalanish yo'li bilan ta'minlanishi mumkin. Bugun ta'lim infrastrukturasiida elektr energetika ta'limi sohasida yuqori darajali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydigan, bunda oliy ta'limning davlat ta'lim standartini tayyorlash muhim ahamiyatga ega. U asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalari va o'quv dasturlarining bajarilishi, bilim sifati nazoratiga bo'lgan talablarni belgilaydi.

Ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassis kadrlarning kompetentligini shakllantirish, rivojlantirish va tashxislash hamda pedagogik texnologiyalar yordamida ta'lim mazmunini takomillashtirishni tadqiq qilish masalalari bo'yicha Respublikamiz olimlaridan N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismoilova, Sh.S.Sharipov, Q.T.Olimov, O.A.Qo'ysinov, N.N.Karimova, Yo.R.Najmiddinova, R.X.Fayzullayev, K.T.Umataliyeva, A.R.Jo'rayevlar mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar. Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveysariya, Germaniya, Malaziya, Kanadaning mutaxassislar tayyorlash bilan bog'liq tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'limning asosiy vazifasi talabalarda tanlangan mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo'lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish,

kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi belgilanadi. Keltirilib o'tilgan mazkur vazifalar injener mutaxassis chiqaruvchi oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yadigan masalalardan eng muhimi ya'ni bo'lajak muhandislarni tayyorlash jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Bunda:

- mehnat bozori talablari hamda ilm-fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyotning eng so'nggi yutuqlari asosida uzviy ravishda takomillashtirilib turiladigan kasbiy ta'lim dasturlarini yaratish;

- uzluksiz ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish orasidagi o'zaro mustahkam integratsiyani yo'lga qo'yish;

- ta'lim muassasalarini zamonaviy moddiy-texnik baza va o'quv-uslubiy va elektron darsliklar bilan ta'minlash;

- oliy ta'lim tizimiga yuqori malakali o'qituvchi, metodist va muhandis-pedagoglarni jalb etish;

- bo'lajak o'qituvchilarning bilish faolligi, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularda faol kasbiy motivatsiyani qaror toptirish;

- muhandis-pedagog chiqaruvchi oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi shartnoma asosidagi ishlab chiqarish amaliyotlarini joriy etilmaganligi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, yangi texnologiyalar bilan boyitish, mazkur jarayonda muhandis-pedagoglarning o'rni, uning pedagogik faoliyatini chuqur o'rganish muhim vazifalardandir. Zamonaviy ta'lim nazariyasi ko'plab rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasida erishgan yutuqlarini mujassamlashtirgan bo'lib, ular o'zining maqsad, vazifalari, mazmuni, milliy xususiyatlari hamda sifat ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farqlanadi. Zero, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan jarayonlar bo'lajak muhandis energetiklarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'ziga xoslikni ko'rsatadi

O'zbekistonda 2020-yil 20-noyabr kuni soat 15:48 da «**To'raqo'rg'on IES**»da quvvati 610 MVt bilan ishlab turgan (o'rnatilgan quvvati 900 MVt) ikkita: 1- va 2-sonli bug'-gaz qurilmalari favqulodda o'chish sodir bo'ldi. Bu holat, o'z navbatida, Markaziy Osiyo elektr energetika umumtizimining ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, Qozog'iston va Qirg'iziston tizimlaridan bir qancha iste'molchilar tarmoqdan uzilishiga sabab bo'ldi. Markaziy Osiyo elektr energetika umumtizimining Rossiya Federatsiyasi energetika tizimidan bir muddat ajralishiga ta'sir ko'rsatdi. Markaziy dispetcherlik markazi mutaxassislari tomonidan belgilangan xavfsizlik tezkor choralari qo'llanilib, qo'shni mamlakatdagi quvvat oqimlarini oshirish evaziga yuqorida sanab o'tilgan nosozliklarga o'xshash yirik avariyaning oldi olindi va bu bilan O'zbekiston elektr energetika tarmog'ining qimmatbaho jihoz va uskunalari keyingi barqaror faoliyati uchun saqlab qolindi.

Yuqorida sanab o‘tilgan masalalar O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan va muhtaram Prezidentimizning tegishli qarorlari bilan belgilab berilgan energetika tizimi uchun istiqbolli vazifalardir. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo‘yicha bir nechta investitsion loyihalarga start berilgan. O‘zbekistonda mavjud gidroinshootlar faoliyatidan tashqari quyosh panellari va shamol generatorlaridan foydalanuvchi «yashil energiya»ning ilk loyihalari 2021-yilning oxiri va 2022-yilning boshlarida foydalanishga topshirildi. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining salmog‘i mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi umumhajmining 25%dan kam bo‘lmasligi hukumat qarorlarida strategik vazifa sifatida belgilab berilgan.

Bunday strategik qarorlar kelgusida mutaxassis kadrlarni sifatli ta’lim olishlari va yetarli bilim ko‘nikmalarini shakllantirishda juda yuqori ahamiyat kasb etadi. Buning uchun birinchidan elektr energetika sohasiga oid ta’lim yo‘nalishlarining dasturlarini mazmunan optimallashtirish orqali zamonaviy ishlab chiqarilayotgan elektr jihozlarni kiritish asosida takomillashtirish. Mutaxassislikka oid fanlarini interfaol metodlar va maxsus texnik vositalardan foydalangan holda o‘tkazish bo‘lajak muhandis kadrlar salohiyatini oshirishga zamin bo‘ladi. [121; 139-b. 115; 134-b.].

Energetika vazirligiga 2023-yil 1-sentabrga qadar yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha loyihalar doirasida budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xalqaro va mahalliy loyiha-qidiruv institutlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzgan holda qurilish maydonlarida o‘rganishlar o‘tkazishga ruxsat berilgan.Strategik islohotlar agentligi, investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan birgalikda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va elektr energiyasi tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalar uchun 2023-yil 1-iyulga qadar xalqaro moliyaviy tashkilotlardan qo‘shimcha 2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag‘larni jalb qilish bo‘yicha kelishuvlar imzolanishini ta’minlash belgilangan. [70; 118-b.].

Iqtisodiyotning energiya resurslari bilan ikkita vazifani hal etish orqali ta’minlanishi nazarda tutilmoqda. Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan keng foydalanish orqali yoqilg‘i balansini diversifikatsiyalash. Bunda an’anaviy yoqilg‘i turlarini qayta tiklanadigan energiya turlariga almashtirish hisobiga ularning elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishdagi hissasini kamaytirish nazarda tutilmoqda. Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishning energiya sig‘imini qisqartirishning uzoq muddatli dasturini amalga oshirish, sanoat faoliyati hududlarining ekologik holatini yaxshilash orqali erishiladi. [160; 44-b.].

Keyingi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sish dinamikasi barqarorlashdi. Ushbu tendensiya aholi turmush darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Boshqa

tomondan bu ikki omil elektr energiyasi iste'molining muttasil ravishda ortishiga sabab bo'lyapti. Iqtisodiyot rivoji, jamiyat taraqqiyoti bevosita energetika bilan chambarchas bog'liq ekan, bu sohaga katta e'tibor qaratgan davlat borki, jadal taraqqiyotga erishgan.

Bugun aholiga elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'moli uchun o'rtacha 14 trillion so'mdan ortiq subsidiyalar ajratilmoqda. Bu bir yilda o'rtacha 1,15 milliard AQSH dollari aholining energetik ehtiyojini subsidiyalash uchun sarflanyapti, degani. Sohaning zarar bilan ishlayotgani hisobiga uni davlat budjetidan subsidiyalash kamomadga olib kelmoqda. Bu esa ijtimoiy sohaga ko'proq mablag' yo'naltirishga imkon bermayapti. Natijada aslida tizimni yangilashga yo'naltirish mumkin bo'lgan mablag'lar faqatgina paydo bo'lgan ushbu tafovutni qoplashga sarflanmoqda. Mamlakatimiz energiya resurslarini aholiga o'z tannarxidan ham arzonroq darajada yetkazib berish uchun trillionlab subsidiyalar ajratadi va bu bilan dunyo miqyosida energetikaga eng ko'p subsidiya ajratadigan davlatlar qatorida turadi. Biroq sun'iy ushlab turilgan past narxlar sohaga xususiy investitsiyalarning kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Demak, narxlarni to'liq subsidiyalash o'rniga sohaga bozor tamoyillarini joriy etish, iste'mol qilingan energiya uchun bozor talablaridan kelib chiqib haq to'lanishi muhimdir.

Agar sohaga bozor qonunlari joriy qilinsa, ertaga bu mablag'lar tejaladi. Natijada tejalgan mablag'ni ijtimoiy sohani rivojlantirishga, yangi maktablar, tibbiyot muassasalarini qurishga, har bir sohada ishlab chiqarishni taraqqiy ettirish uchun zamonaviy texnologiyalarni olib kirishga, qolaversa, energetika tizimini chuqur modernizatsiya qilishga sarflash mumkin. Sirasini aytganda, bugungi kunda yurtimiz energetika sektorini isloh qilish jarayonida xalqaro moliya institutlari islohotlarni rejalashtirish va amalga oshirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va obro'li xalqaro ekspertlarni jalb qilish ishlariga salmoqli hissa qo'shmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Unga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyoji uchun yetkazib beriladigan elektr energiya miqdori 120 milliard kVtga yetkaziladi. Barcha turdagi energiya resurslari hisobini yuritish to'liq raqamlashtiriladi. Bu o'z navbatida, ayni chog'da yuzaga kelayotgan mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga zamin yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohalaridagi ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, bo'lajak muhandis kadrlarga kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish

tizimida o'quv modulining o'qitilayotganligi pedagog kadrlarni zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari, ta'lim amaliyotida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifatlari va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko'nikmalarini hosil qilish uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, oliy ta'lim tizimiga kreativ kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmun jihatidan o'zgartirish nazarda tutiladi. Ma'ruza darslarini muammoli ta'lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg'ulotlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947- son Farmoni. 2017 yil 7 fevral.

2. O'qituvchilarning pedagogik mahorati tajribasida ta'lim metodlarini samaradorligini oshirish yo'llari. Qarshi 2022 A.A.Jumayev, D.P.Mirzoyev, I.N.Karimov.

3. Креативное обучение в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров высших образовательных учреждений. Qarshi 2022 A.A.Jumayev, B.B.Amrullayev .

4. Kreativlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asosi omili sifatida. Qarshi 2022 A.A.Jumayev, .N.Karimov.

5. Elektrotexnikaning nazariy asoslari fani darslarida kreativ texnologiyalaridan foydalanish. A.A.Jumayev. Science and Innovation 2022 Internatoonal scientific journal. ISSN: 2181-33-37413

6. Methodology of teaching specialty subjects using elements of distance learning.

Mirzoyev Dilshod Po'otovich, Shaxboz Xusanov Shuxrat o'g'li, Shodiyeva Farida Anvarovna. "Development issues of innovative economy in the agricultural sector" International scientific-practical conference on March 25-26, 2021. Web: <http://conference.sbtsue.uz/uz>

7. Жумаев, А. А., Иноятлов, М. Б., Одинаев, С., Садриев, Ж. Ж., & Рузибоев, М. М. (2014) ИЗУЧЕНИЕ ТЕХНИКИ РЕМОНТА ПОВРЕЖДЕНИЙ В АСИНХРОННОМ ДВИГАТЕЛЕ. *The Way of Science*, 22.

8. Махмудова, М. М., & Жумаев, А. А. (2019). FILM ALS WERKZEUG FÜR DEN UNTERRICHT VON DEUTSCH ALS FREMDSPRACHE. In *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы*

MASOFAVIY TA'LIMDA O'QITUVCHINING KOMPETENTSIYASI

Atamuradov Jamshid Jalilovich

BuxDU doktoranti

j.j.atamuradov@buxdu.zu

Masofaviy ta'lim - bu kompyuter tizimlari va texnologiyalardan foydalangan holda ta'limning zamonaviy usulidir. Ko'pgina tashkilotlar undan allaqachon foydalanmoqda, boshqalari esa hali ham ikkilanib, undan foydalanish o'z samarasini beradimi yoki yo'qmi degan qarorga kelishmoqda.

Aslida, bu tanish o'z-o'zini o'qitish kitobining yanada rivojlangan versiyasidir. Talaba mavzuni o'rganadi, so'ngra test topshiradi, agar bilim sinovi natijasi ijobiy bo'lsa, talaba yangi mavzuni o'rganishga o'tadi, agar yo'q bo'lsa, avtomatlashtirilgan o'quv tizimi qo'shimcha adabiyotlarni o'qish va boshqa dars o'tishni taklif qiladi. Axborot turli yo'llar bilan taqdim etiladi: video va audio materiallar, rasmlar va animatsiyalardan foydalaniladi. Hech bir qog'oz darslik bunday multimedia imkoniyatlarini taqdim etmaydi.

Masofaviy ta'limni tashkil etish nafaqat tayyorgarlik darajasiga, ta'lim muassasasining turiga, o'qitish modeliga bog'liq, balki u qo'llaniladigan texnologik bazaga qarab o'zgaradi.

Masofaviy ta'limning har qanday turining samaradorligi to'rt qismdan iborat:

- ❖ geografik masofadan qat'i nazar, o'qituvchi va tinglovchining samarali faoliyati;
- ❖ pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- ❖ tayyorlangan o'quv materiallarining samaradorligi va ularni uzatish usullari;
- ❖ teskari aloqaning samaradorligi.

Bundan tashqari masofaviy ta'lim samaradorligi ta'lim sifati tushunchasiga mutanosib bo'lishi kerak va yo'nalishda fan o'qituvchisining ya'ni pedagogning kasbiy kompetentsiyasi asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Kompetensiya deganda pedagogik faoliyatni olib borish uchun yaxshi malakaga ega bo'lish holati tushuniladi. Pedagog biror narsa qilishga qodir bo'lsa, u muassasa amaliyot jamoasi tomonidan tan olinadigan va tekshirilishi mumkin bo'lgan malaka holatiga erishgan bo'lishi lozim.[1]

Zamonaviy masofaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'qituvchilarning AKT kompetentsiyasini rivojlantirishdir. Ta'lim jarayoniga raqamli ta'lim texnologiyalari faol joriy etilayotganiga qaramay, maktablarda maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatini raqamli ta'lim muhitida tashkil etish malakasiga ega o'qituvchilar yetishmayapti.

O'qituvchining AKT kompetentsiyasi - bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatida aniq ta'lim maqsadlarini, ta'lim muassasasining raqamli ta'lim muhitining xususiyatlarini va o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mustaqil va mas'uliyatli foydalanishga tayyorligi va qobiliyati tushuniladi. O'qituvchining bu qobiliyatlari uning kasbiy va shaxsiy xususiyatlariga bevosita bog'liqdir.

Olimlarning fikriga ko'ra o'qituvchining AKT kompetentsiyasini shakllantirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- internet texnologiyalaridan foydalangan holda uzluksiz mustaqil ta'lim va malaka oshirish, vebinar va mahorat darslarida qatnashish;
- maktabni uslubiy ta'minlash tizimi bilan ta'minlash;
- kasbiy mahorat tanlovlarida, metodik ishlanma tanlovlarida, fan va AKT kompetentsiyasi testlarida qatnashish;
- o'quvchilar va ularning ota-onalari, hamkasblari va boshqalar bilan axborot almashish uchun veb-sayt yoki blog yaratish;
- bulutli texnologiyalarni o'zlashtirish, fan va tanlov kurslarini yaratish va ulardan foydalanish yoki Internet xizmatlari orqali ish materiallariga kirishni ta'minlash;

Masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda quyidagi omillar alohida ahamiyatga ega:

1. Kursning maqsadi va vazifalariga ko'ra, til materialini tanlash va tartibga solish kerak (u faqat haqiqiy material bo'lishi kerak).

2. Kursning tuzilishi, uning uslubiy va texnologik tashkil etilishi (gipermatnli materiallar, veb-sahifalar).

3. Guruh ishini aniq rejalashtirish (mini-guruhlar, konferentsiyalar, shu jumladan, iloji bo'lsa, audio va video konferentsiyalarni tashkil qilish, shaxsiy va guruhli tizimli ma'lumotlar taqdimotlari).

4. O'qituvchi va server rahbari bilan tizim maslahatlarini tashkil qilish.

5. Umuman olganda, butunlay guruhda yoki individual ravishda, har bir o'qituvchi ijobiy hissiy niyatlarni va qo'llab-quvvatlash kompetensiyalarini qayd etishi kerak.

Manbaga ko'ra, masofaviy ta'lim o'qituvchilari mustaqil ta'lim orqali oshirishlari kerak bo'lgan to'rtta asosiy kompetensiyalar quyidagicha ko'rinishda bo'lishi kerak [5]:

✓ O'qituvchilar rivojlangan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak ko'nikmalar, ayniqsa yozma muloqotda. Ko'pgina dasturlarda o'qituvchilar va talabalar birinchi navbatda elektron pochta, chat xabarlar va boshqa matnlar orqali muloqot qilishadi; shuning uchun o'qituvchilar "o'z yozuvlarining ohangini tan olishlari va so'zlarning nozikligiga e'tibor berishlari" kerak.

✓ Asinxron dasturlarda vaqtni boshqarish ko'nikmalari o'qituvchilar (va talabalar) uchun juda muhim, chunki ular istalgan vaqtda onlayn bo'lishi mumkin.

✓ Sinxron dasturlarda o'qituvchilarning ish jadvalini tuzish qiyin, chunki ma'ruzalar multimedia komponentiga ega bo'lishi kerak, bu an'anaviy sinflarga xos bo'lganidan ancha ko'proq rejalashtirishni talab qiladi.

✓ Agar o'qituvchilarda imkoniyati cheklangan talabalar bo'lsa, ular ushbu talabalarning ehtiyojlarini qondirish uchun dars mazmuni va ko'rsatmalarini qanday moslashtirishni bilishlari kerak. Ko'zi ojiz, eshitish qobiliyati past yoki nogiron o'qituvchilarni onlayn tarzda o'rganish sinfdagidan juda farq qilishi mumkin.

Masofaviy ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish o'qituvchilarni tayyorlash va (ba'zi hollarda) o'qituvchilarni sertifikatlashda tegishli o'zgarishlarga olib kelishi kerak. Axborot texnologiyalarining doimiy o'zgarishi o'qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishni uzluksiz jarayonga aylantiradi va doimiy kasbiy tayyorgarlik va ta'limni talab qiladi. Bunday sa'y-harakatlar o'qitish va o'qitishda texnologiyadan samarali foydalanish qobiliyatini oshiradi. Shunday qilib, zamonaviy o'qituvchining AKT kompetensiyasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo'lib, uni hal qilish o'qituvchining uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalashi, kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жулин А. Г., Спирина Е. В. Компетенции учителя при дистанционном обучении // Гуманитарные и естественнонаучные исследования как фактор научно-технического прогресса : сборник научных трудов по материалам Международной научно-практической конференции 14 июня 2022г. : Белгород : ООО Агентство перспективных научных исследований (АПНИ), 2022. С. 54-56. URL: <https://apni.ru/article/4169-kompetentsii-uchitelya-pri-distantsionnom-obu>

2. Вершинина Г.М. Использование возможностей цифровой школы в формировании ИКТ компетентностей всех участников образовательного процесса // Цифровая образовательная среда: новые компетенции педагога: сб. материалов участников конф. – СПб.: Международные образовательные проекты, 2019. С. 28–33 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://xtern.ru/sites/default/files/wysiwyg/user19009/sbornik_cos_2018.pdf

3. Атамурадов Жамшид Жалилович Роль преподавателя в проектировании этапов построения дистанционного обучения // Academy. 2020.

№10 (61). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-prepodavatelya-v-proektirovanii-etapov-postroeniya-distantcionnogo-obucheniya>.

4. Myyry L., Kallunki V., Katajavuori N., Repo S., Tuononen T., Anttila H., Kinnunen P., Haarala-Muhonen A., Pyörälä E. COVID-19 Accelerating Academic Teachers' Digital Competence in Distance Teaching. Электронный пeцypc. URL: <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/feduc.2022.770094/full>

5. Crozier J. Introducing Teacher Advisor with Watson: By Teachers, For Teachers. URL: <https://www.ibm.com/blogs/think/2017/09/watson-teacher/>

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Muhammadiyev E.T., erkin tadqiqotchi

TMTI, e.muhammadiyev.1992@mail.ru

Turayev X.A., p.f.f.d. (PhD), dotsent (ilmiy rahbar)

TerDU, drawing_master.th@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativlik, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, talabalarning innovatsion faoliyati, interfaol ta'lim, innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: talabalar, kreativlik, qobiliyat, interfaol metodlar innovatsiya, ta'lim.

Kreativlik termini angliya -amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:


- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;
- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

Talabalarning innovatsion faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. "Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing, "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta'lim berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati; ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar talaba egallayotgan bilimlarni o'zi qidirib topish, mustaqil o'rganib, tahlil qilish, xulosalarni ham o'zi keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'rganuvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish ularning o'z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi [1; 7-b.].

Interfaol metodlarning mohiyati o'qitish jarayonida talaba faolligini oshirish, talabani pedagogik faoliyatning markaziy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Talabalarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi.



Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari - o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi - talaba - talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi [2; 24-b.].

Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillarni aniqlash. O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish,

mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topdik:

- talabalarda ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;
- keyslar bilan ishlash;
- guruhli ish shakllari va debatlarini tashkil etish;
- o'quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kichik guruhlarda ishlash.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi [3; 321-b.].

Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi [4; 91-b.]. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;
- talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish;

- o'quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash [5; 64-b.].

Demak, kreativlik - shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi hamda ularda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish jarayoni o'zining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullariga ega bo'lishi shart.

Ta'lim muassasalari talabalarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek ta'lim oluvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O., "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi". -T.: «Fan va texnologiya», 2010.

2. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU, 2005 y.

3. Abdiraxmonov S. N., Turayev X. A. THE ROLE OF GEOMETRICAL CONSTRUCTION ELEMENTS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS CREATIVE ABILITIES //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 320-324.

4. Sattarov S. Y., Turayev X. A. METHODS OF CONSTRUCTING SURFACES ON THE BASIS OF GEOMETRICAL CONDITIONS USING AUTOCAD GRAPHICS SOFTWARE //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 89-93.

5. Khumoyiddin T. IMPROVING THE DEVELOPMENT MODEL OF PROJECT COMPETENCE OF FUTURE DRAWING TEACHERS //Universum: технические науки. – 2022. – №. 2-6 (95). – C. 62-65.

MURABBIYLIK VA TRENERLIK KASBIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH O‘RNI VA AHAMIYATI

Shaxboz Tilavov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchisi

E-mail: tilavovshaxboz395@gmail.com

Murabbiylik hamda trenerlik kasbining mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar – beqiyos. Bugungi kunda respublikamizda saksondan ortiq sport federatsiyalari va ellik mingdan ortiq sport inshootlari faoliyat ko‘rsatayotganligi va boshqa islohotlarning amalga oshirilayotganligi fikrimizga dalil bo‘ladi.

Sport turlari bo‘yicha iqtidorli bolalarni tanlash va saralab olish, ular bilan o‘quv-sport mashg‘ulotlarini va tarbiyaviy ishlarni olib borish, sportchi-o‘quvchilarning sport mahoratini oshirib borish, sportchi-larning jismoniy, nazariy texnik, ma‘naviy-irodoviy va sport tayyorgarligini o‘sib borishini ta‘minlash, sport mashg‘ulotlari jarayonida ularning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash ishlarini olib borish, sportchilarning xar xil doping vositalarini iste‘mol qilish holatlarining oldini olgan holda sport mashg‘ulotlari jarayonining xavfsizligini ta‘minlash, sportchi-o‘quvchilarning sport tayyorgarligi bo‘yicha yillik va kundalik rejalarini ishlab chiqish, tizimli hisobga olish, tahlil va ish faoliyatini natijalarini umumlashtirish. Bundan tashqari, mutaxassis o‘zining ish faoliyatini yuritishda sportchilarni sog‘lomlashtirish va sport tayyorgarligini amalga oshirishning samarali uslublaridan foydalanadi, hisobga olish va hisobot hujjatlarini yuritadi, sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoalariga zahiralar va yuqori malakali sportchilarni tayyorlashni tashkil etadi, sport natijalarining o‘sib borishi va tiklanish tadbirlarini amalga oshiradi.

Bilishi lozim: O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunlarni va inson huquqlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini, sportni rivojlantirish yo‘nalishlarini va istiqbolini belgilovchi qarorlari, farmoyishlarini, xalqaro musobaqalarni o‘tkazish reglamenti, qoidalari va nizomlarini, sport turlari bo‘yicha xalqaro federatsiyalar tomonidan belgilangan huquqiy-me‘yoriy talablarni, sport mashg‘ulotining nazariy va uslubiy asoslari hamda musobaqalar faoliyatini, pedagogika, fiziologiya, sport tibbiyoti va gigienasi fanlarini, doping-nazoratini o‘tkazish qoidalari va tartibini, mehnatni muhofaza qilish, texnik va yong‘inga qarshi xavfsizligi, shug‘ullanuvchilarning sport mashg‘ulotlari va jismoniy tayyorgarligi, o‘qitish va tarbiya uslublarini, sanitariya-gigiena talablarini, sport fanidagi yuqori malakali sportchilarni tayyorlash uslublarini, xorijiy tillardan birining boshlang‘ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni.

Sport turlari bo'yicha trener – o'qituvchi, trener - konstruktor. O'rta maxsus (milliy sport turlari bo'yicha trener, olimpiada sport turlari bo'yicha trener, ommaviy sport turlari bo'yicha trener, maktabdan tashqari muassasalarda konstruktor, ommaviy sport ishlari tashkilotchisi, sport hakami) – olimpiya zahiralari kollejlari. [2]

Trener yaxshi jismoniy tayyorgarlik, chaqqonlik, epchillik, tashkilotchilik, kelishuvchanlik, pedagogik va psixologik xususiyatlar, talabchanlik, xolislik, odillik, tez va to'g'ri qaror qabul qila olish, ziyraklik xususiyatlari hamda mustahkam iroda hosibi bo'lishlik talab etadi.

Sport majmualarida, sportga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari, sport klublari, fitnes klublarida – milliy, olimpiada va ommaviy sport turlari bo'yicha trener-o'qituvchi, trener-konstruktor, ommaviy sport ishlari tashkilotchisi, sport hakamligi faoliyatlari;

Yoshlar siyosati va sport vazirligi boshqarmalari, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armalarida – mutaxassis va rahbarlik faoliyati;

Sport federatsiyalari, xalqaro sport federatsiyalari, olimpiya sport qo'mitasida – hakamlik va xalqaro toifadagi hakamlik faoliyati amalga oshiruvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. [3]

Sport-sog'lik garovi, kasbning millat genofonini sog'lomlashtirishdagi va yoshlarni jismonan barkamol qilib tarbiyalashdagi o'rni, doimiy ish va ish haqi, mamlakat va dunyoga tanilish, mamlakatni dunyoga tanitish imkoniyati, mashhur sportchi va chempionlarni etkazib berish sharafi, g'alabadan zavqlanish hissi, shogirdlar hurmatiga va xalq e'tirofiga sazovor bo'lish, dunyo bo'ylab kezish va xizmat qilish imkoniyatlari.

Sport ustozlari, trenerlari, har bir jismoniy tarbiya va sport sohasi murabbiysi — sportning muayyan turi bo'yicha mutaxassisdir. U sport jamiyatlarida, bilim yurtlarida va boshqa joylarda sportchilarning mashqlariga rahbarlik qiladi; sportchilar va sport jamoalarining to'g'ri jismoniy rivojlanishi, sportda kamolotga erishishi va tarbiyasi uchun javob beradi. Sport trenerlari, asosan, jismoniy tarbiya universitetlarining sport faoliyatlari yo'nalishlarida hamda trenerlik maktablarida tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-oktabrdagi, 284-sonli qarori "Sport maktablarini malakali trener kadrlar bilan ta'minlash" chora-tadbirlari to'g'risida yoritilgan. Unga muvofiq, sport maktablarini malakali trener kadrlar bilan ta'minlash, trenerlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qiladi.

Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining "Sport maktablari faoliyatini hamda sport maktablari trenerlari va mutaxassislari mehnatini moddiy rag'batlantirish

tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2010-yil 23-sentabrdagi 211-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan sport maktablari to‘g‘risidagi nizomga muvofiq sport maktablarining trener-o‘qituvchilar tarkibi oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar jismoniy tarbiya ma’lumotiga hamda sport bo‘yicha trenerlar yoki trener-o‘qituvchilar sifatida trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanishga malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo‘lgan yoki ta’lim muassasalarining sport faoliyati hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta’lim yo‘nalishini bitirib, tegishli sport turi bo‘yicha trener lavozimida ishlayotganiga uch yildan oshmagan mutaxassislardan saralanib yig‘iladi.

Yuqori kasbiy mas’uliyat, sportchi-o‘quvchilar uchun javobgarlik; mag‘lublik alami, doping xavfi. Sport turlari bo‘yicha trenerlik qilish vakolatini olish uchun “Respublika kompyuterlashtirish va sertifikatlashtirish markazi”dan sertifikat olish va sport federatsiyalaridan aynan o‘sha sport turi bo‘yicha amaliy imtihonlar topshirib, malakani egallash lozim. Respublika miqyosida hakamlik qilish uchun sport federatsiyasining sertifikatini qo‘lga kiritish; sertifikatga ega bo‘lgach, har yili sport federatsiyasida malakaviy imtihonlarni topshirish lozim. Har qaysi sport federatsiyasi sport turi bo‘yicha belgilangan tartibda hakamlik sertifikati berilishi ham takidlab o‘tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Niyazova R.R., Kun E., Matkarimov R.M. Triatlon nazariyasi va metodikasi (Sport tayyorgarligi asoslari) O‘QUV QO‘LLANMA – T.: 2020y
2. Bobomuratov I.B. «Triatlon nazariyasi va uslubiyati». Darslik. Chirchiq: O‘zDJTSU, 2022.
3. Raximova Z.D., Niyazova R.R., Tilavov Sh.S., Lozovoy D.A. “Tanlangan sport turi bo‘yicha mutaxassislikka kirish (triatlon)” o‘quv qo‘llanma. Chirchiq-2023

DASTURIY TA’LIM VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING GEOGRAFIK OBYEKT LARNI 3D LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Shadiyeva Nigora Sharipovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Elektron pochta manzil: nigrolaydiyeva-10@mail.ru .

Annotatsiya: ushbu maqolada Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab jarayon ekanligi va ushbu jarayonni amalga oshirishda, ta’lim jarayoning modelini takomillashtirish muhim o‘rin tutishi yoritilgan. Buning yorqin dalili ommaviy axborot vositasi bo‘lgan televideniya orqali uzatilayotgan turli xildagi kinolar, multfilmlar, kliplar va boshqa ijtimoiy-madaniy ko‘rsatuvlar uchun uch o‘lchovli kompyuter dasturlari muhitida yaratilgan sahna va personajlar, ularning harakatlarini keltirishimiz mumkin. Shuningdek, ko‘pgina ilmiy

tadqiqot obyektlari ustida ish olib borish va olinadigan natijalar ham kompyuterli modellashtirishlar to'g'risida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar: 3D modellashtirish va raqamli animatsiya, model, kadrlar tayyorlash, kasbiy faoliyatga tayyorlash.

Bugungi kun talablari va zamonaviy sanoat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, "3D modellashtirish va raqamli animatsiya" fani ko'pgina sohalar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ushbu sohalaridagi jarayonlarning kechishini bevosita uch o'lchovli modellarni qurish va ularni animatsiya ko'rinishida kuzatuvchilarga taqdim etishlar sababli unga bo'lgan talab tobora o'shib borayotganligini kuzatish mumkin.


Ma'lumki, axborot almashinuvida insonning ko'rish sezgi organi yordamida qabul qilingan axborot eng samarali qabul qilinadi va u xotirada ham chuqur iz qoldiradi. Ammo axborot almashinuvi nafaqat so'zlar va tovushlar, balki tasvirlar, ranglar, shakllar va dinamik harakatlar bilan ham amalga oshiriladi. Buning yorqin dalili ommaviy axborot vositasi bo'lgan televideniya orqali uzatilayotgan turli xildagi kinolar, multfilmlar, kliplar va boshqa ijtimoiy-madaniy ko'rsatuvlar uchun uch o'lchovli kompyuter dasturlari muhitida yaratilgan sahna va personajlar, ularning harakatlarini keltirishimiz mumkin. Shuningdek, ko'pgina ilmiy tadqiqot obyektlari ustida ish olib borish va olinadigan natijalar ham kompyuterli modellashtirishlarga asoslanadi. Albatta, ushbu ishlar zahirida yurtimiz iqtisodiyotini ichki va tashqi bozorda yanada mustahkamlash va xalq farovonligi ta'minlash uchun o'zining intellektual qobiliyatlarini namoyon etadigan yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash kabi vazifalarga bog'liq ravishda oliy ta'lim muassasasining ilmiy salohiyati va moddiy-texnik ta'minlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya sohasining jadal rivojlanishi va keng qo'llanilishi axborot kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot, kompyuter texnologiyalari sohasida, ta'lim sohasiga ta'sir ko'rsatdi va ulkan o'sishga olib keldi.

Barkamol, ijodiy, yuqori malakali va eng muhimi, tez yo'naltirilgan talabga ega bo'lgan mutaxassislar o'zgaruvchan sharoitlar, zamonaviy qo'llashga qodir axborot texnologiyalari ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Ta'limga ko'ra modellashtirish qobiliyati ta'lim standartlari umumiy o'rganish qobiliyatlarini anglatadi. Ta'limda 3D modellashtirishdan foydalanish imkonini beradi o'rganishga qiziqishni oshirish, tasavvurni rivojlantirish va fazoviy fikrlash, shuningdek, ijodkorlikni oshirishga imkon beradi. Bolaning shaxs sifatidagi salohiyatini oshirishga 3D modellashtirish texnologiyasidan foydalanish mumkin. Turli ta'lim fanlarida 3D modellashtirish texnologiyasidan foydalanish:

- Geografiyada - har qanday tabiiy va Atmosfera hodisalari, yerni modellashtirish va vizualizatsiya qilish uchun;
- Astronomiyada - samoviy va kosmik hodisalar va jismlarni modellashtirish uchun;

- Biologiyada - hujayra, ichki organlar DNKsini modellashtirish uchun;
- Kimyoda - molekularlar va atomlarning modellarini yaratish; kimyoviy tajribalarni simulyatsiya qilish uchun;
- Fizikada - fizik hodisalar va tajribalarni modellashtirish uchun
- Geometriyada - geometrik jismlarni, tekisliklarning kesishishi kabi masalalarni yechish vizuallashtirish uchun;
- Informatikada, bunda butun bo‘lim ushbu mavzuga bag‘ishlangan



Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda, ta’lim jarayoning modelini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Ko‘pchilik mualliflar tomonidan bo‘lajak mutaxassis kadalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeliga, muayyan bir sifatlarni tushunishni ta’kidlagan.

Ilmiy-tadqiqot natijasi asosida bo‘lajak mutaxassis kadrlarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli-talabalarning mutaxassis darajasiga erishishida auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan

mutaxassislik fanlarini o‘qitishda kredit-modul tizimidan foydalanib bilim olish va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasining mantiqiy tuzilmasi aniqlanib, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini mutaxassisligi bo‘yicha innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli takomillashtirildi.

1-rasm. Dasturiy ta’lim vositalari asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli

Kredit-modul tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli “Maqsad”, “Tashkiliy”, “Mazmun”, “Natija” komponentlardan tashkil topgan bo‘lib, quyida barcha komponentlar izohlangan

Dasturiy ta’lim vositalari asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli komponentlari quyidagicha izohlanadi:

Maqsad komponent

Malaka talablarida: bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo‘yiladigan ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, foydalanish, xizmat ko‘rsatish, pedagogik faoliyat turlari nazarda tutilgan.

Model maqsadi: bo‘lajak Geografiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanib, takomillashtirilgan metodika asosida o‘qitishdan iborat.

Tashkiliy komponent

Modelda bo‘lajak Geografiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanib, takomillashtirilgan metodika asosida innovatsion yondashuvlar, dasturiy ta’lim vositalar va tamoyillarga asoslanib, didaktik, tashkiliy-metodik, xususiyatlari o‘rganildi.

O‘quv-metodik va didaktik ta’minot - Geografiya ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha (Darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy majmualar) tayyorlanib, ushbu materiallardan maqsadli va samarali foydalanish.

Dasturiy vositalar - Geografiya ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha (Elektoron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, elektron o‘quv-uslubiy majmualar, talabalarni tasavur qilish imkoni bo‘lmagan mavzular bo‘yicha tayyorlangan 3D animatsiyalar, moddiy-texnik bazasi mavjud bo‘lmagan laboratoriya mavzulari bo‘yicha tayyorlangan virtual jarayonlar, talabalarni mustaqil ta’lim olishini yanada kengaytirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish maqsadida audio va vizual materiallar) virtual reallikni loyihalash, matematik modellashtirish, axborotlarni aks ettirish nazariyasi, kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi, virtual reallik xususiyatlari, didaktikaning asosiy tamoyillari asosida ishlab chiqilgan.

Yondashuvlar – Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faollikga tayyorlashda dasturiy vositalar foydalanishda (Mantiqiy, evristik, integrativ, tanqidiy, kreativ, innovatsion) yondashuvlar asosida amalga oshirildi .

Mantiqiy yondashuv: mantiq, aql-idrokka murojaat qiladi va bu jarayondagi eng muhim masala – dalillarga asoslangan ma’lumotlarni taqdim etish. Bu yangi dalil va ma’lumotlarga duch kelgan kamsonli odamlarga nisbatan samarali bo‘lishi mumkin, ammo aksariyat uchun faktlarning o‘zigina kifoya qilmaydi.

Everestik yondashuv: interfaol o‘qitishning bir usuli everstik suxbat bo‘lib, lotincha «to‘playman, izlayman» ma’nolarini anglatadi. Bu suxbat usuli bo‘lib qadimgi grekcha ko‘rinishi Suqrot suhbat deb nomlangan o‘qitish tizimiga asoslangan. Shu yo‘l bilan mohirona savollar tuzish va o‘quvchini qo‘yilgan savolga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob topishga yo‘naltirish kerak. Bu o‘qitish usulini Suqrotnikidan farqi uning keng doirada jonligidir. Lekin uning so‘zsiz o‘xshashlik tomonlari ham mavjud, o‘z tavsifiga ko‘ra olinayotgan funksiyasi bevosita ularni faol o‘ylash orqali o‘quvchilarni mohirona savol berishga qaratilganligidir. O‘z yo‘nalishining psixologik tabiatiga ko‘ra - everstik suxbat bu jamoaviy fikrlash yoki suhbat, muammoni yechimini izlovchi sifatidagi suhbatdir. Shuning uchun pedagogikada bu usul muammoli o‘qitish usullaridan hisoblanadi, shu qatorda muammoli izlanuvchi deb nomlanuvchi suhbatdan everstik suhbat psixologik tomondan hech ham farq qilmaydi. Pedagogika ular orasida shaxsiy miqdoriy chegara o‘tkazadi .

Integrativ yondashuv: tizimni tashkil etuvchi va uni saqlab qoluvchi sifatlar bunda tizim elementlarining turli tumandagi qarama-qarshiligi va shu bilan bir vaqtda ularning hamjihat hamkorligiga asoslanadi.

Tanqidiy yondashuv: kurs mashg‘ulotlari tizimlarni modellashtirish, axborotni tanqidiy baholash va tahlil qilish, argumentlangan yozma nutqni tayyorlash, holatini tahlil qilishga doir qator amaliy vazifa va topshiriqlarni bajarish orqali talabalarda tahliliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qildi.

Kreativ yondashuv: kreativ yondashishda nafaqat o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan o‘quvchilarga balki ko‘proq e’tiborni talab etadigan ijodiy kreativ fikrlash layoqatiga ega bo‘lmagan ta’lim oluvchilarga ham birdek e’tiborni qaratish zarur.

Innovatsion yondashuv: pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuv asosida qurish, ta’lim jarayonida talabalarni ijtimoiy faollikka yo‘naltirishda qiziqarli, faol, noanaviy, yangi innovatsion usullardan foydalanilgan holda ularga kasbiy ta’lim asoslarini o‘rgatish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tamoyillar - Ta’lim tizimlarini odatda ikki toifaga bo‘lish mumkin, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan va talabaga yo‘naltirilgan ta’lim. O‘qituvchiga

yo'naltirilgan ta'lim tizimida ta'limga, o'quv dasturlariga, dars jarayonlariga qat'iy ravishda OTM, uni nazorat qiluvchi tashkilot va o'qituvchi xohishi nuqtayi nazaridan yondashiladi. Bunda talabalar nimani, qancha, qanday usulda o'rganishi kerakligi masalalarini belgilashda mehnat bozori vakillari va talabalarning ehtiyojlari, fikrlari ko'p ham e'tiborga olinmaydi. Ta'lim jarayonini boshqarish va tashkil etish ancha markazlashgan tarzda amalga oshiriladi. Bunda yana o'qituvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaraladi. Bunday ta'lim tizimida talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini ifoda etish, munozaraga kirishish, muammolarga tanqidiy yondashish, o'zlari uchun o'zlari qaror qabul qilish salohiyatlari shakllanmaydi. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalardan foydalanishda (Student-centered education, transparent education, improving flexibility, improving student mobility) tamoyillar asosida amalga oshirildi. Quyida har bir tamoyil tafsilotlari qisqacha izohlangan .

Student-centered education –Talabaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish tamoyili

Talabaga yo'naltirilgan ta'lim bu o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'limda nazorat qiluvchi tashkilot yoki o'qituvchilar nuqtayi nazaridan emas balki talabalar nuqtayi nazaridan yondashishni talab etadi. OTMlar, ularni nazorat qiluvchi tashkilotlar va o'qituvchilar ta'lim jarayonlarini tashkil etuvchisi bo'lsalarda, ular asosan muvofiqlashtiruvchi vazifasini o'taydilar, ya'ni o'quv dasturlari, hususan talaba nimani, qancha, qanday usulda o'rganishi kerakligi talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari, mutahassislik va mehnat bozori talablarini chuqur tahlil qilgan holda, ya'ni "pastdan tepaga" qarab (bottom up) shakllantiriladi. Bunda yana o'qituvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaralmaydi.

Transparent education -Ta'limda shaffoflikka erishish tamoyili

ECTS kredit – modul tizimi talabalarning ta'lim jarayonlariga taaluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni talabalarga oldindan, tushunarli, to'liq va shaffof tarzda yetkazishni talab qiladi. Bunda OTM talabalarga ular butun o'qishlari davomida qaysi fanlarni o'zlashtirishlari zarur yoki mumkinligi, ulardan kutilayotgan o'qish natijalari, talabalar qanday usul va me'zonlar asosida imtihon qilinishlari haqida oldindan to'liq va shaffof tarzda ma'lumot berishi kerak bo'ladi. OTMlar sonining ko'payishi, o'quv dasturlariga tanlov fanlarini kirib kelishi ham ta'limda shaffoflikka bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Chunki talaba o'z tanlov huquqini tom ma'noda amalga oshirishi uchun u dastur va undagi fanlar haqida yetralicha dastlabki ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Talaba o'z tanlov huquqini faqat fakul'tet nomini yoki fan nominigina bilgan holda amalga oshira olmaydi.

ECTS kredit – modul tizimida ta'lim shaffofligi ta'minlash quyidagi qoidalarda o'z aksini topadi:

O'quv dasturidagi har bir fanni ma'lum miqdordagi kreditlarda aks ettiriladi. Yani har bir kredit o'rtacha 25-30 soat o'qish yuklamasini anglatishi hisobga olinsa, talaba muayyan fanga taqsimlangan kreditlar miqdoriga qarab, ushbu fanning o'qish yuklamasi haqida dastlabki ma'lumotga ega bo'ladi.

Har bir OTM o'quv yili boshida o'zining o'quv dasturlari bo'yicha dastur katalogini ishlab chiqishi va uni talabalarga taqdim etadi. Dastur katalogi OTM veb sahifasiga joylashtirish yoki boshqa usulda talabalarga taqdim qilinishi mumkin.

O'quv dasturidagi har bir fan muayyan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan holda kodlanadi. O'quv dasturida har bir fan uning darajasi, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tanlov yoki majburiy fan ekanligi va shu kabi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan holda kodlanadi va bu kodlar mazmuni haqida talabalarga tushuntiriladi.

O'qituvchilar tomonidan o'z fanlari bo'yicha fan dasturlarini tayyorlanishi va talabalarga taqdim etilishi. ECTS kredit–modul tizimida har bir o'qituvchi OTM o'quv dasturdagi u o'qitishi kerak bo'lgan har bir fani bo'yicha fan dasturini ishlab chiqadi va uni semestrning dastlabki haftasida talabalarga taqdim etadi.

Improving flexibility -Ta'limda moslashuvchanlikni kuchaytirish tamoyili

ECTS kredit – modul tizimi OTMlar o'zlarining o'quv dasturlarini ishlab chiqishda muayyan qoidalarga amal qilishni talab etadi. O'quv dasturlari, o'quv rejalari OTM darajasida tayyorlanadi. Bu oliy ta'limni boshqarishning markazlashgan tizimiga qaraganda ancha samarali, rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan usullaridan biridir. Chunki OTMlar individual tarzda zamon, mehnat bozori talablariga tezroq moslashish, ushbu ehtiyojlarga tezroq javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'ladi. OTMlar o'zlarining imkoniyatlarini, afzallik tomonlarini, ta'lim tizimida o'z o'rinlariga ega bo'lish uchun aynan qaysi yo'nalishlarga sarmoya qilishlari kerakligini o'zlari yaxshi bilishadi.

Improving student mobility -Talabalar mobilligini kuchaytirish tamoyili

ECTS kredit – modul tizimida faoliyat yuritadigan OTMlar ta'limni tashkil etish va yuritish bo'yicha standart tamoyillar asosida ishlaganligi, ta'lim jarayonlari shaffoflikka asoslanganligi tufayli talabalar bir OTMda qo'lga kiritgan kreditlari boshqa OTMda tan olinishi imkoniyati kengayadi. Shu tufayli kredit – modul tizimiga o'tgan va uning tamoyillariga amal qilayotgan OTMlarning halqaro jozibadorligi oshadi. Ularning xorijiy OTMlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari kengayadi .

Mazmun komponent

O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi

Geografiya ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan mutaxassislik fanlaridan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarini kredit-modul tizimi asosida o'qitishni ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarning texnologik jarayonlari obyektlarini optimallashtirish orqali talabalarning mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarining

rivojlanishi, o‘quv materiallarini g‘oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi, talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantiruvchi metod, shakl, vosita va texnologiyalarning maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko‘nikmalarini qamrab oladi.

Kredit-modul tizim - O‘quv reja, dastur (syllabus) mazmunini, metodik va didaktik ta‘minotni takomillashtirishdan iborat bo‘lib, kredit modul tizimi ma‘ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv amaliyoti, klinik o‘quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta‘lim oluvchilarning mustaqil mashg‘ulotlari bo‘yicha haftalik soat yuklamasi va ta‘lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta‘lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so‘ng kreditlarni to‘plash mumkin.

Ta‘lim shakllari – Auditoriyada: jamoaviy, guruhli, yakka tartibda: ta‘limning maqsadi, vositasi, natijasi, o‘rni hamda ta‘lim subyektlari ishtirokiga ko‘ra farq qiladigan dras sostlarining didaktik tavsifi. Dars, seminar mashg‘uloti, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘uloti, o‘yin, nazariy yoki amaliy mashg‘ulot dars shakli vositasida qayd etilib, tadqiq qilinadi va tavsiflanadi.

Elektron platformalar

HEMIS OTM axborot tizimi “Ma‘muriy boshqaruv”, “O‘quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat” va “Moliyaviy boshqaruv” axborot tizimlarini o‘z ichiga olgan. HEMIS axborot tizimi oliy ta‘lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga mamuriy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalarga elektron ta‘lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta‘lim muassasalari bilan Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi o‘rtasida axborot ko‘prigi vazifasini o‘taydi hamda oliy ta‘lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma‘lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog‘oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Moodle LMS muhitida o‘qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda mavjud o‘qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va ancha ko‘p bo‘lgan boshqa modullari mavjud.

Metodlar: bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda dasturiy ta‘lim vositalaridan foydalanishni takomillashtirishda quyidagi innovatsion ta‘lim metodlaridan foydalanish samarali imkoniyatlarga ega ekanligini e‘tirof etish mumkin: “Brainstorming method”, “Tree of pedagogical decisions metod” va “Credit-module strategy method”. Ushbu innovatsion ta‘lim metodlari talabalarda

kredit-modul tizimi asosida malakalarini rivojlantirish va jamoaviy faol ishlashni tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

“Brainstorming method” (Fikrlar hujumi) metodi

Fikrlar hujumining maqsadi mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan xoli etish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. Ushbu usul biror muammoni yechishda guruh ishtirokchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi hamda eng samarali hisoblanadi. Bu metod orqali talabani texnik rivojlantirish mumkin, u to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda talabalarni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Fikrlar hujumini tashkil etishda bir guruh talabalar to'planadi va ular oldiga biror muammoli vaziyatni yechish bo'yicha o'z yechimlarini(fikr, mulohaza) bildirishlari so'raladi. Mazkur bosqichda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilarni g'oyasi, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas. Dars jarayonida qo'llanilgan fikrlar hujumida bildirilgan g'oya va fikrlar muhokama etilmaydi va baholanmaydi. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar, ular hatto bo'lmag'ur bo'lsa ham hisobga olinadi. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin. G'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi. Metodning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibani rag'batlantirishdir. Ushbu metodni dars jarayonida qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: muammo aniqlanadi va ishtirokchilar fikr va g'oyalarni to'plashadi, fikr va g'oyalarni bildirishadi, fikr va g'oyalarni guruhlashgandan so'ng muhokama qilib, to'g'ri va samarali yechimga kelishadi .

“Tree of pedagogical decisions metod” (pedagogik qarorlar shajarasi) metodi

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Mazkur metod talabalarning mashg'ulot jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. Metodning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo

ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu metoddan foydalanishda talabalarning soni 10-15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqligini inobatga olgan holda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish tavsiya etiladi.

“Credit-module strategy method” (kredit-modul strategiyasi) metodi

Ushbu metod talabalar bilan guruh bo'lib ishlash, mavzuni tezkorlik asosida puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

Talabalarda jamoa (yoki guruh) bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi;

Mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi.

Metodni qo'llash jarayoni

Guruh talabalari bir necha (5-7 ta) guruhga bo'linadi, yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 ta qismga ajratiladi, har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matni, 2-matni, ...) beriladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi, belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar, vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o'rganilgan matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so'zlab beradilar, liderlarning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin, barcha guruhlar o'zlariga berilgan matnni puxta o'zlashtirganlaridan so'ng matnlar guruhlararo almashtiriladi, bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi, shu taxlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn shakliga keladi. Yuqorida aytilganlar asosida “Texnologik ta'lim” yo'nalishida darslarni tashkil etish, ko'rgazmali metodlarni qo'llash yuqori samara berishi ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan bo'lib bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Baholash mezonlari: talabalarning kreativligini baholash quyidagi mezonlar asosida olib borildi: ijtimoiylik, kommunikativlik, intellektuallik va axborotlilik.

Tayyorgarlik darajalari:

1. **Reproduktiv daraja** talaba dasturiy ta'lim vositalar to'g'risidagi tushunchalar mohiyatini reproduktiv darajada ifodalaydi, ilmiy bilish metodlarini yetarlicha egallamagan, ularni innovatsion kasbiy pedagogik faoliyatda qisman qo'llay oladi, yaxshi rivojlanmagan.

2. **Produktiv daraja** talaba dasturiy ta'lim vositalar mohiyati haqidagi tasavvurlar mavjudligini nazarda tutadi. Ammo bu tasavvurlar cheklangan va mustaqil pedagogik faoliyat olib borish uchun yetarli emas, talaba o'qituvchi rahbarligida mashg'ulotni o'tkazishda keyinchalik qo'llash mumkin bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga motivatsiyasi mavjud.

3. **Qisman izlanishli darajada** talabaning dasturiy vositalar to'g'risidagi tasavvuri innovatsion kasbiy faoliyatga oid kreativ munosabati bilan xarakterlanadi. U interfaol metodlarni egallagan, ularni kasbiy faoliyatida amalda qo'llaydi, yangi g'oyalarni tekshirish protsedurasini ishlab chiqishga qodir.

4. **Kreativ daraja** talabaning dasturiy ta'lim vositalar to'g'risidagi hamda innovatsion kasbiy faolitiga oid bilim, ko'nikma va malakalarini mantiqiy va tizimli yondashuvlar asosida pedagogik faoliyatda qo'llay bilishi, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi hamda nostandart pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi kabilarni nazarda tutadi.

Xulosa. Mazkur metodika asosida bo'lajak Geografiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalardan foydalanishni takomillashtirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. 3D bosib chiqarishning tobora kengroq maydonlarga kirib borishi o'sishga olib keladi . Nafaqat geografiya yo'nalishi ta'limi sohasi uchun balki boshqa malakali mutaxassislarning eng ilg'or ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturining muhim elementiga aylantirildi. Yuqoridagilarga asoslanib, kelajakda 3D modellashtirishdan foydalanish ta'lim tizimi jarayonni o'qitishni rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'lishi kerak.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. А.Р.Джураев, "Дидактические возможности использования программных средств обучения в профессиональной подготовке будущих учителей технологии". Актуальные проблемы современной науки, образования и воспитания. Электронный журнал. - Ургенч. 2019-1.

2. Джураев А.Р. Выбор оптимизированного содержания трудового образования и методика его обучения (5A112101–Методика трудового обучения). Ташкент - 2014 г. с 107.

3. Джураев А.Р., Аслонова М . С. , Бахранова Ю.И. Предметная технология «Технология и дизайн» // «Проблемы педагогики» научно-методический журнал № 3 (35) / Россия , Москва. 2018. – С. 23 – 25.

4. Шадиева.Н.Ш. Научно-методическое значение развития творческих способностей молодых учителей географии при использовании программных средств обучения // Электронный журнал «Наука и образование». № 5 стр. 1137-1143 – 2022

5. Shadiyeva.N.Sh. Geografiya o'qitish metodikasiga oid bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarning tahlili. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, (2022). 26(26).

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Ruziyev Raup Axmadovich

Navoiy davlat pedagogika instituti f.-m.f.n., dotsent,

e-mail:ruziyevraup2@ gmail.com

Ma'lumki, ta'lim har qanday davlat va jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Bugunki kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni jadal rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifat darajasini oshirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilingan, asosiy maqsad, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar ta'limining yangilanish xarakteridagi pedagogik faoliyat standartlarini belgilashga qaratilgan.

Shuningdek, ta'limni raqamlashtirishning dolzarbligi zamonaviy ta'lim olamidagi o'qituvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarligining moslashuvchanlik darajasini tizimdagi imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli vositalar yordamida tayyorlash yanii ma'lum bir fan sohasida ijodiy fikrlash, chuqur bilim, ko'nikma egasi qilib shakillantirish zamonaviy kasbiy ta'lim sharoitida qiyin. Bu raqamli vositalar yordamida mashg'ulotlarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi kamligi va mavjudligi innovatsiyalar sohasida malakali professor-o'qituvchilarning etishmasligi bilan izohlanadi.

Pedagog ta'limini modernizatsiya qilish shartlaridan biri o'qituvchilar ta'limini raqamlashtirish jarayondir, bunda AKT vositalari muhim o'rin egallaydi.

AKT vositisi deganda dasturiy ta'minot, dasturiy-apparat va mikroprotessor asosida ishlaydigan texnik vositalar va qurilmalar; kompyuter texnologiyalari, shuningdek axborot uzatishning zamonaviy vositalari va tizimlari; axborot almashinuvi, to'plash, ishlab chiqarish, to'plash bo'yicha operatsiyalarni ta'minlash, axborotni saqlash, qayta ishlash, uzatish va axborotga kirish imkoniyati mahalliy va global kompyuter tarmoqlarining resurslari tushuniladi[1].

Shundau qilib, bolajak oqituvchilarni mashgulotlarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishni yangi tizimini yaratishda asosiy elementlar sifatida, o'qituvchilar ta'limini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash konsepsiyasini amalga oshirish deb atash mumkin:

1. Ta'lim tizimida ishlaydigan o'qituvchilar, metodistlar va menejerlar tayyorlash bo'yicha bakalavrlar va magistrilar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida qabul qilish.

2. Pedagogik ma'lumotga ega modulli bakalavr va magistratura dasturlarini uzluksiz ta'limda kasbiga mos amaliy uzviyligini ta'minlash.

Buning uchun, raqamli tizimni rivojlantirish muammolari bo'yicha tadqiqotlarni nazariy tahlil qilish asosida oliy pedagogik ta'limning tizimli rivojlanishi uchun quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- hududiy ta'lim bozorining o'zgaruvchan talablari, joriy tizimda keskin raqobatning mavjudligi;

- bakalavr va magistrlar kasbiy kompetentsiya darajasini baholash mezonlari haqida yangi tushuncha va bo'lajak mutaxassislarni o'qitish ta'limi malaka xususiyatlarini qayta ko'rib chiqish;

- oliy ta'lim tizimini tashkil etishning xalqaro standartlar va milliy tajribani hisobga olgan holda ta'limni yangi tamoyillarini belgilash.

Bolajak o'qituvchilarni o'qitish jarayonida, yuqori darajada rivojlangan raqamli ta'lim muhitini ifodalovchi, AKT vositalariga asoslangan, mustaqil ishning turli shakllarini tashkil etish, yuqori darajada konstruktiv muhit uchun ta'lim va o'quv resurslarini, dasturiy mahsulotlarni, bilimlarni boshqarish tizimlarini va bir vaqtning o'zida birlashtirgan keng qamrovli ko'p maqsadli ta'lim tizimi muhiti talab qilinadi.

Bunday muhit dinamik rivojlanayotgan, o'z-o'zini tashkil etuvchi, o'qituvchi va talaba uchun ochiq tizimdir hamda o'qituvchilarning individual ta'lim traektoriyasini qurish mazmuni va funksiyalarining xilma-xilligiga imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarni raqamli vositalar yordamida mashg'ulotlarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- mualliflik huquqi bilan himoyalangan elektron resurslardan ta'lim maqsadlarida foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini faollashtirish orqali, muayyan fan bo'yicha o'qitish sifatini oshirish, ob'ektlarning fazoviy ko'rinish jarayonlarini ko'rinadigan tarzda tatbiq etishning muhim tomonlarini aks ettirishga imkonini beradigan;

- multimedia taqdimotlaridan foydalanish, har tomonlama to'ldirilgan yorqin qo'llab-quvvatlovchi tasvirlar tizimi, algoritmik tarzda tuzilgan ma'lumotlar sifatida o'quv materialini taqdimotini o'tkazish imkonini beradigan;

- Internet resurslaridan foydalanish katta salohiyatga ega bo'lgan ta'lim xizmatlari (elektron pochta, qidiruv tizimlari, electron konferensiya) va zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanadigan;

- o'qituvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini interaktiv tashkil etishda interfaol doska va uning dasturiy ta'minotidan foydalanish sizga keng imkoniyatlar beradi.

Natijada, bolajak o'qituvchilar ta'limni raqamlashtirish sharoitida quyidagilarga bog'liq muammolarni hal qila oladi:

1. pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanishga qaratilgan mustaqil faoliyatni har xil turdagi o'quv ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash,

saqlash, uzatish, ishlab chiqarish, shuningdek, o'quv bilimlarni ifodalash va amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'quv jarayonining qulayligi va motivatsiyasini ta'minlash;

2. "virtual" ochiq ta'lim tizimlarining ishlashi bilan shakllangan, telekommunikatsiya axborot jamiyatida ma'lumotlarni hayotga ijtimoiy moslashuvni ta'minlovchi resurslardan foydalanish;

3. ta'lim tashkilotlarini boshqarishda AKT vositalaridan foydalanish, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishni rivojlantirish siyosati;

4. ta'limni raqamlashtirishning ilmiy-tadqiqot va tajriba faoliyati hamda o'quv-moddiy bazasidan foydalanish kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Robert I.V. (2014) Theory and methods of informatization of education (psychological, pedagogical and technological aspects) / I.V. Robert.- M.: BINOM. Laboratory of Knowledge, 398 p.

BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Oygul Olimovna Xalloqova

Buxoro viloyati Kogon tumani 18-maktab o'qituvchisi

Bugungi paytlarda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning tizim sifatida bir-biri bilan bog'liq holda rivoj topish sharoitida inson omili, uning aql-zakovati, bilim, malaka, ko'nikmalari va qadriyatlari asosiy muvofiqlashtiruvchi omil va vosita ekanligi to'g'risida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida pedagog kadrlarga asosiy qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- yuqori darajadagi kvalifikatsiyaga ega bo'lish va professionalizim;
- bilimlar, malakalar, ko'nikmalarga va professional kasbga kerakli asosiy sifatlarga ega bo'lish;
- professional mobillik, egiluvchanlik;
- o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarda tezda moslashish malakasi;
- raqobatbardosh mutaxassisga xos xislatlar –mustaqil tanqidiy fikrlashga qobiliyat, real hayotda qarama-qarshiliklarni payqash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topish malakasi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish malakasi, olingan bilimlarni qayerda, qaytarizda ishlata bilishi qobiliyati, ijodiy yangi g'oyalar berishga qobiliyat, ijodiy tafakkurga egalik, axborotni to'g'ri ishlata bilish, guruhda faoliyat olib borish malakasi va boshqalar.

Ushbu maqsadlarga yetish uchun, o'quv muassasalari, eng avvalo, o'z mutaxassislarini kasbiy sifat, xislatlarini ko'tarishi zarurdir.

Kompetentlikga ega pedagog kadrlarning bilimlari sifati qo‘yidagi talablarga javob berishi lozim:

-to‘laligi-o‘rganadigan ob’ekt, jarayon, hodisalar haqida bilimlarning miqdori;

-chuqurligi- har xil fanlardan olingan bilimlarning anglanganligi va bir-biri bilan bog‘langanligi;

- tizimlilik- bilimlarning ketma-ketligini tashkil etish, pog‘onama-pog‘ona o‘zlashtirish;

- tezkorligi – bilimlarni tezda, operativ tarzda muayan muammolarni hal etishga yo‘nalganligi;

- mobillik, eguvchanlik – har xil vaziyatda o‘z bilimlarini mustaqil ishlata bilishga qobiliyat;

-realligi, konkretligi – bilimlarni elementlarga bo‘lib alohida vaziyatlarda qo‘llay olish malakasi;

-umumiylik – real bilimlarni tushunchalar yordamida, umumiy tarzda ayta bilish malakasi.

Professional o‘qitishda bilimlarning qo‘yidagi ko‘rsatgichlari muhim rol o‘ynaydi: operativlik, mobillik, eguvchanlik, tushunchalik. Bu xarakteristikalar har bir kasb-egasing funksional kompetentligini vujudga keltiruvchi asoslardan hisoblanadi.

Ushbu kasb uchun zarur komponentlar Respublikamiz dagi kadrlar tayyorlash dasturida va milliy modelga asosiy sifatlar qatorida kiritilgan. Bugungi uzluksiz ta‘limning mazmuni, tashkillashtirish asoslarini, uni boshqarishni yangi paradigma-ijtimoiyotni yangilashning sub’ekti, yangicha ijtimoiy hayot tarzini vujudga keltiruvchi kuch sifatida ko‘rib chiqishni vaqt taqozo etadi.

Hozirgi sharoitda ta‘lim jarayonini ma‘naviylashtirish ta‘lim oluvchining intellektual ma‘naviy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish metodlari va mexanezimi sifatida o‘z ustida ish yuritishni, o‘z funksiyasini bajaradi, talabalarni tushunib, anglab o‘z ustida ish yuritishini, o‘z imkoniyatlarini mustaqil tarzda rivojlantirish yo‘llarini izlab topishga undaydi.

Bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini qo‘yidagi sifatlar tashkil etadi:

1.Ijtimoiy sifatlar;

2.Mehnat bozori sharoitida moslashuv xususiyatlari;

3.Kasbga tegishli kerakli xususiyatlar.

Ushbu sifat-xislatlar har bir pedagogning mehnat bozoriga raqobatbardoshligini ta‘minlashi mumkin.

Raqobatbardosh pedagogik kadrlar tayyorlashda ta‘limni tashkil etish muassalarida qo‘yidagi o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, madaniyat va intellektual rivoj toptirish asosida ta‘lim jarayoni tashkil etilmasa, talaba o‘zi uchun kerak bo‘lgan, hayotiy zaruratni aglashga

qaratilgan savollariga javob topadi. U qo‘yidagi savollarga: -nima uchun faoliyat olib borilayapti?, qanday metodlar, yo‘llar bilan u bajarilmoqda?, qanday qilib maqsadga erishmoqda

Ikkinchidan, talaba o‘quv jarayonida shunday bilimlar oladimi, ular talabaga qo‘yidagi savollarga javob topishga yordam beradi:bu nima?, bu qanday ish bajaradi?, buni qanday bajarishi mumkin? Va hakazo.

Uchinchidan, talaba o‘zi uchun kerak bo‘lgan, faoliyatni samarali bajarishga yordam beradigan malakalarni rivoj toptiradi.

To‘rtinchidan, talaba muloqat va jamoaviy harakat malakalariga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, talaba o‘zi uchun kerak, oldindan ko‘ra bilish, bashoratlashtirish malakasiga ega bo‘ladi.

Oltinchidan, talabada faol hayotiy pozitsiya va mehnatga yuqori motivlar shakillanadi.

Bu shaxsiy sifat, xislat, bilim, malakalar bo‘lajak pedagog kadrning kasbiy yaroqliligini ta‘minlab, ular qo‘yidagi psixologik jarayon, holatlarga tayanadi:

- Tafakkur (tafakkur operatsiyalarini bajara olish)
- Emotsional-irodaviy sifatlari –emotsiyalar, irodaviy aktlar, ularni namoyon etish yo‘llari;
- Kadriyatlar, odamlarga, mehnatga, o‘ziga nisbatan;
- Bilimlar, dalillar, qonuniyatlar;
- Tajriba umuminsoniy, kasbiy, yangi, mahalliy;
- An‘analar, normalar.

Pedagogik kollej va oliygohlardagi faoliyat, umuman olganda, davlat, jamiyat va shaxs uchun ta‘limiy xizmat doirasiga kiradi. Bu uzoq muddatni talab etadigan jarayon. Rus tadqiqotchisi V.Markovaning fikriga ko‘ra ta‘lim xizmatini tovar (ash‘yo) ishlab chiqarish jarayonidan qo‘yidagi sifatlari, belgilari bilan farqlaydi: ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan (sezgi organlari uni aks etmaydi), sifatining o‘zgaruvchanligi, ishlab chiqarishi va iste‘moli bardavomligi, saqlanishga noqulayligi va hakazo. Demak, ta‘lim xizmati natijasini sezib bo‘lmaydi, ushlanmaydi, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilmaydigan, saqlanmaydigan sifatlarni aytish mumkin.

Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivoj toptirishda qo‘yidagi pedagogik texnologiyalar qo‘llanib kelmoqda.

- Tushuntirish-ko‘rsatmali ta‘lim texnologiyalari;
- Shaxsga-qaratilgan ta‘lim texnologiyalari;
- Rivojlantiruvchita‘lim texnologiyalari.

Hozirgi paytlarda pedagogik kompetentligini rivoj toptirishda pedagogik muloqot texnologiyalari qonuniyatlaridan foydalanish rejalashtirilgan natija berishi mumkin.Pedagogik kommunikatsiyalarini pedagog tashkil etadi, unga rahbarlik qiladi. Pedagogik muloqot –ijodiy jarayon. U qo‘yidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

1. Pedagog tomonidan talabalar bilan bo‘ladigan muloqotni rejalashtirish, loyihalashtirish;

Unda talabalar individual sifatlarini inobatga olish, optimal metodlarni tanlash;

2. Kommunikativ hujum-bunda talabalar tezda bilish jarayoniga jalb etiladilar va modellashtirilgan muloqot yanada oydinlashtiriladi;

3. Bu bosqichda talabalar bilan o‘rnatilgan psixologik aloqani mustahkamlash chora-tadbirlarini boshqaradi, ta’lim-tarbiya maqsadlarini amaliyotga tatbiq etadi.

Pedagog kasbiy kompetentlikni vujudga keltirishga zamonaviy texnologiyalardan, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari samaralini beradi. Bu texnologiya bo‘lajak mutaxassis pedagoglarga qo‘yidagi ijtimoiy ahamiyatga ega sifatlarni rivoj topishiga zamin yaratadilar, umumiy va kasbiy, professional eruditsiyani vujudga kelishga; ijodiy qobiliyatlarni rivoj topishiga; talabchanlik hamda tizimlilikni o‘shirishga. Bunday texnologiya bo‘lajak mutaxassis – talabalarning shaxsiy kasbiy ustanovkalarini korreksiyalash metodlari bilan qurollantiradi.

Yangi pedagogik texnologiyalar tizimida kasbiy kompetentlikni optimal darajada rivoj toptiruvchi texnologiya –bu mutaxassislarni maqsadli intensiv tayyorlash texnologiyasi. Ushbu texnologiya ishlab chiqarish, amaliyot bilan chambarchas bog‘liq holda, birgalikda o‘z funksiyasini amalga oshiradi va qo‘yidagi tamoyillarga asoslanadi:

-mutaxassis mustaqil tarzda o‘z sohasida kerakli narsani sifatli, jahon talablari asosida, qulay vositalar yordamida ishlab chiqishi, va yangi kerak narsalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish malakasiga ega bo‘lishi;

-zamonaviy mutaxassis avtomatlash terilgan axborot banki, bilimlar banki va boshqa informatsion resurslarni yaratishi va qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi;

-zamonaviy mutaxassis ishlab chiqariladigan narsa, ash‘yoni avalidan to oxirigacha, butun texnologik jarayonni to‘la tassavur eta bilishi, bu jarayonni iloji boricha avtomatlashtirish bilim, malakalariga ega bo‘lishi.

Bunday kasbiy kompetentlikga ega mutaxassisni tayyorlashda qo‘yidagi qoidalrga rioya etishi lozim:

-tayyorgarlikning majmo‘ligi (ta’lim – tarbiya bilan birgalikda amaliyotni olib borish);

-individual yo guruhiiy amaliyot bilan bog‘liq, real kurs ishlari va malakaviy bitiruv ishlarini bajarish;

-bitiruvchilar guruhini ishga joylashtirishda modul qonuniyatlardan foydalanish;

-talabalarga rahbarlikda oliygoth pedagoglari, soha mutaxassislari, ishlab chiqarish xodimlarini jalb etish;

-Tayyorlov tizimini eguvchanligi, mobilligi, maxsus kurslar, dasturlar, rejalar, metodikalarning operativ tarzda ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar, talablar asosida qarma-qarshiliksiz o'zgartirish, yangilash;

-kadr tayyorlash tizimini komp'yuterlashtirish, dasturlashtirish, mustaqil bilim, malaka, ko'nikma rivoj toptirishga e'tibor berish;

-uzluksiz tayyorgarlikni olib borish;

-mutaxassislarning tayyorgarlik sifatiga qarab ularni diferensiyalash.

Yuqorida, kompleks yondoshuv asosida, tahlil etilgan yangicha ta'lim-tarbiyaning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini rivoj toptirishdag qonuniyatlari tizim sifatida o'z funksiyasini optimal bajaradi. Mutaxassisning kasbiy kompetentligini oshirish zamon talabi ekan, bu psixologik, ijtimoiy tuzilma maqsadli ta'lim-tarbiya negizida rivoj topadi. Bugungi ta'lim ijtimoiy faoliyatning shunday doirasiki, u yangi tipdagi shaxsni rivoj toptirishda kerakli sharoitlarni yaratishi lozim. Zamonaviy ta'lim individual bilishi va o'quv faoliyatining o'quvchi, talabalarning tarbiyasi va o'z-o'zini tarbiyasi, rivojlanishi, ijtimoiylashuvining sintezi sifatida namoyon bo'ladi. Uning maqsadi yangicha fikrlaydigan, mustaqillik va demokratiya uchun kurashadigan, yuqori kasbiy kompetentlikga ega shaxsni, fuqaroni, o'z mamlakatining jonkuyarini rivojlanishi uchun shart – sharoitlarni yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, -T.: 2020 yil.

2.Ломакина Т., Сергиева М. Педагогические технологии в профессиональных учебных заведениях. Москва 2007 йил.

3.Сотсиально-педагогических основы направленности образовательного протсесса на формиравание личности. –Т.: 2011йил.

TALABALAR KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TA'MINOTI

Rasulova Zilola Durdimurotovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Buxoro davlat universiteti
doktoranti,

zrasulova383@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada talabalarda kreativlikni rivojlantirish, ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ularning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini metodik ta'minlash kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, o'quv-uslubiy ta'minot, ijodiy kompetensiya, kreativ fikrlash ko'nikmalari, raqobatbardoshlik, izchillik, integratsiyalash.

Rivojlanayotgan jamiyatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mavjud voqeliklarga javoban, mamlakatimiz ta'lim

tizimi ham o'zgarimoqda, bu esa o'quvchilarning innovatsion ta'limini va ijodiy rivojlanishini malakali, ijodiy va kasbiy jihatdan amalga oshira oladigan o'qituvchilarga ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Hozirgi vaqtda ta'limning dolzarb muammosi bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy ta'minotini mutaxassislar tayyorlashning xalqaro standartlari talablariga muvofiq takomillashtirishdan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish to'liq maxsus tashkil etilgan ta'lim tizimi doirasida amalga oshiriladi:

Talabalarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan alohida, uslubiy va texnologik sharoitlar quyidagilardan iborat:

– talabalarning pedagogik ta'limiga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta'minlash;

– talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini uslubiy ta'minlash va texnologik ta'minlashning moslashuvchanligi, harakatchanligi va optimalligi tamoyillarini amalga oshirish;

– ularning pedagogik mehnat madaniyatini egallashi [3].

Ilmiy adabiyotlarning psixologik-pedagogik tahlili shuni ko'rsatdiki, xorijiy olimlardan Bolotov V.A, Zer E.F., Zimnyaya I.A., Kozyreva V.A., Tatur Yu.G., Tryapitsyna A.P., Xutorskoy A.V tomonidan "kompetensiya" individual kompetentsiyalarga bo'lingan ajralmas xususiyat sifatida ko'rib chiqiladi.

Bolotov V.A. va Serikov V.V kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyatini ochib berdi, u ta'lim mazmunini, hayotiy pedagogik muammolarni hal qilish tajribasini, kasbiy ahamiyatga ega funktsiyalarni amalga oshirish usullarini, ijtimoiy rollarni tavsiflaydi.

Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash va topish qobiliyati, har qanday hozirgi vaziyatdan chiqish yo'li pedagogik deb ataladigan ijodkorlik mexanizmning ajralmas qismidir [1, 5].

Zamonaviy oliy ta'lim o'qituvchisi nafaqat mavzuning tashkiliy tomoni, balki har bir talaba shaxsining rivojlanishiga hamrohlik qilish, uni doimo o'zgaruvchan dunyoda va rivojlanayotgan jamiyatda harakatchan va ilg'or bo'lishga o'rgatishdir.

Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi har bir ta'lim oluvchiga ijodiy yondashuvga yordam beradigan ko'nikmalarga boy bo'lishi, talaba ta'limidagi eng muammoli yo'nalishlarini tushunish va aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchi ijodkorlik orqali talabalarni qiziqtirishi, ularni uyg'ota olishi kerak. Buni amalga oshirish uchun ta'limda faqat nazariy bilimlarga tayanibgina qolmasdan, amaliy tajribalarni ham egallab borish maqsadga muvofiq sanaladi. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai,

didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi[6].

Talabalarda kreativ kompetentligini rivojlantiruvchi bir qancha muhim omillar mavjud.

1. Kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o'quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish.

2. Talabalarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish.

3. Talabalarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish.

4. Talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini o'quv-metodik vositalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish bilan birga ularda mustaqil ijodiy faoliyatini faollashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeiga ega bo'lishi;

5. Talabalarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish, dars jarayonlarida integratsiyalashuvni jadallashtirish [2, 4].

Bo'lajak mutaxassisilarning kreativ bilimlarini rivojlantirish bilan birga, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga bevosita aloqador bo'lgan uslubiy jihatlardagi yangilik va muammolarni o'rganish. Mutaxassislik fanlarni va boshqa o'zaro aloqador fanlarni o'qitishga doir o'quv materiallar bilan uyg'unlikda o'rgatish. Talabalarni fan mutaxassisi sifatida shakllantirishda milliylik, tarixiylik, raqobatbardoshlik, zamonaviylik, izchillik, motivatsiya, amaliylik hamda novatorlik kabi ijodiy sifatlarni ko'zda tutgan holda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutiladi. Fanlarni o'rganish natijasida, bo'lajak o'qituvchi o'qitish nazariyasi va amaliyotining murakkab tomonlarini o'rganishlari, ularni ko'pgina faktorlariga bog'lashlari hamda o'qitish jarayonida uzluksizligini o'zgarishini aniqlab olishlari zarur. Shu asosda ular olib boriladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar davrida va ijodiy izlanishlarda professional pedagogik malakalarni egallab olishlari lozim.

Talabalarni o'qitish jarayonida, ularning kreativ kompetentligini rivojlanganlik darajasini avtomatik aniqlash va ob'yektiv baholashga oid, fanlarning metodik ta'minotini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ularning nazariy materiallarni o'zlashtirishi amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarda ijodiy amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qitishning elektron-dasturiy va metodik ta'minoti talabalarning mustaqil o'zlashtirishlari uchun elektron didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qitish vositalari asosida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimidagi eng muhim metodik muammo bo'lib, bu sohadagi vazifalarning samarali yechimi, oliy ta'lim tizimidagi o'qitish jarayonini

innovatsion talablar va ijodiy kompetentlikka asoslangan ta'lim sharoitida amalga oshirish bilan belgilanadi.

Fanlarning o'quv - uslubiy ta'minotini yaratishda ta'lim jarayonini tashkil etishda, o'qitishning samarali usullarini tanlashda, ta'lim mazmunini belgilashda o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Masalan; darslik barcha ta'lim turlari va fanlar bo'yicha eng keng tarqalgan o'qitish vositasi bo'lib, o'quv-uslubiy ta'minotning yetakchi komponenti hisoblanadi. Talabalar qanchalik o'quv adabiyotlari bilan ko'p ishlasa, ularda keng ijodiy tafakkur hosil qilish qobiliyatlari tez rivojlanadi.

Fanlarning zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish uchun mutaxassislar tayyorlashda o'quv-uslubiy majmualarning hozirgi davrda qay darajada o'quv maqsadlari va vazifalariga erishishni ta'minlashini, ularni qaysi didaktik tamoyillar asosida tuzishni va ishlab chiqishni o'rganish lozim.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bo'lajk o'qituvchilarni kasbga va mehnatga ijodiy tayyorlash samaradorligi asosan o'quv-metodik majmuaning o'zaro bog'liq komponentlariga, ya'ni dasturdagi o'quv materialining tuzilmasiga, o'qitish metodikasiga, o'quv adabiyotlari va ko'rgazmali materiallariga bog'liq.

Chunki ko'rgazmali didaktik materiallar talabalarning ijodkorlik qiziquvchanlik va tasavvurga, murakkablik va tavakkalchilikka asoslangan bilimlarini namoyon qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ bilimlarini rivojlantirishda ta'limni tashkil etishning o'quv-metodik vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish samarali hisoblanadi. Shun o'rinda talabalar kreativligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali mashg'ulotlar, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha hamda mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha o'quv-metodik tavsiyalarni ko'proq ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Богоявленская, Д.Б. Измерение креативности - описание индивидуальности / Д.Б. Богоявленская // Психология индивидуальности: сборник статей. - Москва., 2006. - С. 55-58.
2. Ильин, И.П. Психология творчества, креативности, одаренности / И.П. Ильин. – СПб: Питер, 2009. – 448 с.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To,raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015. – 72-92- betlar.
4. Мухин М.И., Мошнина Р.Ш., Фоменко И.А. Профильное обучение как стратегическое направление модернизации образования // Профильное обучение: вопросы теории и практики. Сборник статей. Москва, 2005. С. 5-21
5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование, 2003. №2. С. 168-173.

6. Зеер Э.Ф. Профессионально-образовательное пространство личности: синергетический подход // Образование и наука. 2003. - №5 (23). - С. 79-90.

WEB-FREELANCE FAOLIYATI VA UNI BOSHLASH BOSQICHLARI

Zaripov Nozimbek Nayimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrası, p.f.f.d. (PhD)., dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada freelancerlik faoliyati turlari, web freelancerlik bilan shug‘ullanishning afzallik va kamchiliklari, informatika va raqamli texnologiyalari fanini o‘qitishda web freelancerlik faoliyatining ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, talabalarda web freelancerlik faoliyatiga oid to‘g‘ri tasavvurni rivojlantirish, ularning qobiliyati, qiziqlashini hisobga olgan holda topshiriqlarni tayinlash muhim vazifalardan hisoblanadi.*

Tayanch so‘zlar: freelancer, ma’lumotlar bazasi, SMM, SEO, IOS, CopyRighter, mobil ilovalar, o‘yin dasturlari, 3D.

Hozirgi kunda “freelance” so‘zi juda ommalashib bormoqda va internet tizimlari orqali daromad topuvchi insonlar uchun juda tanish so‘z hisoblanadi. Freelance internet orqali daromad olishning eng oson va qulay yo‘li hisoblanadi. Ushbu faoliyatni boshlash uchun bizdan hech qanday boshlang‘ich mablag‘ yoki yuqori shartlar talab qilinmaydi. So‘ngi vaqtlarda freelancerlik faoliyati internet tizimlari orqali daromad keltiradigan ishlar ro‘yxatida birinchi o‘rinni egalladi. Freelance (ing. free-erkin, lancer-nayza) – erkin va mustaqil ishchi bo‘lib, buyurtma asosida kelishilgan haq evaziga, belgilangan vaqtda ishni bajarib beruvchi shaxs hisoblanadi. Ko‘pchilik hollarda freelancerlar norasmiy tarzda ishlashadi, ya‘ni buyurtmachilarni ham o‘zlari topishadi, ish haqi va muddatini ham o‘zlari belgilaydi. Freelancerlik bilan shug‘ullanishda avvalo aniq yo‘nalishni tanlab olish lozim. Masalan: 3D model (uch o‘lchovli raqamli tasvirlar), SEO (saytlar yaratish), CopyRighter (Reklamalarni yangicha ko‘rinishi), grafik dizayner, web-dizayner, onlayn dars, murabbiy, ijtimoiy media menejeri, dastur ilovalari yaratish, tarjimon, maslahatchi, virtual buxgalter, matnlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis, tarmoq administratori, SMM marketingni yurituvchi mutaxassis, foto va video xizmatlar va boshqalar.

Masalan: tarmoq administratoridan tarmoq muammolarini hal etish, axborot xavfsizligi, serverlarda bo‘ladigan nosozliklarni bartaraf qilish, turli xildagi reklamalar va spamlarni o‘chirish kabi vazifalarni bajarish talab etiladi. Dizaynerlik bilan faoliyatini olib borganda afishalar, vizitkalar, logotiplar yaratish, turli sohalarga doir infografika tayyorlash, grafik dasturlar bilan ishlay olishi, banner, kalendar, jurnal va kitob muqovalarini yuqori did bilan tayyorlab, belgilangan vaqtda buyurtmachilarga yetkazish talab etiladi.

Dasturchi freelancerlar esa mobil ilovalar, o'yin dasturlari, web-saytlar yaratish, ma'lumotlar bazasi bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, dasturlash tillari (Python, Java, JavaScript, CSS kabi) da ishlash olishi lozim. Yuqorida keltirilgan yo'nalishlar bilan faoliyat olib borishda dastavval har bir kishi o'zi qiziqadigan yo'nalishni tanlashi, xizmat turlari va narxini to'g'ri belgilab olishi, telekommunikatsion vositalarga ega bo'lishi lozim.

Hozirgi vaqtda bir nechta web-freelance saytlari mavjud. Freelancerlik bu o'z qobiliyati, bilimi va o'zi qiziqqan faoliyat turi orqali pul topishning eng oson usuli. Freelancerlik juda ham ko'p qamrovli soha bo'lib, bunda hamma o'zi qobiliyatidan kelib chiqib xizmat turini taklif qilishi mumkin. Masalan: siz kompyuter grafikasiga qiziqasiz va CorelDraw, Flash, PhotoShop dasturlarida yaxshi ishlaysiz. Bemalol siz turli xil rasmlarni tayyorlash, chizish yoki animatsiyalar tayyorlash xizmatini taklif qilishingiz mumkin.

Freelancerlik bilan shug'ullanishda buyurtmalarni izlab topish va o'z ishini taklif qilishda asosiy manba bu – freelance web saytlardir. Freelance web-saytlar mijozlarni oson topishga hamda ish beruvchi ishonchini qozonishga xizmat qiladi. Freelance web-saytlardan foydalanib taklif qilingan loyihalarni bajarib, o'z qobiliyatini namoyish etib borishi orqali platforma kengayadi va buyurtmalar soni oshib boradi. Freelance web-saytlar freelancerlikni endigina boshlangan shaxslar uchun mo'ljallangan xizmat turi hisoblanadi.

Ushbu saytlarda har xil kasb egalari xizmat olib borishadi. Freelance web-saytlar qatoriga Freelance.ru, Freelancer.com, Weblancer.net, Freelancejob.ru, Upwork.com kabilarni kiritish mumkin. Hozirgi kundagi keng qamrovga ega web-sayti bu – freelancer.com sayti hisoblanadi. Ushbu sayt buyurtmachi va sotuvchilarni bir joyga to'plash uchun mo'ljallangan platformadir. Ushbu platforma orqali buxgalteriya, dasturiy ta'minot, muhandislik kabi loyihalarda ishtirok etish mumkin. Boshqacha aytganda, freelancer.com – bu butun dunyo bo'ylab mijozlar va freelancerlar uchun o'zaro manfaatli hamkorlik qilish vositasini taqdim etadigan onlayn ish bozoridir.

Avvalo foydalanuvchi mazkur saytdan ro'yxatdan o'tib, shaxsiy ma'lumot, elektron pochta manzilni tasdiqlaydi. Shundan so'ng foydalanuvchi o'z profilini yaratib oladi. Ushbu saytda qisqa yoki uzoq muddatli loyihalar joylashtiriladi. Freelancerlar joylashtirilgan loyihalar bilan tanishib, o'zi tanlagan yo'nalishga mos bajarilgan ishlarni mijozlarga taqdim etadilar. So'ngra mijozlar e'lon qilingan takliflarni va ish namunalarini ko'rib chiqib, eng malakali ishtirokchilarni aniqlaydilar hamda loyihani bir yoki bir nechta freelancerlarga beradilar. Mana shu orqali freelancerlik faoliyati rivojlanib boraveradi.

Hozirgi kunda talab eng yuqori bo'lgan freelancerlik yo'nalishlariga matn bilan ishlash, tarjima bilan shug'ullanish, dizayner, grafika bilan ishlash, web-saytlarni

yaratish, mobil ilovalar yaratish kabilarni sanash mumkin. Umuman olganda barcha freelancerlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, ish beruvchi va ishchilar o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydigan tarmoqda ya'ni internet orqali ishlovchi insonlar.

Bunday kasb egalariga advokatlar, fotosuratchilar, hisobchilar, tarjimonlar, dars va maslahat beradigan o'qituvchilarni misol keltirish mumkin. Ikkinchisi, ish sohasi aynan internet faoliyati bilan bog'liq bo'lgan insonlar. Masalan: dasturchi, dizayner, kopirayter kabi kasblarni keltirish mumkin. So'nggi vaqtlarda aksariyat firma va korxonalar masofadan ish olib boradigan xodimlar va freelancerlarning xizmatidan foydalanishni ma'qul topmoqda. Sababi, ortiqcha sarf-xarajatlarsiz ishni tashkil etish qulayroq ya'ni buyurtmachi freelancer uchun joy tashkil etishi, uni jihozlashi, elektr energiya sarfi uchun to'lovi to'lashi, oziq-ovqat uchun xarajatlardan xoli bo'ladi.

Freelancerlik faoliyati bilan shug'ullanishda yana bir muhim jihat bu chet tillarini mukammal bilishdir. Ayniqsa, internet orqali daromad qilishda ingliz tili muhim rol o'ynaydi. Ingliz tili dunyo bo'ylab keng tarqalgan til bo'lib, ko'pgina platformalar ishni bajarish uchun ingliz tilida ravon gaplashishni talab qiladi. Shuning uchun buyurtmachilar bilan muloqotga kirishishda buyurtmachi tilida gaplashish, ishni oson va samarali tugatishga sabab bo'ladi.

Freelancerlar ishlagan daromadlarini qabul qilib olishlari uchun albatta elektron hamyonga ega bo'lishi lozim. Masofaviy ishlarni bajarishda daromad olish uchun bir kishida bitta yoki bir nechta elektron hamyon kerak bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda eng qulay o'tkazmalar Yandex money, WebMoney, QIWI, PayPal kabi tizimlardan foydalanish mumkin. Ushbu tizimlardan ro'yxatdan o'tish orqali foydalanish mumkin.

Freelancerlik faoliyati sohalari juda ham keng. Bunda o'quvchi va talabalar uchun ham imkoniyat mavjud. Masalan: onlayn repetitorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Agar o'quvchi ba'zi bir fanlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, video darslar tashkil etish orqali boshqa o'quvchilarga ta'lim berish mumkin. Ushbu video darslarni YouTube yoki Instagram kabi platformalarga joylashtirish mumkin. Bunda daromad videolardagi reklamalardan kelib tushadi, qancha obunachilar ko'paygani sayin ko'proq daromad olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, freelancerlik faoliyati bilan shug'ullanish orqali inson yuqori daromadga ega bo'lishi, bo'sh vaqtini o'zi yoqtirgan mashg'ulot bilan o'tkazishi mumkin. Freelancerlik faoliyati bilan shug'ullanish xorijlik hamkorlar orttirish, insonlar bilan fikr almashish, yangiliklardan xabardor bo'lish, uydan turib ortiqcha xarajatlarsiz ishlash imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Carol Tice, Neil Tortorella “Freelance Business Bootcamp How to Launch, Earn, and Grow into a Well-Paid Freelancer” January 21, 2015. 29 p.
2. N. N.Zaripov Using methods of foreign experiences in teaching informatics and information technologies in school //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №.3 – С. 111-114.
3. N.N.Zaripov Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda webfreelance faoliyati //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
4. <https://www.freelancer.com/>

INFORMATIKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR FANINI O‘QITISHDA INFOGRAFIKALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Zaripov Nozimbek Nayimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasida, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada darsni ko‘rgazmali ko‘rinishda olib borish va talabalarga mavzuni tushunarli qilib tasvirlash uchun infografikalardan foydalanish usullari, infografining ta‘lim jarayonidagi o‘rni, vazifalari, xususiyatlari, tayyor infografikalar joylashgan web manzillar haqida to‘liq ma‘lumotlar yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: infografika, web sayt, ilmiy infografika, shablon, animatsiya, diagramma. Hozirgi kunda ta‘lim sifatini oshirish va talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Darsni sifatli va ko‘rgazmali qilib o‘tkazishda infografikalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo infografika tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, infografika (lotin. informatio – **xabardor qilish, aniqlik kiritish, ta‘riflash**) – bu murakkab va katta hajmdagi ma‘lumotlarni tez va aniq taqdim qilishga mo‘ljallangan ma‘lumotlarning grafik ko‘rinishida tasvirlanishidir. Infografikaning ta‘lim sohasidagi vazifasi – shakli va mazmuni jihatidan, ko‘rinishidan murakkab ma‘lumotlarni keng auditoriyaga tez va tushunarli qilib tasvirlashdan iborat. Infografikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborotni sintez qilish;
- murakkab ma‘lumotlarni tushunishga ko‘maklashish;
- talabalarda mavzuga doir tasavvurni shakllantirish;
- matnlarni ko‘rgazmali qilib tasvirlash;
- kiritilgan matn tartibiga xilma-xillik berish.

Infografika tarkibiy tuzilishiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi.

Grafika. Ular statistik ma‘lumotlarning grafik, ya‘ni ma‘lumotlarni vizual ko‘rinishda aks ettirishdir.

Qiyosiy infografik. Ikki yoki undan ortiq elementlarning farqlari va o'xshashliklarini qisqacha aniqlash taklif etiladi.

Infografik xususiyatlari. U narsaning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berishga xizmat qiladi.

Ilmiy infografik. Turli xil ilmiy nazariyalar va jarayonlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Arxitektura infografikasi. Arxitektura va qurilish inshootlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Biografik infografika. U jamiyatga ma'lum ta'sir ko'rsatgan inson hayoti to'g'risida ma'lumot berish uchun foydalaniladi.

Ketma-ket infografik. Voqealar ketma-ketligining qanday rivojlanishini ifodalash uchun foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda bir qancha infografika joylashgan veb saytlar mavjud. Bulardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

<http://powerpointbase.com/>


Ushbu web sayt orqali tayyor Powerpoint dasturi uchun mo'ljallangan tayyor infografikalarni ko'chirib olishimiz mumkin. Sayt ko'rinishi quyida keltirilgan (1-rasm). Shuningdek, bu saytda animatsion roliklar, sertifikat uchun tayyor shablonlar mavjud.



1-rasm. powerpointbase.com web sayting umumiy ko'rinishi.

<https://slidemodel.com/>

Ushbu web saytda 50.000 dan ortiq infografika uchun mo'ljallangan shablonlar mavjud. Shablonlar tarkibida turli xildagi fon rasmlari, diagrammalar, turli ko'rsatkichlarni ifodalash uchun infografikalar mavjud (2-rasm).



2-rasm. slidemodel.com web saytining umumiy ko‘rinishi.

<https://ru.smiletemplates.com>

Ushbu web saytda 100.000 dan ortiq infografika uchun mo‘ljallangan shablonlar mavjud. Shablonlar turli xil yo‘nalish va sohalar uchun mo‘ljallangan. Ta’lim sohasi uchun 4.000 dan ortiq shablonlar mavjud (3-rasm).



3-rasm. ru.smiletemplates.com web saytining umumiy ko‘rinishi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N.N.Zaripov Pedagogical problems and solutions in the use of programming environment in the teaching of computer science and information technology //International conference on multidisciplinary research and innovative technologies. – 2021. – T. 1. – С. 95-98.
2. N.N.Zaripov Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda webfreelance faoliyati //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
3. <https://ru.smiletemplates.com>
4. <https://www.ciloart.com>

ЗНАЧИМОСТЬ ПОДХОДОВ КОННЕКТИВИЗМА В ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

Тухтаева Фазилат Шавкат кизи

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми,
преподаватель кафедры информатики и методики ее преподавания
fazilatshavkatovna@gmail.com

Бихевиоризм, когнитивизм и конструктивизм - это три основные теории обучения, обычно используемые при разработке учебных сред. Однако эти теории были сформулированы во времена, когда технологии не оказывали существенного влияния на обучение. За последние два десятилетия технологии произвели революцию в нашем образе жизни, общении и обучении. Следовательно, потребности в обучении и теории должны отражать социальную среду, в которой они применяются. Вейлл подчеркивает, что обучение должно быть непрерывным процессом формирования установок и действий, которые отдельные люди и группы используют для адаптации к неожиданным и повторяющимся событиям.

Всего сорок лет назад учащиеся завершали необходимое образование и начинали карьеру, которая часто длилась всю жизнь. Развитие информатики было медленным, а знания имели длительный срок службы. Однако сегодня эти основополагающие принципы изменились. Знания быстро расширяются, и срок их службы измеряется месяцами и годами, а не десятилетиями. Гонсалес подчеркивает проблемы, связанные с сокращением срока службы знаний. Он объясняет, что "период полураспада знаний" - это время, необходимое для того, чтобы знания устарели, и в настоящее время половина того, что известно сегодня, не была известна десять лет назад. По данным Американского общества обучения и документации (ASTD), объем знаний в мире удвоился за последнее десятилетие и продолжает удваиваться каждые 18 месяцев. Чтобы справиться с сокращением срока службы знаний, организациям пришлось разработать новые методы обучения.

В результате этих изменений наметилось несколько важных тенденций в обучении:

1. Многие учащиеся на протяжении своей жизни будут переходить в различные области, даже если они не связаны между собой.
2. Неформальное обучение играет значительную роль в нашем общем опыте обучения, и формальное образование больше не является единственным источником приобретения знаний.

Теории обучения, такие как бихевиоризм, когнитивизм и конструктивизм, имеют определенные ограничения. Эти теории в первую очередь фокусируются

на обучении, которое происходит внутри индивидов, даже в случае социально-конструктивистских взглядов. Они не рассматривают обучение, которое происходит вне отдельных людей, например, обучение, которое хранится и обрабатывается с помощью технологий. Кроме того, эти теории не объясняют, как происходит обучение внутри организационных структур. Более того, эти теории не учитывают ценность того, чему обучаются. В современном сетевом мире важно исследовать природу информации, которую мы получаем.

Оценка полезности изучения чего-либо стала мета-навыком, который применяется до начала фактического процесса обучения. Когда знаний недостаточно, предполагается, что оценка полезности является неотъемлемой частью обучения. Однако в эпоху изобилия знаний оперативная оценка знаний приобретает решающее значение. Быстрый рост объема информации также создает проблемы. Иногда требуются действия без личного обучения, и нам нужно черпать информацию из источников, не связанных с нашими первичными знаниями. Способность синтезировать и распознавать связи и закономерности становится ценным навыком в таких ситуациях. Поскольку технологии продолжают влиять на обучение, устоявшиеся теории обучения необходимо рассматривать в связи с этими изменениями. Естественная склонность теоретиков заключается в пересмотре и развитии теорий по мере изменения условий. Однако может наступить момент, когда базовые условия изменились настолько существенно, что дальнейшая модификация уже нецелесообразна. В таких случаях требуется совершенно новый подход. Это поднимает важные вопросы о влиянии технологий и новых наук, таких как хаос и сети, на обучение. Как адаптируются теории обучения, когда знания больше не приобретаются линейным образом? Какие коррективы необходимо внести, чтобы приспособиться к этим изменениям?

Включение технологий и возможностей подключения в учебную деятельность знаменует собой сдвиг в теориях обучения в сторону цифровой эры. Мы больше не можем полагаться исключительно на личный опыт для приобретения знаний, необходимых нам для принятия мер. Вместо этого мы черпаем свою компетентность из формирования связей. Согласно Карен Стивенсон [2], мы можем накапливать знания, испытывая все на собственном опыте, включая опыт других людей. В этом смысле другие люди становятся суррогатом знаний, и мы храним наши знания в наших друзьях. Это подчеркивает важность формирования связей и сбора людей как средства сбора знаний.

Хаос стал новой реальностью для работников умственного труда. Найджел Колдер определяет хаос как "загадочную форму порядка". Это нарушение предсказуемости, характеризующееся сложными механизмами,

которые изначально бросают вызов порядку. В отличие от конструктивизма, который предполагает, что учащиеся пытаются способствовать пониманию с помощью задач по созданию смысла, теория хаоса утверждает, что смысл уже существует. Задача учащегося состоит в том, чтобы распознать скрытые закономерности в хаосе. Создание смысла и формирование связей между специализированными сообществами являются важнейшими видами деятельности в этом контексте.

Теория хаоса, как научная концепция, признает взаимосвязь всего сущего. Джеймс Глейк объясняет, что даже небольшие действия, такие как движение бабочки в Пекине, могут иметь далеко идущие последствия для погодных систем в Нью-Йорке[3]. Эта аналогия подчеркивает проблему "чувствительной зависимости от начальных условий". Это оказывает глубокое влияние на то, чему мы учимся, и на то, как мы действуем на основе нашего обучения. Это явление особенно влияет на процесс принятия решений. Если условия, лежащие в основе принятия решений, изменяются, само решение может быть уже не таким точным, каким оно было в момент его принятия. Таким образом, способность распознавать изменения шаблона и адаптироваться к ним является важнейшей задачей обучения.

Луис Матеус Роча [4] определяет самоорганизацию как спонтанное формирование хорошо организованных структур, паттернов или моделей поведения из случайных начальных условий. Эта концепция дополнительно подчеркивает важность распознавания и понимания паттернов в сложных системах.

Коннективизм - это интеграция принципов, описываемых теориями хаоса, сети, сложности и самоорганизации. Обучение – это процесс, который происходит в неопределенной среде с изменяющимися основными элементами, не полностью находящийся под контролем индивида. Обучение (определяемое как практическое знание) может находиться вне нас самих (в рамках организации или базы данных), сосредоточено на соединении специализированных наборов информации, и связи, которые позволяют нам узнавать больше, более важны, чем наше текущее состояние знаний. Коннективизм обусловлен пониманием того, что решения принимаются на основе быстро меняющихся основ.

Постоянно поступает новая информация. Способность проводить различия между важной и неважной информацией жизненно важна. Способность переосмысливать ситуацию, когда новая информация изменяет ландшафт, основанный на решениях принятых вчера, также имеет решающее значение.

Принципы коннективизма: Обучение и знания основаны на разнообразии мнений. Обучение - это процесс подключения определенных узлов или источников информации. Обучение может быть связано с нечеловеческими способностями. Способность знать больше имеет более важное значение, чем то, что известно в настоящее время. Развитие и поддержание связей необходимо для содействия постоянному обучению. Способность видеть связи между областями, идеями и концепциями является ключевым навыком.

Ценность (точные, актуальные знания) является целью всех видов учебной деятельности в рамках коннективизма. Принятие решений само по себе является процессом обучения. Выбор того, что изучать, и значение поступающей информации рассматриваются через призму меняющейся реальности. Хотя сейчас есть правильный ответ, завтра он может оказаться неправильным из-за изменений в информационном климате, влияющих на принятие решения. Коннективизм также решает проблемы, с которыми сталкиваются многие корпорации в деятельности по управлению знаниями. Знания, хранящиеся в базе данных, должны быть связаны с нужными людьми в нужном контексте, чтобы их можно было классифицировать как обучение. Бихевиоризм, когнитивизм и конструктивизм не пытаются решить проблемы организационного знания и передачи.

Информационный поток внутри организации является важным элементом организационной эффективности. В экономике знаний поток информации является эквивалентом нефтяной трубы в индустриальной экономике. Создание, сохранение и использование информационного потока должно быть ключевым видом деятельности организации. Поток знаний можно сравнить с рекой, которая течет по экологии организации. В определенных областях река разливается, а в других областях она отливает. Здоровье среды обучения в организации зависит от эффективного управления потоком информации.

Анализ социальных сетей является дополнительным элементом в понимании моделей обучения в цифровую эпоху. Арт Кляйнер [1] исследует “количественную теорию доверия” Карен Стивенсон, которая “объясняет не только то, как распознать коллективные когнитивные способности организации, но и как их развивать и приумножать”. В социальных сетях хабами являются люди с хорошими связями, которые способны стимулировать и поддерживать поток знаний. Их взаимозависимость приводит к эффективному потоку знаний, позволяя личному пониманию состояния деятельности организации.

Отправной точкой коннективизма является индивид. Личные знания состоят из сети, которая поступает в организацию и учреждения, которые, в свою очередь, поступают обратно в сеть, а затем продолжают обеспечивать обучение индивида. Этот цикл развития знаний (от личного к сетевому и

организационному) позволяет учащимся оставаться в курсе событий в своей области благодаря сформированным ими связям. Ландауэр и Дюме исследуют феномен, заключающийся в том, что “люди обладают гораздо большими знаниями, чем кажется из информации, с которой они ознакомлены”. Они обеспечивают коннективистский акцент, утверждая “простое представление о том, что некоторые области знаний содержат огромное количество слабых взаимосвязей, которые, при правильном использовании, могут значительно усилить обучение с помощью процесса логического вывода”. Ценность распознавания образов и объединения наших собственных “маленьких миров знаний” очевидна в экспоненциальном воздействии, оказываемом на наше личное обучение.

В современном взаимосвязанном мире крайне важно оценить характер и ценность информации, которую мы получаем, прежде чем приступать к процессу обучения. Эта оценка стала мета-навыком, особенно в эпоху изобилия знаний, где важна быстрая оценка. Кроме того, способность синтезировать информацию из различных источников и распознавать связи и закономерности стала ценным навыком.

Поскольку технологии продолжают оказывать влияние на обучение, необходимо пересмотреть устоявшиеся теории обучения и их совместимость с этими изменениями. В то время как теоретики обычно пересматривают и развивают теории по мере изменения условий, может наступить момент, когда базовые условия изменились настолько значительно, что дальнейшая модификация нецелесообразна. В таких случаях необходим совершенно новый подход. Это поднимает важные вопросы о том, как теории обучения могут адаптироваться к нелинейному приобретению знаний и какие коррективы необходимы для учета этих изменений.

ЛИТЕРАТУРА

- 1 Wiley, D. A and Edwards, E. K. (2002). Online self-organizing social systems: The decentralized future of online learning. Retrieved December 10, 2004
- 2 ScienceWeek (2004) Mathematics: Catastrophe Theory, Strange Attractors, Chaos. Retrieved December 10, 2004
- 3 Gleick, J., (1987). Chaos: The Making of a New Science. New York, NY, Penguin Books
- 4 Rocha, L. M. (1998). Selected Self-Organization and the Semiotics of Evolutionary Systems. Retrieved December 10, 2004

RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL ETISHG OID METODIK TAVSIYALAR

Turayev X.A., p.f.f.d. (PhD), dotsent

TerDU, drawing_master.th@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada chizmachilik darslarini tashkil etishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni va amaliy ahamiyati, chizmachilik darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablar haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: chizmachilik darslari, raqamli ta'lim texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda faqat kitob orqali bilim berishning o'zi kamlik qiladi shu bois chizmachilik fani bilan qatorda kompyuter texnologiyalardan foydalanish va ko'rgazmali qurollardan foydalanish zarur. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdan iboratdir.

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti va jamiyatimiz hayotiga yuz bergan tub yangilanishlar, shuningdek o'quv axborotlarining mutassil ravishda ortib borayotganligi ta'lim jarayoniga yangicha munosabatda bo'lishni taqazo etmoqda. Hech bir fan chizmachilik fanidek o'quvchilarning tasavvur hamda tafakkur qilish qobiliyatini o'stira olmaydi. Chizmachilik fani o'quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirib boradi, barcha konsruktor va muhandislar o'z g'oyalarini faqat chizmalardan foydalanadi.

Amalda o'quvchi chizmachilik fanini o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetida o'rganadi. Darsda o'qituvchining nazariy ma'lumotlarni tushuntirganidan keyin shu mavzu bo'yicha o'quvchilar ish daftarlarida grafik ish bajaradilar. O'qituvchi har o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi biladi va uni o'quv jarayonida hisobga olishi yaxshi samara beradi. Lekin o'quvchilar bilan individual shug'ullanish vaqti chegaralangan.

Umumta'lim maktablaridagi chizmachilik darslari o'zining xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlardan birmuncha farqlanadi. O'rganilgan ma'lumotlarning asosiy qismlari bo'yicha o'quvchilar individual grafik ishlarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlashiga to'g'ri keladi. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchi -talabalarga yetkazib berish, ulardan ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, ular faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, hamda malakalar darajasini baholash o'quvchi -talabalardan amaliy mashg'ulotga qiziqishini uyg'otish, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat, hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy o'qitishda pedagogik texnologiyalarini tashkil etishda aqliy va jismoniy kuchlarni ortiqcha sarflamasdan qisqa muddatda yuksak natijalarga erishish muhim talablardan biridir. Chizmachilik predmeti yoshlarimizga texnik taraqqiyot bilan birga uyg'unlashish, u bilan muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Ta'lim va tarbiya tizimiga innovatsion yondashish o'quvchilarda yangi tajriba orttirishga intilish, ijodkorlik va tanqidchilik kabi fazilatlarni shakllantiradi, kelajakka ishonchni kuchaytiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turayev, X.A. Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022. 83-106-betlar.

2. Turayev X. A. et al. YIG'MA BIRLIK CHIZMALARINI O'QISHDA TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISHGA OID ILMIY VA METODIK TAVSIYALAR //Молодой исследователь: вызовы и перспективы. – 2018. – С. 242-246.

3. Turayev X. A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 264-268.

4. Sattarov S. Y., Turayev X. A. METHODS OF CONSTRUCTING SURFACES ON THE BASIS OF GEOMETRICAL CONDITIONS USING AUTOCAD GRAPHICS SOFTWARE //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 89-93.

5. Raykhon O., Dilnoza O. RECOMMENDATIONS FOR THE FORMATION OF TARGETED ACTIONS OF STUDENTS IN RELATION TO SCIENCE THROUGH 3D MODELING //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 105-107.

6. Naweed N. A., Turakulov A. E. The role of urban planning norms and rules in creating a modern design of a library building //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 385-387.

ZAMONAVIY ISHLAB CHIQRISH AMALIYOTINI TASHKIL ETISH VA AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Baymetov Muxammatali Mexriddinovich

TDPU o'qituvchisi

Ta'lim talablari asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish amaliyoti nafaqat talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki mazkur jarayonga yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmagan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kamchiliklarini tuzatishga yordam beradi. Bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, amalga tatbiq etish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda.

Pedagogika oliy ta'lim muassasasilari uchun zamonaviy ishlab chiqarish amaliyotining tashkil etilishi tahliliga ko'ra bugungi kunda majburiy va tanlov fanlarning darsliklar hamda o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasi qoniqarli. Demak, o'quv adabiyotlariga bo'lgan talab yuqori, yaratilish jarayoni esa sekin kechmoqda.

Asosiy muammolardan biri bu ishlab chiqarish amaliyotidan adabiyotlarni yaratish jarayonini to'g'ri tashkil etish va uni boshqarish hamda monitoringini olib borish hisoblanadi. Yangi o'quv adabiyotini yaratishdan maqsad o'qituvchi va bo'lajak o'qituvchi o'rtasida fikrlarning mantiqiy bayoni jarayonida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, bo'lajak o'qituvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning tafakkurini rivojlantirish, faoliyatida ijodiy yondashish ko'nikmalarini hosil qilish va zamonaviy bilim asoslarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilishi kerak.

Shuningdek, darsliklarda berilgan matn, mashq va masalalarni illyustrativ materiallar, jadvallarni tanlashda o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, ya'ni ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish, amaliyot materiallari vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining bilim, ko'nikma, malakalari, egallagan shaxsiy sifatlarini nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Bugungi kunda ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va boshqarish texnologiya va metodikalari talab darajasida ishlab chiqilmaganligi hamda ilmiy-tashkiliy jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi ham muammo bo'lib turibdi.

Biz tomondan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari va pedagoglar bilan olib borilgan suhbatlar asosida sifatli ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish borasida quyidagi takliflar olindi: ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishda talabalarning bajara olish va tushuna olish saviyasi hamda qiziqishlarini, respublikamizning hududiy va milliy xususiyatlarini, sharoitlarini inobatga olish; ishlab chiqarish amaliyoti materiallarining tahlil qila olishligini bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining yoshiga moslash; ishlab chiqarish amaliyotini ishlab chiqarish korxonalari hamkorligida tashkil etish.

Ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tajribalari asosida ularni tayyorlashdan boshlab, uning oxirigacha qadar bo'lgan butun davrni bosqichlarga bo'lish mumkin. Bu bosqichlardagi faoliyatlarni amalga oshirish va tayanch pedagogika oliy ta'lim muassasasi yoki ta'lim muassasasi huzuridagi amaliyot bo'yicha uslubiy bo'lim tomonidan boshqarilishi va nazorat qilinishi kerak. Bunda ishlab chiqarish amaliyoti maqsadini belgilash va pedagoglar jamoasini tanlash, izlanish va materiallarni to'plash, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, sifatini aniqlash, mazkur jarayonni rejalashtirish va amalga oshirish hamda natija bo'lishi lozim. Dastlab, ishlab chiqarish amaliyoti pedagogika oliy ta'lim muassasasiining qaysi yo'nalishi va fani uchun mo'ljallanganligini aniqlash, namunaviy ishlab chiqarish amaliyoti dasturining mazmuni bilan tanishish tavsiya etiladi va bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining yoshi, materialni tushunish qobiliyati darajasi inobatga olinishi lozim. Amaliyot materiallari mavzuni o'zlashtirishda aniq maqsadga yo'naltirilishi lozim. Bu jarayonlar avvaldan belgilangan muayyan o'rganish maqsadlariga erishish uchun olib boriladi. Hozirgi paytda kun sayin o'zgarib borayotgan texnika va texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish uchun ishlab chiqarish sohasi mutaxassislari jalb etilishi ishlab chiqarish amaliyoti zamonaviyligini ta'minlaydi. Birinchi navbatda, o'tkaziladigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish konsepsiyasini yozma ravishda tavsiya etish, reja tuzish, mazmuniy-uslubiy tizimni bayon qilish, mavzular integratsiyasini joriy qilish yo'llarini izohlash lozim.

Qo'shimcha ravishda xuddi xorijdagi kabi pedagoglarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish bo'yicha tajriba va malakasini aniqlash uchun test sinovidan o'tkazish mumkin. Ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishga doir seminar va o'qishlar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Xulosa. Demak ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishda quyidagi qoidalarga amal qilish bu maqsadga erishishni osonlashtiradi: talabani o'zida mavjud bo'lgan bilimni qo'llashga undaydigan tushunarli va bajarish uchun qulay material tanlash; talabaga yangi g'oyalarni tushunishda va bilimlarni egallashda yordam beradigan amaliyot mavzusiga aloqador qiziqarli hamda hayotiy bo'lgan rasmlar, chizmalar, sxemalar, diagrammalar va jadvallar kiritish; talabaning o'rganayotgan sohada bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun topshiriqlar, amaliy mashqlar va nazorat savollari kiritish; pedagogning ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etishi uchun uslubiy maslahatlar va ko'rsatmalar berishni inobatga olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Байметов М.М. (2021) Касб-хунар мактабларида ўқув амалиётларини ташкил этиш ва самарадорлигини ошириш йўллари. – Academic Research in Educational Sciences, VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 1190-1195.

2. Байметов М.М. Ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётлари интеграциясини таъминлашнинг дидактик тамойиллари. - Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириш. №1/1 2022.

TALABALARNI O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIGA TAYYORLASH PRINSIPLARI

Yusupova Dildora Uktamovna

Samarqand davlat meditsina universiteti Fiziologiya kafedrasida o‘qituvchisi
yusupovadildora8@gmail.com

Talabalarni o‘qitishda, ularda motivatsiya uyg‘otish, fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish pedagogdan katta mahorat va bilimni talab qiladi. Talabalar motivatsiyasining ichki va tashqi omillari farqlanadi. Pedagogdan ana shu omillarni birlashtirib, rivojlantirish talab qilinadi. Katta yoshli talabalar diqqatini tanlab, kelajakdagi o‘zlashtiradigan kasbiga naqadar kerak ekanligini tushinganlaridan keyingina diqqatlarini jamlay oladilar, bunda motivatsiya asosiy rol uynaydi.

Yosh bolalardan farqli ravishda talabalarda bilishga, o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj unchalik katta emas, chunki ularda ma’lum bilimlarning bagaji mavjud. Bu holat ularda o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Pedagog yoki trenet buni albatta e’tiborga olishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabaning yangi materialni o‘zlashtirishida, o‘rganishida faqat pedagog emas balki uning o‘zi ham faol qatnashishi kerak. Bunda pedagogdan yuqori malaka va bilim talab qilinadi.

Bilimlarni o‘zlashtirishda talabaning o‘z-o‘ziga yordam bera olishi mumkin bo‘lgan omillarni tavsiya qilamiz:

- **Miyaning faoliyatini o‘rganing.** Masalan turli yoshda miyaning faoliyati, xotira qobiliyati, fikrlashning jadalligini o‘rganish yangi materialni o‘zlashtirishda kerak bo‘ladi. Miya – bu inert a’zo ya’ni unga keyingi yangi materialdan “ilmoq” tashlanganda, yangi mavzuga bo‘lgan qiziqish ortadi. Shu sababli keyingi yangi mavzudan birorta qiziqarliroq yangilikni aytib talabalarning motivatsiyasini oshirishga erishish mumkin. Lekin bu holat talaba charchaganda yoki stress holatida bo‘lganda ish bermaydi.

- **Serotonin miqdorini oshiring.** Ijobiy taassurotlar, sport, meditatsiya, sog‘lom va sokin uyqu – bularning hammasi miyaning faoliyatini jadallashtiradi, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish qobiliyatini oshiradi.

- **Hamma narsaga bir vaqtining o‘ziga ulgurishga harakat qilmang.** Atrofdagilarning yoki jamoadagilarning siz haqingizdagi fikrlarini bilishga harakat qilmang. Ba’zida o‘zingizga yengillik berish “erkalash”ga harakat qiling. Bu holatning sizga nisbatan samaradorligini tekshirish uchun Dilts piramidasidan foydalanib tekshirishingiz mumkin.

Dilts piramidasi 6 bosqichdan iborat:

1. Atrof- muhit.
2. Hulq- atvor.
3. Qobiliyat.
4. E'tiqod va ishonch.
5. Shaxs.
6. Missiya.

Har bitta bosqichda savol beriladi, savol berishni oxirgi bosqichdan boshlagan ma'qulroq. Piramidaning eng yuqori final bosqichi missiyaga yetib kelish kerak.

▪ **O'zingiz uchun yoqimli bo'lgan marosim yoki ritual ishlab chiqing.** Masalan, dars tayyorlashdan avval bir piyola choy yoki kofe iste'mol qiling, o'zingiz uchun yoqimli bo'lgan meditatsiya qilishingiz mumkin. Bu miyada "dars tayyorlash bu juda yoqimli" degan assotsiativ bog'liqlik hosil bo'lishiga olib keladi.

▪ **O'zingizga ortiqcha baho bermang.** Doimiy yoki odatdagi vaziyatlarga skeptik munosabatda bo'lishga harakat qiling. O'zingizga ba'zida dam bering.

▪ **O'zingizning qobiliyatingizdan kelib chiqib o'zlashtirishingiz lozim bo'lgan materialga tegishli vaqtini belgilang.** Kun tartibingizni rejalashtiring.

▪ **Xotirangizni doimiy ravishda oshirib boring.** Bunga she'r yodlash, badiiy kitoblar o'qish, chet tilini o'rganish bilan erishish mumkin. Qisqa muddatli xotiraning doimiy xotiraga o'tishini ta'minlash uchun takrorlash eng samarali usul hisoblanadi. Yangi materialning doimiy xotirada qolishi uchun o'tilgan materialni aytib bering, yozib oling yoki kerakli qismlaridan tayanch konspekt tayyorlang. Dars tayyorlashni o'zingiz uchun yoqimli mashg'ulotga aylantirishning turli usullarini kashf qiling. O'qish-o'rganish qiyin, lekin hech qachon kech emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qish va o'rganishga ichki va tashqi motivatsiya, yuqori malakali pedagog yoki trener, sharoit bo'lsa bo'lajak tibbiyot xodimlarini tayyorlashning samaradorligi yanada ko'tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Y.D. Uktamovna. Pedagogical Conditions for the Formation of Students Clinical Thinking.

2. D.U. Yusupova. Impact of Coronavirus Infection (Covid-19) On Diabetic Periodontopathies.

3. Yusupova Dildora Uktamovna / Methods of Teaching Obstetrics and Gynecology to Medical University Students Using Innovative Technologies.

4. Романов, М.Г. Педагогические технологии в медицине / М.Г. Романов, Т.В. Сологуб. – М.: ГЭОТАР Медиа, 2007. - 112 с.

5. Артюхина А.И., Чумаков В.И. Интерактивные методы обучения в медицинском вузе: учебное пособие. - Волгоград: ВГМУ, 2011.

6. Косолапова М.А., Ефанов В.И., Кормилин В.А., Боков Л.А. Положение о методах интерактивного обучения студентов по ФГОС в техническом университете: для преподавателей ТУСУР - Томск: ТУСУР, 2012.

TALABALARNING TEXNIK-KONSTRUKTORLIK KOMPONENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Shodiyeva Sitora Ulug'bek qizi

Buxoro davlat universiteti birinchi bosqich doktoranti

shodiyevasitora081@gmail.com

Jahonda ta'lim sohasida talabalarning texnik konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish keng ko'lamda o'qitish jarayonlarini texnologiyalashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'lim samaradorligiga erishish, sifatni boshqarish paradigmasini talablarga mos holda joriy etishga oid tadqiqotlarning amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida talabalarning texnik konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash talab etilmoqda. Raqamli texnologiyalar talabalarni egallayotgan bilimlarni mustaqil qidirib topishlariga, o'rganib, tahlil qilishlariga va imkon darajasida xulosalarni keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonida shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Axborotlar almashinuvining globallasuvi, shuningdek, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida ro'y berayotgan ilmiy yangiliklarning son va sifat jihatidan keskin o'sib borishi o'z-o'zidan talabalarga ular borasida tezkor suratda va batafsil ma'lumotlar berishni kun tartibiga qo'yimoqda. Ushbu talabning ijobiy ravishda qondirilishi, eng avvalo ilmiy-nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishning qulay, maqbul shakli bo'lgan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Axborotlashgan jamiyat yuzaga kelayotgan va globallasib borayotgan davrda insoniyat taqdiri axborot almashunuv, o'quv jarayoni va ishlab chiqarishda qatnashuvchi barcha insonlarning bu mehnat qurolini o'zlashtirishga yo'naltirilgan kompyuter tayyorgarligi qanchalik to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq.

Talablarning texnik konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda kompyuterlashtirish, keng ma'noda esa axborotlashtirish o'rganish uchun zarur axborotni tanlash bilish, uni ta'lim shakliga solish, bu axborotni talabalarga o'zlashtirish, tushunish va eslab qolish uchun berish maqsadida axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish demakdir. Pedagog olimlar

A.N.Tixonov va V.A.Sadovnichiy: «Ta'limni axborotlashtirish -axborotlashgan jamiyat sharoitida talaba ishlarini jamoatchilik va kasbiy faoliyatida to'laqonli va samarali qatnashishiga tayyorlash maqsadida, ta'lim tizimining barcha komponentlarini axborot texnologiyalarini qo'llash asosida yaxshilash jarayonidir» deb ta'kidlaydilar. Shuningdek, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishda asosiy tushunchalar mavjud bo'lib, ularga quydagicha ta'rif berilgan: Axborot texnologiyasi-ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish jarayonida hisoblash texnikasidan foydalanish yo'llari, usullari va uslublari. Axborot texnologiyalari -axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari mavjuddir. O'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy tizimga nisbatan o'quv jarayonini faollashtirib, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularning ijodiy faoliyatini o'stirishga, konstruktorlik qobiliyatini rivojlantirishda va o'quv jarayonini faol sub'yektiga aylantirishga yordam beradi. O'qitishning kompyuter texnologiyalari - amalga oshirish vositasi kompyuterdan ibrat bo'lib, talabaga axborotlar oqimini tayyorlash va uzatish jarayonidir. Axborotlashgan jamiyat -bu axborotlashgan madaniyat yuqori darajada bo'lgan jamiyat bo'lib, unda rivojlanish manbai bilim va uni amalga oshirish vositasi ta'lim hisoblanadi

Talabalarning texnik tafakkurini va mehnatga ijodiy munosabatini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika taraqqiyotining jahon standartiga chiqishi, mahsulot sifatini tubdan yaxshilash, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislariga politexnik ta'lim berish orqali hozirgi ishlab chiqarish sanoatiga xos texnik-texnologik, konstruktorlik va ishlab chiqarish faoliyatlarining asoslarini egallanishiga erishiladi.

Kompetensiya - lotincha «Competentia» so'z bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo'lgan» kabi ma'nolarni bildiradi.

Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o'qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko'nikma va malakasi, shuningdek o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirish, amalga oshirish usullari va vositalarining uyg'un birlashishini tushungan.

U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan

pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo'lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz: - faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko'nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);

- shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish va amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malakalar);

-kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malaka) Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilar bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

-maxsus pedagogik kompetensiya; pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq;

-ijtimoiy pedagogik kompetensiya; Ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik; Bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan;

-shaxsiy pedagogik kompetensiya; Bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kasbiy kompetentlikning tarkibiga kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o'z kasbini nomoyon eta olishdagi kompetentligini kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Ashirboyev. A.O., Tashimov N.E. "Muhandislik fanlarini o'qitish metodikasi". Toshkent-2020.

2. A.R.Jo'rayev Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Buxoro sh. 2015 –yil.79 -80 b.

3. Maratovich, S. S. (2022). Talabalarning ijodkorlik qobiliyatini konstruksiyalash masalalari orqali rivojlantirish. Zamonaviy ta'lim: muammo va yechimlari, 114-119. <http://conf.iscience.uz/index.php/mahalliykonf/article/view/195>.

4. N. Muslimov, M. Usmonboeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" – Toshkent – 2015.

5. Sayidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar" – Toshkent: "Moliya" – 2003.

6. Jo'raev H.O, Qulieva Sh.H, To'rabekov F.S, Karmova M.N. "Texnik ijodkorlik va dizayn" – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 240.

7. Quliyeva Sh.H, O.H.Uzakov, D.A.Nazarova "Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanida talabalarning kompetentligini rivojlantirish mazmuni" Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2021) / ISSN 2181-1415

BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPONENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Shodiyeva Sitora Ulug'bek qizi

Buxoro davlat universiteti birinchi bosqich doktoranti

shodiyevasitora081@gmail.com

Talabalarni ijodiy tafakkurini va mehnatga munosabatini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida fan – texnika taraqqiyotini jahon standartiga chiqishni, mahsulot sifatini tubdan yaxshilashni, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislariga politexnik ta'lim berish orqali hozirgi ishlab chiqarish sanoatiga xos texnik-texnologik, konstruktorlik va ishlab chiqarish faoliyatlarining asoslarini egallanishiga erishiladi.

Texnik - konstruktorlikning asosiy maqsad va vazifasi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar maktablari va texnikumlarda, sinfdan, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida talabalar ijodiy faoliyatini tashkil qilishning ilmiy metodik asoslarini o'rgatishdan iboratdir. Ular quyidagilardan iborat:

– talabalarning umumkasbiy tayyorgarligi jarayonida texnik– konstruktorlikga oid bilimlar tizimiga ega bo'lishi;

– texnik – konstruktorlikning tashkiliy va iqtisodiy asoslari bilan tanishtirish;

– kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatorlik va patentlash asoslari bo'yicha tushunchalarga ega bo'lishi;

– texnik masalalarni yechish metod va usullaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish;

– texnik – konstruktorlik ob'yektlari uchun texnik hujjatlarni tuzish;

– mustaqil ravishda texnik ob'yektlarni va ularning modellarini loyihalay olish;

– texnik – konstruktorlik bo'yicha sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlar uchun moslama, dastgoh va boshqa jihozlarni mustaqil loyihalay olish;

– Respublikada o'quvchilar texnik – konstruktorlikga faoliyatini hozirgi holati va uni takomillashtirish istiqbolini tushuntirish;

– o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilishning asosiy metodik asoslarini bilish;

– texnik – konstruktorlik to‘garaklari faoliyatining mazmuni, tashkiliy asoslari, texnik ob‘yektlarni ilmiy asosda tanlay olish;

– to‘garaklarni o‘quv moddiy – texnik bazasini tashkil qila olish;

– sinfdan va maktabdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarida texnik – konstruktorlikni metodik asoslarini bilish;

– o‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga tegishli bo‘lgan oilaviy va ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni ilmiy asoslarini bilish kerak.

Pedagogik ta‘lim muassasalarida bo‘lajak texnologik ta‘limi o‘qituvchisi texnik - konstruktorlikni shakllantirish masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, talabalarga konstruktorlik faoliyatiga tayyorlashning samarali yo‘llarini aniqlash va mazmunini muvofiq tanlash bilan birgalikda, o‘quv jarayonida texnik – konstruktorlikni bo‘lajak mutaxassislarining ijtimoiy va kasbiy tayyorgarligi bilan umumlashtirishning aniq usul va vositalarini ishlab chiqishdek muhim pedagogik vazifani o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu jarayon vatanimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni aks ettirishi va zamonaviy ilmiy talablarga to‘laroq javob berishi kerak.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg‘a harakatlantiruvchi asosiy omil bo‘lib kelgan. Shunday ekan, yosh avlodni ijodiy mehnatga o‘rgatish, uni o‘z zamonasining eng ilg‘or bilimlari bilan qurollantirish barcha davrlarda hamma xalqlar uchun eng dolzarb vazifa hisoblangan.

Texnik – konstruktorlikni tashkil qilishda ikki o‘zaro bog‘liq vazifani e‘tiborga olish lozim. Ularning birinchisi, ta‘lim oluvchilarga konstruktorlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilimlarni egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; ikkinchisi, o‘zlashtirilgan bilimlarni ta‘limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishga o‘rgatish bilan belgilanadi.

Texnik – konstruktorlikda ta‘lim oluvchilar egallayotgan bilimlarining mustahkamligi va mukammalligini ta‘minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining fan asoslarini o‘zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda ijodiy ishlar shakllarini ishlab chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnik – konstruktorlikka bo‘lgan ehtiyoj psixofiziologik jihatdan qaralganda, o‘z rivojlanishida bir nechta bosqichlarda amalga oshadi. Bulardan birinchisi havas - ehtiyojning eng sodda shakli bo‘lib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo‘lgan xohish ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning ma‘lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi, eng murakkab bosqich bo‘lgan qiziqish xohish va u bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta‘sirilar, shaxs faoliyati hamda ta‘lim-tarbiya jarayoni ta‘sirida shakllanib boradi. Bu holatlar psixologik omillar - diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, sezgi va iroda xislatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, shaxsning shakllanishida alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari rahbarligida o'quvchilarda dastlabki texnologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan, ularni unumli mehnatga jalb qilishdan tashqari, o'g'il va qizlarda texnik tafakkurni hamda texnik – konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantirish kerak.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarning texnik – konstruktorlik faoliyatini boshqarishga tayyorlash uchun talabalar konstruksiyalash va modellashtirish ishlarini o'zlashtirishlari lozim. Konstruksiyalash jarayoni detalning shaklini, o'quv ustaxonasida uni tayyorlash imkoniyatini aniqlash bo'yicha mustaqil fikr yuritib ishlashni taqozo qiladi.

Konstruksiyalash mashg'ulotlari aqliy faoliyat malakalarini shakllantiradi, kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, o'quv materialini ongli va puxta o'zlashtirishda yordam beradi, kasbiy ko'nikma va malakalarining shakllanishini tezlashtiradi.

Texnik – konstruktorlikda yangi yechimlarni ishlab chiqishdan to rasmiylashtirishgacha bo'lgan davrni amalga oshirishda, undagi jarayonlarning muhimligi, murakkabligi va ahamiyatiga bog'liq holda fikrlash jarayoni turli davrlarda amalga oshadi. Bu o'rinda eng katta qiyinchiliklar aniq, haqiqatdan, mavjud buyum va ko'rsatgichlardan abstrakt, yaratilajak mavhum modellarga o'tish va nazariy tajriba-sinov ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilardagi umumpedagogik bilim va ko'nikmalarni reproduktiv, reproduktiv-ijodiy, ijodiy reproduktiv va ijodiy darajalarga bo'lib ko'rsatadi. Shu asosda texnik – konstruktorlik g'oyalarini amalga oshirishning fikrlash faoliyati produktiv va reproduktiv xususiyatlari almashinuviga bog'liq bo'lgan 4 ta davrini ajratib oldik.

Birinchi davrda fikrlash faoliyati produktiv xususiyatga ega bo'ladi, bunda mavjud muammoni anglash, idrok qilish, yechimini topishga ehtiyoj sezish jarayoni boradi.

Izlanuvchining bilim va tajribasi qanchalik ko'p bo'lsa, bu jarayon shu qadar kam vaqt davom etib, reproduktiv xarakterga ega bo'lgan ikkinchi davr - muammo yechimini topishga o'tiladi. Bu davrning davomiyligi ham izlanuvchi bazaviy bilimi, tajribasi, dunyoqarashi kengligi, qidirilayotgan yechimning izlanuvchi mutaxassisligiga bog'liq bo'lib, unda qaralayotgan muammoning yechimi bo'lib xizmat qila oladigan holatlar tahlil qilinadi.

Uchinchi davr-produktiv davrda hal qilinishi lozim bo'lgan muammo va tanlangan yechim o'zaro bog'lanadi va texnik yechim konsepsiyasi taklif qilinadi. U ixtironi amalga oshirishning eng ma'suliyatli davri bo'lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi taklif etilayotgan g'oyaning ijtimoiy bahosini shakllantirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, yechim ijobiy natija bersa, uning amaliyotga tadbiq qilinishiga asos yaratiladi, yoki, aksincha, yechim kutilgan natijani bermasa, u inkor qilinadi.

To'rtinchi davr-reproduktiv davrda taklif etilayotgan yechimni asoslash uchun hisoblash va tajriba-sinov ishlari bajarilib, texnik yechimni ishlab chiqishning uchinchi davrida amalga oshirilgan ishlarning natijasi nazariy va amaliy isbotlab beriladi.

Har bir bosqichning natijaligi o'quvchilarda texnik fikrlash, mehnat ko'nikma va malakalari rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ta'lim jarayonining eng muhim komponentlari - uning tashkiliy shakllari.

Oliy maktabni qayta qurish sharoitida konstruktsiyalash - texnologik masalalarni hal qilish uchun ta'limning quyidagi shakllari eng samaralidir: texnik konstruktsiyalash va modellashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar; brigada, individual, zveno shakllari va ularning turli birlashmalari: har xil yoshdagi talabalardan iborat brigada va hokazolar.

Texnik konstruktsiyalash va modellashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar deganda o'quv - mehnat faoliyatining izchil tashkil etilishi tushuniladi. Bu faoliyat ham kollektiv, ham individual ish turlarini o'z ichiga oladi va bu ishlar pedagog tomonidan tashkil qilinib, bunda talabalarning o'quv materiallarini aktiv, ongli va mustahkam o'zlashtirishi ko'zda tutiladi.

Texnik konstruktsiyalash va modellashtirishda bir xil tipdagi qurilmalar, modellar va maketlarni tayyorlash uchun ta'limning frontal shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda pedagog talabalar uchun tegishli murakkablikdagi ob'yektlarni tanlaydi. U konstruktsiyalash bo'yicha ta'limning frontal shaklidan foydalanishda butun gruppani modellashtirishning faqat bitta ob'yekt bilan shug'ullanishga tayyorlaydi va bu tadbir uni tayyorlashga sarflanadigan vaqtni, texnik - texnologik hujjatlar hajmini, bir xil tipdagi asbob va moslamalarni, o'xshash mehnat usullarini ko'rsatish va hokazolarni ancha kamaytiradi.

Talabalar bajarayotgan konstruktorlik - texnologik ishlar o'zining murakkabligi va sermehnatligi bilan kollektiv bo'lib, ishlashni taqozo qilsa ham hamda bir-biriga yaqin va xarakteri jihatdan har xil bo'lsa, mashg'ulotni tashkil etishning zveno shaklidan foydalaniladi. Ko'pincha bunday hollarda murakkabroq bitta ob'yekt bilan 2-3 nafar va bundan ko'proq talaba shug'ullanadi. Tayyorlanadigan ob'yektlar o'z mazmuniga ko'ra bir xil va xarakteriga ko'ra har xil bo'lsa, texnik modellashtirish konstruktsiyalash bo'yicha amaliy mashg'ulotni tashkil etishning individual shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday hollarda deyarli har bir talaba individual topshiriqni bajarishi pedagog uchun muayyan qiyinchilik tug'diradi. Chunki bunday mashg'ulotlarda ko'pincha ayrim talabalarga yozma instruksiyalar tayyorlashga va ular ana shu instruksiyalar bo'yicha yangi o'quv materialini o'rganishlariga to'g'ri keladi.

Mashg'ulotni tashkil etishning aralash shaklidan modellashtirishning har xil ob'yektlarini bajarishda foydalaniladi. Shularga ko'ra maktab o'quv ustaxonalaridagi texnik konstruktsiyalash va modellashtirish mashg'ulotlarining tashkiliy shakllarini dasturdagi o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga, ob'yektlarning xarakteriga, ta'limiy - pedagogik va ishlab chiqarish talablariga qarab tanlanadi.

Bilimlarni to'g'ri idrok etishlari, anglashlari, eslab qolishlari va amalda ijodiy qo'llashlari, zarur ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun didaktika printsiplari va o'rganiladigan materialning xarakteriga muvofiq mehnat ta'limining eng samarali metodlaridan foydalanishi kerak. Ma'lumki ta'lim metodining turli klassifikatsiyasi mavjuddir. Mehnat ta'limi, unumli mehnat va talabalarning texnik ijodkorligi amaliyoti uchun eng ma'quli o'zaro bog'liq ikkita jarayon - pedagogning rahbarlik faoliyati va talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati yaqqol namoyon bo'ladigan - pedagog va talabalar ishining usullari bo'yicha beriladigan metodlar klassifikatsiyasidir. Bu klassifikatsiya talabalarning mehnatga tayyorlanishi va

unumli mehnatda asosiy o`rinni egallaydi. Ijodiy faoliyat metodlarining ana shunday klassifikatsiyasi sifatida quyidagilar qabul qilinishi mumkin:

1. Muammoli ta`lim metodlari - o`quv materialini muammoli bayon etish, izlanish suhbatlari, tadqiqot metodi

2. Og`zaki metodlar - ijodiy suhbat;

3. Ko`rsatmalilik metodlari - ratsionalizatorlik faoliyatini kuzatish, turli ijodiy ishlarni namoyish qilish;

4. Amaliy ish metodlari - talabalarning mustaqil ijodiy ishlari, texnik adabiyotlar va spravochniklar bilan ishlash;

5. Nazorat qilish metodlari - ijodiy topshiriqlarni tekshirish, texnik masalalarni hal etish va ularni nazorat qilish. Bunda pedagogning vazifasi har bir amaliy mashg`ulotda texnik ijodkorlikning turli metodlarini uyg`unlashtirib, talabalar o`quv materialini chuqur o`zlashtirishini ta`minlashdan iboratdir. Texnik ijodkorlikning turli metodlari va didaktik usullari o`quv materialining mazmuniga va mashg`ulotda hal qilinadigan didaktik hamda tarbiyaviy vazifalarga qarab har xil yo`sinda qo`shib va o`zaro bog`lab qo`llaniladi. O`quvchilarni ijodiy faoliyati jalb etish bo`yicha asosiy psixologik pedagogik talablarni bajarish bilan birga bunday faoliyatning mazmuniga qo`yilgan maqsadga va o`quvchilarning yoshiga muvofiq metodlarni tanlash ham katta ahamiyatga ega. Hozir qator samarador metodlar aniqlangan, ularga quyidagilar kiradi: buyumlarni konstruksiyalash (modellashtirish), manipulyativ konstruksiyalash, ma`lumotlari qisqartirilgan texnik hujjatlarni qo`llash, ijodiy masalalarni hal qilish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, ilgari tayyorlangan konstruksiyalarni o`zlashtirib, ishlarni qayta bajarish, xayoliy eksperiment, texnik vositalardan (shu jumladan trenajyorlar) foydalanib kamchiliklarni tuzatish kabilar. Ana shu metodlardan muayyan tartibda foydalanish o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o`stirish ularda texnik sohasidagi mehnatga qiziqish uyg`otish imkonini beradi.

Texnik – konstruktorlikni tashkil qilishda ikki o‘zaro bog‘liq vazifani e‘tiborga olish lozim. Ularning birinchisi, ta‘lim oluvchilarga konstruktorlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilimlarni egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; ikkinchisi, o‘zlashtirilgan bilimlarni ta‘limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishga o‘rgatish bilan belgilanadi. Texnik – konstruktorlikda ta‘lim oluvchilar egallayotgan bilimlarining mustahkamligi va mukammalligini ta‘minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirboyev. A.O., Tashimov N.E. “Muhandislik fanlarini o‘qitish metodikasi”. Toshkent-2020.

2. A.R.Jo‘rayev Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Buxoro sh. 2015 –yil.79 -80 b.

3. Maratovich, S. S. (2022). Talabalarning ijodkorlik qobiliyatini konstruksiyalash masalalari orqali rivojlantirish. Zamonaviy ta'lim: muammo va yechimlari, 114-119. <http://conf.iscience.uz/index.php/mahalliykonf/article/view/195>.

4. N. Muslimov, M. Usmonboeva “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” – Toshkent – 2015.

5. Sayidahmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar” – Toshkent: “Moliya” – 2003.

6. Jo'raev H.O, Qulieva Sh.H, To'rabekov F.S, Karmova M.N. “Texnik ijodkorlik va dizayn” – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 240.

7. Quliyeva Sh.H, O.H.Uzakov, D.A.Nazarova “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanida talabalarning kompetentligini rivojlantirish mazmuni” Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2021) / ISSN 2181-1415

ROBOTOTEXNIKA ASOSLARINING FANLARARO INTEGRATSIYASI

Atayeva Sarvinoz Rustamovna

BuxDPI 7 TEX-22/23 guruh magistranti

Robototexnika asoslari fanining asl negizida, fizika, matamatika, informatika va kimyo fanlari bilan aloqadorlikni ko'rish mumkin. Robotni boshqarish dasturi shunday ishlashi kerakki, robotga ta'sir qiluvchi barcha tashqi kuchlar yig'indisi mexanik ob'ektimiz harakatlanadigan sirt tomon yo'naltiriladi. Bunda aylanish momenti hosil bo'lmasligi muhim aks holda robot yiqiladi. Aytgancha, bu harakat usuli odamga xos emas, bunda talabaning izlanuvchan aqli o'zi xulosa chiqarishi mumkin. Namlik, temperatura o'lchash detektorlarining ishlashi esa talabalni kimyo fani tomon yo'naltiradi [1]

Ta'lim jarayonida foydalaniladigan robotlar hozirgi paytda tobora muhim va dolzarb bo'lib bormoqda. Bu muhandislik ko'nikmalarini shakllanishi va rivojlanishi jarayoning muhim ob'ekti hisoblanadi. Robototexnika asoslari muhandislik ta'limining bir qismi bo'lib bugun biz bu bilan faol ravishda shug'ullanishimiz kerak bo'lmoqda. Maktabdan boshlab muhandislik kasblarini ommalashtirish maqsadida hozirgi kunda turli tanlovlar, musobaqalar tashkil etish lozim bo'lmoqda. Robototexnika asoslari talabalarni ilg'or rivojlanish rejimida rivojlantiradi, ya'ni Robototexnika asoslari fani texnik mexanika, Gidravliika, Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash, texnologiya va dizayn, 3 D modellashtirish, informatika, matematika, texnologiya, fizikaga asoslangan. Talabalar robot konstruksiyasini (mexanik jihatdan) qurish va uning dasturiy qismini (Software) yozishni o'rganadilar, datchiklar, sensorlar, diodlar va boshqa qurilmalarni ulash va ularni mikroprosesorlarga dasturlash orqali turli xil robot-konstruktorlarni yaratishni o'rgatadi. [2]

Robot texnikasini o'rganayotgan talabalar, birinchi navbatda, o'zlari, imkoniyatlari, qiziqishlari haqida bilishadi; bundan tashqari, ular jamoada ishlash

qobiliyatini rivojlantiradilar. Robototexnika asoslari har qanday faoliyat sohasidagi ta'lim ishtirokchisining loyiha qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan utilitar ko'nikmalarni umumiy madaniy kompetentsiyaga aylantirishga qodir qiymat sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. [3]

Asosiy vazifamiz innovatsion ta'lim sermahsulligini aniqlash, ta'minlash va shakllantirishdan iboratdir hamda o'quvchilarni o'qitishning uzluksizligi orqali muhandislik ko'nikmalarni rivojlantirish, yangi avlod robot dizayner vositalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Talabalar kasb – hunar tayyorgarligini avvalo kasbiy ko'nikma va malakalar shakllanishi jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib talabalar tamonidan dastlabki kasbga oid tushunchalar, ma'lum ish harakat turlari, ushbu harakatlarni amalga oshirish usullari va murakkab texnologik jarayonlarni tushunish holatlari bilan belgilanib, pedagogika fanlari doktori professor O'.Q.Tolipov tomonidan kasbiy ko'nikma va malakalar shakllanish jarayonini bir nechta bosqichlarga ajratish ko'rsatilgan.

Ushbu bosqichlarning birinchisi ma'lum mehnat, ish harakat va texnologik operatsiyalarni dastlabki tanishtiruv ahamiyati muhim hisoblanib, vazifasi o'quvchini nimaga va qanday erishish to'g'risidagi bilimlar, o'z harakatlarini mustaqil nazorat qila olish imkonini beruvchi yo'nalishlar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

Ikkinchi bosqichda ko'nikma va malakalar hosil bo'lishining amaliy bosqichi harakat elementlarini egallashdan boshlanadi deb hisoblaydi.

Navbatdagi malaka va ko'nikmalar shakllanishining uchinchi bosqichi dastlabki ko'nikmalarning takomillashishi va mustahkamlanishi, uning mashqlar yordamida malakaga aylanib borishi bilan belgilanadi.

Uchala bosqichni egalash uchun hozirgi kunda o'qitish va o'rgatishning innovatsion texnologiyalarni qo'llash bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib Robototexnika asoslarini o'rgatish ushbu muammolarni yechimi sifatida ko'rsatilmoqda. Robototexnika asoslarini o'rgatishni yana bir dolzarbliq muhandislikni egalalash, kognitiv tadqiqot va konstruktiv faoliyatni rivojlantirishdan ibortdir. O'quv jarayonida sodda muhandislik va Robototexnika asoslari vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish davlat ta'lim standarti talablari bilan belgilangan.

Muhandislik ko'nikmalaridagi asosiy narsa bu aniq texnik, texnologik, ishlab chiqarish, tashkiliy va boshqaruv muammolari va vazifalarini texnik vositalar yordamida hal qilish, innovatsiyalarni ilgari surish va amalga oshirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanish tendesiyalaridan biri bo'lgan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda texnik iqtisodiy, samarali va yuqori sifatli natijalarga erishish, shuningdek, ishlab chiqarish va mehnatni, mashinalar va texnologiyalarni insonparvarlashtirish uchun lozim bo'lmoqda. [4]

Yaqin kunlarda Buxorodagi 6 ta davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablariga robototexnika qurilmalari yetkazib beriladi.

Ta'lim sohasida robototexnika qo'llansa, bolalar atroflicha fikrlash, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganishi oson kechadi, aniq fanlar bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llaydi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Buxoro shahridagi 4-, Peshko' tumanidagi 1-, Olot tumanidagi 1-, Vobkent tumanidagi 40-, Qorako'l tumanidagi 15- va G'ijduvon tumanidagi 45-IDUMLarning har biriga 2 to'plamdan iborat robototexnika qurilmalari yetkazib berildi.

Endilikda ushbu muassasalarda robototexnika to'garaklarini tashkil etish orqali fizika, matematika, informatika darslarini chuqurroq o'rganish, yoshlarning teran fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, jamiyat hayotida o'z o'rinlarini topishlarida juda katta ijobiy o'zgarishga erishish mumkin. [5]

Robototexnika asoslari bizda rivojlanayotgan pedagogik innovatsiya sifatida qaraladi. Uning ta'limotining ko'pgina amaliy jihatlari, bundan tashqari, tasdiqlovchi emas, balki so'roq shaklida ko'rsatilgan. Biroq, yaxshi qo'yilgan savol allaqachon javobni o'z ichiga oladi. O'zbekiston ta'limida robot tizimlari avtomatik boshqaruv nazariyasi va mexatronika sohasidagi zamonaviy yuqori texnologiyali tadqiqot vositalari sifatida ham mashhur. Ularning umumiy va oliy kasbiy ta'lim muassasalarida qo'llanilishi loyihaviy ta'lim kontsepsiyasini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Talabalarining muhandislik - texnologik ta'limda Robototexnika asoslari majmualarining imkoniyatlaridan foydalanish bir vaqtning o'zida bir nechta tegishli sohalarda boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi: mexanika, boshqaruv nazariyasi, sxemalar va dasturlash. Murakkab bilimlarga bo'lgan talab esa dunyoning yagona rasmini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, amaliyotda oliy o'quv yurtlarida allaqachon talabalar muhandislik va texnologiyada yuzaga keladigan haqiqiy amaliy muammolarni hal qilish zarurligini tushunishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Википедия, статья «Робот» <https://ru.wikipedia.org/wiki/Робот>
2. Robototexnika asoslari fanining o'quv dasturi
3. M. S. Abdullayeva O'quvchilar kasb-hunar ko'nikmalarini rivojlantirishda Robototexnika asoslarini o'rni Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021:
4. Петрущенко А. В. Журнал «Инновации в науке» www.sibac.info № 10 (71), 2017 г.
5. Instagram (<https://www.instagram.com/xalqsuzi.uz>)

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA TEXNOLOGIYA FANIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Axmedova Malika Muxsinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 7TEX-22/23 guruhi magistranti

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish. Ushbu talablar asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hozirgi davrning muhim vazifalaridan biridir.[1]

Ayni damda yurtimizda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy soha, jumladan, ta’lim tizimida amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar yangi ta’lim muassasalarining yaratilishi, davlat ta’lim standartlarining takomillashuvi, ta’lim sohasida ko‘proq natijalarga erishish uchun, o‘tilayotgan darsning mazmuni o‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun ta’lim tizimiga yuqori darajada e’tibor berilib, yangi innovatsion ta’lim metodlari va metodikalar yaratilyapti. Mavjud ta’lim mazmunining yangilanishi pedagog kadrlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Dunyo miqyosida pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri, ilg‘or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida ta’lim muassasalarida shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirish maqsadlarini aniqlashtirish, ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini takomillashtirish hisoblanadi. Ta’lim tizimida yuqori natijaga erishish uchun innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash asosiy rol o‘ynagani kabi nazariy bilimlarni amaliy ish jarayonida qo‘llash ham juda katta mazmunga ega. O‘quv jarayonida bilim ,ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda Texnologiya fani muhim ahamiyatga ega. Texnologiya fani umumiy o‘rta ta’lim maktablari taqvimiy o‘quv rejasida boshlang‘ich va 8-9 sinflarga haftasiga 1 soatdan jami 34 soat, o‘rta 5-6-7sinflar o‘quv yuklamasida esa haftasiga 2 soatdan jami 68 soatli dars rejasi tuzilgan. Boshlang‘ich va yuqori sinflarga 1 soat davomida Texnologiya fanining ham amaliy ham nazariy ko‘nikmalari hosil qilinsa, o‘rta sinflarda o‘tiladigan 2 soatli Texnologiya darsi dars jadvalida ketma-ket joylashtirilishi kerak. Buning asosiy sababi esa birinchi Texnologiya darsida o‘rganilgan nazariy bilimlar keyingi soatda amaliy mashg‘ulot jarayonida mustahkamlanadi va ko‘nikma hosil qilinadi. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ayni shu tomonlama Texnologiya fani muhi ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilar Texnologiya dars jarayonlarida o‘zlaridagi bo‘lgan nazariy yoki amaliy ishlarni bajarishga bo‘lgan qobiliyatlarni yaqqol aniqlab olishlari va rivojlantirishlari mumkin. Bunga qoshimcha ravishda ta’lim sohasida fan va

texnikaning soʻnggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video ishlanmalar, telekommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning qoʻllanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashgʻulotlarda ularni qoʻllashni oʻrganish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olgʻa harakatlantiruvchi asosiy omil boʻlib kelgan. Yosh avlodni ijodiy mehnatga oʻrgatish, uni zamonasining eng ilgʻor bilimlar bilan qurollantirish, barcha davrlarda barcha xalqlar uchun dolzarb vazifa hisoblangan. Texnologiya dars jarayonlarida nazariy va amaliy mashgʻulotlarning ketma-ket tashkil qilinganligi ham fanimizning oʻquvchilarni kasb egallashlari uchun qay darajada muhim fan ekanligin yaqqol isbotidir.

Oʻquvchilarning mazkur fanni oʻzlashtirishlari uchun oʻqitishning ilgʻor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni oʻqitishda plakatlari, chizmalar, namunalar, yoʻriqnoma texnologik xaritalari, koʻrgazmali texnik vositalardan, kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va dasturlashtirilgan elektron didaktik vositalardan foydalanib, talabalarning bilim, koʻnikma va malakalarni hosil qilish koʻzda tutiladi. Bugungi kunda taʼlim sohasida fan va texnikaning soʻnggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video, telekommunikatsiya va informatsion texnika va texnologiyalarning qoʻllanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashgʻulotlarda ularni qoʻllashni oʻrganish dolzarb pedagogik muammolardan biri sanaladi.

Multimedia texnologiyalarini taʼlim jarayonlariga joriy etish taʼlimni axborotlashtirishning asosiy nuqtalaridan biridir. Hozirgi vaqtda multimedia texnologiyalari jadal rivojlanayotgan va istiqbolli yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Oʻquv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligini ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida jamiyatni axborotlashtirish va Internet global kompyuter tarmogʻidan keng foydalanish bilan bogʻliq. Kompyuter texnologiyalari bugungi kunda koʻplab talabalar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular koʻpincha ularni oddiy maktab darsligidan koʻra koʻproq qiziqish bilan qabul qilishadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish oʻquvchilar tomonidan materialni katta darajada oʻzlashtirishni taʼminlaydi.

Interaktivlik multimedyaning juda muhim qismidir. Odamlar koʻrgan narsalarining atigi 20 foizini va eshitganlarining 30 foizini eslab qolishadi. Bundan tashqari, ular koʻrgan va eshitgan narsalarining 50 foizini va bir vaqtning oʻzida koʻrgan, eshitgan va qiladigan narsalarining 80 foizini eslab qolishadi. Zamonaviy jamiyatda bilim tobora tovarga aylanib bormoqda va har qanday tovar kabi yaxshi qadoqlash va tegishli tarqatish usullarini talab qiladi. Multimedia texnologiyasiga asoslangan kompyuterlashtirilgan taʼlim inson oʻqituvchisining oʻrnini bosa olmaydi,

lekin u o'qituvchi faoliyatini, ayniqsa, mustaqillik, ijodiy fikrlash rivojlanadigan sohalarda to'ldirishi va takomillashtirishi mumkin.[2]

Texnologik ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha (Elektoron darslik, elektron o'quv qo'llanma, elektron o'quv-uslubiy majmualar, talabalarni tasavur qilish imkoni bo'lmagan mavzular bo'yicha tayyorlangan 3D animasiyalar, moddiy-texnik bazasi mavjud bo'lmagan laboratoriya mavzulari bo'yicha tayyorlangan virtual laboratoriyalar, talabalarni mustaqil ta'lim olishini yanada kengaytirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish maqsadida audio va vizual materiallar) virtual reallikni loyihalash, matematik modellashtirish, axborotlarni aks ettirish nazariyasi, kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi, virtual reallik xususiyatlari, didaktikaning asosiy tamoyillari asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot asosida o'rganiladi [3]

Bugungi kunda ta'lim sohasida fan va texnikaning so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video ishlanmalar, telekommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning qo'llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg'ulotlarda ularni qo'llashni o'rganish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib kelgan. Yosh avlodni ijodiy mehnatga o'rgatish, uni zamonasining eng ilg'or bilimlar bilan qurollantirish, barcha davrlarda barcha xalqlar uchun dolzarb vazifa hisoblangan.

Zamon talablariga javob beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy maktabdan kommunikativ, ijodiy va kasbiy bilimlarning rivojlanishini, o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlarini ta'minlaydigan ta'limga yangi yondashuvlarni joriy qilishni talab qiladi. Ushbu texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish yangi bosqichga – yangi multimediali o'quv materiallarini joriy etishga o'tmoqda. Shiddat bilan rivojlanayotgan ayni davrda ko'plab turli xil axborot resurslari yaratilgan bo'lib, ular o'quv va ilmiy faoliyat sifatini sezilarli darajada oshirdi. O'qitishda ko'pincha multimedia texnologiyalari qo'llaniladi, ularning doirasi sezilarli darajada kengaydi: o'quv dasturlarini yaratishdan multimedia sohasidagi ta'lim dasturlarini qurishning ajralmas kontsepsiyasini ishlab chiqishgacha, yangi o'qitishni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Multimedia g'oyasi axborotni taqdim etishning turli usullaridan foydalanish, matnlarning video va ovoqli jo'rliqi, yuqori sifatli grafikalar va animatsiyani dasturiy ta'minotga kiritish dasturiy mahsulotning ma'lumotlarga boy va tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Multimedia texnologiyalari Texnologiya faniga bo'lgan qiziqishning ortishi, bunday texnologiyalarning ta'limga joriy etilishi ko'plab o'qituvchilarning multimedia kontenti va ta'lim multimedia mahsulotlarini yaratish va vositalardan foydalanish va bilimlarni puxta egallashiga olib keldi. E'tibor bering, o'qituvchilar ko'pincha dasturchi emas. Bularning barchasi dasturchilarga mo'ljallangan emas, balki multimedia mahsulotlarini ishlab chiqishga imkon beruvchi dasturlarning yangi sinfining paydo bo'lishiga olib keldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz
2. Tay Vaughan. Multimedia: Making It Work. Chapter. What Is Multimedia. New York. 2011-y. –B. 445.
3. Ёулдашев У.Ў., Ф.М.Закирова, А.Абдуқодиров, У.Ш.Бегимқулов, Б.Б.Мўминов, Ж.А.Хамидов, О.Х.Тўрақулов. Олий таълим муасасасаларида дастурий таълим воситаларидан фойдаланишнинг педагогик-психологик асослари, ахборотлаштириш назарияси. Тошкент, 2018-й. –Б.110.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ruziyeva Dilafro'z Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Egamberdiyeva Aziza Tohir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti ITT-22 guruh talabasi

"Axborot texnologiyalari sohasini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, tizimning samaradorligini oshirish bo'yicha qilinayotgan choralar, davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan taminlash uchun mustahkam zamin yaratilmoqda" deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev.

Raqamli iqtisodning yuksalishi 21- asrning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bugungi kuni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Xususan universitet va institutlarda ham ma'ruza, seminar mashg'ulotlari raqamli texnologiyalardan foydalanish bugungi kun uchun yangilik emas albatta. Biz bilamizki, ma'ruza mashg'ulotlari bir va undan ortiq yo'nalishlarga bir juftlikning o'zida o'qitilishi sababli ham raqamli texnologiyalar (proyektor, kompyuter va televizor)lardan foydalanish ya'ni talabalarning diqqatini jamlash ularni darslarga jalb qilish uchun ham raqamli texnologiyalar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassalarida raqamli texnologiyalar asosida o'quv jarayonlarini tashkil etishga qo'yilayotgan talablar mazkur jarayonni texnologiyalashni, ya'ni butun ta'lim jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, o'qituvchining maqsadi va talabalarning vazifalarini oydinlashtirish, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash, mashg'ulotdan kutiladigan natijalarni oldindan belgilashni shart qilib qo'ymoqda. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarni alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqi ta'kidlanadi:

- o‘qituvchi-talabalar hamkorligida o‘qitish shakllari, ta’lim texnologiyalari hamda metodlarini takomillashtirish;

- o‘qituvchining kasbiy-pedagogik bilimdonligi va kasbiy madaniyatini rivojlantirish;

- hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida qulay didaktik vaziyatlarni vujudga keltirish;

-hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchining pedagogik jarayonni loyihalashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish;

- o‘qituvchida loyihalashga asoslangan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish va boshqarish.

Shularni hisobga olgan holda, institut va universitetlarda raqamli texnologiyalarni yanada ko‘paytirish ulardan samarali foydalanishni tashkil etish va nazoratga olish joizdir. Zamonaviy mehnat bozori yuqori malakali kadrlar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi, shu munosabat bilan ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yangilanmoqda.

-Birinchidan maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim, oliy ta’lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarning professor-o‘qituvchilarning professionalligi va ijodkorligi;

- Ikkinchidan, o‘z ishlarida turli xil texnik va axborot texnologiyalari vositalarini qo‘llash bilan bog‘liq. Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab barcha ta’lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, unda raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida nafaqat muhim o‘rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi.

Yurtimizdagi nufuzli xususiy o‘quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta’limni yo‘lga qo‘ymoqda. Bu jarayonning o‘zi ham mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi.

Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni “raqamlashtirish” muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir.

Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning

izlanishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Ta’limda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun nimalar qilish kerak?

Bu narsa o‘z navbatida kelajak hayotga qadam qo‘yayotgan, mustaqil fikr-mulohazaga ega bo‘lmagan, ayrim yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasini negativ hatti-harakatlarga moyillik nuqtai-nazaridan tarbiyalanishiga sabab bo‘lib qolmoqda. Bunday yoshlarimizning fikrini tor doiradagi qarashlardan, kengroq, ma’noli va mazmundor tushunchalar bilan to‘ldirishimizda biz tilga olayotgan badiiy asarlar va ularga jon olib kirgan (majoziy ma’noda) asar qahramonlarining hayoti va ijodini tengdoshlari, qolaversa ota-onalar bilan oila a’zolari o‘rtasida bahs-munazara, tortushuvli qilib, samimiy ruhda to‘g‘ri tashkil qila olsak vaqtini uyali aloqaga yoki bo‘lmasa o‘zining sog‘ligiga katta darajada bilib-bilmasdan salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan internet saytlaridagi keraksiz axborotlarning quliga aylanib qolishining oldini olishga oz bo‘lsada ta’sir ko‘rsatgan bo‘lamiz.

Har bir bola yoshligidan alla, ertak, topishmoq eshitib voyaga yetadi. Bu adabiyot namunalari bolalarga zavq ulashib, dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Xalq ohzaki ijodiga mansub asarlarda, asosan, ideal qahramon tasvirlanib, u orqali insonni ulug‘lovchi sifatlar: vatanparvarlik, jasurlik, botirligi rostgo‘ylik madh etiladi [3, 49-50 b].

Ta’lim-tarbiya jarayoning sifati quydagilarga bog‘liq:

Motivatsion-maqсадli funksiyasi kasbiy ta’lim sifatini boshqarishda yangi maqsadlarning qo‘yilishini, boshqaruv sub’ektlari tomonidan ta’lim sifatini

ta'minlash va oshirish maqsadida motivlashtirish va rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Rejalashtirish funksiyasi ta'lim sifatini boshqarish maqsadlarini amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Rejalashtirish quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi: maqsad va amalga oshirish shart-sharoitlarining birligi; uzoq muddatli va qisqa muddatli rejalashtirish birligi; rejalashtirishning kompleksliligi; rejalarning barqarorligi va moslashuvchanligi [5, 206-209 -b].

Tadqiqotlar jarayonida kasb hunar ta'limida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish quyidagi ikki bosqichni o'z ichiga olishi aniqlandi, ya'ni:


birinchi bosqichda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish uchun zarur o'quv materiallari, ko'rgazmali qo'llanmalar, kompyuterlar uchun pedagogik dasturiy vositalar, darsning metodik ishlanmalari tayyorlanadi;

ikkinchi bosqichda ushbu vositalar fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi metod, usul va vositalar yordamida o'quv jarayoniga tatbiq etiladi [4, 3-40-b].


O'quv muassasalarida tarbiyachilar, uyda ota-onalar badiiy asarlardan foydalanish jarayonini quydagicha tashkil qilishni reja qilishi mumkin.

Badiiy adabiyotlarning tahlilida munozarani rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazishni uch bosqichda tashkil etishni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (1-rasm).

Bu bosqichlarning kerakli joyda, kerakli tashkil qilina bilinishi, biz aytayotgan badiiy asar qahramonlari tahlili o'quvchilarimizning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga dastlabki manba bo'lish bilan birga, pedagogika kolleji bitiruvchisining raqobatdoshligi uchun zarur mezon, balki jamiyat madaniyatini saqlab qolish shartidir.



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida, birgalikda faoliyatni tashkil etishda o'qituvchilar quyidagi vazifalarni amalga oshirishni to'g'ri yo'lga qo'yishi lozimdir (2-rasm).



Tashkilotchi jarayonni tashkil etishda ishtirokchilar sodda, aniq tushunchalar bilan ishlashi kerakligini, shuningdek ya'na quydagi qoidalarga rioya qilishini tushuntirib borishi lozim bo'ladi:

- har qanday vaziyatda xushmuomala bo'ling;
- guruh a'zolaringiz haqligini ochiq va darhol tan oling, agar ular haq bo'lsa, faqat guruh a'zolaringiz tomonidan qabul qilingan dalillar va tushunchalar bilan ishlashda davom eting;
- avval guruh a'zolaringizning dalillariga javob bering, shundan keyingina o'zingizning fikringizni keltiring;
- guruhdagi a'zolarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oling va o'zingizning bahs-munozarangizni har bir ishtirokchilarining maqsadlariga yo'naltiring;
- aytayotgan fikr-mulohazalaringizda guruh a'zolari tushunadigan terminlardan foydalaning;
- keltirilayotgan dalillarni shunchaki sanab o'tishdan qochishga harakat qiling, ularning afzalliklarini ko'rsatishga urining;
- guruh a'zolarining strategiyasi va usullarini unutmasdan, g'oyalarni, mulohazalarni va dalillarni iloji boricha aniqroq yetkazishga harakat qiling.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda bu qoidalarni, jarayonlarning borishiga qarab ya'nada innovatsion yangiliklar asosida takomillashtirib borilsa kutilgan natijalarning samaraliroq bo'lishiga erishiladi. Bunday o'zgarishlarni dispute metodi misolida ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Dispute metodi tarbiya usuli sifatida muammoli-qimmatli muloqotning murakkab shakli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy malakasini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa dialektik fikrlashni shakllantiradi [6].

Muammoning qadrlı muloqat shakli sifatida nizoning maqsadi o‘quvchilarning kommunikativ, axloqiy, ijtimoiy, fuqarolik va boshqa vakolatlarini shakllantirish uchun sharoit yaratishdir. Axloqiy tarbiya usuli, tortishuv tushunchalar va dalillarni tahlil qilishga, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga, boshqa odamlarni ularga ishonitirishga imkon beradi, haqiqat nomidan yolg‘on qarashdan voz kechishga jasoratni o‘rgatadi va bahslashayotgan odamlarning pozitsiyalarini tasdiqlaydi. Qarama-qarshilik ta‘limning usuli sifatida, bilim va qadriyatga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida hukmlar, baholash va e‘tiqodlarni shakllantirish aniq va yakuniy qarorlarni talab qilmaydi va fikrlar to‘qnashuvi jarayonida olingan bilimlar, har xil qarashlar, doimo umumlashtirish, chidamlilik va moslashuvchanlikning yuqori o‘lchovi bilan ajralib turadi. Bahsda qatnashish uchun o‘z nuqtai nazaringizni ifoda etishingiz, bir nuqtai nazardan xatolikni rad etadigan va boshqa nuqtai nazarning ishonchliligini tasdiqlaydigan dalillarni tanlashingiz kerak. Bu o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga eng mos keladi, ularning paydo bo‘layotgan shaxsi hayotning ma‘nosini faol izlash, hech narsani tabiiy deb qabul qilmaslik istagi, haqiqatni anglash uchun faktlarni taqqoslash istagi bilan ajralib turadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz mumkinki, pedagogika kolleji o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalari asarlarni o‘qish jarayonida, asar qahramonlarining ijobiy va salbiy xislatlarini tahlil qilishda innavatsion yondashuvni talab qiladigan metodlardan o‘rinli foydalanishni o‘rgata olish mahoratli pedagogning ish uslublaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 сентябрдаги ПҚ-3271-сонли қарори иловаси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги ПФ-5812-сонли қарори иловаси.
3. Азизов О.Э. Анвар Обиджон ҳикояларида бола образи. ЎЗМУ хабарлари Тошкент, 2013 й - 49-50 б.
4. Алиқулов С.Т., Юлдашев Ш.Э., Касб ҳунар таълимида фанлараро алоқадорлик воситасида фанлардан олинган билимларни жалб этиш бўйича ўқувчиларнинг билиш фаолиятлари. Тошкент. 2020 й.[4, 38-40, б].
5. Манба: [хттпс://www.менобр.ру/артисле/59127-ыые-15-мз-диспут-как-метод-воспитания.](https://www.менобр.ру/артисле/59127-ыые-15-мз-диспут-как-метод-воспитания)
6. Novikoff A. J. The Medieval Culture of Disputation: Pedagogy, Practice, and Performance. — University of Pennsylvania Press 7., 2013. — 384 p. — ISBN 978-0-8122-4538-7.
7. S. T. Alikulov, O.E.Azizov., The structure and content of the system FOR the formation of communicative competencies of future teachers. CURRENT

8. O.E.Azizov., Педагогика коллежи ўқувчиларида коммуникатив компетенцияларнинг таркибий қисмлари. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2021 йил 2-сон.

9. Ergashjanovich, A. O. (2022). Methodology of organizing and conducting experimental works to determine the development of communicative competence of the students of the pedagogical college. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(9), 151-157.

TIKUVCHILIK SIRLARI VA UNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Ruziyeva Dilafro'z Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” kafedrasida o’qituvchisi

Yunusova Sevaraxon Xabibullo qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 2TT-23 guruh talabasi

Tikuvchilik-kasb-hunar turi; kiyim-kechak: ko’rpa-to’shak va boshqa buyumlarni tikish kasbi. Tikuvchilik vositalari, material va texnikasi turli davrlarda turli xalqlarning moddiy va madaniy saviyasi, iqlim sharoiti, ehtiyoj va imkoniyatlari, urf-odatlarini zaminida taraqqiy etgan. Arxeologik qazishlar natijasida jahonning turli mamlakatlari hududidan topilgan tikuvchilik vositalari, kiyim-kechak va uy-ro’zg’or buyumlari bu kasbning barcha xalqlarda qadimdan mavjudligi, o’ziga xos taraqqiyot bosqichlarini o’taganligini ko’rsatadi.

Tikuvchilik buyumlari dehqonchilik bilan shug’ullanadigan xalqlarda ko’proq o’simlik tolalaridan to’qilgan gazlamalardan, chorvador xalqlarda aksariyat jun gazlama va teridan tikilgan.

19-asrgacha barcha xalqlarda, jumladan, O’rta Osiyo xalqlarida ham tikuvchilik ishlari qo’lda bajarilgan. Ba’zi sohalarda bu kasb namunalari yuksak san’at darajasiga ko’tarilgan (mas., [gulko’rpa](#), zarbof [to’n](#), [choyshab](#), [jiyak](#) va h.k.).

Turli davrlarda tikuvchilikdan mustaqil kasb sifatida [etikdo’zlik](#), [mahsido’zlik](#), [po’stindo’zlik](#), [do’ppido’zlik](#), [kashtado’zlik](#), [gilamchilik](#) va boshqa ko’plab kasb turlari ajralib chiqqan. 19-asr 2-yarmidan Yevropa mamlakatlarida tikuvchilikda maxsus tikuv mashinalari keng qo’llanila boshladi, keyin boshqa hududlarga, shu jumladan, O’zbekistonga ham tarqaldi.

Tikuvchilik taraqqiyotining hamma davrlarida [bichiqchilik](#) uning ajralmas qismi bo’lgan. [O’rta Osiyoda](#), shu jumladan, [O’zbekistonda](#) tikuvchilik [hunarmandchilikdan](#) yengil sanoatning yirik tarmog’iga aylandi. Zamonaviy texnika bilan uskunalangan korxonalar tashkil etildi, mahalliy tikuvchi, kosib va boshqa hunarmandlar tikuvchilikning yangi texnikasini o’zlashtirdilar.

Zamonaviy kiyim dizayni, uni modellash sohasida ijod qilayotgan, ish yuritayotgan har bir inson «kiyim», «kostum», «moda», «uslub» va boshqa so'zlarga ko'p marotaba to'qnash keladi.

Tikuvchilik sanoatini rivojlantirish, xalqimizni yuqori sifatli, chiroyli kiyimlar bilan ta'minlash yengil sanoat hodimlari oldida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, hajmini oshirish, ularning sifatini yaxshilash, yangi yuksak samarali texnikaga ega bo'lgan korxonalarni yaratish kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda Vatanimiz tikuvchilik korxonalari fan-texnikaning oxirgi yutuqlari asosida ishlab chiqarilgan jihozlar bilan to'ldirilmoqda. Mashina va uskunalarni turli moslamalar bilan jihozlash orqali texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish davom etmoqda. Bir vaqtning o'zida bir nechta texnologik jarayonlarni bajaradigan zamonaviy dazmollash va presslash mashinalarni yaratish zarurdir.

Albatta, tikuvchilik sanoatini rivojlantirish bilan birgalikda sanoatni zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, yetuk mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash ham kerak bo'ladi albatta.

Ushbu ilmiy maqolam davomida aynan yuqorida aytib o'tilgan tikuvchilik mashina va uskunalarni xilma-xil moslamalar bilan jihozlash orqali texnologik jarayonlarni yaxshilash sifatli mahsulot ishlab chiqish va ish unumdorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarimning ijobiy natijalari o'z aksini topadi

Tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, yengil sanoati sohasi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan bog'liq ravishda materiallarning yangi turlarini va texnologik operatsiyalarni bajarish jarayonida ularga ishlov berish usullarini ishlab chiqish, ishlov berish tartiblarini nazorat qilish va rostlashning avtomatlashtirilgan vositalarini yaratish, hamda jihozlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, birinchi navbatda ishlab chiqariladigan mahsulot sifatining yuqoriligini ta'minlashi, barcha yoshdagi aholining ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda kiyimlar assortimentini doimiy ravishda yaxshilashi va yangilab borilishi kerak deb o'ylayman.

Tikuv mahsulotlarning sifatini oshirishda to'quv materiallarining shakl saqlash xossalariidan foydalanish, mahsulotga namlab-isitib ishlov berish muhim ahamiyatga ega bo'lib, buning asosiy mazmuni mahsulotga aniq shakl berish va uning barqarorligini saqlash hisoblanadi.

Shaklning barqarorligi-mahsulotga shakl hosil qilish uchun berilgan deformatsiyalarning barqarorligi bilan aniqlanadi. Shakl berilgandan so'ng vaqt o'tishi bilan, shuningdek shakl hosil qilingan namunaga turli xildagi ta'sirlar natijasida u yoki bu ko'rinishdagi deformatsiyaning sustlashishi shakl barqarorligining baholash me'zoni sifatida qabul qilingan.

Xulosa. Mamlakatimizda ishlab turgan korxonalarini qayta jihozlamay turib yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarib bo‘lmaydi. Shunday ekan, biz zamon talablariga mos keladigan texnika taraqqiyoti uskunalaridan foydalangan holda qo‘l mehnatini kamaytirib kompleks mexanizastiyalashgan avtomatik jihozli universal uskunalardan foydalangan holda ish unumdorligi va sifatli oshirishimiz lozim. Va bu texnika taraqqiyoti uskunalarini ishlatish, kelib chiqishi, qo‘llanilish sohasi borasida o‘quvchilarga kerakli ma’lumotlar berishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muminovna R. D. Tikuv buyumlarini tayyorlashda ishlatiladigan pishirilgan iplarning tuzilish xususiyatlari va afzalliklari //so ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023-y. – t. 6. – №. 10. – c. 21-25.
2. Muminovna R. D. Ta’lim tizimida foydalanishga mo ‘ljallangan dasturiy ta’lim vositalari tasnifi //наука и технологии. – 2023-y. – т. 1. – №. 3.
3. Rayimova D. D. et al. Texnologiya ta’limi praktikumi fanini o ‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo ‘llash imkoniyatlari //educational research in universal sciences. – 2023-y. – т. 2. – №. 5. – c. 616-619.
4. T .A. Ochilov, B.B.Axmedov, S.SH.Toshpulatov Tikuvchilik materialshunosligi “Sharq” nashriyot-matbaaaksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent. 2007-y.
5. S. Polatova. Zamonaviy libosni modellashtirish. “Sharq” nashriyot-matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent. 2007-y.
6. Ayollar ust kiyimining tikuvchisi, chevar. O‘quv qo‘llanma. “Talqin” nashriyot Toshkent. 2003-y.
7. S.Tashpolatov, X.Komilova, S.Nishonova, D.Rasulova. Xalq iste’mol buyumlarini modellashtirish va loyihalash. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent. 2007-y.

APPLIKATSIYA KOMPOZITSIYASI TAYYORLASHNING NOAN’ANAVIY USULLARI

Ruziyeva Dilafro‘z Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

Luqmonova Sarvinoz Mirzohid qiz

Buxoro davlat pedagogika instituti 1TT-23 guruh talabasi

Applikatsiya (lotincha: *applicatio* - yopishtirish)- gazlama, qog‘oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog‘oz bo‘laklarini tikish yoki yopishtirish yo‘li bilan naqsh ishlash, bezash. Shu usulda yasalgan gul, tasvir ham aplikatsiya deb ataladi.

Tasvirlash texnikasining bir ko‘rinishi sifatida aplikatsiya juda qadim zamonlardan qo‘llanilib kelingan. U qadim davrlardan kiyimlar, poyafzal, mehnat qurollari va uy-

ro'zg'or jihozlarini bezashda foydalanilgan. Applikatsiyalarning mavzulari sifatida dastlabki davrlarda qushlar, hayvonlar, insonlar, chiroyli o'simliklar va gullar tanlangan. Applikatsiya bajarishda keyinchalik iplar, matolar, metall plastinkalar, biser va marjonlardan foydalanib boshlashgan.

Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Bu ishda ular teri mo'yna, namatdan foydalanishgan. Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida po'stloqdan foydalanishgan, bo'yalgan po'stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan, Xantimansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikatsiyada teri, mo'yna ishlatishgan. Komi, qozoq, qalmiq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Gazlamadan applikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyim-bosh, uy-ro'zg'or predmetlari bezatilgan. Applikatsiya ishlarining eng gullagan davrini XVI asrda Italiya va Ispaniyadagi cherkov kiyimlarida ko'rish mumkin.

Keyinchalik matodan tayyorlanadigan applikatsiyalarning o'rniga qog'oz applikatsiyalar kirib kela boshladi. Bu qog'oz tayyorlashning boshlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Qog'ozdan qir qilgan qora siluetlar tezda ommalashib ketdi. Tasviriy san'at turi sifatida siluet ancha oldin, eramizdan avvalgi VI asrda paydo bo'lgan deb hisoblanadi.

O'zbek applikatsiya san'atiga to'xtalganimizda u xalq amaliy san'atining juda ko'p sohalari bilan uyg'unlashib ketganligini ta'kidlash lozim. Applikatsiyaning alohida o'ziga xos san'at shakllari ayniqsa Buxoro zardo'zlik san'ati, so'zanachilik ko'rinishlarida o'ziga xos, boshqa xalqlar applikatsiya san'atidan farqli ravishda rivojlangan.

Applikatsiya o'zbek xalq amaliy san'atida amaliy san'atning boshqa turlari bilan uyg'unlashib ketganligi sababli u ko'pincha ustalar tomonidan tayyorlangan har xil mahsulotlarga bezaklar berishda, kiyim-kechaklar va kundalik turmush anjomlarini bezatishda juda keng qo'llanilgan. Ayniqsa o'zbek so'zanalari o'zining ramziy ma'nolari, undagi tasvirlarning yorqin ranglari bilan nafaqat qadimgi O'zbekiston hududida, balki savdo-sotiq rivojlangan boshqa davlatlarda ham juda yuqori qadrlangan. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlash emas, balki kartina, pano, naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo'llash imkonini beradi.

Applikatsiyalar hozirgi davrda har xil qog'ozlar, mato, turli xil tabiiy materiallar (somon, daraxt po'stloqlari, qum, quritilgan o'simliklar, barglar, har xil urug'lar) dan hosil qilinishi mumkin.

Dekorativ applikatsiya - u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlar (barg, shox, qo'ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar) dan tarkib topuvchi predmetli, hodisa harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin.

Geometrik shaklli applikatsiyalar. Bajarilish texnikasiga ko'ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir.

Predmetli applikatsiya. Bolalarning predmetlarni fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Bizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

Bir rangdagi qog'ozdan simmetrik tuzilishdagi tasvirlarni qiyish uchun ma'lum geometrik shakldagi kvadrat qog'oz, to'g'ri burchak olinadi.

Ko'p rangli applikatsiyalarni qirqish anchagina murakkab ish bo'lib tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir.

Syujetli applikatsiya: Syujetli applikatsiya kompozitsiyasiga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab syujetli applikatsiya - ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo'lsa, tasvirlarni oldindan belgilanmay qirqish mumkin.

Mavzuli applikatsiya - tematik applikatsiya ma'lum mazmuni aks ettirishi lozim u badiiy asar uchun illyustratsiya, applikatsiya-plakat bo'lishi mumkin. tushayotgan tomonini munosib rang berib ko'rsatish kabilarni ifodalashi kerak.

Badiiy applikatsiya - tematik ishlarni yaratish faqat mehnatni emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Mehnat ta'limi darslarida applikatsiya ishlarini bajarish texnikasi o'rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muminovna R. D. Ta'lim tizimida foydalanishga mo'ljallangan dasturiy ta'lim vositalari tasnifi //наука и технологии. – 2023-у. – т. 1. – №. 3.
2. Rayimova D. D. et al. Texnologiya ta'limi praktikumi fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari //educational research in universal sciences. – 2023-у. – т. 2. – №. 5. – с. 616-619.
3. Т .А. Ochilov, В.В.Ахмедов, S.SH.Toshpulatov Tikuvchilik materialshunosligi "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent. 2007-у.
4. S. Polatova. Zamonaviy libosni modellashtirish. "Sharq" nashriyot-matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent. 2007-у.
5. Хоменко В., Никитюк Г. Аппликация, картины и панно из природных материалов. Харьков-Белгород, изд-во «Круг семейного досуга», 2010.
6. Ro'ziyev E.I. Applikatsiya turlari va ulardan mehnat ta'limi hamda to'garak mashg'ulotlarida foydalanish metodikasi. "Pedagogik tadqiqotlar", 2017-у.№1/-6-10 b.

AMALIY MASHG‘ULOTLARDA ISHLAB CHIQRISHGA OID MASALALAR YECHISH

Bazarova Saodat Jamolovna

pedagogika fanlari doktori, professori,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Ta’lim ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi boshlig‘i,

bozorova@mail.ru

Baychayev Fazliddin Xusenovich

pedagogika fanlari bo’yicha falasafa doktori, (v.b) dosent
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,

“Umumiy fizika” kafedrası

bfazliddin1983@gmail.com.


Hammamizga ma’lumki, bugun jamiyatimizning barcha qatlamlarida sifatli yangilanish jarayoni amalga oshayotgan bir davrda, milliy ta’lim tizimida ham, yangicha rivojlanish bosqichi amalga oshirilyapti. Oliy ta’limning jahon talabalari mos bo’lgan zamonaviy tizimini yaratishga alohida e’tibor qaratilishi tufayli, fan va ishlab chiqarish integrasiyasini yanada takomillashtirish bo’yicha ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Xususan, Prezidentimizning “Globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotganligi davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangi yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ruyobga chiqarishni taqozo etmoqda” [1] – deb ta’kidlab o’tishlari bejizga emas. Bu esa, jahonda tez suratlarda taraqqiy etayotgan fan va texnika yutuqlarini o’rganish va ularni hayotimizga keng tadbiq etishda, oliy ta’lim o’rni katta hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, texnika oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini takomillashtirish, o’qitish mazmuni, shakl va metodlarini jahon andozalariga moslashtirishda buyurmachi korxonalar talab va ehtiyojlarini hisobga olishni taqozo etadi. Bu esa, bo’lajak mutaxassislarni tayorlashda, ta’lim jarayoniga bevosita ishlab chiqishga oid didaktik vositalardan unumli foydalanishni talab etadi.

Har bir fandan olib borilayotgan amaliy mashg‘ulotlar nazariya va amaliyot aloqasini ta’minlovchi, talabalarda ma’ruza va mustaqil ishlar davomida olingan bilimlarni qo’llash ko’nikmasi va malakasini ishlab chiqishga ta’sir etuvchi o’quv jarayoni bo’lib, ularning bilimlarini tekshirib ko’rishga imkoniyatini yaratadi. Agar amaliy mashg‘ulotda yechilayotgan har bir masala bo’lajak mutaxassislarga tegishli bo’lgan ishlab chiqarishdagi biror hodisa yoki texnologik jarayonlarga oid aniq dalillar asosida bo’lishini ta’minlash – fan va ishlab chiqarish integrasiyasini ta’minlovchi asosiy didaktik vositalardan bir sifatida qaraladi [2; 68-bet].

Kon-metallurgiya sanoati korxonalari uchun bo’lajak mutaxassislarni tayyorlaydigan texnik oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan fizika fanidan amaliy

mashg'ulotni o'tkazishda ishlab chiqarishga oid masalalarni foydalanishning kasbiy pedagogik imkoniyatlari katta ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun, "Konchilik ishi" va "Noyob va radioaktiv metallar rudalarini qazib olish, qayta ishlash texnikasi va texnologiyasi" mutaxassisligi talabalari uchun o'zgarimas tok qonunlariga asoslangan elektrorazvedka usuli –zondlash usuliga oid masalalar yechish maqsadga muvofiq bo'ladi [3; 14-bet].

Bizga quyidagicha masala berilgan bo'lsin.



1-rasm.

Masala. Yer ostidagi tog' jinslarini o'rganish uchun burg'ulagan quduq ichigan tushirilgan A va B zondalarga 30 V kuchlanish berilsa, ampermetr 2 mA ko'rsatadi. Berilgan chuqurlikdagi tog' jinsining solishtirma qarshiligi aniqlang. Bunda quduqning diametri 40 sm, M va N elektrodlar orasidagi masofa 30 sm deb hisoblang (1-rasm).

Talabalarga bu masalani yechish orqali burg'ulagan quduq chuqurligi bo'yicha tog' jinslarining elektr o'tkazuvchanligining o'zgarish, tog' jinslarining tarkibi har xilligi va ularning suv, neft va turli gazlar bilan tuyinganligi tushuntiriladi. Zondlash usuli tog' jinslarining solishtirma qarshiligi aniqlashga asoslangan. Unda to'rtta elektrodlardan tashkil topgan zondlar bo'lib, A va B qismlari tok manbaiga, qolgan M va N qismlari esa, tok kuchini o'lchovchi ampermetrga ulanadi. A, M va N zondlar elektrolit bilan to'ldirilgan quduqqa tushiriladi. Agar A va B zondlarga manbadan kuchlanish berilsa, M va N zondlar orasidan elektr toki o'tadi.

Agar burg'ulagan quduqqa berilgan U kuchlanish natijasida tog' jinsidan o'tuvchi tok kuchi I elektr zanjirning berilgan qismi uchun Ohm qonuni yordamida

topiladi:

$$I = \frac{U}{R}$$

Bunda elektr qarshilikning modda solishtirma qarshiligi va uning geometrik o'lchamlariga bog'liqligini hisobga olib, berilgan chuqurlikdagi tog' jinsining solishtirma qarshiligi aniqlaymiz.

$$R = \rho \frac{l}{S} \Rightarrow \rho = \frac{US}{Il}$$

Bu yerda $S = \frac{\pi d^2}{4}$ - quduqning ko'ndalang kesim yuzasi, l - M va N elektrodlar orasida masofa deb hisoblasak u holada,

$$\rho = \frac{US}{Il} = \frac{U\pi d^2}{4Il} = \frac{30 \cdot 3,14 \cdot 0,4^2}{4 \cdot 2 \cdot 10^{-3} \cdot 0,3} = \frac{15,1}{2,4 \cdot 10^{-3}} = 6,3 \cdot 10^3 \Omega \cdot m$$

kelib chiqadi.

Fizikadan amaliy mashg'ulotlarda berilgan mavzuga oid kasbiy yo'naltirilgan masalalar tizimini yaratish hamda zaruriy masalalarni shakllantirish orqali fan va ishlab chiqarish orasidagi uzviylik ta'minlanadi. Natijada sanoatdagi texnik va texnologik jarayonlarda fizik qonunlarning qo'llanishini o'rganish asosida bo'lajak mutaxassislarning fizika fanini puxta o'zlashtirishga pedagogik sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida // O'zbekiston ovozi, 2017-y. 9- fevral.
- 2.. Bazarova S.Dj, Baychayev F. X. Mutaxassislikka yo'naltirilgan masalalar yechish yordamida fizika fanidan amaliy mashg'ulotlar samaradorligi oshirish // Journal of Advances in Engineering Technology, – Navoi, Vol.3(7), July – Sept, 2022-y.
3. Baychayev F.X. Kon-metallurgiya sanoati tizimi bo'lajak mutaxassislari uchun fizikadan kasbga yo'naltirilgan masalalarni shakllantirish // Ilmiy xabarlar. FarDU. – Farg'ona, 2021-y.

MUNDARIJA

Kirish soʻzi

B.B.Maʼmurov	Uzluksiz taʼlimda texnologiya fani uzviyligini taʼminlash zarurati (Kirish soʻzi)	3
Sh.N.Murodov	Uzluksiz taʼlim uzviyligini taʼminlash taraqqiyotning muhim omili	4

1-SHOʻBA. UZLUKSIZ TALIMDA TEXNOLOGIYA FANI UZVIYLIKINI TAMINLASH ASOSIDA MAZMUNAN OPTIMALLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

D.A.Sayfullayeva, M.B.Akobirova	Talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda gomogen guruhlarining ahamiyati	6
D.A.Sayfullayeva, D.Sh.Ilxomova	“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanining rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	9
N.M.Hamdamaova, S.Barotova	Texnologiya fanini oʻqitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish va uni amalda qoʻllash	13
N.M.Hamdamaova, M.Barotov	Texnologiya fanini oʻqitishda ilgʻor pedagogik oʻquv jarayonlaridan foydalanish	17
N.M.Hamdamaova, R.Hamidov	Texnologiya darslarida yogʻoch oʻymakorligi elementlaridan foydalanish	22
M.B.Akobirova J.B.Orishev	Talabalarni gomogen va geterogen guruhlarda oʻqitish Boʻlajak texnologik taʼlim oʻqituvchilarini loyihaviy faoliyatga tayyorlashning samaradorligi	24 26
D.A.Turayev	Texnologik taʼlim yoʻnalishi talabalarining grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	29
S.I.Baxtiyorova, D.B.Joʻrayeva	Texnologiya darslarida dasturiy taʼlim vositalaridan foydalanib oʻqitish metodikasi samaradorligi	34
S.I.Baxtiyorova, Z.O.Ganjayeva	Umumtaʼlim maktablarida hamkorlikda oʻqitish tizimini joriy etish metodikasi	37
Sh.I.Bahronova, N.U.Davlatova	Texnologik taʼlim tizimida amaliy metodlardan foydalanish metodikasi	40
N.A.Umarjonova	Oʻzbekistonning taraqqiyot jarayonida boʻlajak texnologiya fani oʻqituvchisining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish	43
D.Shamsiyeva, M.Temirov	Boʻlajak oʻqituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari	45
G.M.Bekmuradova	Doktorantura dasturlari sifatini monitoring qilish va baholash boʻyicha xorijiy tajribalar tahlili	47
M.S.Toshtemirova,	Tikuv mashinalarining yaratilish tarixi va bugungi	

Y.Y.Protasov	kundagi oʻrni	51
Gʻ.Gʻ.Abdulloyev	Texnologiya darslarida oʻquvchilarda birikmalar haqidagi bilim va koʻnikmalarni rivojlantirish	53
R.T.Umarov, Z.Mamajonov, Sh.T.Isoqov	Texnologiya fanidan amaliy mashgʻulotlarda aholi joy nomlarini xalq hunarmandchiligi turlari bilan nomlanishi boʻyicha tushunchalar berish	57
N.P.Allaberganova	Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tushunchalar berishda respublika olimlarining qarashlari	59
N.P.Allaberganova	Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tushunchalar berishda mdh olimlarining qarashlari	62
G.Yakubova	Bolalarni turli faoliyat yoʻnalishlarida savodga oʻrgatishga tayyorlash	64
N.M.Ortiqova	Tibbiyotda gender tenglik asosida milliy va xorijiy tajriba	66
S.S.Otayeva	Talabalarda ilmiy bilimlarni shakllantirishda ilmiy dunyoqarashni ahamiyati	69
X.Bekchanov, F.Yusupova, R.Abdullayeva	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tasavvurlarini rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari	
N.M.Ortiqova	<u>Tibbiy taʼlimda gender tenglik siyosati</u>	73
H.O.Хамидова	Баркамол шахс тарбиясида миллий кадриятлар	75
N.A.Jonpoʻlotova	Oʻquvchilarda erkin fikrlash imkoniyatlari	78
A.Muzaffarova	Maktabgacha yoshdagi bolalar erkin fikrlashida qiziqishning ahamiyati	80

II SHOʻBA

FANLARARO INTEGRATSIYALASH ASOSIDA TALABALARNI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

A.A.Aminov	Fanlararo integratsiyalash asosida talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	84
Sh.Tilavov	Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi kasbida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlari, oʻrni va ahamiyatlari	86
G.X.Kadirova, D.D.Primov	Integratsion yondashuv asosida taʼlim oluvchilarni tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlari	89
G.R.Ismatova	Allomalarning bola tarbiyasi haqidagi qarashlari va ulardan tarbiya jarayonida foydalanish	92

M.A.Nadjimitdinova	Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda innovasion yondashuvning ahamiyati	94
F.I.Kamolova	Talabalarni rivojlanish biologiyasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi	96
L.S.Sadilloeva	Biologiya fanidan sinfdan tashqari o'quv faoliyatni uch olchovli o'quv vositalar yordamida tashkil etish metodikasi	98
D.D.Primov	Ta'lim muassasalarida fanlararo integratsiyani ta'minlashning zamonaviy texnologiyalari	100
Sh.Y.Sattarov, X.A.Turayev	Talabalarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	103
A.J.Atajonova, A.F.Sobirova	Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumi ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish	106
A.U.Umbarov	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining metodek komponentligini ma'ruza mashg'uloti orqali rivojlantirish metodikasi	108
Z.Ashurov	Ilm-fanni rivojlantirishda fanlar integratsiyasi va differentsiatsiyasidan foydalanish masalalari	111
X.S.Jumayev	Mnemik jarayonlarning amalga oshirish izchilligini ta'minlash	113
Sh.Q.Jamolova	Fizika darslarida foydalanishga mo'ljallangan mobil dasturiy vositalar ta'minoti	116
A.T.Mamadalimov, N.K.Khakimova, J.N. Hasanov	Ragoza o'simligining elektr o'tkazuvchanligini temperaturaga bog'liqligini tatbiq qilish	118
A.A.Isroilov	Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari shakllantiragigan ko'nikmalar. integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarini o'xshashligi va farqlari	120
Sh.Sh.Isroilov	Fizik tajribalar yordamida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish	123
J.N.Xo'jamberdiyeva, I.O.Haqberdiyeva	Fizika fanidan o'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishda matematikaning o'rni	125
J.N.Xo'jamberdiyeva, E.Xoliyorova	Uzluksiz ta'lim tizimida fizika fani uzviyligini ta'minlash	127
G.F.Ochilova	Zamonaviy ta'limni rivojlantirish sharoitida oliy ta'limning pedagogik samaradorligi uchun iqtisodiy rag'batlantirish tushunchasini shakllantirish	130

Sh.Q.Atadjanova	Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy tarbiyaning ahamiyati	133
F.R.Radjabova, L.H.Ro'ziqulova	Maktabgacha yosh davri bolalarining intellektini rivojlantirishda psixik-bilish jarayonlarini muvofiqlashtirish yo'llari	136
R.O.Ismoilova	Mariya montessori metodikasini bolalarning intellektual rivojlanishidagi istiqbollari	139
G.Yakubova	Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini savodxonlikka o'rgatish	141
M.R.Madirimova	Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga vaqt haqida tushuncha berish	144
G.S.Hasanova, F.G.Nurullayev	Bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilariga Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning zamonaviy metodlari va ahamiyati	146
G.Ahmedova, M.Abduraxmonova	Alohida ehtiyojga ega maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish qobiliyatlarini shakllanishida tabiat markazida inklyuziv ta'lim texnologiyalaridan foydalanib ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish	151
F.R.Radjabova, L.H.Ro'ziqulova	Maktabgacha yosh davri bolalarining intellektini rivojlantirishda psixik-bilish jarayonlarini muvofiqlashtirish yo'llari	153
D.M.Ruziyeva, S.I.Barotova	Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish va uni amalda qo'llash	156
M.A.Durdiyeva	Til va nutq markazlarida turli guruh tarbiyalanuvchilarining "kvest" texnologiyalari faoliyatlarini tashkil etish	160
Sh.M.Muxamedov	Mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish	163

III SHO'BA

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY TA'LIM VOSITALARI VA INTEGRATSIYALSHGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

A.R.Jo'rayev	Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining faolligini oshirishda dasturlashtirilgan ta'lim vositalardan foydalanish	167
J.T.Jo'rayeva	O'quvchilarning fizikaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	170
G.A.Amanova	Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning kognitiv	

	kompetensiyalarini rivojlantirish	172
A.S.Otaqulov	Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar va ularning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni	174
T.A.Xужақулов, Ю.Д.Мажидова	Методы использования информационно-коммуникативных технологий в развитии высшего профессионального образования	176
T.A.Xужақулов, Ю.Д.Мажидова, М.Маматқулов	Инновационная технология в обучении предметов информатики	179
T.A.Xужақулов, P.T. Гаипназаров, Ю.Д.Мажидова	Использование инновационных технологий в образовательном процессе	182
G.S.Djumayeva	Fizika o'qitishda o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarni shakllantirish	185
J.Y.Xolmatov	Ta'limda integratsiyaning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	188
A.A.Jumayev	Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni	192
A.A.Jumayev	Bo'lajak muhandislarning energetikaga oid kompetentligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ilmiy –metodik ahamiyati	195
J.J.Atamuradov	Masofaviy ta'limda o'qituvchining kompetensiyasi	201
E.T.Muhammadiyev, X.A.Turayev	Bo'lajak muhandislarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy omillari	204
Sh.Tilavov	Murabbiylik va trenerlik kasbida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash o'rni va ahamiyati	208
N.Sh.Shadiyeva	Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarining geografik obyektlarni 3d loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli	210
R.A.Ruziyev	Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli vositalar yordamida kompetentligini rivojlantirish	221
O.O.Xalloqova	Bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari	223
Z.D.Rasulova	Talabalar kreativ kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minoti	227
N.N.Zaripov	WEB-FREELANCE faoliyati va uni boshlash bosqichlari	231
N.N.Zaripov	Informatika va raqamli texnologiyalar fanini o'qitishda infografikalardan foydalanish metodikasi	234

Ф.Ш.Тухтаева	Значимость подходов коннективизма в персонализации образовательного процесса в цифровой среде	237
X.A.Turayev	Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida chizmachilik darslarini tashkil etishg oid metodik tavsiyalar	242
M.M.Baymetov	Zamonaviy ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va amalga oshirish texnologiyasi	244
D.U.Yusupova	Talabalarni o'z-o'zini rivojlantirish jarayoniga tayyorlash prinsiplari	246
S.U.Shodiyeva	Talabalarning texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish metodikasi	248
S.U.Shodiyeva	Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	251
S.R.Atayeva	Robototexnika asoslarining fanlararo integratsiyasi	256
M.M.Axmedova	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda texnologiya fanida multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	259
D.M.Ruziyeva, A.T.Egamberdiyeva	Ma'ruza mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'rnı va ahamiyati	262
Sh.Sh.Jo'rayev, M.A.Safarova	Zamonaviy ta'limda axborot va masofali o'qitish texnologiyalari	265
O.H.Qurbonova	Virtual ta'lim vositalaridan foydalanib laboratoriya darslarini tashkil etish masalalari	269
S.I.Baxtiyorova, E.Sh.Shukrulloeva	Umumta'lim maktablarida multimedia vositalaridan foydalanib o'qitish metodikasini joriy etish	272
I.Sh.Sadullaev	The role of software educational tools in the professional development of future teachers	275
I.Sh.Sadullaev	The role of integrated educational technologies in the professional development of future teachers	279
M.X.Алиева	Методика обучения медиаобразования и цифровых технологии во всех направлениях образования	283

IV SHO'BA

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA FAN – TA'LIM - ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH ASOSIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH IMKONIYATLARI

J.Q.Raximov	Professional ta'limda pedagoglarning ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishda tizimli yondashuvlar	287
N.R.Rashidova	Professional ta'lim pedagog kadrlarining kasbiy	

	faoliyatida liderlik kompetentligini gender yondashuv asosida rivojlantirish	289
A.S.Murtazoyev	Professional ta'lim tizimini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish	292
F.F.Ro'ziyeva	Xulqida nuqsoni bo'lgan yoshlarni professional ta'limga jalb qilishning nazariy asoslari	294
O.E.Azizov	Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini badiiy asarlar orqali rivojlantirish	296
D.M.Ruziyeva, S.X.Yunusova	Tikuvchilik sirlari va uning zamonaviy yo'nalishlari	301
D.M.Ruziyeva, S.M. Luqmonova	Applikatsiya kompozitsiyasi tayyorlashning noan'anaviy usullari	303
S.J.Bazarova, F.X.Baychayev	Amaliy mashg'ulotlarda ishlab chiqarishga oid masalalar yechish	306